TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MULLANAFAS

93

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MULLANAFAS

93

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)
M 85

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Bahodir Karim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-0-3

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

ISHQ MULKINING SULTONI

XIX asr turkman mumtoz adabiyotida Mullanafas ijodi alohida o'rin egallaydi. Sevgi lirikasining otashin kuychisi sifatida tanilgan Mullanafas she'rlari, mana, ikki asrki, tillardan tushmasdan, qalblardan mustahkam o'rin olib kelayotir.

Uning ijodida sharq she'riyatining betakror an'analari, serjilo badiiy tasvir vositalari ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Zero, uning o'zi ham "Ko'nglim" sarlavhali she'rida:

Nizomiy, Navoiy yana Firdavsiy,
Rumiyning gulshani, hindi tovusi.
Yolg'onchi dunyodan o'tarman osiy,
Sizga ko'p izzatlar qo'ygandir ko'nglim, —

deya e'tirof qilishi bejiz emas.

Mullanafas turkman mumtoz she'riyatida sevgi lirikasini baland pardalarda tarannum qilgan mohir so'z san'atkoridir.

* * *

Nafas Qodirberdi o'g'li (Mullanafas) 1810-yilda Turkmanistonning Saraxt tumanida tug'ilgan. U keyinchalik oilasi bilan Mariga ko'chib ketgan. Otasi mulla Qodirberdi zamonasining o'qimishli kishilaridan bo'lgan.

Mulla Qodirberdining Og'ajon, O'dakberdi, Haqberdi, Mullanafas ismli to'rt o'g'li bo'lib, Mullanafas ularning eng kenjasi hisoblanadi.

Mullanafas qishloq maktabini bitkazgach, Mari va Buxoro shaharlaridagi madrasalarda ta'lim oladi. U Buxoroda uzoq muddat yashaganligini o'zining "Rahm qilmaysanmi holimga" she'rida shunday ifodalaydi:

Sayron etib kezdim necha kent bilan,
Xabarin olmisham Xazorant bilan.
Kezdim Buxor shahrin Samarqand bilan,
Tushmish ovozasi jumla jahonga.

Mullanafas yoshligida ko'ngil bergan qizi Bo'stontoj bilan oila quradi va ahil-inoq yashashadi. Ulardan ikki nafar o'g'il bo'lib (Muhammadrahim, Rasul), ikkalasi ham Buxoro va Xiva madrasalarida o'qiganliklari, otasi kabi badiiy ijod bilan qiziqqanliklari haqida ma'lumotlar bor.

Mullanafas she'r yozishni juda yoshligidan boshlagan. U dutor chalishni ham o'rganib, o'zi yozgan she'rlarini qo'shiq qilib kuylab yurgan. Shoir ijodining kamol topishida Sharq mumtoz she'riyati namoyandalari alohida ahamiyat kasb etganidek, u o'z zamondoshlari ijodidan ham ko'p narsa o'rganganligi ma'lum. U, ayniqsa, o'zidan ancha yosh katta bo'lgan atoqli turkman shoiri Mamatvali Kamina bilan qizg'in ijodiy muloqatda bo'lganligi ibratlidir. Mullanafas zamondoshi Kamina shaxsi va ijodiga cheksiz hurmat qo'ygan hamda uni ustozi deb hisoblagan.

Mullanafas zamonasining dunyoviy ilmlaridan boxabar, dunyoqarashi keng inson sifatida tanilgan. Shoirning she'rlarida ayrim mamlakatlar, xalqlar nomlari, ularga xos bo'lgan atamalar tez-tez tilga olinadi. Qolaversa, Mullanafas uzoq-yaqindagi ko'pgina qishloq va shaharlarni aylanib, odamlarning turmushi, orzu-istaklari bilan ham tanishganligi she'rlarida ko'rinib turadi. Uning jahonning ko'p davlatlaridan boxabar ekanligi, Sharq mamlakatlarini yaxshi bilganligini "Orzu aylar" she'ridagi:

Bundan borsam Hindistonga,
Ko'zim tutsam Dog'istonga,
Shahri Bulg'or, Rumistonga
Oshsam debon orzu aylar

Hamda "Topilmas" she'ridagi

Arablar elini sayr etsang har yon,
Topilmas sen kabi bir mohi tobon.

Sheroz-u Shirvonni kezarsan chandon,
Falak mahraninda ham Makka, Kan'on.
Shom-Shirin shahrinda cho'x Arabiston,
Ham O'rus, Armani, Rum, Farangiston,
Farangistonini ko'zlasang yakson,
Ko'rk sohibi Gurjistonda topilmas, —

misralari tasdiqlaydi.

Mullanafas sevgi, axloq mavzularida "Beri kel", "Hayrona qolar", "Nazar qilsa", "Tishlaringga", "Sevgilim", "Go'zal kelin", "Istabki go'zal yorni" kabi o'nlarcha ajoyib she'rlari, g'azal va muxammaslari, xalq og'zaki ijodi yo'lida yozilgan "Zuhra va Tohir" dostoni bilan ham mashhur bo'lgan shoirdir.

Mullanafas har doim el-xalqi dardi, tashvishi bilan yashagan. Ularning quvonchiga sherik, g'amiga hamdard bo'lgan.

1861-yilda Hamza Mirzo rahbarligida Eron shohining qo'shini Mari turkmanlarining ustiga hujum qiladi. Mullanafas ham o'shanda o'z eldoshlari bilan birga qo'liga qurol olib, Vatan himoyasiga otlanadi. Urush mariliklar g'alabasi bilan tugaydi. Biroq urushda Mullanafas og'ir jarohatlanadi. U 1862-yilda vafot etadi.

* * *

Turkman mumtoz shoiri Mullanafas o'zbek xalqi uchun ham aziz va ardoqli qalam sohibidir. Uning ajoyib qo'shiqlari o'tgan asrning o'rtalaridanoq O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov repertuari orqali o'zbek tomoshabinlari shuuriga singib ketgan. So'ngra atoqli san'atkorlar Otajon Xudoyshukurov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov, Rahmatjon Qurbonov, Og'abek Sobirov, Karimboy Rahmonov, Murodbek Qilichev va boshqalarning Mullanafas qo'shiqlarini sevib, maroq bilan ijro qilishi minglab tomoshabinlarning qalbidan mustahkam o'rin olgan.

Ha, haqiqiy ijodkorlar asarlarining umri boqiy bo'ladi!

Olim To'rayev,
adabiyotshunos

ISTABKI GO'ZAL YORNI

Istabki go'zal yorni, ko'rdimki salomatdir,
Bosh qo'ydim oyog'iga, "Tur!" — dedi, — ne holatdir?",
Turdim; dedim: "Arzim bor", — "Arz ayla, adolatdir!".
Dedim: "Senga oshiqman", — "Qo'y, — dedi, — na hojatdir?"
Dedim: "Parilar xoni,
Sensiz ne qilay jonni?"
Dedi: "Bu so'zing bizga yolg'onchi hikoyatdir".

Dedim: "Ko'zing o'ldirdi, g'amzangki qilib xasta",
"Shaksiz o'lasan, — dedi, — bir g'ayri Vatan ista".
Dedimki: "O'zim ketsam, ko'nglim senga vobasta!"
Dedi: "Na iloj aylay, sen oshiqi nokasga!"
Dedimki: "Iloj ayla,
Husning menga boj ayla!"
Bir kuldi qo'lin tishlab, dedi: "Na kasofatdir!"

Dedim: "Ne tugundir bu?" Ul: "Zulfi kokilim," — dedi,
Dedim: "Na alifdir bu?" Yor: "Incha belim", — dedi.
Dedim: "Na shakardir bu?" — "Sharbatli tilim" — dedi.
Bir bo'sa talab qildim, "Lozimdir o'lim!" — dedi.
Dedim: "Meni o'ldirgil,
Yo bo'sa muruvvat qil,"
Og'zimga o'qtalib musht, "Qo'y, — dedi, — qabohatdir".

Umidi visol birla uning-la xayrlashdim,
Bir nozik imo qildi, sevinchdan to'lib-toshdim,
Raqiblardan yashirin men unga sirim ochdim.
"Pinhon joyga bor" — dedi, keldiki, quchoqlashdim...
Dedim: "Meni ishqingda
Kuydirmagil, ey jonon!"
Dediki: "Yonib kuymak oshiqlarga odatdir".

Dedimki: “Guli jannat, bir dam suraylik ishrat...”
Dediki: “Sahar bo‘ldi...”, turdi, tiladi ruxsat.
“Ruxsatki beray, — dedim, — oraga tushar furqat”,
Yig‘labki qo‘lim tutdi: “Sen chekma, — dedi, — hasrat”.
Dedim: “Meni o‘ldirar
Bu ayriliq, ey, dildor!”
Dedi: “Senga bu ishrat har kecha ziyofatdir...”.

Qopida kishi qo‘ydi. “Qoshiga boray”, — dedim.
Dediki:”Nedur kasbing?” — “Xizmatda turay”, — dedim.
Dediki: “Keltir muzding” — “Jonimni beray”, — dedim.
Dedi: “Bu ne devona?”
Dedim: “Senga parvona”.
Dedi: “Senga ko‘rmak yo‘q, jon tanda omonatdir”.

Dedimki: “Mening ko‘nglim olmasmisan ey, zolim?”.
Dediki: “Ne ahmoqsan, xalq derki senga olim?”.
Dedim: “Ne gunohim bor, degil nedir ahmolim?”.
Dedi: “Nihoni sirrim xalq ichra qilib ma’lum”.
Dedimki: “Gunohkoram, mehnatga giriftoram”.
Dedi menga ul yorim: “Mehnat so‘ngi rohatdir”,

“Nedanki ko‘zing yoshi giryon boradir?”, — dedi.
“Furqatki yomon, — dedim, — “Siynam yaradir”, — dedi.
Bo‘yniga qo‘lim soldim, — “Dushman ko‘radir”, — dedi.
O‘pdimki yonog‘idan: “Baxtim qarodir”, — dedi.
Dedim: “Bu ne koyishdir?”.
Dediki bu: “Bu ne ishdir?”.
Men dedim: “Ajab ishdir”, yor dedi: “Malomatdir”.

Yotganda guli gulshan, bir kecha kelibdirman,
Turdimki, quloq soldim, uyquda yotib erkan.
Bordimki, yuzin ochdim, uyg‘ondi g‘azab birlan,
“Kimsan?” — dedi. Dedim: “Men”. Dediki: “Nafasmisan?”.
Dediki: “Kelibsan xush,
Xushvaqt bo‘lursan”, — dedi.
“Oshiq ila ma’shuqdan bir-biriga xushomaddir”.

JON O'RTANUR

Sollanib o'tsang qoshimdan, jism aro jon o'rtanur,
Halqa-halqa kofiri — zulfidan imon o'rtanur.
Dur ul tishingning rashkidin la'li zarafshon o'rtanur,
Jilva-la qilsang tabassum, g'unchayi xandon o'rtanur,
Lablaringning sharbatidin obi hayvon o'rtanur.

Sen qilarsan gohi noz-u, gohi lutf-u, goh g'azab,
Shukur Allohga, sening vasling menga erdi talab,
Tiyri mujgoning oldida barcha jonlar tortdi saf,
Bag'rima xanjar urib, qonimni to'kding har taraf,
Laxta-laxta bag'rimning pur kosasi qon o'rtanur.

Bas aylar kun shu'lasin xurshidi tobon ko'zlaring,
Talx aylar qand-u asalni shakariston so'zlaring,
Lol etar bulbullarni to'ti kabi ovozlaring,
Dini imonim yondirur ikki kofir ko'zlaring,
Dod, ikki kofir qo'lida bir musulmon o'rtanur.

Lutfini oshiqlarga har dam faravon aylasang,
Qaddingni qolip qilib, jon ichra jonon aylasang,
Toki o'zing bazm aylab, bir kecha mehmon aylasang,
Ul sabo Raxshin minib, chun azmi javlon aylasang,
Yuz meningdek oshiqi sargashta hayron o'rtanur.

Der Nafas, dunyo ko'rib, ishqingda kuydim almudom,
Barchaga dardim ayondur, fahm etarlar xos avom,
Vasol aro dam kuyib, qon yig'lamoqdir subhi shom,
Shu'layin — husni chirog'ingga kuyar erdim tamom,
Rasm etar shomgi o'tga, albatta, parvon o'rtanur.

KO‘ZLARING

Qarashlaring jismimni kuydirdi, ey jon, ko‘zlaring,
Yo‘q-yo‘q, yolg‘on dedim, yuz dardga darmon ko‘zlaring!

Ko‘rgan aytar: nargisi tog‘lar chekilmish ko‘ksiga,
Tog‘ emasdur, ko‘nglim ichra bo‘ldi mehmon ko‘zlaring.

Boqmayin desam yuzingga, qatlimga bo‘lgay sabab,
Vohki, boqsang, jon olg‘usi, mohi tobon ko‘zlaring.

Xanda qilsang lablaring yuz ming o‘likni tiriltar,
Bir nazarda ming tirikni qildi bejon, ko‘zlaring.

Yilda bir qurbon etarlar ahli olam iyd uchun,
Bir boqishda mingni qurbon qildi, jonon, ko‘zlaring.

Ko‘zlashmay ag‘yor ila, men telbaga qilmish nazar,
Bas, mening kuygan tanimga qoldi hayron ko‘zlaring.

Aql-u hushimni jam aylab, ishqidan chekdim oyoq,
Bu Nafas holin yana qildi parishon ko‘zlaring.

GO‘ZALIM

Go‘zallar ichra tanho mashhuri maston go‘zalim,
Yondim, kuydim ishqingda, o‘rtandi jon, go‘zalim.
O‘n to‘rt kunlik to‘lin oy — mohitobon go‘zalim,
Ko‘rdim guldek jamoling, aqlim hayron, go‘zalim.
Ko‘rmaganlar ko‘yingda qilar armon, go‘zalim,
Qizlar bilan bog‘larda etsang sayron, go‘zalim.
Sarv senga salomda, boqsang har yon, go‘zalim,
Yolg‘onchini yondir sen, o‘shal zamon, go‘zalim.
Go‘zallarning malagi, shohi jahon, go‘zalim,
Mudom sening ishqingda men sargardon, go‘zalim.

Parilarga bosh bo‘lib, goh sayrga chiqarsan,
Oltin, kumush, zabarjad gul bo‘yningga taqarsan,
Qoshga o‘sma, ko‘zlarga qora surma tortarsan,
Humo qushdek tovlanib, har tarafga boqarsan,
Tovus kabi taranib, zulfing yuzga to‘karsan.
Nargis ko‘zing kuldirib, qalam qoshing qoqarsan,
Ko‘z uchida bir boqsang, Rustam Zolni yiqarsan,
Nazar qilsang bir soat, tog‘-u toshni yoqarsan,
Odam derlar surating, nurdan bo‘lgan paykarsan,
To‘ti guftor, gul yuzli, shakariston, go‘zalim.

Alvon-alvon yasanib, kiyinmish yashil-la’li,
Ul surating ko‘rganlar bo‘lur devona-dali,
Gul yuzingda jam o‘lmish ikki qoshi hiloli,
Bir-biriga jilvali ikki tovus misoli,
Ajab naqqoshi nigor oq yuzda hindu xoli,
Ol yonoqqa to‘kilmish zulfing bir xun baholi,
Zulfing har bir toriga tegmas bu dunyo moli,
Hijroningda o‘rtandim, uzoq qilding visoli,

O‘lar zavoli senga, oshiqlaring vafoli,
Kunda yuz bor qilursan yuz nohaq qon, go‘zalim.

“Mim” muborak yuzlaring misli mohi tobondir,
Ikki egri qoshlaring ko‘rgan kishi hayrondir.
“Lom-alif”ga qo‘l bergan, besh kun dunyo davrondir,
“Be” bahorning kelgani, qo‘yning lola-rayhondir.
“Sin” sen bilan bahslashgan nechuk ahmoq jonondir,
“Dol” davomat hajringda ishim oh-u fig‘ondir.
Alif qaddim losh qilgan hasrat ila hijrondir,
Kuydim , “Nun”dek xam qilgan o‘shal qoshi kamondir.
Bergil husning zakotin, ko‘rking yuzda mehmondir.
Nafas der, ey sevgilim, bog‘-u bo‘ston, go‘zalim.

ZORI BILAN

To‘ti takallum bir pari
So‘zlar shakar zori bilan.
Shunqor qushim band aylamish,
Har zulfining tori bilan.

Ko‘rinsa yorning gul yuzi,
O‘ltirsa kecha-kunduzi,
Yor kelsa tanho bir o‘zi,
Kelmasa ag‘yori bilan.

Mushkin sochin aylab tugun,
Holimni qilmishdir zabun,
Roziman o‘ldirsa bugun
Qo‘ynidagi nori bilan.

Vah-vah, ajoyib siym-u tan,
Uldir meni majnun qilgan.
Bahslashur oppoq badan
Qirq chillaning qori bilan.

Har kimni ham rom aylaydi,
Subhin aning shom aylaydi,
Kofirni islom aylaydi,
Izhori guftori bilan.

Gohi niholdek chirmashib,
Goh o‘pishib, goh quchishib,
Mullanafas der, yondashib
O‘ltirsa o‘z yori bilan.

YOY ENDI

Visolingdan g'amgin ko'nglim ochildi,
Furqatingdan alif qaddim yoy endi.
Yuzing nuri olam aro sochildi,
Hargiz chiqmas o'zing kabi oy endi.

Mushtoqdir ro'yingga bu dunyo foniy,
Izingda gadodir xonlarning xoni,
Sayr aylabon o'n sakkiz ming jahonni,
Hech topmadim bir zulfingga toy endi.

Tong nasimi zulfing parishon aylar,
G'amzang o'qi yurak-bag'rim qon aylar,
Ko'rsa bizni shum raqiblar tang aylar,
Qiz, aylagin o'z bag'ringda joy endi.

Sendan o'zga yorni ko'zim ko'rmasin,
Sensiz zavqin Alloh menga bermasin,
Sen bo'lmasang dunyo bir zum turmasin,
Kulib ko'kka uchsa, demam "voy" endi.

Nafas der, bir yorga belim bog'larman,
Orifmanki, do'st-dushmanni anglarman,
O'lgunimcha Durdixon deb yig'larman,
Ko'zlarimdan to'lib oqsin soy endi.

NOZLI YOR

Qora soching tunga yo‘yib uxlabman,
Kunduz ekan, ko‘p armonim, nozli yor!
Sabo — sahar vaqti debon chog‘labman,
Ko‘zim ochsam, armon ekan, nozli yor!

Kel, ko‘rishsang mo‘jizakor qo‘lingdan,
Aylanayin dahaningdan, tilingdan,
Ayb etmagin qo‘lim solsam belingdan,
Otashgohi, so‘zanimsan, nozli yor!

Ta’rifin eshitdim qora ko‘zingning,
Gadosiman, jonim, kular yuzingning,
Zabondan ayrilgan har bir so‘zingning
Qurboniman — fidosiman, nozli yor!

Nafas der, ishqim haddan oshibdir,
Tomoshangga ulus — ellar shoshibdir,
Ko‘zim ochsam oyim-kunim botibdir,
Zindon bo‘ldi keng jahonim, nozli yor!

YOR, UYG‘ONMADING

Yo‘lim tushdi, keldim sening yoningga,
“Yor, uyg‘ongil!” — dedim, sen uyg‘onmading.
Itlar faryod aylab oh-u zorimga,
Yotganlar uyg‘ondi, sen uyg‘onmading.

Tong saharda esar subh shamoli,
Men bulbulman, ko‘nglimda yor jamoli.
Tengqurlarim aytdi: nedir xayoli,
Sirim fosh aylading, yor, uyg‘onmading.

Kecha qorong‘udir, nigohim yetmas,
Xayolim parishon, hech qo‘nim etmas.
Yaxshidan-yomondan yor sado bermas,
Qulog‘ing karmidi, yor, uyg‘onmading?

Bir qush kelib qo‘ndi tuynuk ustiga,
Nigohin tashladi oq uy ostiga.
Qanot yozib ketdi olam pastiga,
Yotgan qush uyg‘ondi, yor, uyg‘onmading.

Huzuringga keldim, ko‘ray deb yuzing,
Xastaman, eshitsam bir shirin so‘zing.
Dunyoga bermagum, yor, qora ko‘zing,
Ko‘zlarim ko‘r bo‘ldi, yor, uyg‘onmading.

Chertib, yellar o‘ynar zulfin eshiging,
So‘ndirmish men faqirning qalbida ishqin.
Ma’shuq endi yodga solmas oshig‘in,
Men kutdim intizor, yor, uyg‘onmading.

Tong yulduzi chiqdi, jahon yorishdi,
Men faqir xayoli boshimdan uchdi.
Yorni uyg‘otmoqqa tong yeli shoshdi,
Shabboda uyg‘ondi, yor, uyg‘onmading.

Na bo‘ldi holingga, buncha yotasan?
O‘ylar girdobiga cho‘mib — botasan.
Sevgilingni yovuz dardga sotasan,
Yusufdek ketarman, yor, uyg‘onmading.

Oshiq desam, kimga qulog‘in qo‘yar,
Yashirsam sirimni el-ulus tuyar.
Ey Xudo, yor qachon uyquga to‘yar?
Ins-u jins to‘ygandir, yor, uyg‘onmading.

Nafasing der, endi ketarman bundan,
Tong shamoli o‘tar bu yupun to‘ndan.
Endi ko‘ngil uzdim, yor, men ham sendan,
Uzun kecha o‘tdi, yor, uyg‘onmading.

BAXMALNING CHETI

Qorong‘u oqshomda qo‘limni cho‘zdim,
Qo‘limga ilashdi baxmalning cheti.
Sinchiklab qaradim, uyalib ketdim,
Boshdan hushim oldi baxmalning cheti.

Yorim turar qora zulfin taranib,
So‘ngra boshga ro‘molini o‘ranib,
Ishva birla baxmaliga burkanib,
Dilga g‘ulu soldi baxmalning cheti.

Qirrasiga kalomulla yozilgan,
Siym-u zardan ko‘p-ko‘p naqsh chizilgan,
Yoqasiga dur-u gavhar tizilgan,
Hindistondan keldi baxmalning cheti.

Burkanibon chiqsang, kulli jahona,
Sen bo‘larsan ko‘p ajalga bahona.
Ta’rifing sig‘maydi she’r-u dostona,
Rumda sayil qildi baxmalning cheti.

Kechalar ayrilar sening boshingdan,
“Olarman” deb falak kelar qoshingga.
Ko‘plarni ayirdi aql-u hushindan,
Bu jahonga yetdi baxmalning cheti.

Nafas ta’rif aylar xirqapo‘shasin,
Naylay, uchiribmish ul olg‘ir qushin,
Mendan o‘zgalar ham qilar tashvishin,
Olamga o‘t soldi baxmalning cheti.

UL ILON

Qora ko‘zlar oshiqlarning quvonchi,
So‘zlaringdir xasta jonning tayanchi.
Ikki shomor saqlab yotar bir ganjni,
Ganj ustida halqalangan ul ilon.

Men senga oshiqlik libosin soldim,
Yillarki, yo‘lingda sarg‘ayib so‘ldim.
Majnundek jismimni o‘tlarga soldim,
Siynalarim ko‘z-ko‘z qilgan ul ilon.

Qora ko‘zing jon olmoqlik qasdida,
Bulbul makon tutmish gulning ustida.
Bir juft ilon yotar ko‘ksing ustida,
Siynalarim ko‘z-ko‘z qilgan ul ilon.

Goho ro‘molini boshiga o‘rab,
Goho tarog‘ida zulflarin tarab,
Oshig‘iga jilvalanib bir qarab,
Siynalarim ko‘z-ko‘z qilgan ul ilon.

Nafas deydi, ishim oh-u zor bilan,
Ishlashsang bir tavakkal mard bilan,
Jon og‘alar, bir mashaqqat dard bilan,
Siynalarim ko‘z-ko‘z qilgan ul ilon.

FIROG‘INGDAN

(Shirmoyi taroq)

Dilbar, yozarman vasfing,
Yondimki firog‘ingdan.
Men tashnani bir qondir,
May berib dudog‘ingdan.

Yor qomati paykardir,
Ruxsori aning zardir.
Olamki munavvardir,
Ko‘ksidagi oqidan.

Furqat eshigin yopsam,
Bir ajib visol topsam,
Gohi yuzidan o‘psam,
Goh olma yonog‘idan.

Bog‘larga qilsam sayron,
Aqlimni qilib hayron,
Zulfingni bo‘lib har yon,
Shirmoyi tarog‘ingdan.

Ishqingda kuygan gulman,
O‘zgaga nazar solmam.
Tar g‘unchada bulbulman,
Yor, quvmagil bog‘ingdan.

Chin oshiq mastonaman,
La’l mayingdan qonaman.
Boshginang qurboniman,
Ham qoshi qabog‘ingdan.

Mastona Nafas har dam,
O‘ziga tilar hamdam.
Gardi yuzimga malham,
Gar chiqsa oyog‘ingdan.

KETDIM

Qora ko‘zing, qalam qoshing
Tiyrdir deya qochib ketdim.
Yarqirashin qora soching
Mordir deya uchdim-ketdim.

Oshiq bo‘lib, el kezmagan,
Labni bilmas, qand ezmagan,
Tong-saharlar hech to‘zmagan,
Guldek yuzing ochib ketdim.

Bulbul sevar bog‘lar gulin,
Ma’shuq tarar ul sunbulin.
Tura bilmay, yorning belin
Astagina quchib ketdim.

Yotganida u yastanib,
Ipak-baxmalga suyanib,
Eshigin ochdim qistanib,
Rahmat nurin sochib ketdim.

Rayhon ko‘ngli xushdir yozdan,
Ko‘l to‘lug‘dir o‘rdak-g‘ozdan.
Ming juvondan, ancha qizdan
Tanlab, ko‘nglim ochdim ketdim.

Durlar sochar yor dahondan,
Ming hunar kelar zabondan.
Nafas deydi, bu jahondan
Yorni tashlab, ko‘chib ketdim.

SHOHIDIR

Oshiq yig‘lab, orzu aylab,
O‘z yorining gadosidir.
Ishq yukini dilga joylab.
Yoy — qoshining fidosidir.

Bu jahonga kelsa olim,
Xalqqa aytar ancha ilm.
Oshiqlarga qilsang zulm,
Bir do‘stining fidosidir.

Ilonning sochgan zahrida,
Buyuk ajdaho qahrida,
Yor surati jon shahrida,
Odam o‘lsa, gunohidir.

Endi ortadir ozorim,
Yiroqqa yetmas nazarim.
Nafas deydi, mening yorim,
Qiz-juvonlarning shohidir.

QURBONIMAN

Qora zulfing jilosining,
Go'zal yorim, hayroniman.
Shabbodada jilvasining
Maftuniman, qurboniman.

Kelding bizga yo'llar boshlab,
Tabassum-la nazar tashlab.
Zulfing o'lcharman qulochlab,
Kular yuzing qurboniman.

Uyg'onibsan yarim kecha,
Zulfing tog'lar mori — incha.
Qo'sha noring, ko'ksing ichra
Kirib, bo'lay bog'boni men.

Falak kelar, esib yeli,
G'arq aylabon ko'zda seli,
Do'stlar, yorim ul sunbuli —
Mordir, uning qurboniman.

Falak qo'ymas boyitmoqqa,
Tilim aylanmas aytmoqqa,
Ko'zim qiymas uyg'otmoqqa,
Jismi ichra jononiman.

Kelar yorim oltin taqib,
Oshiqlarning jonin yoqib.
Uyga kirib, har yon boqib,
Qilgan ishning omoniman.

Mendan o‘zga sevgan ko‘pdir,
Yolg‘on emas, so‘zim haqdir.
Ol yonoqdan terlar oqtir,
Qora zulfing xumoriman.

Yigit kelar charxin qurib,
Asbobiga pardoz berib.
Ko‘zin qisar, yuzin ko‘rib,
Osmondagi toboniman.

Ko‘p yig‘larman, yorim bilmas,
Nasib aylab, kulib kelmas.
G‘arib dilga ko‘ngil bermas,
Bilsa, parilar joniman.

Oh, Nafas, sen yo‘qsil, gado,
Ul yoringdan bo‘lding judo.
Nohaq joning qilding fido,
Bechoralar armoniman.

TISHLARINGGA

Dur daryodan chiqa olmas,
Nazar qilsa tishlaringga.
Do‘zax meni yoqa olmas,
Yonibman otashlaringga.

“Layli, Shirin sendan go‘zal”,
Desalar-da, sen mukammal.
Alifdayin qomatim dol,
Sajda aylab qoshlaringga.

Bu dunyo ham ro‘zi mahshar,
Xayr etsang — xayr,
shar etsang — shar.
Ko‘kdan rahmat yerga tushar,
Tegib qora sochlaringga.

Ko‘p sig‘inarman o‘zingga,
Yetarman shirin so‘zingga.
Musharraf ayla yozingga,
Duchor qilma qishlaringga.

Vasling yo‘li emas ravon,
Erishmakka bo‘lg‘ay imkon.
Aqlim lol-u yurak hayron,
San’atingga, ishlaringga.

Nafas deydi, chekar zoring,
Mudom orzusi diydoring.
Jonim fido, sen dildorning
Yuzim surtsam toshlaringga.

YOR BIR YONA, BIZ BIR YONA

Tiyri paykomin yashirar,
Qosh bir yona, ko‘z bir yona.
Dahonin ochibon so‘zlar,
Til bir yona, so‘z bir yona.

Xazon ayrilmas gulimdan,
Bir g‘azal yozdim tilimdan.
Yashilbosh uchdi ko‘limdan,
Suv bir yona, g‘oz bir yona.

Sevgilim ko‘zimdan uchdi,
Borib, raqiblara tushdi.
Bir sabab-la ayrilishdi,
Yor bir yona, biz bir yona.

Bezanib jonim olarlar,
Ko‘rganlar hayron qolarlar.
Yasanishib sallonarlar,
Juvon bir yon, qiz bir yona.

Quloq soling ushbu zora,
So‘zlasin Nafas bechora.
Tildi bag‘rimni ming pora,
Tig‘ bir yona, tuz bir yona.

QIZ-JUVON AYTISHUVI

Bir qiz bilan bahs aylayur bir juvon,
Juvon aytar: "Husnim Eram bog'idir,
Oshiq ahli tersam deydi tar gulim,
Oshiq bo'lgan bir-biriga yog'iydir".

Qiz ham aytar: "Yuzim xurshidi hovar,
Husnim muhtojidir mohi munavvar.
Uzundir bo'ylarim sarvi sanobar,
Yoshim o'n to'rt, xo'b mastona chog'idir".

Juvon aytar: "Mening suhbatim shirin,
Anda yigitlarning ko'zi yashirin.
Ishva birla boqsam, ko'zimning qiri,
Ko'rgan oshiqlarning aqlin dog'idir".

Qiz ham aytar: "Olam yoqar nozlarim,
Yopiq g'uncha yanglig' bo'lsam o'zlarim,
Gar endi ochilsa, bahor-yozlarim,
Bog'larning sunbuli zulfim dog'idir".

Juvon der: "Bezansam ming turlik alvon,
Ko'rmoqqa ojizdir xurshidi tobon,
Oshiq siynasinda yaradir chandon,
Nargis ko'zlarimning qo'ygan dog'idir".

Qiz ham aytar: "Juvon, menga toy degil,
Bag'rim bir jannatdir, o'zga joy degil,
Misli yangi chiqqan hilol oy degil,
Yoqamdan ko'ringan ko'ksim oqidir".

“Kel, qiz, bahs etma, kulgan omadim,
Ne-ne mard joniga o‘tlar solmadim.
Bir tup gulga monand qaddi-qomatim,
Lablarim ochilgan gul yaprog‘idir”.

Qiz ham dedi: “Husnim olam payvandi,
Olinmish juvonning qal’asi, kanti,
Oboddir shahrimning muftahi — bandi,
Siynam ko‘p orzumand shohlar bog‘idir”.

Juvon aytar: “Endi hayron bo‘libman,
Sening bu so‘zingga qoyil qolibman,
Yuz tuman olibman, o‘zim sotibman,
G‘o‘ch yigitning sayron etgan chog‘idir”.

Nafas deydi, bizga barobar bari,
Sardan chiqmas qiz-juvonlar xumori,
Ikkingiz ham yangi bog‘ning gulzori,
Bog‘larning ochilgan gul butog‘idir.

HAYRONA QOLAR

Bog‘ ichiga xirom aylab kirganda,
Bulbullar sayramas, hayrona qolar.
Sayr qilib, chamanzorda yurganda,
Qanotdan ayrilar, parvona qolar.

Oy nurdan ayrilar, kun ko‘kdan uchib,
Yulduzlar beqaror, chor taraf ko‘chib,
Soqiy may keltirar, eranlar ichib,
Ular oh tortarlar, zamona qolar.

Shohlar beoromdir, orzuda kezar,
O‘lik baliq ko‘rsa, jon berar, suzar,
Qo‘li bog‘liq qullar zanjirin uzar,
So‘ylamas yuzlashsa, devona qolar.

Bir qiymirsa, qari-qartang shodlanib,
O‘tgan kunlar, yigit chog‘lar yodlanib,
Maysalar sarg‘ayib, daraxt o‘tlanib,
Osmon junbush aylab, larzona kelar.

Nafas, ta’riflading yorning jamolin,
Shabboda ko‘tardi yuzdan ro‘molin.
Haq bermish azaldan unga iqbolin,
Shohlar ko‘rsam deya, armona qolar.

GULISTONIMA

Keldi qalam qoshli qiz,
Jilva qilib yonima;
Kipriklari tig‘ma-tig‘,
O‘tar mening jonima.

Men dedimki: “Ro‘yi gul,
Xizmatingda banda qul,
Qahring qo‘y-da, sabr qil,
Tashna bo‘lsang qonima.

Men dedimki: “Jon talosh,
Diydam to‘kar qonli yosh,
Boqmading-ku, bag‘ritosh,
Holi parishonima”.

Bir shaydo bulbul bo‘lsam,
Yona-yona kul bo‘lsam,
Bir kecha mehmon bo‘lsam,
Toza gulistonima.

DILBAR-O

Tong saharlar nazar aylab yo'l bilan,
Kelmadi deb yig'lamagil, dilbar-o.
Ol yonoqning sharbatidan til bilan
Totmadi deb yig'lamagil, dilbar-o.

Olam nurlanadi, kulsang tishingdan,
Mayin yellar esar silab boshingdan,
O'q to'ldirib, yoy Isfaxon qoshingdan
Otmadi deb yig'lamagil, dilbar-o.

Bog'ga kirib, novcha rayhoning yulib,
Men qolarman sening ishqingda so'lib,
Tortib nasibalar, ul bunda bo'lib,
Yotmadi deb yig'lamagil, dilbar-o.

Yulduz tog'dan jo'shqin sirim oshirib,
Seni Alloh, o'zim Haqqa topshirib,
Xinoli qo'llarni qo'lim qovshirib,
Qismadi deb yig'lamagil, dilbar-o.

Ishq o'tini jigar ichra qaynatib,
G'irot minib, tog' boshida o'ynatib,
Bir nozik ishora, ko'zin yayratib,
Qilmadi deb yig'lamagil, dilbar-o.

O'tiribsan, bizni ko'rib, uyalib,
Ko'z yoshimdan rangi-ro'yim bo'yalib,
Nozik badan, incha belga qo'l solib,
Quchmadi deb yig'lamagil, dilbar-o.

Majnun kabi Qof tog‘ida savashib,
Qancha baland-baland tog‘lardan oshib,
Mening birla bugun haq yo‘lga tushib,
Ketmadi deb yig‘lamagil, dilbar-o.

Shohlar kelar, qo‘shinlarini tortib,
Nomard kezar mudom ustini yopib,
Gul yuzingga tushgan baxmaling tortib.
O‘pmadi deb yig‘lamagil, dilbar-o.

Nafas deydi, haq eshitsa so‘zimni,
Ka’ba sari tutsam ikki ko‘zimni,
Uyalibdir, o‘girmadi yuzimni,
Boqmadi deb yig‘lamagil, dilbar-o.

DILBARIM

Qaro ko'zing qabog'ining chetidan,
Falak turib qasd aylamish, dilbarim.
Ali sakrab tushib duldul otidan,
Salom berib turmish senga, dilbarim.

Eron shohi orzu aylar ro'yingni,
Ko'rsam debon qarchig'ayday bo'yingni.
Ko'z ustiga tortib qo'ygan yoyingni,
Otsam debon lashkar surar, dilbarim.

Borlig'imni oldi mening qo'limdan,
Falak meni adashtirdi yo'limdan.
Dudog'ingda ezib qo'ygan bolingdan,
Totsam debon g'ofil erur, dilbarim.

Ajib hisda guldek yuzing ocharman,
Aqlim hayron bo'lib, o'zdan qocharman.
Parvonadek, yor, tegrangda ucharman,
Holdan toydim ucha-ucha, dilbarim.

Kecha uzoq, davron keldi boshingga,
Aylanarman, yorim, sening qoshingga.
Erkalatib guldek yuzing ocharman,
Nayzalaring sanchdi sening, dilbarim.

Oy yorug'dir nuri tushar yuzingga,
Qaro qoshlar xo'b yarashar ko'zingga.
Tura bilmam, yorim, qarab o'zingga,
Xayolim boshimdan uchdi, dilbarim.

Sen qimirlab og‘ir yuking tushirding,
Avval yongan jonim yana pishirding.
Yangi tug‘gan oyim yana yashirding,
Endi uni ko‘rmoq yo‘qdir, dilbarim.

Uxladingmi debon tutdim noringdan,
Bir seskanib, sapchib turding o‘rningdan.
Jonim chiqib ketdi go‘yo sarimdan,
Qarashingdan qo‘rqib sening, dilbarim.

Tong oqarar, uzun kecham hech bo‘ldi,
Kunduz qilgan xayollarim puch bo‘ldi.
Yotirmading debon yorim boj oldi,
Yuz ming bojdan qochgum yo‘qdir, dilbarim.

Ustingdagi ola ko‘rpa otilib,
Uyumasmi sut ishqorga qotilib?
G‘azab ila, dardli ko‘ksimni tilib,
“Ketgil!” debon qahr qilding, dilbarim.

Ilojim yo‘q, men ketarman uyingdan,
Aylanarman, sarvinozim, bo‘yingdan.
Ko‘z ustina xo‘b yarashgan yoyingdan,
Hech paykom otmading, armon, dilbarim.

Nafas aytar, gaplasharman zor bilan,
Uzun kecha ish solishdim xor bilan.
Ey, yoronlar, men ham shu kun yor bilan
Sozlasharman, bu senmiding, dilbarim.

MULLANAFAS

G‘aflat uyqusida qolding,
Uyg‘on endi, Mullanafas!
Goh sarg‘ayib, gohi so‘lding,
Uyg‘on endi, Mullanafas!

Hijronda bag‘ir dog‘lashar,
Seni ko‘rsam deb chog‘lashar,
Sevar yoring ko‘p yig‘lashar,
Uyg‘on endi, Mullanafas!

Bu dunyoga durlar to‘ldi,
Oylar botdi, kunlar qoldi.
Turgil endi, vaqting bo‘ldi,
Uyg‘on endi, Mullanafas!

Bir yor keldi olma-norli,
Bulbul zanaxdon guftorli.
G‘aflat uyqusida zorli,
Qolding, uyg‘on, Mullanafas.

Sen chekibsan ko‘p firoqni,
Bu dunyo emasdir boqiy.
Yaratibdir, hijron o‘qi —
Tegdi, uyg‘on, Mullanafas!

Yod aylagil sevar yorni,
Oq ko‘ksida olma-norni.
Chulg‘anmish ul zulfi torni,
Uyg‘on endi, Mullanafas!

Qaro ko‘zlar, yor, qasdingga,
Baxmal to‘shadi ostingga.
Ola ro‘mol, ol ustingga
Otdi, uyg‘on, Mullanafas!

Yetar erta mahshar kuni,
Qaqshatar jonlarni, tanni.
Yor uyquda debon seni
O‘pdi, uyg‘on, Mullanafas!

Qolibsan sen yurak dog‘lab,
Belingni hijronga bog‘lab.
Ifor olib, ko‘nglin chog‘lab
Sepdi, uyg‘on Mullanafas!

Nafas, kelgin sen hushingga,
Ko‘p g‘alva tushar boshingga.
Usul birla yor qoshingga
Tuzoq qo‘ydi, Mullanafas!

BITGAN QIZ

Bog‘ Eramda, gul-guliston ichinda,
Qudrat ila bir butoqda bitgan qiz.
Madhingni aytarman doston ichinda,
O‘rma soching oq siynangga yetgan qiz.

Sendek go‘zal yo‘qdir yorug‘ jahonda,
Tamomi hur-pari husningga banda.
Laylining sifati bor erur sanda,
Bugun ishqning savdosiga botgan qiz.

Bo‘ying sarvga o‘xshar, chehrang zilolga,
Tishlaring dur-gavhar, lablaring bolga.
Baxti kelib yaxshi-yomon bir qulga,
Qodir o‘zi rizqi-ro‘zin bergan qiz.

Nafas deyar, magar, ayni yoshingda,
Qora popuk oltin qubba boshingda,
Yuzga gulob sepib, o‘sma qoshingda,
Qirmiz kiyib, dildorlikka yetgan qiz.

CHIQA BILMADIM

Umid daryosini qulochlab suzib,
Sohilni ko'zladim, chiqa bilmadim.
Olamni sayr etib — aylanib kezib,
Ne yaxshi-yomonga boqa bilmadim.

Tanladim men seni ulug' ellarda,
Gul yuzli go'zallar, nozik bellarda.
Eram bo'stonida, jannat gullarda
Bulbul bo'lib qanot qoqa bilmadim.

Agar boqsa, kun chehrangdan nur olar,
Niqob tortsa, butun jahon o't bo'lar.
Jilmaysang, xayollar tarqar, yot bo'lar,
Uyalib yuzingga boqa bilmadim.

Ne ajab, go'zalsan, o'zingdek bormi?
So'zlagin, eshitay, yuzlaring normi,
Yo tavba, visoling nokasga yormi...
Ishq o'tiga jonim yoqa bilmadim.

Majnunman, boshimda yo'qdir tashvishlar,
Sezmadim, dunyoda ko'p turfa ishlar.
Olib bozorlardan oltin-kumushlar,
Tumorli ko'ksingga taqa bilmadim.

Ishongin, savdolar ko'pdir boshimda,
O'tirsam, o'ylansam, tursam hushimda.
Oqshomdan tonggacha shirin tushimda,
Ancha havas qildim, yota bilmadim.

Ketmoq bo‘ldim xayolimdan yo‘l solib,
Binoyim yiqildi, tagin sel olib.
Keng bozorga kirib, saylab bol olib,
Seni yog‘dir dedim, qota bilmadim.

Mendan bir o‘zgaga ko‘ngil bersang-da,
Kecha-kunduz yotmay, davron sursang-da,
Nafas aytar, tayoq olib ursang-da,
Parvonaman, sendan keta bilmadim.

XUMORLI

Nozanin qomatli, kular yuzlaring,
Bir nozik niholdir, gulli, samarli.
Pista dudoqlaring, bol og‘izlaring,
Oltin piyoladir qand-u shakarli.

Qo‘llaring ko‘ksingda aylamish makon,
Uzuklar barmoqlar bezagi har on,
Turfa rang kiyinib, urarsan xandon,
Silay gardanlaring, tilla tumorli.

Zulfing o‘xshar o‘rgimchakning to‘riga,
Ko‘ksing o‘xshar qirq chillaning qoriga.
Go‘zallar hayrondir kasb-u koriga,
Bir jodu sehrli, qo‘li hunarli.

Nafas der, goh yig‘lab, gohi kularman,
Gohi ochilarman, gohi so‘larman,
Gohi tirilarman, gohi o‘larman,
Ishqning yo‘li ajib yo‘ldir xumorli.

HECH KO‘RMADIM ELLARDA

Sayr etib kezganda foniy jahonni,
Sendek go‘zal hech ko‘rmadim ellarda.
Ko‘nglim oromgohi, manzil-makonni,
Shaydo qalbim jo‘shmas o‘zga ellarda.

Yurt husningga shaydo, ko‘rmoqqa zorman,
Ishqingda bahorman, ko‘yingda norman.
To o‘lguncha yo‘llaringga qararman,
Rizvon kabi ko‘zim qoldi yo‘llarda.

Sahar sayrga chiqsa, gar yog‘sa sellar,
Hayajondan lol bo‘b qoladi tillar.
Zarafshon qulpog‘i, qora kokillar,
Tarasang yer o‘par, o‘rsang — bellarda.

Nargis qoshing, hilol ko‘zingga qurbon,
Ismingni aytmoqqa dilda yo‘q farmon.
Jonim, ming dardimga o‘zingsan darmon,
Jismim olov ichra, yoshim sellarda.

Mis o‘zin qiyoslar siym-u zar bilan,
Mush barobar bo‘lmish murg‘i par bilan.
Zahar hamroh bo‘lmish bir shakar bilan,
Anvar abr ichinda, gavhar ko‘llarda.

Ol libosda, qiyo-qiyo boqarsan,
Zarafshon zulfingni yerga to‘karsan.
Sayrga chiqsang, oq oh-udek sakrarsan,
Ohu ham sakramas senday, cho‘llarda.

Nafas der, odatdir mavj urib jo‘shmoq,
Oshiqqa xumordir pinhon qarashmoq.
Ham jilva, ham g‘amza, noz-u karashma,
Makon tutmish ko‘z-qoshingda, qo‘llarda.

ORZU QILDIM

Go‘zal yorning gul yuzidan
O‘psam debon orzu qildim.
Ul gavharni yor so‘zidan
Topsam debon orzu qildim.

Boshida ipak ro‘moli,
Qamardan nurli, vafoli.
Ochilmishdir gul jamoli,
Yopsam debon orzu qildim.

Ul yor so‘zlasa suxanvor,
Orzu aylar har sanobar.
Iforiga mushki anbar
Sepsam debon orzu qildim.

Men qaytdim, do‘stlar, qarordan,
Ayrilmoq bo‘lurmi yordan?
Misli anbar — qizil nordan
O‘psam debon orzu qildim.

Andalib qo‘ngandir gulga,
Majnunman, chiqmishman cho‘lga.
Balo insa ko‘kdan yerga,
Tutsam debon orzu qildim.

Eram bog‘i bo‘lar bo‘ston,
Tovusidir ul Hindiston.
Yor ko‘rkini aylab doston,
O‘tsam debon orzu qildim.

Bizning boshdan ketgandir hush,
Yodga tushmas buncha tashvish.
Oq ko‘ksiga oltin-kumush
Taqsam debon orzu qildim.

Bulbul oldim gullar uchun,
Xazinadan qullar uchun.
Yoqut olib ellar uchun,
Sepsam debon orzu qildim.

Chin gulman, qolmasman so‘lib,
Nomim yashar ketsam o‘lib.
Yo‘lim tushsa, mehmon bo‘lib,
Yotsam debon orzu qildim.

Nafas aytar, soz aylabon,
Qish faslini yoz aylabon,
Shul bir yorga noz aylabon,
O‘psam debon orzu qildim.

YODIMGA TUSHDI

Nogahon kezardim guli gulshanda,
Gulgun yonoqlaring yodimga tushdi.
Olma-anoringga ko'zim tushganda,
Olma yonoqlaring yodimga tushdi.

Hajringda chekdim men fig'on-u nola,
Alifdek qomatim mangzadi dola.
Orzu aylab, yeta bilmay visola,
Ayriliq chog'laring yodimga tushdi.

Yuzlaring shamchiroq, qora kokillar,
Sochlaring monandi mordir — sunbullar.
Chamanlar bog'landi, jamlandi gullar,
Boshdan oyoqlaring yodimga tushdi.

Sening hasratingdan sarg'ayib so'ldim,
Jabr-u tiyg'ing birla bag'rimni tildim.
Yuz ming armon birla sendan ayrildim,
Ul kezgan joylaring yodimga tushdi.

Misli to'lin oydek ko'ksingning oqi,
Qonimdan rang olmish dasting bo'yog'i.
Chor taraf tortilmish sarvi butog'i,
Mayin quchoqlaring yodimga tushdi.

Nafas deydi, bag'rim dog'lar ichinda,
Bazm aylasam oq o'tovlar ichinda.
Bodom kamol topmish bog'lar ichinda,
Bodom qaboqlaring yodimga tushdi.

YORGA YETSA

Ilohiydan ilhom olib,
Qo‘lim sevar yorga yetsa.
Bulbul kabi fig‘on aylab,
Ne armon, gulzorga yetsa.

Bahor kelar, o‘tib qishlar,
Bizni zor etmish mahvashlar.
Jabrin tortib jafokashlar,
Ne armon, dildorga yetsa.

Parvoz aylab, qanot qoqib,
Muhabbat urug‘in ekib,
Ko‘zdan qonli yoshlar to‘kib,
Ne armon, dildorga yetsa.

Xumor aylab oh-u ko‘zga,
To‘ti yanglig‘ shirin so‘zga,
Majnun kabi chiqib tuzga,
Laylidek dildorga yetsa.

Biz bo‘libmiz yorning zori,
Muyassar etsa diydori,
Oq ko‘ksi Eram gulzori,
Ne armon, bu zorga yetsa.

Qurildi ishqning bozori,
Yetishsa Haqning nazari,
Miskin Nafasning oh-zori,
Ne armon, ul yorga yetsa.

BERI KEL

Senga tushdi nazarim, sevgili jonon, beri kel,
Sochi mushk hidli ifor, sunbuli rayhon, beri kel.
Gul badan, gulguna rang, to'ni zarafshon, beri kel,
Ol yonoq, kiprigi o'q, olma zanahdon, beri kel,
Joningga sadqa bo'lay, beri kel, ey jon, beri kel!

Kel, o'tir yonimga sen, zavqi jamoling ko'raylik,
Gul yuzing shu'lasida soz ila suhbat quraylik,
Do'stning qadrin bilaylik, dushmanni o'tga uraylik,
Dunyo besh kundir — o'tar, zavqi safolar suraylik,
Bu yolg'on dunyo o'tar, o'tdi-ku davron, beri kel!

Goh kulib, bu yona boqib, noz ila sallonasan,
Gohi qoshginangni qoqib, har taraf tovlanasan,
Olamga shu'la sochgan turfa ajoyib so'nasan,
O'z yuzing shu'lasiga, balki, o'zing ham yonasan,
Yuragim o'tga yoqqan otashi so'zan, beri kel!

Sezmasin ganda raqib, bir yerda pinhon bo'laylik,
Jonni jon ichra qo'shib, bir tan-u bir jon bo'laylik,
Orzumiz ro'yobga chiqib, mashg'uli davron bo'laylik,
So'zlashib bir-birimiz-la ancha qadrdon bo'laylik,
Besh kunlikdir siz bizga, biz sizga mehmon, beri kel!

Lab burib, qosh qoqishib, mahram bo'lib, qo'l tutishib,
Chirmovuqdek chirmashib, yog' ila sutdek qotishib,
O'ynashib, sayr aylashib, oq-qizil olma otishib,
Bir nozik niholdayin bir-birimizga yetishib,
Qilaylik qayg'u g'amni yer ila yakson, beri kel!

Chekarman har kechalarda oh ila zoring, sening,
Mendan o'zga kim tortadir dard-u ozoring, sening,
Bermasman yuz ming tumanga kokili toring, sening,
Oppoq ko'ksingda bitgan olma-yu anoring, sening,
Termasam ko'p qoladir jonimda armon, beri kel!

Parilarning podshohi, mashhuri mastona, go'zal,
Senki bir shamchirog'san-u, menki parvona, go'zal,
Xulqi xush, lafzi shirin, yuzlari nurona, go'zal,
Bag'ri muz, so'zlari uz, tishlari durdona, go'zal,
Labi la'l, kiygani ol, jannati rizvon, beri kel!

Sevgilim, har so'zingga men bu shirin jonni beray,
Har nuqtayi xolingga Eron-u Turonni beray,
Soching tolasiga kofir-u musulmonni beray,
Sayr etib boqishingga Balx-u Badaxshonni beray,
Qilayin bu jahonni senga qurbon, beri kel!

Uyalib yerga boqib, bizdanki ibo qilasan,
Ko'zlabon ko'z qiri-la siynamga o'tlar solasan,
Bir kuni o'ldirasan, oxiri jonim olasan,
Nega rahm qilmaysan, holimni o'zing bilasan,
Der Nafas, ko'nglim olgan toza guliston, beri kel!

KO'RMADIM

Olam ichra sen kabi taxt uzra sulton ko'rmadim,
Ishqing ichra bir meningdek chashmi giryon ko'rmadim,
Qomating bog'i aro sarvi xiromon ko'rmadim,
Men sening ishqing bilan hech yerda davron ko'rmadim,
Kezibon olamni, sendek mohi tobon ko'rmadim.

Har ko'rgan madhing yozar, sultoni sensan xo'blarning
Ko'rganning jonin olarsan, sakratib markablaring,
Xo'p chekilmish qomating, nurdan bitilmish lablaring,
Yuz o'likka jon bergay g'unchayi saqog'laring,
Kezibon olamni, sendek mohi tobon ko'rmadim.

Yig'layub, orzu aylab, shikasta-bemor o'lmisham,
O'zgalar madhal-u, men mahrumi diydor o'lmisham,
Yuz ko'rib to'ymas ko'zim, bir ko'rmoqqa zor o'lmisham,
Dol bo'ying-u zulflaringga men giriftor o'lmisham,
Kezibon olamni, sendek mohitobon ko'rmadim.

Oyina ro'y, oh-u boqish, bir ajoyib dilrabo,
Hasratidan sarg'ayib so'ldimki, bo'ldim qahrabo,
Xo'p yarashar boshga qalpoq, egningga gulgun qabo,
Oshiqi zoring manam, ko'rsat yuzingni har sabo,
Kezibon olamni, sendek mohi tobon ko'rmadim.

To'lg'onib bo'yningga tushgach, sunbuli tor zulflaring,
Husningga parvonaman, jonim olar zar zulflaring,
Goh siyoh rangdir ko'zimga, gohi axzar zulflaring,
Qo'llarim bir tegmoqqa bo'lmas muyassar zulflaring,
Kezibon olamni, sendek mohi tobon ko'rmadim.

Sha'mi husning quvvati bu tanda darmonim olar,
Saf tortib kipriklaring o'ltiribon qonim olar,
Jallod ko'zing, yoy qoshing aksin etib jonim olar,
Kokiling har yona tarqab, zulflaring jonim olar,
Kezibon olamni, sendek mohi tobon ko'rmadim.

"Be", "Alif", "I", "Re" bilan isming yozarman har zamon,
"Mim" muborakda jamoling, qoshlaring misli kamon,
"Sod", "Lom", "To" yodga tushgach,
o'rtanarman har zamon,
Der Nafas, ism oxirin "Nun" bilan qildim tamom,
Kezibon olamni, sendek mohi tobon ko'rmadim.

BIR GO‘ZAL

Husni gulshan bog‘i ichra qildi sayron bir go‘zal,
Qirmizi guldek yuzi, qaddi zarafshon bir go‘zal,
Zolimi — adno qo‘linda bandi zindon bir go‘zal,
Voh, ajab sohibi tarroh, mast-u maston bir go‘zal,
Tishi durlarning duridir, ganji pinhon bir go‘zal.

Ayro tushsam bir zamonki, yig‘layurman zor-u zor,
Xasta ko‘nglim termulib, go‘yo quyundek beqaror,
Ko‘rmisham chohi zanoxdon uzra zulfin tor-u tor,
Tark etib oshiqligim desamki, yo‘qdir ixtiyor,
Tutdi ko‘nglim, qo‘ymadi ketmoqqa har yon bir go‘zal.

Yo ajab, naqshi nigordir nuqta xoli husn aro,
Sochlari sunbulga o‘xshar, ko‘zi nargisdan qaro,
Qosh qoqib, labin tishlab siynamga soldi yuz yaro,
Umri soli o‘rtanib, hajrinda menday mojaro,
Oshiq ahlini qilib husnina hayron bir go‘zal.

Va’dayi vaslingda deding, kunda qurboning bo‘lay,
Va’da qilding, kelmading, dedingki, armoning bo‘lay,
Ey go‘zal, yetgil yana, jon ichra jononing bo‘lay,
Yilda bir qurbon kelar, men kunda qurboning bo‘lay,
Labzi shirin, xulqi xush, sarvi xiromon bir go‘zal.

Chiqsa uydan to‘lg‘onib, qaddig‘a qilsam bir nazar,
Ko‘rganning ko‘nglin buzar, kiygan libosi siym-u zar,
So‘zlasa qoshin qoqib, guftori bag‘rimni ezar,
Sohiri kofirda yo‘q nargis ko‘zidek jodugar,
Der Nafas, yondirdi meni chashmi maston bir go‘zal.

KICHKINA

Meni ishqinda yoqqan qahri yomon kichkina,
Xush takalluмginasi ul shavqi zabon kichkina,
Qoshi qoraginasidir, misli kamon kichkina,
Tishi dur, labginasi g'unchayi dahon kichkina.
Ne ajab, yoqdi meni ul nori so'zan kichkina.

Kiribon bog'ginasiga, uzibon gulginasin,
Quribon domginasin, sayd etar bulbulginasin,
To'kibon yuzginasiga zulfi sunbulginasin,
Goh yumib labginasin, goho ochib qo'lginasin,
Soldi mening siynamga dog'i pinhon kichkina.

Qisdi qo'ltiqqinasiga siynayi kichkinasin,
To'kdi ustginasiga mushkifor sochginasin,
Yashirdi norginasin, ko'rsatmadi hechginasin,
Savash qildi, ko'ray desam, anda bor kuchginasin,
Soldi mushtginasini ul qahri yomon kichkina.

Tutdi kokilginasin, zarhalli qunduzginasin,
Oldi kiftiga jomasin qirmiz libosginasin,
Kunda yuz tusliginasin to'kibon o'zginasin,
Quchibon belginasin, dedim o'pay yuzginasin,
Qildi yolg'onginasidan ohi fig'on kichkina.

Keldi chobukkinadan, o'ltirdi hamdamginadan,
Ol yonoq targinasini anda zanaxdonginadan,
Angladim ra'yginadan, so'rdim avval damginadan,
Dedim ag'yor-u raqibim senga hamdamginadan,
Otashim toza qilibon o'tdi ravon kichkina.

Bejirim bezadi ul qadgina-qomatginasin,
Qo'ydi mening jonimga noz-u qiyomatginasin,
Qurdi mening qasdimga yoyi xushomadginasin,
Otdi o'ldirmoq uchun ul o'qi ofatginasin,
Nafas deydi, jonim olgan oromijon kichkina.

CHIQAR

Otlanib azm aylasam yor yoniga javlon qilib,
Barq urib oldimdan yana mohi tobonim chiqar.

Masti hayrondir ko'ngil, ko'rgach yuzin afg'on qilib,
Zebi ziynat birla jonga chashmi mastonim chiqar.

Almudomo ishqida zor-u zalil munglig' ko'ngil,
Ul nazarga kelsa zohir, mast-u hayronim chiqar.

Ne balodir qosh-u ko'zi, xatti-xoli dilbarning,
Ul nazardan g'oyib o'lsa, oh birla afg'onim chiqar.

Lablari qand-u asaldir, inju gavhar tishlari,
Ayriliqda oh urarman, zori giryonim chiqar.

Yor ila hamdam bo'lib, bir joyda maskan aylasak,
Holi maxfiy el aro bu shirin dostonim chiqar.

Jo'shqini ilhom o'lub, Haqdan karam yetsa bizga,
Vaslig'a doxil o'lub, ko'nglimdan armonim chiqar.

Fahm etgil, sen, avvalo, har baytdan bir harf olib,
Qil nazar, jam aylasang, ul ismi jononim chiqar.

Ey Nafas, tark aylagil sen munchakim bu so'zlarni,
Qo'ymasang bu so'zlarni, albatta, nodonim chiqar.

MARDLARNING MARDONIDIR

Baxshi elida Gajar boy barcha elning jonidir,
Mard yigitlar sardori, sarkarda, sulton-xonidir,
Kecha-kunduz majlis aylab, surgani davronidir,
Yov kuni maydonga kirsa, mardlarning mardonidir,
Shubha yo'qki, barchadan afzal qilgan insonidir.

Ko'rmadim unday yigit bu jahon bozorida,
So'zlasa bulbul sado bog'i jahon gulzorida,
Go'yoki qand-u asal, so'z qursa har guftorida,
Yo'l yetishmas, sakratib sursa bedov raftorida,
Har kuni chiqsa shikor, olam uning hayronidir.

Non berib, ne'mat sochib, ellarni aylab sarafroz,
Nav kelib, nozik juvon qoshinda har kun jilvasoz,
Arg'umoq zebo bedov, asbobi sozdir, tablasoz,
Shoir-u allomalar madhini aylarlar bayoz,
Olamga mashhur bo'lgan ham o'zi, ham dostonidir.

O'zidek sher-u palang chiqmas Arofat tog'iga,
Sen kabi shaydo uchib, qo'nmas Eramning bog'iga,
Er o'zim degan kishi yetmas oyoq tuprog'iga,
Shum falak charx urmasin davlat — saodat chog'iga,
Har qilgan korin ko'rib, xalqlar uning hayrondir.

O'lkayi azim deyarlar bu Maru shohi jahon,
Anchalar da'vo qilib, o'tgan zamondir bu zamon,
Xon o'tgan shahrinda ko'rdim, oqdi sel o'rninda qon,
Boshga bosh aylar talash, Rustam savash, Haydar nishon,
Qilganim xayr-u duo, ko'nglim aning mastonidir.

Ochlarni oshdan to‘ydirib, tashnalarni qondirib,
Har tikondan gul uzib, har zahridan bol undirib,
Kurashib dushman ila, shoh qo‘shinlarin sindirib,
Hurlari, rizvonlari peshvoz chiqar, qo‘l sundirib,
Ul kuni dastin tutgan bir gavhari imonidir.

Sohibi martabadir ul, chaqirib jabborini,
Kelsa mehmon, izzat aylar yorini-ag‘yorini,
Ahli ulus orzu aylar davlati — diydorini,
Yov kuni yovqurlanib, qizdirar jang bozorini,
Yuzda ming lashkar tortgan shohlar uning yaksonidir.

Der Nafas, shomi sahar qodir Haqni yod aylayur,
Qahri haqda qo‘rqibon, pinhona faryod aylayur,
Goh lutfiga umid bog‘lab, o‘zini shod aylayur,
Yilda ko‘p qul band etib, ko‘p qulni ozod aylayur,
Rahmatidan ko‘z tutib, har kun qilgan ehsonidir.

NOR KEZGIN

Ko‘nglim, senga nasihat, kezsang sarbasar kezgin,
Tani do‘st-u dushmanni, uyingga boxabar kezgin,
G‘anim bilan to‘qnashsang doim mushti par kezgin,
Kezsang dunyo yuzida, davom toza-tar kezgin,
Qirq yil moya kezguncha, butun bir yil nor kezgin.

Ikki odam urishsa, o‘tgudayin yo‘l berma,
Biriga gap o‘rgatib, ul biriga qo‘l berma,
Avval odamdan qochma, qochsang aslo qo‘l berma,
“Jon og‘a, o‘zing bil!”, deb har nokasga yolvorma,
Qirq yil moya kezguncha, butun bir yil nor kezgin.

Nafas, hech bir kam turma teng-u to‘shdan, do‘st-yordan,
Pul topmasang, qarz olma nokas bilan sudxo‘rdan,
Har kelganda g‘am bosib, ko‘ngil to‘lar g‘ubordan,
Tug‘mas to‘qson to‘rt yilda bo‘g‘oz bo‘lsa er-erdan,
Qirq yil moya kezguncha butun bir yil nor kezgin.

BEDOV

Ota-bobongni aytsam, Duldulning o‘z o‘g‘lisan,
Ena-momongni aytsam, jannati rayhon gulisan.
Xosiyatingni aytsam, sevuvchi sevgilisan,
Aqli — odam, jinsi — hayvon, asli-chi — dono bedov.

Kaklik misoli yo‘rg‘alar, atrofga mag‘rur boqishib,
Mislini doston etay, jayron misoli sakrashib,
Yo‘lga tushsang yo‘rg‘alashing — kaklik misoli raqs tushib,
Yo‘ldosha haybat berar, kirsa maydona bedov.

Chin odam bo‘lmasa gar, nodonlar biimas tobini,
Xo‘ragi xurram bo‘lar, baxmal qayirsam qobini,
Siym-u zar, oltin-kumush gar shaylasam asbobini,
Shuncha maqtovlar bilan bermam seni xona, bedov!

YOR, SANGA

Yur, ketali gasht etib, jonim qurbon, yor, sanga,
Menman bir shaydo bulbul, bog‘da rayhon, yor sanga.
Mudom, axir, muyassar bo‘lmas davron, yor, sanga,
Hech bir kimsa qahr ila qilmas farmon, yor, sanga,
Arz aylagin, dilbarim, tegsa ziyon, yor, sanga.

Bo‘layin sanga qurbon, yoqma meni o‘tingda,
O‘g‘lonlikda ont ichdik, bormi, do‘stim, yodingda?
Tutqun bo‘lib qolibdir yetmish ming er oldingda,
Rustam Zolning quvvatin ko‘rgan har er qaddingda,
Ko‘zing tashla chor taraf, ishrat davron, yor, sanga.

Yuzingga solsam nazar, ko‘nglim betoqatlanar,
Uysang qoshing bir zamon oftob hayratlanar,
Zar chekib ishq bobinda, qo‘lda bor zakotlanar,
Pes zamonda, yoronlar, er yigit fasodlanar,
Qo‘shmas zabon bulbullar, to‘ti dahon, yor, sanga.

Ko‘rganlar o‘ylab hargiz, boqa bilmas yuzingga,
Oy parda tutar yuza, surma cheksang ko‘zingga.
Suxanvar to‘ti, bulbul til qo‘sharmi so‘zingga,
Bo‘z kiyiklar, jayronlar qilmas sayron to‘zingga,
Ul Nafas mudom istar Haqdan farmon, yor, sanga!

PIYOLA

Nargiz demak, xatodur ul vahshiyi g‘azola,
To‘bi kabi bo‘y egdim ra’no qaddi-nihola,
Ko‘rdi-yu mohi ro‘ying, sarg‘ardi rangi lola,
Bulbullar uchib guldan, ruxsora bo‘ldi vola,
Ne bo‘ldi o‘z qo‘lingdan bersang manga piyola.

Gul yuzing shu’lasindan zarraday muztaribman,
Bag‘rimga tig‘ urarman, o‘zimdan darg‘azabman,
Firqat zahrin icharman, sendan visol talabman,
Qilib men dod-u bedod dedimki tashnalabman,
Ne bo‘ldi o‘z qo‘lingdan bersang manga piyola.

Qasding nedur bu jona, ey yori mohitobon!
Men chekmisham bu jabring,
chekmasin hech musulmon,
O‘tmasmi shomi hijron, kelmasmi dali davron,
Gulshan ichra sayr etib, topib bir joyi pinhon,
Ne bo‘ldi, o‘z qo‘lingdan bersang manga piyola.

Qoshlaring moh-u kundir, yuzing xurshidi a’lo,
Ko‘rdim sham’i jamoling, boshimga tushdi g‘avg‘o,
Qaroqchi, kofir zulfing imona soldi yag‘mo,
Oq qo‘lingdan may ichib, xo‘b ahli bo‘ldi rasvo,
Ne bo‘ldi, o‘z qo‘lingdan bersang manga piyola.

Nafas der, otash ichra kuyar bo‘ldim davomat,
Ishq o‘tining uchquni haddan oshdi qiyomat,
Bu daryoga g‘arq bo‘lgan chiqmas ermish salomat,
Dedim: yonmoq muddatim keldi va’zi ziyofat,
Ne bo‘ldi, o‘z qo‘lingdan bersang manga piyola.

ORZU AYLAR

Ko‘nglim qushi qanot bog‘lab,
Uchsam deya orzu aylar.
Tilla jomga quyib sharob,
Ichsam deya orzu aylar.

Bulbul ko‘ngli xush gulindan,
Jo‘mard ko‘ngli chog‘ elindan,
Nozli yorimning belindan
Quchsam, deya orzu aylar.

Jang aylasang yog‘ar gulla[1],
Ajalga oshirar palla,
Xazinadan olib tilla,
Sochsam deya orzu aylar.

Qolar qizlar ko‘ngil chog‘lab,
Mudom yig‘lar yurak dog‘lab,
Dali ko‘ngil qanot bog‘lab
Uchsam deya orzu aylar.

Cho‘llar kezsam Ilyos kabi,
Tog‘lar kezsam Kovus kabi,
Otash ichra qaqnus kabi
Pishsam deya orzu aylar.

Mundan borsam Hindistona,
Ko‘zim tutsam Dog‘istona
Shahri Bung‘or, Rumistona
Oshsam deya orzu aylar.

[1] **Gulla** — o‘q yomg‘iri.

Men minsam Majnun tog‘ina,
Kirsam yo Eram bog‘ina,
Nozli yorning quchog‘ina
Tushsam deya orzu aylar.

Jo‘shsam, do‘stlar, men ummondek,
Dunyoni tutsam tumandek,
Nafas der, mohitobondek
Qochsam deya orzu aylar.

KO‘ZING BILAN

Nechun dali aylading,
Sevgilim, ko‘zing bilan?

Meni o‘rnimdan turg‘izding
Ul to‘ti so‘zing bilan.

Shu’la solding olamga,
Yor, shakli yuzing bilan.

Oy-kunni bandi qilding,
Qosh qoqib nozing bilan.

Sayron qilding chamanni,
So‘na-yu g‘ozing bilan.

Gullar kabi bezading
Tog‘-toshni to‘zing bilan.

Vafo qilmading manga,
O‘tdi kun yozing bilan.

Sayr aylading kunduzlar
Sen kelin-qizing bilan.

Uyqudan uyg‘otding sen
Ul tilla sozing bilan...

Xohlamading, sevmading
Qora qosh ko‘zing bilan.

Bosgan izing o‘pmadim,
O‘tdingmi tizing bilan.

Bulbulni solding dardga,
Shirin ovozing bilan.

To‘y-tomosha aylarsan,
Suhbatli bozing bilan.

Jasadimni tosh etding,
Qish fasli muzing bilan.

Nafas aytar, o‘ldirding
Oxirda nozing bilan...

GO‘ZAL

Avval boshdan sevdim seni jon, Go‘zal!
To‘lg‘onasan uyalib har yon, Go‘zal.
Olama shu’la solgan pistayi dahon, Go‘zal.
Bo‘z morolning ulog‘i, qoshlari kamon, Go‘zal.
Yolg‘onchida ko‘rmadim sen kabi jonon, Go‘zal.
Dunyoni yakka tutdim, bilmayki omon, Go‘zal.
Ishqdan imorat qurdim, qolding sen vayron, Go‘zal.
Vafo ko‘rmadim sendan, qilding ko‘p ziyon, Go‘zal.
Tog‘larda sayr etaylik, bu dunyo tuman, Go‘zal.
Piyoladir ko‘zlaring, qoshlaring kamon, Go‘zal.
Boqiy berilmas bizga, o‘tar bu davron, Go‘zal.
Ters keladi ko‘p ishlar, pes bo‘lsa zamon, Go‘zal...

Layli, Shirin, Zulayho,
Zuhraga teng kelgan chiroy — Go‘zal.
Foniy dunyo ichinda ko‘rk-husnga boy, Go‘zal.
Qo‘yning ichinda rayhon sayilgohi joy, Go‘zal.
Quyosh bilan o‘ynashar gul jamoli oy — Go‘zal.
To‘tidayin suxanvar, barmoqlari nay, Go‘zal.
Kipriklari o‘q bo‘lib, qora qoshi yoy, Go‘zal.
Bahor mavsumi kelsa,
tog‘ boshinda gay[1], Go‘zal.
Aynul-baqo suvining tubindagi loy, Go‘zal.
Nechun meni xo‘rlading g‘amzing bilan,
voy, Go‘zal!
Yur, ketaylik sayilga, tur o‘rningdan, hoy Go‘zal!
Raqib bilan so‘zlashma, bu koringni qo‘y, Go‘zal!
Ishqing o‘ti tutashdi, men faqirni suy, Go‘zal!

[1] **Gay** — bo‘ron, quyun.

Xasta jona rahm ayla, zolim bo‘lma, ey Go‘zal,
Har bevafo nomarddan ta’lim olma, ey Go‘zal,
Shul sababdan sen meni yera solma, ey Go‘zal,
Nohaq yerdan o‘ldirib, qona qolma, ey Go‘zal,
Kulli olamni yondirding, jahona to‘lma, Go‘zal,
Ishratli zamon keldi, motam kuy chalma, Go‘zal,
Men Nafasni yig‘latib, armona qo‘yma, Go‘zal!

KUNIDIR

Oshiqlar shahrinda, ko‘shkning ustinda,
Dunyoni hukmiga olar kunidir.
Qirq kanizak talvas urib ostinda,
“Bibijon!” deb qulluq aytar kunidir.

So‘l tomonda turli sozlar chalinib,
Tilla kosa to‘la maylar olinib,
Ipak, atlas, yumshoq yostiq solinib,
Behisht ichra yorning yotar kunidir.

Eshikda band aylab osmon Burog‘in[1],
El yotganda tortib oshiq firog‘in,
Bosh ustinda odil shohning chirog‘in,
Qo‘yib, beshdan-o‘ndan yoqar kunidir.

To‘ymay diydoriga, dostonim yozib,
Aql-u hushim uchdi tuzog‘im cho‘zib,
Nafas aytar, yorim ko‘zlarin suzib,
Menga qarchig‘ayday boqar kunidir!

[1] **Buroq** — afsonaviy-ilohiy ot nomi.

KO‘NGLIM

Sevdim bir parini, istadim rohat,
Talvas aylar, har dam ul yora ko‘nglim.
Hech rohat ko‘rmadim, yetmishdi ofat,
Firqat ichra qoldi ozora ko‘nglim.

Go‘yo fasli bahor ochilgan guldir,
Kuydim hasratingdan, seviklim, kuldir,
Yorim — toza guldir, ko‘nglim — bulbuldir,
Borib qachon qo‘nar gulzora ko‘nglim?

Tig‘i paykonindan bag‘rim tilindi,
Roziman o‘ldirsang, jonim ol endi,
Qora zulfing yuzda yuzga bo‘lindi,
Har zulfing yuzinda yuz pora ko‘nglim.

Oshiq bo‘lgan quloq solar bu so‘zga,
Majnunman, Layli deb chiqmisham tuzga,
Mening ko‘nglim yorda, yor ko‘ngli o‘zga,
Hanuz qo‘l uzolmas bechora ko‘nglim.

Gul yuzingga tushgan ul qora qoshdir,
Ko‘z solsam ul qoshga — ko‘zlarim yoshdir,
Holimga rahm etmas bir bag‘ri toshdir,
Mudom sargardondir ovora ko‘nglim.

Senday go‘zal kelmas yolg‘on jahona,
Ko‘rdim, otash tushdi bu shirin jona,
Ko‘nglim qushi hurkib uchmas har yona,
Bog‘liqdir zulfingda har tora ko‘nglim.

Nafas aytar, boshim, yor, senga qurbon,
Jamoling ko‘rganlar husningga hayron,
Men ishqning dardini gizladim pinhon,
Ko‘ring, zohir aylar oshkora ko‘nglim.

QAYSIDIR?

(Mullanafasning Murod shoir Tolibga bergan savollari)

Ey Murod, bu shahr ichinda doxili tosh qaysidir?
Tegrasi oltin tamom, zarrin munaqqash qaysidir?
Tog‘i yetmish mevalidir, birisi bo‘sh, qaysidir?
Nogohondan vosil bo‘ldim, ko‘rganim tush qaysidir?

Yana ham bir qushni ko‘rdim, ulki bir qush qasdida,
Yetti yuz dev maskan etmish ulki qushning ustida,
Yoz kuni tog‘ga chiqar qishda kezar yer ostida,
Bir giyoh ko‘karmas, qo‘ysa qadam ostida.

Yana ham bir qushni ko‘rdim, ul qushki tussog‘[1] erur,
Yetti yuz botmon temir bo‘ynida zanjirbog‘ erur,
Bars yili bemor bo‘lur, shanba kunida chog‘ erur,
Markabi otash erur, asbobi yetmish, qaysidir?

Luqmoning pishmog‘iga otash kerakdir, o‘t kerak,
Kemaning yurmog‘iga yelkan kerakdir, shasht kerak,
Bu mening so‘zlarima dars bilar ustod kerak,
Fahm eting, miskin Nafas, bilmoqqa ul xush qaysidir?

[1] **Tussog‘** — asir, tutqun.

BU JONIM MENING

Yorimning yonida ko‘rsam ag‘yorni,
Bas, nechuk kuymasin bu jonim mening?
O‘zim qayda bo‘lsam, boshim ul sari,
O‘zganing in’omi uning ozori,
Bir dam ko‘rinmasa ko‘zga dildori,
Olamni yoqmasmi fig‘onim mening!

Mening mehrim tushdi qosh-u qaboqqa,
Olma zapaxdonga, siymin saqoqqa,
Suratda sihhatlik, boshda o‘tog‘a[1],
Sanchib-sanchib chiqmish sayr uchun bog‘ga,
Yo Rab, ne gul gullar yig‘ar quchoqqa?
Magar sayla chiqmish jononim mening.

Istaram yorimdan sunsa jomi jam,
Yetishar har lahza dard bilan alam,
Yorning avsofining bayonin qilam,
Daryo — siyoh bo‘lsa, shajarlar — qalam,
To o‘lguncha vasfin desam dam-badam,
Mingdan birin aytmas zabonim mening.

Ziynat uchun zulfga anbari yana,
Yarashar oq qo‘lda shirmoyi shona[2],
Otar novaklarin qasd aylab jona,
Men anga qilmisham ko‘ksim nishona,
Masti lofi olam dali devona,
Ayrilmas sarimdan tumanim mening.

---

[1] **O‘tog‘a** — qizlarning bosh kiyimiga qistiriladigan par, sulton.

[2] **Shirmoyi shona** — fil suyagidan yasalgan taroq.

Nafas der, gavharim ham ganjikonim,
Shakarim, sharbatim ham shirin jonim,
Qovoqlari bodom, qoshi kamonim,
Yor o‘zi o‘ldirsa, to‘ksa gar qonim,
Bo‘ynimga vabolim, yaxshi-yomonim,
Mavlom ro‘zi qilsin imonim mening.

BOQMAGAY

Sening ishqingga tushgan ganji kona boqmagay,
Jononga vosil bo'lgan shirin jona boqmagay,
Jannatda jovidonlar bul makona boqmagay,
Senga tushgan ko'zlarim qiz-juvona boqmagay,
Yorim yaxshidan yaxshi, men yomona boqmagay.

Jismim ichinda jonim, jon ichra ul jonondir,
Mening mehrim olibdir, o'zi nomehribondir,
Bir ko'z ochsam, ko'rmasam, menga oxirzamondir,
Ko'z yumguncha, ko'zimdan qonli yoshim ravondir,
Rahm aylabon ko'zimdan oqqan qona boqmagay.

Qora zulfing val-layli[1], jamoling vaz-zuhodir[2],
Parilarning sultoni, husn ichra podshohdir,
Men sen yorning ishqinda o'lmakligim ravodir,
Mehringga da'vogarman, ikki ko'zim guvodir,
Afsun kabi bu chashmim o'zga yona boqmagay.

Kosa-kosa sharob ichsam xinali oq ko'lingdan,
Ko'nglim qushi chirmashib, ayrilmas kokilingdan,
Xijil chekar shakarlar dahan ichra tilingdan,
Xilvat yerda jam bo'lib, quchgan nozik belingdan,
Bog' Eramda tik o'sgan arg'uvona boqmagay.

Tarlon kabi talpinib, aql-u hushim olibsan,
Har kim ko'rsa jamoling, jonina o't solibsan,
G'amza bilan to'r qurib, jigar-bag'rim tilibsan,
Xalq holimga yig'lashar, sen bu hola kulibsan,
Nafas husning zoridir, bekka-xona boqmagay.

---

[1] **Val-layli** — qora tun.

[2] **Vaz-zuho** — porloq kunduz.

SARBASAR

Bir pari ko'rdim, base ushbu jahona sarbasar,
Kulli olam o'lkasi yo'q ul jonona sarsabar,
Qoshlarining egrisi abro'-kamona sarbasar,
Qo'llarining xinasi bag'rimda qona sarbasar,
So'zlarining shirini bu shirin jona sarbasar.

Bir ajabsurat yaratmishdir go'zal qaddini Haq,
Barcha xo'blar husni ruxsorindan olgaylar saboq,
Inja bel, nozik badan, olma yanoq, bodom qovoq,
Dasta-dasta zulfi yuz uzra tushar boshdan oyoq,
Qomati to'bi-shajar sarvi ravona sarbasar.

Bir nazar qilsang, ko'ngil mulkin qilarsan lolazor,
Ko'rmadim hargiz jahon bog'inda sendek guluzor,
Deydilar: "Sendek go'zal Rum,
Isfihon shahrinda bor",
Barchasini ko'rdim bugun, yolg'on emish, nozik nigor,
Har so'zing yuz ming kelinga, yuz ming juvona sarbasar.

Talpinib lochin kabi har boqishing yuz ming tuman,
Qo'yning uzra ochilib yuz turli angur[1], anjuman,
Husningga band bo'lmish ul shahri Xo'tan, shahri Yaman,
Do'zaxni derlar yomon, ishq o'ti do'zaxdan yomon,
Zavqi vaslingdir magar dorulomona sarbasar.

Ko'ksing uzra olma-noring tugmayi abbosdan[2] oq,
Kechadan zulfing qoradir, yuzlaring kunduzdan oq,
Lablaring guldan qizildir, tishlaring yulduzdan oq,

[1] **Angur** — uzumning bir turi.

[2] **Tugmayi abbosiy** — abbosiy (kumush) tangalardan yasalgan tugma.

Vasf etarman barcha andoming sening qog‘ozdan oq,
Rashk etib oy birla kun kirmish fig‘ona sarbasar.

Turli alvonlar bezanding, kiyganing ol aylading,
Bizni g‘amgin, shum raqib ko‘nglini xushhol aylading,
Zulfingga ziynat bo‘lib, qo‘l birla dastmol aylading,
Kuydirib ishq ahlini ko‘yingda poymol aylading,
Tushdi o‘t jon birla jism-u ustixona sarbasar.

Der Nafas, dunyo quvondi, ganji Qorun kechdilar,
Vomiq ul Uzroga oshiq bo‘ldi, mahzun kechdilar,
Zuhra deb Tohir yonib, ko‘zyoshi Jayxun kechdilar,
Varqa — Gulshoh,
Shirin — Farhod,
Layli — Majnun kechdilar,
Kuymadi hech birisi men notavona sarbasar.

ZUHRA VA TOHIR

(doston)

Roviylar andoq rivoyat qilurlarkim, Tatar degan bir katta viloyat bor edi. Uning Boboxon otli podshohi bor edi. Bu podshohning vaziri bo'lib, uning ismi Bohir edi. Bularning ikkalovi ham farzandsiz edi. Ular farzandsizlikdan ko'p g'amgin bo'lgan, ammo hech chora topolmagan edilar.

Bir kun podshoh bilan vazir o'zaro gurungdosh bo'lib, maslahat qildilar. Podshoh vaziriga shunday dedi:

— Ey Bohir vazir, ikkovimizda ham o'g'il-qiz yo'q, farzandsiz odamga bu viloyat haromdir. Kel, ikkimiz boshimizni olib, bir tarafga ketaylik, bu vatanni tark etaylik.

Vazirga ham bu maslahat ma'qul tushib, "xo'p bo'ladi" deya javob berdi. Shu niyat bilan podshoh va vazir ikkovi hech kimga bildirmasdan otlanib, shahardan cho'l-biyobonga chiqib ketdilar. Shu ketgandan to qosh qoraygan paytda ulkan bir qabristonga yetdilar. Bular tunni shu qabristonda o'tkazmoqchi bo'ldilar. Ikkovi bir yerda o'tirib, Xudodan farzand tilab nolish qildilar. Podshoh Xudodan o'g'il tilab, bir g'azal[1] aytdi:

Dargohingga yuzim tutdim, Yaratgan,
Sen mening dardimga dalolat ayla.
Sensan avval meni yo'qdan bor etgan,
Buzilgan shahrimni imorat ayla.

Shukrim ko'pdir,
qaytmoq bo'lmas yo'lingdan,
Qo'lim tortdim mamlakatdan, molingdan.
Karamli zotingdan, qudrat qo'lingdan,
Bir farzandni solih saxovat ayla.

[1] **G'azal** — bu yerda so'z, o'tinch, qo'shiq ma'nolarida.

Zahr icharman, sharbatim yo‘q, bolim yo‘q,
Judo tushdim, vatanim yo‘q, elim yo‘q,
O‘rnim tutar avlodim yo‘q, o‘g‘lim yo‘q,
Holimga homiy bo‘l, himoyat ayla.

Sen tufayli yorug‘ jahon munavvar,
Faxri jahon sensan, olamga sarvar,
Haqning do‘sti sensan — Rasul payg‘ambar,
Ikki dunyo menga shafoat ayla.

Yurtning shohi menman, Boboxon otim,
Bohir vazirimdir, dilda faryodim,
Unmadi o‘rnimda o‘g‘il — zuryodim,
Ikkimizga farzand inoyat ayla.

Alqissa, Boboxon so‘zini tugatdi. Shu kecha qabristonda qoldilar, ammo ko‘zga uyqu kelmadi. Sahar vaqti bo‘lgandagina ko‘zlari uyquga ketdi.

Bohir vazir tushida bir ahvol ko‘rdi: podshoh quchog‘iga bir go‘dakni, Bohir vazirning quchog‘iga bir go‘dakni keltirib soldilar. Shunda vazir ham, izidan podshoh ham uyqudan uyg‘ondi.

Podshoh aytdi:

— Ey vazir, nima tush ko‘rding?

Bohir vazir:

— Ey podshohim, bir ahvol ko‘rdimki, tole ochildi! — deb bir g‘azal aytdi:

Ey shohim, tushimda bir ahvol ko‘rdim,
Rahmat mayi meni maston ayladi.
Maqsading Haq berdi, ta’biring ko‘rdim,
Barcha mushkullaring oson ayladi.

Hafttan, saxttan, chiltan — barcha jam bo‘ldi,
Qo‘lin ochib, Haqqa munojot qildi,
Tiladi murodin — Xudodan oldi,
Har kimga bir zuryod ayon ayladi.

Davlat qushi soya soldi boshingga,
Rahm ayladi ko‘zdan oqqan yoshingga,
Ikki oy tug‘ib keldi qoshingga,
Nuridan jahonni bo‘ston ayladi.

Ikki anvor bir-biridan ziyoda,
Lablarinda sharob, qo‘linda boda,
Ahvolim barhaqdir, yetdik muroda,
Mening ko‘nglim shuni gumon ayladi.

Bohir aytur, shuldir ko‘rgan ahvolim,
Sizlarga noma’lum, o‘zimga ma’lum,
Bir kun chiqar ikki sarvi niholim,
Bizning bila ahd-u omon ayladi.

Alqissa, podshoh bu so‘zni eshitib, darrov o‘rnidan turdi va vazirning yuzidan o‘pib:

— Ey Bohir vazir! Agar ko‘rganlaring chin chiqib, Xudo taolo ikkalamizga ham o‘g‘il bersa, ul ikkisi do‘st bo‘lsinlar, agar ikkisi ham qiz bo‘lsa, ular dugona bo‘lsinlar, agarda biri qiz va biri o‘g‘il bo‘lsa, unda juft bo‘lsin! — dedi.

Unda Bohir vazir:

— Ey podshohim, davlatingiz barqaror bo‘lsin! Siz bir podshoh bo‘lsangiz, men esa eshigingizdagi xizmatkor bo‘lsam, bu nechuk ahdi paymon bo‘lsin? — dedi. Shunda podshoh hech vaqt so‘zdan qaytmasligiga qasam ichdi. So‘ngra qo‘liga qalam-qog‘oz olib, “vallohi a’lam” deb ahd bog‘lab, muhr bosib, vazirning qo‘liga berdi. Vazirning bu ishdan ko‘ngli xush bo‘ldi. Ikkisi shaharga qaytib keldilar. Kelib podshoh o‘z taxtiga o‘tirib, mamlakatini boshqarishda davom etdi.

Podshoh ayollaridan birini Shohijahon, vazir ayolining otini Shohixo‘bon der edilar. Kunlardan bir kun Shohijahon homilador bo‘ldi. Uning izi bilan, bir haftadan so‘ng Shohixo‘bon ham homilador bo‘ldi.

Oradan to‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat o‘tgandan so‘ng, podshohning bir qizi bo‘ldi. Bu qiz og‘zi g‘uncha, lablari la’l,

ko‘zlari mastona, qalam qoshli, inju tishli, siyoh sochli, yuzi jannat guli, ovozi Bog‘i Eramning bulbuli, go‘zalligi o‘n to‘rt kechalik oyga barobar edi, shu’lasi osmonga to‘lar, ko‘rgan odamlarda bir mehr paydo bo‘lar edi. Shu vaqtda bir kaniz podshohga suyunchiga borib: “Ey podshohi olam! Davlatingiz chirog‘i yondi! Shohijahondan bir oftob olamga keldi!” deya suyunchiladi. Podshoh bu so‘zni eshitib, quvonganidan kanizga ko‘p in’omlar berib, uni ozod etdi va shahar ichida to‘y boshladi, ko‘p qullarini ozod etdi, faqir-fuqarolarga ko‘p-ko‘p in’omlar ulashdi. Bu to‘y-tomosha to‘qqiz kecha-kunduz davom etdi.

So‘ngra podshoh falakiyot ilmidan xabardor ulamolarni, hakimlarni yig‘ib, ularning har biriga loyiq in’om-ehsonlar berib, “bu mohi tobonga bir ot qo‘yinglar” dedi. Biri “Oy deb qo‘yaylik” desa, yana biri “Kun deb qo‘yaylik” dedi, ammo bu nomlarning hech biri podshoh ko‘ngliga ma’qul kelmadi.

Shul ayyomda bir odam bor edi, uning ismini Mullanafas Marvi Shohijahon der edilar. Xotinining ismi Bo‘stontoj elti edi. Ularning ikkalasiga ham Xudo rahmat nazarini solgan edi. Podshoh: “Ana shu odamlar qizimga ism qo‘ymasa, boshqalarning qo‘yganlari ko‘nglimga ma’qul kelmayapti”, deb buyruq etdi. Undan so‘ng eltini chaqirdilar, elti kelib qizni qutladi. Olqishlar tugaganidan so‘ng, ayollardan biri aytdi:

— Ey elti, podshohi olam qiziga ism qo‘yish ixtiyori sizga berildi. Bu qizga siz ism qo‘ying, ammo ismining bir ma’nosi oy bilan kunni ham eslatib tursin!

Elti qizaloqning yuzini ochib, ziyorat etdi va dedi:

— Ey xaloyiq, bu qiz oy va kunga barobargina emas, buning yonida yana o‘n ikki yulduzi ham bordir. Shams demoqqa, Qamar deyishga, Aqrab deyishga, Mezon-u Qavus demoqqa arzigulik — bular oftob burjida tug‘ilgan. Yana bir yulduz bor, otini Mohi Mushtariy derlar, ul shu’lasi oy-u kundan ham ziyodadir. Samoda yana bir yulduz bor, u to‘qqizinchi falak yuzida paydo bo‘ladi, uning otini Zuhra yulduz derlar, o‘zi mutrib, digar (o‘yinchi, sehrgar) bo‘lar, mohir sozandadir, yuzining shu’lasi oy-kun shu’lasidan yetti hissa ziyodadir. Bu qizning otini shunga moslab Zuhra deb qo‘yaylik, — dedi.

Xaloyiq qabul qildi: "Yuzi Zuhradek nurli, ismi ham Zuhra bo'lsin!" deb qutladilar. Qizning ismini Zuhra deb qo'ydilar.

So'ngra Zuhrani ikki yuz kaniz bilan Mullanafasning ayoli Bo'stontojga tarbiyalash uchun berdilar. Zuhra qizning yuragida ishq havasi borligi uchun, uning yig'lamoqdan boshqa ishi yo'q edi. Yuzi kun-kundan ziyoda bo'lib, ko'rgan odam aqlini yo'qotib, moyil bo'ldi. Uning husnining ovozasi Qof[1]dan Qofga, Mag'ribdan Mashriqqa, osmondan zaminga yetib, olam-jahonga mashhur bo'ldi.

Endi gurungni Boboxondan eshiting. Podshoh shunday xayol etdi: "Bohirning farzandi o'g'il tug'ilsa, men nima qilaman? Jannat gulini bir tuyaga hamsuhbat qilish to'g'ri bo'larmikan? Men bir yurtning podshohi bo'lsam, Bohir mening qulim bo'lsa-yu, men unga qizimni nechuk berarman? Ammo qizimni unga bermaydigan bo'lsam, o'rtada ahd-u vafo so'zlarimiz bor-ku! O'zi aqlimni yelga berib, bu ishlarni yaxshi o'ylamay ahdnoma tuzgan ekanman!" deb, ko'p o'kindi. "Ammo bizning ahd-paymon qilishganimizni kim ko'ribdi? Agar Bohirning o'g'li tug'iladigan bo'lsa, tezroq uni gumdon qilayin!" degan fikr o'tdi.

Shunday kunlardan birida Bohir o'g'illi bo'ldi. Buning ham husni oydan, kundan ziyoda bo'ldi, yuzining shu'lasidan jahon munavvar bo'ldi, shohlar ko'rsa, boshlaridagi tojni unga loyiq ko'rar edilar. Zuhra bilan ikkalasi naq bir olmaning ikki pallasidek edilar. Vazir ham to'y-tomosha berdi, o'g'lining ismini Mirza Tohir deb qo'ydi. Buni ham enagaga topshirdilar. Enagalar bu ikkisini tildan-ko'zdan asrab, kamolga keltirdilar. Shunday qilib, Tohir bilan Zuhra yetti yoshga kirdilar.

Kunlardan bir kuni Bohir vazir qazo qildi. Vazirning o'rnini dushman egalladi, davron bundan yuz o'girdi.

Endi so'zni Boboxondan eshiting. Podshoh Mullanafas oxunni mulla tutdi, xaloyiq o'z farzandlarini shu mullaga o'qishga berar edi. Shohijahon Zuhrajonni va Shohixo'bon ham o'g'li Tohirni shu mullaga topshirdilar. Zuhra bilan Tohir maktabda ekanligida mulla, domla va jami o'g'lonlarga ajib bir shodumonlik yetishar edi.

---

[1] **Qof** — afsonaviy tog', tog'li o'lka nomi. Bu yerda "ellardan ellarga" degan ma'noda.

Ular bolalarning orasida oy bilan kundek edi, bolalarning atrofida yulduzlardek edi. Bularning bo‘yi ham, husni ham, zehnlari ham barobar edi, vaqtlarini xush o‘tkazib, Qur’oni Karim mutolaa qilishardi.

Zuhra bilan Tohirjonlar qalbida ishq uchquni paydo bo‘ldi. Ikkisi bir-birini ko‘rganlarida ishq o‘ti bularning yuragidan kechar edi, bir-birini bir soat ko‘rmasalar devonalardek bo‘lar edilar. Erta turib maktabga kelgan vaqtlaridan birga bo‘lib, ketgan vaqtlarida ham birga ketar edilar.

Bir kuni Tohirbek erta bilan maktabga keldi, ammo Zuhra qiz shu kuni kelmadi. Tohirbekning andomiga larza tushib “Zuhram bir hodisaga duch bo‘ldi — kelmadi” deya intizor bo‘lib turgan edi. Shu payt maktabdosh Gulqamar ismli bir qiz Tohirning yonidan o‘tib qoldi.

Oshiq Tohir aytdi:

— Ey Gulqamarjon, bir pas to‘xta!

Gulqamar to‘xtadi. Shu yerda Tohirbek Zuhrajondan xabar so‘rab, bir g‘azal aytdi. Gulqamarjon ham javob berib turdi.

Tohir:
Gulqamarjon, xabar bergin bizlarga,
Sirdoshginang Zuhrajonni ko‘rdingmi?
Qurbon bo‘lay shahd-u shakar so‘zlarga,
Ko‘nglim olgan dilraboni ko‘rdingmi?

Gulqamar:
Yorim kelmas deya gumon aylama,
Kelar Zuhrajoning, g‘amgin bo‘lmagin.
To‘y kunlaring oxirzamon aylama,
Kelar Zuhrajoning, g‘amgin bo‘lmagin.

Tohir:
Ayrildimmi yashil libos so‘nadan,
Gap yetdimi yoki ota-onadan,
Nechun yuz o‘girmish maktabxonadan,
Toza bog‘da tar g‘unchani ko‘rdingmi?

Gulqamar:
Rost qomati alvon, shaylar[1] ichinda,
Elning nazargohi to‘ylar ichinda,
Taxtin qurmish yaxshi uylar ichinda,
Kelar Zuhrajoning, g‘amgin bo‘lmagin.

Tohir:
Olako‘z oq jayron aqlimni oldi,
Kech qoldi, kelmadi, nechuk sir bo‘ldi,
Sabog‘ga kelmadi yo bandi bo‘ldi,
Shoh qizini — shahzodani ko‘rdingmi?

Gulqamar:
To‘yda sayr aylaydi qizlarning xoni,
Yonida qiz-kelin, cho‘x navjuvoni,
Yondirib, kuydirib jumla jahonni,
Kelar Zuhrajoning, g‘amgin bo‘lmagin.

Tohir:
Nechuk to‘ydir, ushbu kunlar etilgan,
Ehsonning o‘rniga isyon bitilgan,
Zuhra bandi bo‘lib, oy-kun tutilgan,
Jondan aziz ul jononni ko‘rdingmi?

Gulqamar:
Men senga so‘zlarman sirri pinhonim,
Senga yolg‘on aytsam, to‘kilsin qonim,
Yetishar dam-badam, sabr ayla, jonim,
Kelar Zuhrajoning, g‘am bo‘lmagin.

Tohir:
Tohir aytar, boshim mehnat toshida,
Yig‘lab o‘lar bo‘ldim yetti yoshimda,
O‘zim bunda, ko‘nglim yorlar qoshinda,
Zuhra otli sargardonni ko‘rdingmi?

[1] **Shaylar** — bu yerda kiyim-kechaklar degan ma’noda.

Gulqamar:
Gulqamar der, boshim sizlarga banda,
Ko‘rdim ko‘ngillarni hijron shabinda,
Sening ko‘ngling — yorda, yor ko‘ngli — senda,
Kelar Zuhrajoning, g‘amgin bo‘lmagin!

Alqissa, bu so‘zlar tamom bo‘lgandan so‘ng, Gulqamarjon maktab tomonga jo‘nadi. Tohirbek shu yerda turib, yana ikki soat kutdi, ammo Zuhra kelmadi. Oxiri qarori yetmay, Zuhra qizning bog‘iga ravona bo‘ldi. Ul bog‘da sarv degan bir baland daraxt bor edi. Tohirbek shu daraxtga chiqib, Zuhraning yo‘lini poylab o‘tirdi. Bir vaqt Zuhra qiz kanizlar bilan olam-jahonni shu’laga to‘ldirib kelaverdi. U qo‘lidagi qizil olmani iskab, qizil tilladan jildlangan haftiyakni ko‘tarib kelar edi. Zarrin kamar, tamomi libosi yarashgan, barmoqlarida o‘n uzuk, har uzugi qimmatbaho durdan, qo‘llari xinali, qoshlari o‘smali, ko‘zlari surmali, yuzi gulob suvli, quloqlari isirg‘ali, boshida qizil yoqutdan o‘tag‘a[1], qarqara suratinda bitilgan durri-javohirli, gulday ochilib, yolg‘onchi dunyoni guliston qilib kelar edi. Tohirbek Zuhraning bu kelishini, zeb-u zevardan kiygan to‘nini tomosha qilib o‘tirib, yuzi za’faronday sarg‘aydi va aqli hayron, ko‘zlari giryon bo‘lib bir so‘z dedi:

Husni ming tuman baholi
Dilbarim, dildorim keldi!
So‘rmoqqa kelmish bu holi,
G‘am daf’i — g‘amxo‘rim keldi!

Labindan ne’mat sochilar,
Mehribon bo‘lib ochilar,
Sunbul bosh egmas soch ila,
Jon rishtasi — torim keldi.

Kel beri, dasting olmali,
Biz uchun yana olmali,
Oq yuzi qo‘sha olmali,
Olma bilan norim keldi.

[1] **O‘tag‘a** — qizlarning taxyasiga qadab qo‘yiladigan par, sulton.

Yel tegsa — ishqning tig‘idir,
Siynamda shu ishq dog‘idir,
Yetmasman, shu ishq tog‘idir,
Go‘zal vafodorim keldi.

Quvondim rangi holina,
Aldandim makr-u olina[1],
Qo‘lin daldalab oldina,
Zulfi ajdahorim keldi.

Jilvasi — olam noridir,
Altofi bizdan naridir,
Qo‘lida olma-noridir,
Ko‘zlari xunxorim keldi.

Jamoli olam yoritir,
Har zulfi olam yarmidir,
Ko‘rgan der: “Kimning yoridir?”,
Ul fasli bahorim keldi.

Oq yuzinda nuqta xoli,
Tohirning ne kechar holi,
So‘rmoqqa kelmas bu holi,
Soqiy, gulruxsorim keldi.

Alqissa, Tohirbek so‘zini tamom etdi. Shul payt Zuhra qiz ham kelib yetdi. Oshiq Tohir daraxtdan tushdi. Ikkisi bir soat chaqchaqlashib, shodiyon bo‘lib o‘tirdilar. Shundan so‘ng Tohir Zuhraning kechikib kelganiga xafa bo‘lib, bir so‘z aytdi:

Ey shamsi anvor yuzli gul,
Ko‘rmagay erdim koshki.
Avvalda men sanga ko‘ngil
Bermagay erdim koshki.

[1]**Ol** — hiyla, o‘yin.

Ey bulbuli bog‘i Eram,
Ey mehribon zebo sanam!
La’lning zakotin dam-badam,
So‘rmag‘ay erdim koshki.

Ishqingda men, ey bexabar,
Yig‘lab kezib shom-u sahar,
Hijron chekib, xuni jigar
Tilmagay erdim koshki.

Sen jilva aylab jon aro,
Devonaman inson aro,
Boshim solib maydon aro
Kirmagay erdim koshki.

Izlab visoling men gado,
Qildim aziz jonim fido,
Himmat etagin belima
Urmagay erdim koshki.

Tohir aytar: ey bokaram!
Bo‘ldi suyi lojaram,
Mardon turib, ishqqa qadam
Qo‘ymagay erdim koshki.

Alqissa, Tohir so‘zini tamom qildi. Zuhra qizning ishqi jo‘sh urib:

— Ey Tohirjon, jonim yo‘lingga qurbon! Yur, maktabga ketaylik, — deb maktabga jo‘nadi.

Bu ikkisining oshiq-ma’shuqligi olam-jahonga mashhur bo‘ldi. Boboxon bilan Bohirning ahdi vafo qilishgani shahar xalqiga ma’lum erdi, ammo Tohir bilan Zuhra qizning bu ishdan xabari yo‘q edi.

Bir kuni Zuhra bilan Tohir maktabdan keldilar. Bularning yo‘li bir bo‘z to‘qiyotgan kampirning yonidan tushdi. Ul qari ayol oshiqlarning oldidan chiqib dedi:

— Ey qo‘zilarim! Men bu yerda bo‘z to‘qiyapman, sizlar mening ishimga ziyon yetkazarsizlar. To‘qilayotgan bo‘zning ustidan o‘tmang, o‘zga yerlardan yo‘l soling. Men g‘aribning duosini oling!

Qarining bu so‘zlariga Tohir quloq solmadi, oshig‘ini tikib, qo‘lidagi qo‘rg‘oshin quyilgan kenagini otib yubordi. Kenak oshiqqa tegib, yuqoriga chiqib, borib, to‘qilayogan bo‘zning ikkita o‘rishini qirib yubordi. Buni ko‘rgan kampirning qahri keldi: “Ey qo‘zilarim! Biz — g‘arib, sizlar — bekzoda, sizlarga yomon so‘z aytmoqqa qo‘rqarman, har holda, ikki kalima arzim bor” — deb bir abyot aytar bo‘ldi:

Tohirjon, hazil etma menga,
Hazil ayla Zuhrajon bilan.
O‘ynab-tegishmoq yarashmas,
Kampirga navjuvon bilan.

Har kim o‘ynar o‘z tengiga,
Bosh urma dunyo jangiga,
G‘aflatda qolib so‘ngiga,
O‘tmagaysan armon bilan.

Orangizda bir so‘z bordir,
Shoh-vazirga oshkordir,
Shahar xalqi boxabardir,
Ayon ermas gumon bilan.

Yomon yo‘ldir ishqning yo‘li,
Bo‘larsan devona, dali.
Haqiqatni so‘rg‘il vale
Enang Shohixo‘bon bilan.

Davron ustingizda turmas,
Ko‘ngil istagan yerga yurmas,
Shoh Zuhrani sizga bermas,
Yellar ketar tuman bilan.

Yuzlari jannatning guli,
Zulflari savsan-sunbuli,
Ovozi Eram bulbuli,
O‘rtar seni fig‘on bilan.

Qarilarning pandin olsang,
G‘ariblarga rahm qilsang,
Zuhrajonga oshiq bo‘lsang,
O‘tar umring hijron bilan.

Qari aytar, shuldir so‘zim,
Cho‘x nafarlar ko‘rdi ko‘zim,
Sen — o‘g‘lim, Zuhrajon — qizim,
Ahdingiz bor paymon bilan.

Bu so‘zni eshitib, Tohirjon yuragiga o‘t tushdi va o‘ynamoqdan, kulmoqdan, yemoq-ichmoqdan bezor bo‘ldi. So‘ngra onasining yoniga borib aytdi:

— Ey ona, sahroda yoz chiqib, gullar ochilibdi, jahon lolazor bo‘libdi. El sahroga saylga ketyapti. Menga ham bir qism qovurg‘a[1] qilib bersang, men ham sahroga chiqib, ov ovlab kelsam...

Onasi qovurg‘a qilib, bir idishga solib, “ol, qo‘zim” deb oldiga qo‘ydi. Tohir olmadi va dedi:

— Ey mehribon onam! Menga qovurg‘ani o‘z qo‘ling bilan yedirsang, men sening qo‘lingdan ovqatlanishni istayman.

Onasi “xo‘p bo‘ladi, o‘g‘lim”, deb o‘g‘liga o‘z qo‘lidan ovqat yedirmoqchi bo‘ldi. Shu payt Tohirbek onasining qo‘lini tashidan tutib qisdi. Onasi:

— Oh, qo‘lim kuydi, qo‘yvor! — dedi.

Shunda Tohir:

— Ey ona! Bir sir bor, xabar ber, Xudoy taolo muyassar etsa, qachon maqsadga yetarman? Agar to‘g‘risini aytsang, qo‘yvoraman! — dedi.

Onasi:

— Qo‘yvor, qo‘zim, qo‘lim yondi... To‘g‘risini aytayin, — dedi.

---

[1] **Qovurg‘a** — qovurilgan bug‘doy. Bu yerda taom, ovqat, yegulik ma’nosida.

Tohir onasining qo'lini qo'yvorib:

— Ey ona, otam bilan podshoning qanday ahdi bor edi? — deb so'radi.

Onasi:

— Ey ko'zimning ravshani, ko'nglimning chirog'i, boshimning toji, bag'rimning payvandi, yuragimning tiragi, Xudoy taolo menga bergan yolg'iz farzand, senga rostini aytaman, senga aytmay kimga aytayin. Ey qo'zim, Boboxon bilan Bohirning ahd-u paymon qilganlari to'g'ri. Ammo Boboxon ahdidan qaytdi. Ul zamon, ul ayyomlar o'tib ketdi, otang ham dunyodan o'tdi... Sen ham endi ul va'dalarni unut. Ul va'dalar puch va'dalardir. Ular shoh, shohlarga shohlar loyiq bo'ladi. Bizlar bir faqirlarmiz. Sen ham o'z tengingni toparsan. Zuhrajonga ko'ngil berma, fitna paydo bo'ladi, dushman orttirasan! — dedi. Shunda Tohir:

— Ey ona, avvaldan xabardor etsang, yaxshi bo'lar edi. Endi ishq mening ixtiyorimni olgandir, jonimni Zuhra qizning yo'lida fido etarman! — deb, ishqi avvalgidan ham battar ortib, bu g'azalini aytdi. Ko'r, boq, nima der:

Men bugun tushmisham ishqning yo'liga,
Ona, menda ne ixtiyor bor endi?
Zuhrajonning oq yuzida xoliga
Ko'ngil havas, ko'zim intizor endi.

Ishq olovi o'rtar tan-u zorimni,
Bulbulman, sayr etam guluzorimni,
Bir zamon ko'rmasam sevar yorimni
Telba ko'nglim bo'lar beqaror endi.

Ishqinda quyundek ovora bo'lsam,
Chorasin topmayin bechora bo'lsam,
Zuhraning yonida yuz pora bo'lsam,
Murodim, maqsadim shunda bor endi.

O'zim yolg'iz, yuz dushman bor sha'nimga,
Oxir bir kun qolar nohaq qonimga,

Shohning rahmi kelmas shirin jonimga,
Oshiqlarga Haqdir madadkor endi.

Ishqning o'ti tushsa jahonni o'rtar,
Otam o'lib, taqdir har yonga tortar,
Oltin yerda yotsa, shu'lasi ortar,
Gavhar kulda qolib, bo'lmas xor endi.

Haq oshiqman, ishq yo'lida o'tarman,
Yo Rab, maqsadimga qachon yetarman?
Zuhra bilan bog' saylina ketarman,
Ochilibdir bog'da guluzor endi.

Hech bir kimsa xabar olmas holimdan,
Nomarddirman agar do'nsam[1] yo'limdan,
Tohir aytar, mastman, qo'rqmam o'limdan,
Qursalar oldimda yuz ming dor endi!

Alqissa, Tohir so'zini tamomlab, kissasiga bir siqim qovurg'a solib, maktabga ketdi. Maktabdagi jami o'quvchilarning xalifasi (ustozi, boshchisi) Zuhra ikkisi edi. Mullasining ismi Mullanafas Marvi shohi jahon edi, o'zi taka urug'ining yozi toifasidan edi. U ko'p bilimlardan xabardor edi, ishq masalasini ham yaxshi tushunib, ishq yo'lida ko'p zahmatlar chekkan, Zuhra bilan Tohirning bir-biriga oshiq ekanligini bilar edi.

Bir kuni mulla:

— Ey Zuhrajon, Tohirjonning ham sabog'idan bexabar bo'lmagin, — deb, o'zi bir yoqqa chiqib ketdi. Bularning ishqi kun-kundan ortib, Zuhrajon chiroqday yonib, Tohirbek parvonaday o'rtanib, ikkisi otashi so'zonga giriftor bo'lib, visol-u hijron yodiga tushib, ayrilsalar bir-birini yodlab, yig'lab yuradigan vaqtlari edi. Shu kuni Zuhra aytdi:

— Ey Tohirjon, ishq yo'li qattiq mashaqqatli yo'l ekan, bu yo'lda ranj-u azoblar ham ko'p ko'rilsa kerak. Ancha oshiqlar ishq yo'lida dod-faryod chekib o'tganlar. Ishqning yuki tog'lardan

[1] **Do'nmoq** — o'zgarmoq, qaytmoq.

og‘irdir, ishqning o‘ti do‘zax o‘tidan battardir. Bu ishqni Alloh taolo endi ikkimizning boshimizga solibdi. Oshiqlik — mardlikning ishidir, mardona bo‘lmoq kerak! — deb, bir g‘azal aytdi:

Tohirjon, bu yo‘lda mardona bo‘lg‘il,
Bu kun ishqning savdosiga tushmisham.
Jonim qurbon sanga, jonona bo‘lg‘il,
Bu kun ishqning savdosiga tushmisham.

Raqib sezsa, bizni qilar oshkora,
Malomat ko‘p bo‘lar, dov tushar ora,
Men qaytmasman agar bo‘lsam yuz pora!
Bu kun ishqning savdosiga tushmisham.

Avval qismat bizga tutdi bu dardni,
Ahdi nikoh aylab bir-birga berdi,
Otam ahdin buzdi, bizdan ne ko‘rdi?
Bu kuni ishqning savdosiga tushmisham.

Nechun bu visolda ko‘p yig‘lading zor?
Keltirsang ko‘nglingga bir ayroliq bor,
Oshno bo‘lmoq oson, ayroliq dushvor,
Bu kun ishqning savdosiga tushmisham.

Siynamda ishq xanjaridan jarohat,
Istagim — sog‘liging, bo‘lgin salomat,
Endi menda na sabr bor, na toqat,
Bu kun ishqning savdosiga tushmisham.

Bir ojizman, kim ham eshitar dodim,
Magar madad bersa pirim, ustodim,
Zuhrajon der, sensan maqsad-murodim,
Bu kun ishqning savdosiga tushmisham.

Alqissa, Zuhrajon bu so‘zini tamomlab dedi:

— Ey, Tohirjon! Bir vaqt boshingga o‘lim yoki zulm tushsa, otamga o‘xshab, ahdingdan qaytmagin. Agarda vaqting xush

bo‘lganda “oshiqman” deb, boshingga ish tushganda do‘nsang, meni va o‘zingni elda masxara qilarsan...

Shunda Tohir:

— Ey Zuhrajon! Men senga o‘z erkim bilan oshiqman, — deb bir abyot aytar bo‘ldi:

Bir oshiqi mastoningman,
Qo‘rqmam kamandi doringdan!
O‘lsam sening qurboningman,
Vahm etmagil dildoringdan.

Sen bir gulsan, men — xoringman,
Chin oshiqi diydoringman,
Mastona bulbul zoringman,
Quvlamagin gulzoringdan!

Ishq ichra siyna dog‘liman,
Farhod-u Majnun chog‘liman,
Bir itday bo‘yni bog‘liman,
Band o‘lmisham bir toringdan!

Ko‘yingda telba-nodonman,
Jon berib, orzu qilg‘onman,
Husning bog‘inda bog‘bonman,
Termisham olma-noringdan.

“Layli,
Shirin sencha bordir”, —
Desa, bu so‘zlar bekordir.
Telba ko‘nglim vahimdordir,
Ikki o‘rim ajdaringdan.

Haq nazar solmish o‘zingga,
Qoshingga, nargiz ko‘zingga,
Davomli boqsam yuzingga,
Ko‘zim to‘ymas diydoringdan!

Tohir der, kunda yonaman,
Ishq o‘tiga parvonaman,
Sog‘ demanglar, devonaman,
Kechmisham nomus-orimdan!

Alqissa, Tohirbek so‘zini tamom etdi. Ikkisi bir-biridan rozi bo‘lishib, o‘pishib-quchishib, yig‘lashdilar. Shu vaqt Tohir aytdi:

— Ey Zuhrajon, kel, bu yerda yig‘lashib, g‘amgin bo‘lib o‘tirmaylik, bog‘ga, sayrga ketaylik.

Zuhraning otasining bir bog‘i bor edi, uni Zuhrajonga bag‘ishlab edi, uni Bog‘imaydon deb atar edilar. Bu bog‘ sifatini ta’rif etib bo‘lmas edi, misli behisht bog‘laridek fayzli edi, g‘amgin bo‘lib borganlar xushvaqt bo‘lib, yig‘laganlar kulib chiqar edi.

Tohirbek Zuhrajonning muborak oq qo‘lidan tutib, “Bog‘imaydonga ketaylik” deb bir g‘azal aytdi:

Bog‘laringda toza gullar ochilmish,
Kel, Zuhrajon, bog‘ saylina ketaylik.
Bulbullar mast bo‘lib,
shabnam sochilmish,
Yur, Zuhrajon, bog‘ saylina ketaylik.

Siring ma’lum etsang yaxshi-yomona,
Dovruq tushar o‘n sakkiz ming jahona,
Raqib sezsa, bizni qo‘ymas omona,
Yur, Zuhrajon, bog‘ saylina ketaylik.

Alifdek qomating o‘xshatma dola,
Qurbon o‘lam sarvi qaddi nihola,
Jonim fido bo‘lsin oq yuzda xola,
Yur, Zuhrajon, bog‘ saylina ketaylik.

Bulbul sayron etar gulda, chamanda,
Ayroliq vahmidan ko‘nglim fig‘onda,
Tohir aytar, armon qolmasin jonda,
Tur, Zuhrajon, bog‘ saylina ketaylik.

Alqissa, Zuhra qiz: "Har kim va'da etib, va'dasidan qaytsa, uning imoni yo'qdir! Otam ahdidan do'nsa ham, men hargiz qaytmasman. Kel, Tohirim, bog' saylina ketaylik", deb bog'ga kirib ketdi.

Ikkisi Layli-Majnundek qo'l ushlashib, biri qizil, biri lojuvard-u gulgun liboslarni kiyib, go'yo kamalakday bo'lib, bog'da sayr etib, vaqtlarini xushlab yurar edilar. Goh Zuhraning qo'li Tohirning bo'yninda, goh Tohirning qo'li Zuhraning bo'yninda edi.

Ammo bog'ning Hasan chug'ul[1] degan bir bog'boni bor edi. Kun choshgoh mahali u bog'ni aylanmoqqa bordi. Ko'rsa, bog'ning ichida bir ovoz paydo bo'ldi. Bog'bon bu ovozning qushnikimi, odamnikimi yoki ins-jinnikimi ekanligini anglayolmay qochib tashqariga chiqdi. So'ngra, "Agar muning ani-g'iga yetmasam, birdan bog'ga qaroqchi zarar yetkazsa, podshohga nima javob berarman?", deb, yana bog'ga kirib, asta-asta yurib, daraxtlarni oralab, ovoz chiqqan joyga yaqin bordi. Ko'rsa, Tohir bilan Zuhra. Zuhra qiz oshig'iga ovoz bilan shirin abyot o'qiyapti, tovushining shirinligiga ins va jinlar hayron qoladi. Bog'bon ham hushidan ayrilib, bir soat behush yotib, so'ngra o'zini rostlab: "Bularga aziyat yetkazmayin, bularning gulday tarzlarini so'ldirmayin, kishiga zohir etmayin" deb chiqib qaytdi. Ketib borayotib, yana bog'bonning ko'ngliga shayton vasvasa solib, o'ziga o'zi aytdi: "Ey Hasan chug'ul, sen umringda gap-so'z kezdirmoqdan boshqa ishing bo'lmadi, endi oltmishdan oshganingda katxudo bo'larmiding? "Egri og'och o'z yotishiga qarab o'sadi" degan naql bordir. Ikkiboshdan sen bu so'zlarni boshqa birovga aytmasdan yurolmaysan. Nima bo'lsa ham, avvaldan qilib yurgan ishingni bajaraver, buning xabarini tezroq podshohga borib yetkaz!" dedi. Boboxon huzuriga borib: "Shohi bokaram! Bu xizmatkor qulingning janobi oliyga arzi bor" deb, Zuhrani — gulga, Tohirni — bulbulga o'xshatib bir abyot o'qidi:

Gul bilan bulbul kelib, gul ichra sayron qildi gul,
Gul tomoshasin ko'rib, o'z bargini qon qildi gul.

---

[1] **Chug'ul** — chaqimchi, fisq-fasod, g'iybat bilan shug'ullanuvchi, fosiq odam.

Gul bu kunlar holina gullarni sayron ayladi,
Rashkidan rom aylanib, azmi biyobon qildi gul.

Men dedim: "Yo Rab, ne gulsan gulni hayron aylagan?"
Gul kulib, so'zlab o'zi ham bizni xandon qildi gul.

Gul gula sarvi xiromon, gul gul bila aylab xirom,
Sarvini aylab ado, gulni xiromon qildi gul.

Bulbula gullar munosib, gul munosib bulbula,
Bulbula o'tlar solib, husnin guliston qildi gul.

Gul yuziga gulni o'xshatsam, gula ne ayb erur,
O'zining ziynatini yer birla yakson qildi gul.

Gul gula gulgasht etar, gullar gula hayron bo'lub,
Shabnam ermas gul aro, vasl ichra giryon bo'ldi gul.

Gul gula bas aylasa, gullar munosibdir gula,
Gula bulbul mast etar, olamni maston qildi gul.

Gul shitob-u sur'atindan muztarib gul har taraf,
Gul o'zidan vahm etib, o'rnida larzon qildi gul.

Sunbulidir, yoki sarg'armish yuzi gul tobidan,
Bulbuliga yuz ochib, zulfin parishon qildi gul.

Ismi gul, ruxsori gul, desam xatodir ul gula,
Voh ajab, donolari vasfinda nodon qildi gul.

Bog'bonman men bu kun, bog' ichra ko'rdim bulbuli,
Bulbulning holin ko'rib, choki giribon qildi gul.

Alqissa, bog'bon bu xabarni yetkazgan zamon, podshoh buning gapini anglab: "Ey bog'bon, yaxshi xabaring bor" dedi. Bog'bon qaytib ketdi. Podshoh darg'azab bo'lib, tilla taxtiga chiqib, jallodga

qarab: "Boringlar, Tohirni keltiringlar!" deb farmon berdi. Yasovullar darhol borib, bexabar o'tirgan Tohirni tutib, podshohning ixtiyoriga olib keldilar. Shul vaqt bir sandiq ham keltirib, Tohir bechorani so'zlatmay, xabarini so'ramay, sandiqqa soldilar. Podshoh: "Daryoga tashlang!" deb hukm etdi. Tohirning ahvolini ko'rib yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan barcha shahar ahli yig'ladilar. Shu fursatda Tohir:

— Ey yasovullar, biroz sabr eting, bir soat sandiqning og'zini oching, yorug' jahonni ko'rayin. Men bugun safar qilaman, Zuhrajondan ayrilaman, Zuhra qiz bilan ollayorlashib-xo'shlashib ketayin, — deb yolvordi. Shu holda Zuhra qiz yuragiga o't tushib, ko'zinda yosh, bag'rinda tosh, zor-zor yig'lab, xalqni bir tarafga surib borib, Tohirning qarshisida turib:

— Tohirjon, xizmatingga keldim, bu jonim senga qurbondir, nima so'zing bor, aytaver! — dedi.

Tohirjon zor-zor, chun abri navbahor yig'lab, bir abyot aytdi:

Zuhrajon, yig'lagin ayroliq kuni,
Ketar bo'ldim, Alloh yoring, xush endi!
Xazon urib, so'ldi umrim gulshani,
Ketar bo'ldim, Alloh yoring, xush endi!

Sen bir gulsan, qo'ngan zog'-u zog'ondir,
Guldan ayru bulbul ishi fig'ondir,
Tuganmas ayroliq — oxirzamondir,
Ketar bo'ldim, Alloh yoring, xush endi!

Keldim, nima ko'rdim dunyo ichinda,
G'arib boshim yuz ming g'avg'o ichinda,
Sandiqdir maskanim daryo ichinda,
Ketar bo'ldim, Alloh yoring, xush endi!

Gadolikning ishi shohlardan bitmas,
Otam kelib menga yelkasin tutmas,
Ul sababdan oshiq muroda etmas,
Ketar bo'ldim, Alloh yoring, xush endi!

Falakning ishiga hayron bo‘libman,
Hijroningda zor-u giryon bo‘libman,
Ko‘zlarning yoshiga qurbon bo‘libman,
Ketar bo‘ldim, Alloh yoring, xush endi!

Bu nechuk zamondir, nechuk makondir,
Daryodan suv topmay, ichganim qondir,
G‘arib onam, isming Shohixo‘bondir,
Ketar bo‘ldim, Alloh yoring, xush endi!

Tohir aytar, mendan yuzing do‘ndirma[1],
Avval kuygan jonim yana kuydirma,
Bog‘larimga zog‘-u zog‘on qo‘ndirma,
Ketar bo‘ldim, Alloh yoring, xush endi!

Alqissa, Tohir so‘zini tamom etdi. Zuhra qiz: “Ey Tohirjon! Agar meni har kuni Jirjis[2] kabi o‘ldirib-tiriltirsalar ham, hazrati Zakariyo[3] alayhissalomdek boshimni arra bilan pora-pora etsalar ham, toki Dabbatul arz[4] kelib, qiyomat kuni mahshar boshlangunga qadar menga sendan boshqa do‘st-dushmanning qo‘li yetmas” deb, bir so‘z aytdi:

Zog‘-u zog‘on qo‘nar deya yig‘lama,
Sening bilan ko‘z tikkan bu bog‘lara.
Sen bo‘lmasang, munda turar chog‘lama,
Xazon tegsin bu bo‘stonli bog‘lara.

Yaratgan eshitsin oh-u zorimni,
Men unga topshirdim har na borimni,
Terganing tar guling, olma-norimni
Ravo ko‘rmam qarg‘a bilan zog‘lara.

---

[1] **Do‘ndirma** — o‘girma.

[2] **Jirjis** — diniy tushunchalarga ko‘ra, azob-uqubat tortishda boshqalarga o‘rnak bo‘lgan chidamli, sabr-toqatli shaxs (Iso alayhissalom havoriylaridan).

[3] **Zakariyo** — Qur’oni Karimda ismi keltirilgan payg‘ambarlardan biri.

[4] **Dabbatul arz** — oxir zamon kelganining bir alomati sifatida chiqib keladigan yer hayvoni, afsonaviy-ilohiy jonvor.

Yana bu joylarga guzar solmasang,
Yoring bilan besh kun o‘ynab-kulmasang,
Bundan ketib, kelar chog‘da kelmasang,
Men ham ketam daryolara, tog‘lara.

Qodir Alloh bizni bor etdi yo‘qdan,
O‘tdan, suvdan, eldan, xokdan, tuproqdan,
Umidim ko‘p yana, o‘tsang yiroqdan,
Tushmagaysan jallod qurgan ovlara.

Shartim budir yana bu joya kelsang,
Hasratli nochoring[1] ko‘nglini olsang,
Boboxon o‘ldirsa — “Zuhra!” deb o‘lsang,
Men ham tutay aziz tanim tig‘lara.

Zuhra qiz so‘zini tamom etdi.

Bu voqeani Shohixo‘bon eshitib:

— Ey bor Xudo-yo! Pok-u parvardigor-o! Bu nechuk sir bo‘ldi, bu nechuk xabar bo‘ldi, — deb sandiq boshiga keldi va ko‘zidan qatra-qatra yosh to‘kib:

— Yana ham bir soat ta’ammul qiling.[2] Ey xaloyiq, bu ikkisi mening imonimdir, jonimdir, ruhi ravonimdir, jonimning oromidir, dardimning darmonidir. Bulardan judo bo‘lib kezganimdan kezmaganim yaxshiroqdir. Ey xaloyiq, mening haqimga bir duo o‘qing, men Haqqa jon taslim etayin, bu mening maqsadimdir! Hech bir ona men kabi zor-giryon, bag‘ri biryon, aqli hayron bo‘lmasin! Bular mening boshimning toji, ko‘nglimning chirog‘i, men borib podshohga arz etayin, armonim qolmasin! — deb, podshohning yoniga bordi va “Ey podshoh, bechoralarning takyagohi sensan!” — deb, bir so‘z aytdi:

Ey podshohim, senga arzim aytayin,
Kel, mening bolamni ozod aylagin!
Seni yaratganga qurbon bo‘layin,
Kel, mening qo‘zichog‘imni ozod aylagin!

---

[1] **Nochor** — zaifa, ojiza.

[2] **Ta’ammul qilmoq** — bu yerda sabr qiling degan ma’noda.

Ozod ayla bir Allohning haqi-chun,
Haq mursali anbiyoning haqi-chun,
Sevar qizing — Zuhrajonning haqi-chun,
Mening Tohirjonim ozod aylagin!

Bohir vazir bilan aylading paymon,
Do‘nmagin ahdingdan, gar bo‘lsa imon,
Oshiqlar jonida qo‘ymagil armon,
Kel, mening Tohirim ozod aylagin!

Tohirjonim bugun o‘n to‘rt yoshinda,
Sen sababli dushman tegra-tashinda,
Umr sursin Zuhrajonning qoshinda,
Sen mening Tohirim ozod aylagin!

Bugun o‘tirmasin sening to‘zingda,
Oqdirib yuborma daryo yuzinda,
Zuhra qiz jon berar uning izinda,
Shoh, mening o‘g‘limni ozod aylagin!

Adolatli shohda bir bo‘lar iqror,
“Shohman!” deya ahdni buzmoqda ne bor?
Yozuqli qulingman, bo‘ldim xaridor,
Shoh, mening o‘g‘limni ozod aylagin!

Dunyo bepoyondir, bo‘lmas poyoni,
Yutar bir lahzada xonni, sultonni,
Xushnud qilib qo‘yvor Shohixo‘bonni,
Shoh, mening qo‘zimni ozod aylagin!

Shohixo‘bon so‘zini tamom etdi. Podshoh:

— Ey Shohixo‘bon! Nari turgin! Sening o‘g‘lingning jazosi o‘limdir. Hanuzgacha ushlab turibsizlarmi? Boringlar, tezda daryoga eltib tashlanglar! — deb hukm etdi.

Yasovullar Tohirbekni sandiqqa solib, daryo yoqasiga olib keldilar.

Ul vaqtda ulug‘-kichik shahar xalqi yig‘ilishib:

“Yana ham bir bora arz etib ko‘raylik” — deyishib, podshohga arz etdilar. Ammo so‘zlari qabul bo‘lmadi. Ular yig‘lashib, dod-u faryod qilib qaytdilar.

Sandiqni qulflab, daryoga tashladilar. Shu vaqt qo‘llarida qora ro‘mol, belinda qora belbog‘, qop-qora kiyingan Zuhrajon ham o‘tga tushgan parvonaday tipirchilab, zor-zor, chun abri navbahor yig‘lab, sandiqqa yopishib, “yo huv” deya o‘zini daryoga tashladi. Shoh qiziga hech kim qo‘lini urishga jur’at etmadi. Buning izi bilan kanizaklardan, xalqning ichidan ham uch yuz yigirma kishi o‘zini daryoga tashladi. Zuhra qiz goh cho‘kib, goh chiqib, borib sandiqqa yopishdi. Shundoq to‘fon bo‘ldiki, go‘yo hazrati Nuh payg‘ambarning to‘fonidek, ko‘p odamlar daryoning ichida va yoqasida halok bo‘ldilar. Ammo Zuhra sandiqqa yopishib ravona bo‘ldi. El-u xalq “Tohirjon ketdi, Zuhrajon ham birga oqib ketdi...” deb yig‘lashdi.

Shu vaqt sandiq bir girdobga yetdi. Girdob sandiqni otib-o‘ynab, daryoning qirg‘og‘iga chiqardi. Shu vaqt Shohixo‘bon o‘zini daryoga otib, Zuhra qiz bilan sandiqni daryo yoqasiga tortib chiqardi va behush bo‘lib yiqildi. Buning ustiga, to‘n yopib qo‘ydilar. Yasovullar sandiqni yana daryoga tashladilar. Shu vaqt sandiqdan: “Ey Zuhrajon! Hamma ulug‘-kichiklar! Alloh yoringiz bo‘lsin” degan ovoz chiqdi. Zuhrajon ko‘zini ochib ko‘rsa, sandiq daryoda oqib borayotgan ekan.

Shunda Zuhrajon:

— Men ham Tohir bilan ketaman! — deb, o‘zini daryoga otmoqchi bo‘ldi. Zuhrajonning qirq kanizi bor edi. Buning ichida Gulzoda, Gulqamar, Gavhar va Sadna degan to‘rt sarkardasi bor edi. Ular Zuhraning to‘rt tarafidan tutib qo‘yvormadilar.

— Ey Zuhrajon! Oshiq zahmat chekmasdan murodga yetmas, hijron cho‘liga tushmagan oshiq — oshiq bo‘lmas. Endi ketsang halok bo‘lasan. Tohir daryoning ichi bilan ketsa, biz tashi bilan ketarmiz. Bir yerda daryodan chiqarib olamiz, — dedilar.

Zuhra qiz qirq kanizi bilan daryo bo‘ylab, ravona bo‘ldi. Shu vaqt Zuhrajon el-xalqi, tug‘gan-tug‘ishgan, qarindoshlari bilan xayrlashib-olloyorlashib, bir so‘z aytdi:

Xush qol endi, elim-kunim,
Bu manzilda turorim yo‘q.
Daryoga tushdi maxzanim,
Qolmoqqa ixtiyorim yo‘q.

Cho‘x savdoga soldim boshim,
Tinmay oqar ko‘zda yoshim,
Botibdir oyim, quyoshim,
Chiqmaguncha qarorim yo‘q.

Qayda borsa — men bormasam,
Yor bilan davron surmasam,
Tohirning yuzin ko‘rmasam,
Hech suhbatda turorim yo‘q.

Yorim ketdi, sargardonman,
Ishqning o‘tida biryonman,
Meni yoqdi ota-onam,
El-yurt, sizdan ozorim yo‘q.

Men ham daryoda kezarman,
Gohi bo‘ylab, goh suzarman,
El-yurt, sizdan qo‘l uzarman,
Tark etdim, nomus-orim yo‘q.

Ketmoqqa belim bog‘larman,
Qonli jigarim dog‘larman.
Sevar yor uchun yig‘layman,
G‘ayri bir kasbi-korim yo‘q.

Zuhra der, baxtim qoradir,
Yuragim yuz ming yaradir,
Siynalarim sadporadir,
Yuray desam, madorim yo‘q.

Alqissa, Zuhrajon so‘zini tamom etdi, yana yo‘lga ravona bo‘lay desa, yurmoqqa madori qolmabdi, ishq uning quvvatini olib, ayroliq vahmi shunchalik zaif qilib tashlabdiki, go‘yo qanoti

qirilgan qushdek majolsiz edi. Tohirning qorasi ko'rinmas bo'lib boraverdi.

Zuhra shu orada nima qilishini bilmasdan bir so'z aytdi:

Yorim ketdi, yolg'iz qoldim izinda,
Yaratganim, madad berar kuningdir.
Gul tanim kul bo'ldi hijron to'zinda,
Bu kun manga quvvat berar kuningdir.

Yo payg'ambar sallollohu vasallam,
Yo hazrat-o, barchalardan muhtaram,
Bu holima rahm aylabon dam-badam,
Bu kun menga quvvat berar kuningdir.

Orzuyim bor, ketsam, birga yurmoqqa,
Quvvatim yo'q yo'lga qadam urmoqqa,
Majolim yo'q o'tirmoqqa, turmoqqa,
Bu kun menga quvvat berar kuningdir.

Vayron bo'lsin shahri Tatar qal'alar,
Tohir uchun qayda rabot solalar,
Menga kelsin senga kelar balolar,
Bu kun menga quvvat berar kuningdir.

Zuhra der, qolmadi sabr-u qarorim,
Daryoga g'arq bo'ldi sevgili yorim,
Bu ishqning ofati oldi madorim,
Bu kun menga quvvat berar kuningdir.

Alqissa, Zuhrajon so'zini tamom qildi. Uning nolishini Xudoy taolo eshitib, Zuhrajon andomida quvvat paydo bo'ldi, yuraginda o't paydo bo'ldi, chor tarafga termilib, yana o'rnidan turib, kanizlari bilan yo'lga ravona bo'ldi. Shaharda: "Zuhra qiz qirq kanizagini olib, o'lkadan chiqdi" degan xabar tarqaldi. Bu xabar podshohning ham qulog'iga yetib, arkoni davlati bilan shahardan chiqib, qizining izidan yetib:

— Ey Zuhrajon! Mening bir g'ulomimga buncha ko'ngil berib, mening or-nomusimni bunchalar yerga bukding! Inshoolloh, o'z barobaringga qo'shib, murodingga yetkazarman! — deb tavallo aytdi. Ammo Zuhra otasining so'ziga quloq solmay ketaverdi. Shoh vazir-u vakillari bilan birga harchand tavallo aytmasinlar, foydasi bo'lmadi. Undan so'ng podshoh: "Zuhrajon yurtdan chiqib ketib boradir, bunga so'zi o'tadigan shaharda hech mahram qoldimi?" — deb so'radi. Shunda bir kishi:

— Zuhra bilan Tohirni o'qitgan bir mulla bor. Balki, shuning so'zini olar, — dedi.

"Zuhrajon qizni qaytarmoq kerak!" deb, mullaga odam yubordilar. Mulla: "Shoh amri vojib!" deb, otini egarlab, eltini ham mingashtirib, yo'lga ravona bo'ldi va tez orada ular Zuhrajonning izidan yetib, oldiga chiqib:

— Ey qo'zim, otangni bunchalar xijolatga qo'yma, — deb nasihat-tavallo aytdilar. Ammo Zuhra qiz to'xtamay, ilgari yuraverdi. Shunda mulla eltiga:

— Hay-hay, elti! Zuhrajonni ushla, yana bir marta tavallo aytib ko'raylik! — dedi. Elti o'zini otdan tashlab, borib Zuhrajonning qo'lidan tutdi. Zuhra qo'lini silkib oldi. Beli to'g'ri keldi — elti qizning belidan qars-sa quchoqlab, qo'yvormay:

— Ey Zuhrajon! Andak to'xtab ol! Mullaning tavallosini eshit, undan keyin ketarsan, seni qo'yib yuborarmiz. Men ham seningdek qattiq oshiqlikni ko'rmasam ham, guzarindan chalaroq qarab erdim! — dedi. Shu payt Mullanafas Zuhraning oldiga chiqib:

— Ey Zuhrajon! Men ham shu elti uchun ishq yo'lida ko'p kezgan edim. Ishqning kaliti — sabr aylamoqdir, — deb, Zuhraga ko'ngillik bildirib, bir so'z aytdi:

Inshoolloh, maqsadingga yetarsan,
Yig'lamagin, Zuhrajonim, qayt endi!
Tohir bilan kulib-o'ynab o'tarsan,
Yig'lamagin, Zuhra qizim, qayt endi!

Otang qilmishiga olam hayrondir,
Hali shoh-u mahshar sen tomondir,

Elti — bir onangdir, Mulla — otangdir,
Sevar qo‘zim, Zuhrajonim, qayt endi!

Zolim otang nechuk ishlarni qildi
“Tohirni g‘arq aylang!” — deya buyurdi,
Bu kun seni sevar yordan ayirdi,
Zuhra bolam, sen bu yo‘ldan qayt endi!

Ko‘p anbiyo-avliyolar haqi-chun,
Ming bir ismli bir Allohning haqi-chun,
Ta’lim olgan shu Qur’onning haqi-chun,
Ol tavallom, Zuhra qizim, qayt endi!

Ishqning o‘ti tushsa yolg‘on jahonda,
Yoqadi, yondirar, kuyar zamonda,
Sensan ishqning yukin olgan mardona,
Mardona bo‘l, Zuhrajonim, qayt endi!

Layli chekdi ul Majnunning jafosin,
Sura olmay o‘tdi zavq-u safosin,
Kim ko‘ribdir bu dunyoning vafosin,
Mehribonim, Zuhra qizim, qayt endi!

Nafas aytar, dunyoga kelib-kechibman,
Ishq bahridan yetti daryo ichibman.
Munajjim ilmidan kitob ochibman,
So‘zsiz kelar, Zuhrajonim, qayt endi!

Mullanafas so‘zini tamom qildi. Zuhrajon mullasining so‘ziga quloq osib, to‘xtadi. Ammo qonxo‘r daryo mavj urib, har mavji osmonga chiqib, sandiqni o‘ynatib olib ketaverdi. Shu yerda bir girdob bor edi. Uni “girdobi maryam” der edilar. Sandiq shu girdobga tushib, goh o‘ng tomonga, goh so‘l tomonga o‘zini urar edi. Shu vaqt daryo tomondan bir shamol esib, sandiq ichidan zorli bir ovoz eshitildi. Xalq quloq solsa, Tohir faqir zorli-zorli so‘z aytib, shu bir muxammasni aytayotgan ekan:

Zuhrajon, hajringda kuydim, jon sendan ayrilib,
Chun bo'lib diydalarim giryon sendan ayrilib,
Buzilib ko'nglim uyi vayron sendan ayrilib,
Qolmadi toqat manda, farmon, sendan ayrilib,
Topmadim bu dardima darmon sendan ayrilib.

Gar g'azab qil, gar rahm qil, mehribonim sen mening,
Jonim ol, yo jon ber — oromijonim sen mening,
Qadi zebo, bog' aro sarvi ravonim sen mening,
Ko'nglim olgan bir parivash dilistonim sen mening,
Yuz alam, yuz nolayi afg'on sendan ayrilib.

Ko'nglimi xushxohi sensan, ko'zlarimning ravshani,
Barcha xo'blar sarvari, ishq ahlining toji sari,
Bormudir ushbu jahonda sen kabi zebo pari,
Ziynati ro'yi zaminning ham osmonning zevari,
Oqmisham daryo bilan, armon, sendan ayrilib...

Novaki mujgonlaring bag'rimda paykondir bugun,
Ayroliq oxirzamondir, ro'zi hijrondir bugun,
Yeganimdir zahri qotil, ichganim qondir bugun,
Bu tiriklikdan menga o'lmaklik osondir bugun,
Bo'lmadi bu mushkulim oson sendan ayrilib.

Der Tohir: ul Zuhrajon so'rmoqqa kelmas holimi,
Sendan o'zga kim bilar boshdan kechgan ahvolimi?
Naylayin, kaj ayladi qahba falak iqbolimi,
Koshki ko'rsam yuzini, qilsam tasaddiq molimi,
O'tdi bizdan davlati, davron sendan ayrilib...

Alqissa, Tohirbekning so'zi tamom bo'ldi. Daryo yoqasida bir ko'shk bor edi. Shu vaqt sandiq ko'shk tubidan o'tar bo'ldi. Daryo charx urib, devona bo'lib, sandiqni ikki tomonga otib tashlar edi. Zuhra bag'rini yerga berib, zor-zor yig'lab, bir g'azal aytdi:

Dod etarman Boboxonning qo'lindan,
Bugun meni sevar yordan ayirdi.

Shaydo bulbul uchdi toza gulindan,
Bog‘im ko‘rki — bulbulzordan ayirdi.

Mushtoq bo‘ldim yor yuzini ko‘rmoqqa,
Raqiblar qo‘ymadi birga yurmoqqa,
Qarorim yo‘q o‘tirmoqqa, turmoqqa,
Gul-chamanni xaridordan ayirdi.

Yorim ketdi, qoldim bunda qon yig‘lab,
Ayroliq otashi jigarim dog‘lab,
Ko‘nardi ko‘shk uzra har dam so‘rog‘lab,
Qo‘lg‘im ko‘rki — bo‘z shunqordan ayirdi.

Men bilmadim, ne girdoba yetibdir,
Girdob ichra qaysi baliq yutibdir,
Shamchirog‘im qaysi loya botibdir,
Falak meni nomus-ordan ayirdi.

Zuhrajon der, yo‘qdir sabrim, qarorim,
Jayxunga g‘arq bo‘ldi sevgili yorim,
Yig‘lab kechdi umrim, layl-u nahorim,
Tohir otli shahsuvordan ayirdi.

Zuhrajon so‘zini tamom etdi. Daryo mavj urib, sandiqni oqizib olib ketaverdi. Zuhrajon sandiqning goh cho‘mib, goh qalqib borishini ko‘rib, qo‘lini uzatib yig‘ladi, xaloyiqqa yolvordi, ammo bo‘lmadi. Nochor andin so‘ng zor-zor yig‘lab, “dilbarimdan ayrildim!” deb, falakdan shikoyat etib, bir muxammas aytdi:

Nozli yor, ey guluzor, cho‘x beqaror etding meni,
Yig‘latib zor, elga oshkor, telba-xor etding meni,
Almudom husning uchun devonavor etding meni,
Beshumor[1] dardga giriftor, xalqqa zor etding meni,
Zarnigor, ey shohimor, sen sharmisor etding meni.

[1] **Beshumor** — sanoqsiz.

Yona-yona, har yona parvonaday bo‘ldim bugun,
Termirib, husning ko‘rib, cho‘x sarg‘arib so‘ldim bugun,
Dard ila, hasrat ila, firqat ila o‘ldim bugun,
Yorsan, dildorsan, g‘amxo‘rsan — bildim bugun,
Senga, yor, jonim nisor, cho‘x intizor etding meni.

Har zamon zulm etsa gar, qahri yomon bo‘lg‘ay manga,
Begumon, behud o‘zing, oxirzamon bo‘lg‘ay manga,
Bilmadim, ishq qo‘lidan sud-u ziyon bo‘lg‘ay manga,
O‘rtanib hajringda, vasling bepoyon bo‘lg‘ay manga,
Ayrilib, aqlim olib, cho‘x bemador etding meni.

Xush so‘zing, xushro‘ yuzing, nargis ko‘zing jonimdadir,
Qosh qoqib, egri boqib, bu shum raqib sha’nimdadir,
Men sening tersam guling, bor istaging qonimdadir,
Shum raqibning xushligi bu zori giryonimdadir,
Zuhra der, ko‘p yig‘latib, itlarga zor etding meni.

Alqissa, Zuhrajon so‘zini tamom etdi. Sandiq bir girdobga tushib, to‘lqin bilan ko‘tarilib, daryo yoqasiga azm etib, larzon urar edi. Zuhrajon ikki ko‘zini sandiqqa tikib, sandiq qay tomonga o‘girilsa, bu ham shu tarafga intilib turdi. Bir payt sandiq goh u tomonga, goh bu tomonga aylanib, qadim zamonlarda ko‘prik qurilgan yerga borib, to‘xtab, yana borib, yana qaytib, oxiri bo‘g‘ozdan u yildirimdek sakrab, daryoning oyoq tomoniga ravona bo‘ldi. Zuhra qiz buni ko‘rib, qarab qolmoqqa toqati yetmay, yugurib mullasining, eltisining yoniga borib, yolvorib, “menga ruxsat beringlar, Tohirjon ketdi, Tohirjondan ayrilib qolmoqqa menda toqat qolmadi!” — deb, bir so‘z aytdi:

Yorim ketdi daryo bilan aylanib,
Qo‘yvor, oxun, yorim bilan ketayin!
Elsiz-kunsiz bir sandiqqa joylanib,
Qo‘yvor, mullam, yorim bilan ketayin!

Yorim ketdi, jon rishtasi uzildi,
Bag‘rim kabob bo‘lib, sixga tizildi,

Ojiz qoldim, nomim qora yozildi,
Qo‘yvor, mullam, yorim bilan ketayin!

Daryo tortdi dur, nuqraning qoshini,
Qaysi baliq yutdi aziz loshini,
Choram yo‘qdir otam qilgan ishining,
Qo‘yvor, oxun, yorim bilan ketayin!

Yo bu maydon ichra o‘ldirgin meni,
Boshimga solmagil ayroliq kunni,
Qiyomatlik otam demisham seni,
Qo‘yvor, mullam, yorim bilan ketayin!

Zuhrajon der, gul yuzimda hijobdir,
Ishq rasvosi bo‘lib, bag‘rim kabobdir,
Bu ayroliq o‘lmog‘imga sababdir,
Qo‘yvor, mullam, yorim bilan ketayin!

Alqissa, Zuhrajon qiz so‘zini tamom etdi. Mulladan sas chiqmadi. Zuhrajon mulladan so‘z chiqmasligini bilib, undan umidini uzdi, eltiga yuzlanib:

— Ey ikki dunyo qiyomatlik onam! Men sening qo‘llaringdan tuz-taom yeb edim. Endi sen bu ishimning bir chorasini top, qo‘limdan ushla, mullamdan ruxsat olib ber! — deb, quchoqlab yolvorib, bir so‘z dedi:

Sut o‘rniga shakar bergan onamsan,
Oxunimga arzi holim arz ayla.
Xasta bo‘lsam, holim so‘rgan onamsan,
Ruxsat bersin, ketar yo‘lim arz ayla.

Ilm o‘qidim, alifbedan, abjatdan,
Oshiq bo‘ldim, do‘nmog‘im yo‘q bu gapdan,
Toqatim yo‘q, jonim chiqar jasaddan,
Nohaq qonim ham uvolim arz ayla.

El ta’n etar afg‘onimdan, so‘zimdan,
So‘ramanglar, fahm aylanglar yuzimdan,

"Tohirim!" deb, qonlar oqar ko'zimdan,
Yovuz kunim, bu ahvolim arz ayla.

Siynam uzra turli-tuman yaradir,
Ayroliq dardidan bag'rim poradir,
Humo baxtim o'z fe'limdan qoradir,
Falak buzgan kaj ahvolim arz ayla!

Sayyod ajal tuzoq qurdi tashima,
Qahba falak og'u soldi oshima,
Zuhrajon der, rahm aylanglar yoshima,
Yig'lab o'tgan mohi solim arz ayla!

Alqissa, Zuhrajon qiz so'zini tamom etdi. Elti dedi:

— Ey Zuhrajon! Men sening nolishingga chidab turolmasman, qizim, — deb, oxunga yuzlanib:

— Oxunmullam, siz ham men tufayli ko'rgan-chekkan zahmatingizni esga oling. Oshiqlik ko'p mushkul ishdir. Ishq o'ti do'zaxdan battardir. Oshiqlarga ko'mak bermoq farzdir, — deb, bir g'azal aytdi:

Mullam, senga arzin aytar Zuhrajon,
Qo'yvor, mullam, Zuhram ketsin yo'lina.
Tohir uchun jonin aylamish qurbon,
Qo'yvor, mullam, Zuhram ketsin yo'lina.

Tohirjonga sandiq bo'libdir zindon,
G'arqi girdob bo'lmish, ko'zlari giryon,
Zuhrajonim qolmish izinda hayron,
Qo'yvor, mullam, Zuhra ketsin yo'lina.

Guldek yuzi za'farondek so'libdir,
Joni chiqib jasad bunda qolibdir,
Tirik gumon etma — Zuhra o'libdir...
Qo'yvor, mullam, Zuhram ketsin yo'lina!

Tavallolar qilib o'zing o'rta olursan,
Barcha ishini mendan yaxshi bilursan,

Oshiqlarning uvoliga qolursan,
Qo‘yvor, mullam, Zuhram ketsin yo‘lina.

Yurtdan ketib g‘ayri ko‘lga qo‘nsa g‘oz,
Qo‘ldan uchib, suvga tushsa olg‘ir boz,
Hovridan ayrilsa qilarmi parvoz,
Qo‘yvor, mullam, Zuhram ketsin yo‘lina!

Otasi rahm etmas yakka qiziga,
Zuhra sig‘inmishdir Haqning o‘ziga,
Quloq solg‘il Bo‘stontojning so‘ziga,
Qo‘yvor, mullam, Zuhram ketsin yo‘lina.

Alqissa, elti so‘zini tamom etdi. Mulla tag‘in bularga nima deb javob berishni bilmadi — sado chiqmadi. Zuhra qiz yana nolish qildi. Endi ins-jinlar, vuhush-tuyur[1] ham nola qildi, falakdagi malaklar:

— Dargoh-o, Alloh-o, pok-u Parvardigor-o, bu ikki oshiq-ma’shuqqa o‘zing rahm et! — deb arz qildilar. Shu vaqt Mullanafas ham yangidan tahorat qilib, ikki rakat namoz o‘qib, qibla tomonga yuzma-yuz bo‘lib:

— Iloho, bu oshiqlarga rahim ul-rahmonlik ayla, fazli marhamatingdan yetkaz, — deb, zor-zor yig‘lab, hojatini Xudo taolodan tilab, bir muxammas o‘qidi:

Yo Iloh-o, barcha qullar ko‘nglini sen shod qil!
O‘zingga do‘st aylabon, do‘stning uyin obod qil,
Almudom yod aylayin, sen ham qulingni yod qil,
Rahm etib ojizlara, zolimlari barbod qil,
Yo Karim, sen Zuhrajonim qayg‘udan ozod qil.

Kulli olamni yaratgan Podshohi bokaram,
Kecha-kunduz hojatim sendan davomat istaram,
Lol bo‘libdir xor ichinda bulbuli Bog‘i Eram,
Zuhrajon so‘rsa savol aning javobin na beram?
Yo Rahim, sen Zuhrajonim qayg‘udan ozod qil.

[1] **Vuhush-tuyur** — yovvoyi jonvorlar va qushlar.

Kecha-kunduz yod etibon, istabon jabborini,
Firqat o'ti kuyduribdir husnining gulzorini,
Shum raqiblar qasd etib yordan ayirdi yorini,
Rahm etib, ojizlarga har dam eshitgin zorini,
Yo Karim, sen Zuhrajonim qayg'udan ozod qil.

Ketdi yori qoshidan daryo bilan majlis qurib,
Ko'zlari izinda giryon chor tarafga termilib,
Go'yo bir parvonadir otash aro o'zin urib,
Tohiridan ayrilib, belin bukib bo'ynin burib,
Yo Rahim, sen Zuhrajonim qayg'udan ozod qil.

Barcha xo'blarning ichinda xushliqo, sohib ta'miz,
Ayroliq o'ti qora bag'rin tilibdir rez-u rez,
Kunda yuz vaqt termilib, holin so'rarlar qirq kaniz,
Yig'labon daryo labinda, yorin istar Zuhra qiz,
Der Nafas, bu Zuhrajonim qayg'udan ozod qil.

Alqissa, bu so'zdan so'ng osmonda bir ovoz paydo bo'ldi. Ko'rsalar qizildan[1] yasalgan bir taxt, taxt ustida oshiq-ma'shuqlarning podshosi — Shirin va Farhod, Layli va Majnunlar o'tiribdi. Har tarafdan yuz kaniz yerga tushib aytdilarki:

— Ey mulla, kel bu haqiqat sharobini olib, Zuhra qiz birlan o'zing ich!

Mulla qarasa, bir oltin lagan ichida to'qqizta piyolada sharob turibdi. Mulla ko'tarib, to'rttasini ichdi, beshtasini Zuhrajon qizga berdi. Ikkisi ichib behush bo'ldilar. Undan so'ng elti mullani, Gavhar kaniz Zuhrani ushlab, shaharga qaytdilar.

Endi xabarni Tohirdan eshitinglar. Sandiq daryo o'rtasida oqib ketaverdi. Daryoda bir girdob bor edi, ul girdobga nimaiki tushsa, ani baliqlar yutar edi. Sandiq shu girdobga tushib, bir kecha-kunduz turdi, ammo sandiqqa hech narsa ziyon bermadi (tegmadi). So'ngra sandiq yana yo'lga ravona bo'ldi. Tohirbek sandiqning yana oqa boshlaganini sezib, eldan-yurtdan, qarindosh-urug'dan ayrilganidan yuragi o'rtanib, o'tga tushib, jo'sh urib, bir so'z aytdi:

[1] **Qizil** — oltin.

Shum falakning gardishindan
Ichda cho‘x armonim qoldi.
Ayrildim yorning qoshidan,
Qoshlari kamonim qoldi.

Falak menga sitam qildi,
Go‘zal yordan ayru soldi,
Dardlar mening bilan bo‘ldi,
Tabibim, darmonim qoldi.

Safoli manzil-makonim,
Yorim ketdi, yondi jonim,
Qon to‘kdi chashmi giryonim,
Gulim-gulistonim qoldi.

Yor makoni o‘zga bo‘ldi,
Visol yo‘lin raqib oldi,
Bunda quruq jasad qoldi,
Yor yoninda jonim qoldi.

Boshiga osmon yiqilib,
Ko‘zidan yoshlar to‘kilib,
Qomati nundek bukilib,
Ul sarvi ravonim qoldi.

Ayro tushib, aqlim choshib,
Raqiblara boshin qo‘shib,
Yor uzatib, yo‘llar oshib,
Mohi mehribonim qoldi.

Qolib ketdi shahrim, saroyim,
Daryodir manzilim, joyim,
Endi tug‘mas kunim, oyim,
Ul yorug‘ jahonim qoldi.

Mudom xizmatda turganim,
Soz bilan suhbat qurganim,

Jonimdan aziz ko'rganim,
Izzatli mehmonim qoldi.

Tohir der, ey dunyo yolg'on,
Sensan siynama o't solg'on,
Tashinda qirq kaniz birlan
Yig'lab Zuhrajonim qoldi.

Tohir so'zini tamom etdi. Sandiq oqib boraverdi. U shu oqishda uch oy daryoda oqdi. Tohirning yonida pishirib qo'yilgan taomlar ko'p edi, ammo suvi oz edi. U daryo suvining namini so'rib, jon asrar edi. Shu borishda u bir gulzor-chamanlik joyga yetdi. U yerda suv odamlari yashar edi. Suv odamlari sahroyi odamlardan ko'p qo'rqar edilar. Ular: "Odam isi kelmoqda!" deyishib, qattiq qiyqirishib, ovozi yetgan joylardan qo'shin to'plab, bir soat ichinda uch yuz ming jangchilik qo'shin jamladilar. So'ngra tevarak-atrofga qoravul qo'yib, "bu odam hozir yetib kelib, bizning bir tarafimizdan chiqar, u bilan urush qilamiz", deya tayyor bo'lib turdilar. Shu payt sandiq kelib yetdi. Ammo ular "balo mana shu sandiq ichidadir..." deyishib, qo'rqqanlaridan har biri har yonga qochib ketdilar. Urush bo'lmadi. Sandiq esa shu yerda turib qoldi. So'ng daryo yana chayqalib, to'lqin otib, sandiqni olib ketdi. Sandiq borar ekan, yana bir girdobga tushdi. Ul girdobda katta-katta baliqlar bor edi. Daryoning kanorida yog'ochlar ko'karib turardi, bu osmono'par daraxtlarning ko'lankalari suvning ustiga tushar edi. Daraxtlarning ustida katta-katta qushlarning uyalari bor edi. Ul uyalardan ikkita qush uchib chiqib, suv ustiga tushdilar. Qushlar oqib kelgan naqshinkor sandiqning bezaklariga hayron bo'lib qoldilar. Sandiq bu yerda bir necha kun turib qoldi. Tohirbekning yuragiga xavotir tushdi: "Bunda turib qolgandan, daryoda oqib ketganim yaxshi edi, oxiri borib-borib bir viloyatning ichidan chiqardim. Axir, bu yog'ochlarning orasida meni kimlar ko'rib, kimlar eshitadi?.." deb Xudoga yolvorib, bir muxammas aytdi:

Ey sohibi maxluqot, qoldim bir choh ichinda,
Bu holima rahm ayla ushbu ma'vo ichinda,

Sandiq ichra bandi zindon, tilim sano ichinda,
Ishqning yuki orqamda, qomatim yo(y) ichinda,
Loshim har yona tortar qushlar ashyo ichinda.

Sayful Madhaljamol deb, dengizda surdi davron,
Bilqis deya Sulaymon, sayr etdi suyi osmon,
Yusufjon deb Zulayho, davomat chekdi armon,
Varqa, Gulshoh topmadi ishqning dardiga darmon,
Murod hosil bo'lmayin, o'tdi armon ichinda.

Oshiq Farhod Shirin deb yig'lab yugurdi har yon,
Toshlarni la'l etardi ko'zlaridan oqqan qon,
Qora tog'ga gaz urib, yasadi ko'shk-u ayvon,
Visol deya yig'ladi, yetishdi ro'zi hijron,
Shirin deya jon berdi Farhod ham qon ichinda.

Majnun dali-devona istab ul Layli yorin,
Layli qizning yuzida ko'rardi Haq diydorin,
Mudom yig'lab kezardi chaqirib Bir-u borin,
Bir kun Xudo duch etdi eshitib oh-u zorin,
Shul vaqtda jon berdi Majnun sahro ichinda.

Vomiq Uzro ishqinda shirin jondan kechardi,
Yuzin ko'rmagan chog'da, og'zindan o't sochardi,
Vomig'im deb rahm etib, goho yuzin ochardi,
Qambar Orzujon deya, goh yonib, goh o'chardi.
Ko'r, Tohir Zuhra deya oqdi daryo ichinda.

Alqissa, Tohirning nolishini Xudoy taolo eshitib, bir kuni bir kuchli shamol turib, sandiqni daryoga surib tushirib, Tohir faqir yana suvsizlikdan xo'r bo'lib, daryoda oqaverdi. U: "Ey Xudo, bu sandiq — mening mozorim, daryo — suyaklarim chirib to'kiladigan yer bo'ladi, shekilli" — deb, falakning kajravligiga, baxtining qaroligiga yonib borar edi. U o'zicha gapirib, "sabr — vaqti xushlikning kalitidir, "kelar bo'lsa, kelar Shom-u Iroqdin, ketar bo'lsa, ketar qosh-u qaboqdin", deganlar-ku. Har bir oshiq

o‘z maqsadiga sabr ila yetishadi. Men sabrli bo‘layin”, deb o‘ziga o‘zi toqat tilab, bir abyot o‘qidi:

Qafas ichra lochin kabi havolab,
Par qoqib uchmagil har yona, ko‘ngil.
Zuhra diydorini Allohdan tilab,
Shukr ayla yaratgan subhona, ko‘ngil.

Otash judo bo‘lmas ishq ichra xasdan,
Ishq deb o‘lgan yaxshi ishqsiz nokasdan,
Yor orzusi ila chiqsin qafasdan,
Xavotir solmagin bu jona, ko‘ngil.

Ko‘nglim, mardona bo‘l, mardliging o‘yla,
Chiqarsan daryodan, oqmassan beyla[1],
Injima, torayma, bir dam sabr ayla,
Yetarsan maqsadli makona, ko‘ngil.

Toki borib termay Tatar gulindan,
Jomi may sunmasa nozik qo‘lindan,
Boshim ketsa hargiz qaytmam yo‘limdan,
Bo‘lsa bugun oxirzamona, ko‘nglim.

Chidarmi bu jonim hijron zahrina,
Mudom intizorman visol bahrina,
Ketsang tez yetarsan Bag‘dod shahrina,
Mohim otlig‘ sevar jonona, ko‘nglim.

Tohir der, raqiblar darbadar bo‘lsin,
Xoki zamin bilan sarbasar bo‘lsin,
Bu yo‘lda xayr bo‘lsin yoki shar bo‘lsin,
Kirgin mening birla maydona, ko‘ngil.

Tohir so‘zini tamom aylab, ixtiyorini Bir-u borga topshirib yotaverdi, sandiq esa yo‘lga ravona bo‘ldi. Birdan sandiq suv zarbi bilan borib, daryo yoqasidagi katta bir toshga urildi — sandiqning mixi bo‘shashdi, ammo o‘zi to‘kilib ketmadi, yana oqib ketaver-

[1] **Beyla** — bundoq.

di. Bu daryo Furot daryosiga borib qo'shilar edi. Furot daryosi Bag'dod shahrining o'rtasidan kechib o'tardi. Shunday qilib, sandiq Bag'dod shahriga borib yetdi. Bu shaharning podshohini Odilshoh der edilar. Odilligi No'shirvondan, saxiyligi Hotam Toydan qolishmas edi. Bu podshoning uch qizi bor edi, kattasining ismi — Jahongir, o'rtanchasi — Shahrijon, kenjasi — Mohimjon edi. Podshoh bularning har biriga bir ko'shk qurib, qirqta kaniz qo'shib bergan edi.

Bir kecha Mohimjon tush ko'rdi. Tushida bir yigit kunchiqar tomonga qarab o'tirgan emish. Mohimjon u yigitga jon-dili bilan oshiq bo'lgan emish. Yigitga "bu tomonga boq" desa ham, yigit boqmas emish. Shunda yana Mohimjon: "Qaysi shahar o'g'lisan, qaysi oyning bo'lagisan, qaysi bog'chaning norisan, qaysi go'zalning yorisan, qaydan uchib kelding, qayga qo'narsan, isming nimadir?" — deb so'radi. Ammo yigitning ko'zi yoshli, yuragi toshli bo'lib, javob bermadi. Mohim yana: "Ey yigit, men tomonga qarasang-chi!" deb yig'lab yopishdi. Shunda u yigit: "Ey jon, men bir Allohning quliman, ishq gulzorining bulbuliman. O'zim Tatar viloyatidan nasib tortib kelayotirman. Men bir gulga oshiqman, yana u gulning vaslini izlab ketarman, otamning ismi Bohir, o'zimning ismim Tohirdir. Mendan senga jafo yetadi, vafo yetmas", — dedi. Bu so'zni eshitib, Mohimjon oh urib uyg'ondi. Qarasa, hech kim yo'q, tushi ekan. Mohimjonning yuragiga o't tushib, onasining yoniga bordi-da:

— Ey ona, men bir tush ko'rdim, senga shuni aytib berayin, sen shu tushimni yo'rib, ta'birini aytib ber, — dedi.

Onasi: "Ayt, qani", — dedi.

Mohimjon ko'rgan tushini bayon etib, bir muxammas o'qidi:

Ushbu daryo ichra ko'rdim bir ajab zebo yigit,
So'zlaganda xushsuxandir bulbuli shaydo yigit,
Nogahon ko'rdim yuzin — shundoq ajab barno yigit,
Oldi jonim yuzi anvor, qomati ra'no yigit,
Asli odamzodadan hech bo'lmagay paydo yigit.
Bir zamon ko'rdim jamolin, aqlimni hayron etar,
Firqat ayyominda doim ko'zlarim giryon etar,

Yorimni sandiqda ko‘rdim, suv aro sayron etar,
Ko‘rmagan “guldek yuzin ko‘rsam!” deya armon etar,
Men kuyarman uni deb, bizdanki beparvo yigit.

Egnida gulgun libos, bekmidir, sultonmidir,
Yoki bir ishqda kuygan sargashtayi hayronmidir,
Bilmadim, bir jodumi yo Yusufi Kan’onmidir,
Yor debon vasfin o‘qiydir, durmidir, dostonmidir,
Har pari tushiga kirmas bundoq bir mirzo yigit.

Naylayin, oshiqligin savdosi tushdi boshima,
Qarodir baxtim mening — rahm etmadi ko‘z yoshima,
Ayta bilmam bu sirimni aslo bir teng-to‘shima,
Kunda bir ko‘rsam yuzin, kelsa, o‘tirsa qoshima,
Shamchiroqdan, oy-u kundan ko‘rkli bir turfa yigit.

Qo‘llarida bahri lochin, ham itolg‘i, bahri boz,
Ovlari — savsan, so‘na, ko‘llarda kezgan quva g‘oz,
So‘zlasa bulbulnavo keldi qulog‘imga ovoz,
Mohim aytar: ko‘zlaram men tog‘-u toshni sarfaroz
Dunyoda o‘zi kabi hech bo‘lmamish paydo yigit.

Alqissa, Mohimjon so‘zini tamom etdi. Onasi:

— Ey Mohimjon, quloq sol, men senga tushingni yo‘rib berayin, — deb bir so‘z aytdi:

Ey Mohimjonim, bu tushing
Senga zarra vafosi yo‘q.
Yig‘lab, ko‘zdan to‘kma yoshing,
Bir zarra intifosi[1] yo‘q.

Jonim deya jon yoqarsan,
Ko‘zlaringdan qon to‘karsan,
Bugun mehnat ko‘p chekarsan,
Erta kelar safosi yo‘q.

[1] **Intifo** — naf, foyda, xayr.

Bir bulbul qo‘nmish gulingga,
Besh kun sayr etar elingga,
Nogohon tushsa qo‘lingga,
Bir gavhardir, bahosi yo‘q.

Ishq daryosiga tushibsan,
Shahzodaga yo‘l qo‘shibsan,
Ming turli dardga tushibsan,
Bu dardingning da’vosi yo‘q.

Vafosi yo‘qdir bu so‘zing,
Botillikka tutma yuzing,
Ishrat yuzin ko‘rmas ko‘zing,
Surar zavq-u safosi yo‘q.

O‘char yigitlik chirog‘i,
Siynangda ayrilmas dog‘i,
Senga yetar jafo tig‘i,
Davo bo‘lmas, shifosi yo‘q.

Damba-dam ishqda yonarsan,
Yonarsan, qachon so‘narsan?
Hijron mayidan qonarsan,
Visolga ibtidosi yo‘q.

Onang yo‘rdi ushbu tushing,
O‘rtanarsan yoz-u qishing,
Ko‘zla vafoli yo‘ldoshing,
Kuymoqlikning ravosi yo‘q.

Onasi so‘zini tamomlab aytdi:

— Ey Mohimjon, men sening tushingni yo‘rdim: sening yoningga kunchiqar tomondan bir go‘zal yigit keladi, ammo uning senga vafosi yo‘qdir, uning o‘z dardi o‘ziga yetarlidir. U bir parining dildoridir, sening bilan ishi yo‘qdir. Bu tushingni hech kimga ma’lum qilmagin, masxara bo‘lasan. Qattiq toshga tesha urganday bo‘lasan...

Mohimjon o'ziga har qancha tasalli bermoqchi bo'ldi, ammo o'tirib tinchini topmadi. Kecha-kunduzi oromi-qarori qolmadi. U doimo kunchiqar tomonga ko'z tikib yuradigan bo'ldi. So'ngra bir kuni o'ylandi: "Onam bu tushni yo'ra bilmadi-yov. Tush ta'biri bunday bo'lmasa kerak. Men tushimni qizlarga ham bir aytib ko'rayin. Ular nima der ekanlar, aytganlarini bir eshitayin, balki ular boshqacha ta'bir aytarlar", deb Mohimjonning ishqi dam-badam ko'tarilib, toqat qilolmay kanizlarini chaqirdi.

Qizlar kelib:

— Nega bunchalik beqaror bo'lding? — deb so'radilar. Shunda Mohimjon ko'rgan ahvolini bayon etib, bir g'azal aytdi:

Tushimda bir bulbul ko'rdim,
Hurkib kelmish gulzorindan.
Qaysi bog'ning bulbulidir,
Qaysi bog'chaning norindan.

Ko'rmisham sahar chog'lari,
Siynamga qo'ymish dog'lari,
Boshda qora g'ulpoqlari,
Injadir sunbul torindan.

Qurbon bo'larman o'ziga,
Shakar ezilmish so'ziga,
Davomli boqsam yuziga,
Ko'zim to'ymas diydorindan.

Yuzi oydek shu'la solar.
Husni falakdan boj olar.
Yo Rab, yorim qachon kelar,
Borsam daryo kanorindan?

Yoqdi meni bir nozanin,
Fido bo'lsin ro'yi zamin,
Hech bir kimsa mening kabi,
Ayrilmasin nigorindan.

Ko‘nglimda oh-u zoridir,
Yuzlari mashriq saridir,
Bilmam u kimning yoridir,
Xabar kelmas diydorindan.

Hech kimsaga sirin bermasa,
Mohimning holin so‘rmasa,
Oshiq bir zulm ko‘rmasa,
Ayro tusharmi yorindan?

Alqissa, Mohimjon so‘zini tamom etdi. Mohimjonning qirqta kanizagi bor erdi. Kanizaklarning ichida to‘rt boshliq qiz bor edi, o‘zlari ham chiroyli edilar. Birining ismi Sadaf, biriniki Gulzoda, yana birisi Gulra’no, boshqasiniki Gulzebo edi. Bu to‘rt qizning har biri o‘nta qizning boshlig‘i edi. Mohimjonning buyrug‘ini shu to‘rt qiz kanizaklarga yetkazar edi. Shu qizlar:

— Ey dugonalar, bir g‘alati voqea bo‘libdir, kelinglar, maslahatlashaylik, — deyishib, bir-birlari bilan maslahat qildilar. Gulzebo:

— Biz ham yoshmiz, — dedi.

Shunda Mohimjon aytdi:

— Ey Gulra’no, sening bu kanizaklardan aqling ham ziyod, husning ham. Bu tushning ta’birini sen aytgin, — dedi. Gulra’no kaniz bir kosa sharob ichib, mast bo‘lib, zehnini jamlab:

— Ey bibim, senga Alloh uzoq umr bersin! Bu tushingning ta’birini men yaxshilikka yo‘yib, shunday aytarman, — deb bir g‘azal o‘qidi:

Bir shahzoda kelmish Mashriq shahrindan,
Gasht aylayur gul-g‘unchali joylari.
Yordan ayro tushib shohning qahrindan,
Ko‘pdir yuraginda oh-u voylari.

Nazar solib sog‘ing bilan so‘lingga,
Yoring kelar, rahm aylabon holingga,
Sevarsan, sevikling tushar qo‘lingga,
Xush ko‘rarsan bu kunlarni, oylarni.

Bag‘ringga sanchilmish bir gulning xori,
Magar sendan o‘zga yori bor, yori,
Ne uchun yuzlanmish ul mashriq sari,
Sen tomona qaramas hech ro‘ylari?!

Men ta’bir ayladim ko‘rgan tushingga
Tog‘larning sor qushi qo‘nar boshingga,
Damba-damdan yoring kelar qoshingga,
Shu kun qilar tomoshali to‘ylarni.

Gulra’no der, ichdim qo‘lingdan boda,
So‘zim yo‘qdir endi bundan ziyoda,
Alloh, yetkaz barcha qulni muroda,
Haq solibdir senga ushbu ko‘ylari.

Gulra’no so‘zini tamom etdi. Mohimjon darhol, o‘sha zahoti o‘rnidan turib, Gulra’noga bosh-oyoq shohona chopon bag‘ishladi.

Odilshoh qizining bir bog‘i bor edi, uni “Bog‘i rizvon” der edilar. Bu bog‘da podshohning uch qizi navbatma-navbat sayr qilar edi. Gullar ochilib, ne’matlar sochilib, bahor ayyomi bo‘lgan paytlar edi. Bulbul soz etib, qumrilar dam tortib, to‘tilar ovoz chiqarib, bog‘ning gullab-ochilib turgan payti edi.

Bir kuni Mohimjonning bog‘ni sayr qiladigan navbati keldi. Mohimjon dedi:

— Ey qizlar, boshqa safar yakka-yakka bo‘lib sayr etardik. Bu safar hammamiz jam bo‘lib sayr etaylik.

Qizlar jon-u dil bilan:

— Xush bo‘lg‘ay! — dedilar. Shunda Mohim qiz opalariga:

— “Bog‘i rizvonga va Furot daryosiga tomoshaga ketayapmiz”, — deb bir kanizakdan xat berib yubordi. O‘zi esa saharda turib, hammomga kirib, tovus qushday yasanib, zarrin liboslar kiyib, siyoh-surmasini ko‘ziga tortib, zulfini ko‘zining ustidan qo‘yvorib, o‘ziga oroyish berib, dugonalari bilan bog‘ga sayrga ketar bo‘ldi. Ko‘rgan odamlar aql-hushini yo‘qotib, hayron qolar edilar. Bog‘ga ajoyib bir chodir tikdilar, bir qayiqni bog‘ chetiga keltirib qo‘ydilar.

Ular bog‘ ichiga kirib, tomosha qilib yuraverdilar. Bog‘ ichidan Furot daryosi oqib o‘tar edi. Bular Furot daryosini qayiq minib sayr etdilar. Mohim qiz daryoning shimoliga ko‘z tikar edi, banogoh uzoqdan bir qora narsa goh oltin, goh kumush kabi shu’la sochib ko‘rindi. Mohimjon yaxshilab razm solib qarasa, sandiqqa o‘xshaydi.

U dugonalariga:

— Yuqoridan bir narsa oqib kelayotir! Agar bu narsa sandiq bo‘lsa, ichidagi — meniki, sirti — sizlarniki! — dedi. Qizlar bu shartni qabul qildilar. Ko‘rsalar oqib kelayotgan narsa sandiq ekan. Mohimjon:

— G‘avvoslarga aytinglar, sandiqni chiqarsinlar! — dedi.

G‘avvoslar:

— Sandiqni tortib olish uchun arqon kerak, — dedilar. Arqon topilmadi. Ammo Gulra’noning 40 quloch sochi bor edi. Bu sochni ko‘rgan odam hayron qolar edi. Soch tolasi juda nozik bo‘lsa ham, eshilib-o‘rilganda mustahkam arqonday bo‘lar edi, har yondan o‘n kishi tortsa ham uzilmas edi. Sandiqqa Gulra’noning sochini bog‘lab, daryo qirg‘og‘iga tortib chiqardilar. Ko‘rsa, sandiq mum bilan puxtalangan, sirtiga ko‘p bezaklar chizilgan, sayqal berilgan. Mohimjon qizlarga:

— Agar va’daga vafo bo‘lsa, sandiqning ichini ochamiz, — dedi. Dugonalar:

— Ichida olamga barobar narsa bo‘lsa ham senga bo‘lsin! — dedilar. Mohimjon qasir-qusur sandiqning ichini ochdi. Ko‘rsa, sandiqning ichida go‘zal bir yigit yotibdir, na joni bor, na dami. Mohim fikr qilib ko‘rsa, o‘sha tushiga kirgan yigit — ikki jahon matlabi ekan. Mohimjonning ishqi jo‘sh urib ko‘tarilib, bir oh urib, behush bo‘lib yiqildi. Ohidan dunyo yuzini tuman bosdi, oy-u kunning shu’lasi urganday bo‘ldi. Kanizlar Mohimjonning yuziga gulob sepib, uni hushiga keltirdilar. Jahon yuzi ham o‘sha zamon yorug‘lashdi. Shunda Shahrijon opasi:

— Ey Mohimjon, senga nima bo‘ldi? — deb so‘radi. Shunda Mohimjon zor-zor yig‘lab:

— Ey opajon, sen bu ishdan butkul bexabarsan. Bu yigitni men tushimda ko‘rib erdim. Shundan beri mening sabr-u toqatim yo‘q

edi. Bu — mening boshimga tuganmas g'avg'o soladigan yigitdir, — dedi.

Kanizlar:

— Ey Mohimjon, bu yigitdan xabar ol, halok bo'lmasin, — dedilar. Shundan so'ng darhol Tohirjonning yuziga gulob sepib, hushiga keltirdilar. Mohimjon xabar so'radi, Tohirbek ham javob berib turdi.

Mohim:
Xabar ber, ne sabab tushding bu yoqqa?
So'zla, jonim, qaysi bog'ning gulisan?
Sandiq bilan nechun kirding daryoga?
So'zla, jonim, qaysi bog'ning gulisan?

Tohir:
Gul emasman, bulbuliman bir bog'ning,
Guldan gulga sayron etib kelaman.
Ham ul gulning dog'i, ham sening dog'ing,
Aql-u hushim hayron etib kelaman.

Mohim:
Ne chamandan esib kelgan shamolsan?
Qaysi oydan ayro tushgan hilolsan?
Qay shakardan tomgan obi zilolsan?
So'zla, jonim, qaysi bog'ning gulisan?

Tohir:
Otam Bohir, mening ismimdir Tohir,
Og'ir bozirganman, ko'pdir javohir,
Pinhon sirim senga aylayin zohir,
Ul mulkimni vayron etib kelaman...

Mohim:
Bulbul bo'lsang, guluzoring qaydadir?
Gavhar bo'lsang, xaridoring qaydadir?
Oshiq bo'lsang, sevar yoring qaydadir?
So'yla, jonim, qaysi bog'ning gulisan?

Tohir:
Gulning bulbuliman, husni — xazina,
Chiqardim ko'shkina zinama-zina,
Bugun judo bo'ldim, ko'nglim kamina
Ko'z yoshimni giryon etib kelaman.

Mohim:
Yo mujarratmisan, katxudomisan?
Yo bir pari uchun jon fidomisan?
Yo bir qalandarmi, yo gadomisan?
So'zla, jonim, qaysi bog'ning gulisan?

Tohir:
Bir g'aribman, madadkorim yo'q mening,
Qavm-qarindosh, yaqinlarim yo'q mening,
Sendan o'zga sevar yorim yo'q mening,
Hijron kunin tuman etib kelaman.

Mohim:
Mohim aytar, qora baxtim uyg'ondi,
Davlatim chirog'i qo'limda yondi,
Xudo baxsh ayladi, davron do'landi[1],
Magar endi Mohimjonning gulisan.

Tohir:
Mohimjon, eshitgin to'g'ri so'zimni,
Mudom mashriq tomon tikdim ko'zimni,
Tohir aytar, musofirman, o'zimni,
Besh kun senga mehmon etib kelaman.

Alqissa, bu so'zini tamom etdilar. Mohim Tohirning oshiq ekanligini angladi. Yana, "menga to'nning bir tomoni ham yetadi" deb xushvaqt bo'ldi. Sandiqni olib ko'shkiga keldi. Mohim Tohirning diydoriga mushtoq bo'lib, ko'zini yuzidan uzmay qarab o'tirdi, ammo diydoriga qonmadi. So'ng Mohim: "Bu ishdan otamni ham

[1] **Do'landi** — qaytib keldi.

xabardor etayin, yurt egasidir, banogoh ko‘ngliga yoqmay, meni yozg‘irib, Tohirjonni ham quvib yubormasin” deb, mirzalarini chaqirib, otasiga bir xat yubordi, xatning mazmuni bu edi:

Bobomga bir savolim bor,
Baxsh aylasin bobom menga.
Bir necha arzi holim bor,
Baxsh aylasin bobom menga.

Bir sandiq keldi daryodan,
Hadya bo‘libdir Allodan,
Tilagim shu Odilshohdan,
Baxsh aylasin bobom menga.

Olma-anorimiz pishdi,
Bog‘bon kelib qo‘lga tushdi,
Allohim rahmatin sochdi,
Baxsh aylasin bobom menga.

Bir sandiqdir, xona loyiq,
Bek bilan sultona loyiq,
Bersa, Mohimjona loyiq,
Baxsh aylasin bobom menga.

Umidim bor, otam kelsa,
Sandiqda ne borin bilsa,
Qo‘li bilan, har zot bo‘lsa
Baxsh aylasin bobom menga.

Mohim aytar, qildim izhor,
Bobomga bundoq arzim bor,
Dunyoning moli ne darkor,
Baxsh aylasin bobom menga.

Podshoh xatni o‘qib, mazmunini anglab, shunday javob berdi: “Ey ko‘zimning ravshani! Ul sandiqning ichida nimaiki bo‘lsa senikidir. Agar har taxtasi zabarjaddan, qulfi oltin-kumushdan

bo'lsa ham, yuz ming tumanlik mol bo'lsa ham, agar ul sandiqning ichida dur, javohir, yo mushki Xo'tan va yo odamzod, parizod, hurg'ilmon nasli bo'lsa ham, olam-jahon barobar zot bo'lsa ham senga baxsh ayladim, nasib etsin" dedi.

Bu xat Mohimjonga kelib yetdi. Mohimjon otasidan kelgan xatni o'qib xushvaqt bo'lib, Xudoga shukr qilib, otasining saroyiga qarab uch marta ta'zim qildi. So'ng Tohirga qimmatbaho xil'atlar kiydirdi, boshiga murassa' toj, beliga oltin kamar bog'lab ziynat berdi. Ammo Tohirning bu ziynatlar bilan ishi bo'lmay, Zuhrasi yodiga tushib, kecha-kunduz g'amgin bo'lib, ko'zlaridan qatra-qatra yoshlar to'kib yurar edi. Mohim qiz bir so'z desa ham, rozilik bilan javob bermas edi. Shu holda Bag'dod shahrida bir necha yil umr surdi. Shunday qilib, oradan yetti yil o'tdi.

Bir kuni Mohim qiz o'ziga zeb-u ziynatlar bilan aro berib, shaylanib, Tohirning yoniga kelib:

— Ey, tirikligimning sarmoyasi, ey boshimning toji, ko'zimning ravshani! Shuncha yillardan beri jabr-u jafongni chekib, sabr qilib keldim. Endiyam sabr etmoqqa toqatim qolmadi. Menga rahm etib, bir nazar solsang, — dedi. Ammo Tohir bu so'zga ham javob bermadi. Kanizaklar ham javob olmoq istagida gapga solib ko'rdilar, ammo javob ololmadi, chunki Tohir bechoraning musofirligi zo'r kelib, gapira olmas edi. Shunda kanizlar:

— Bul so'zlamay o'tirishi rozilik nishonidir, shariatga to'g'ri keladi, — deb, nikoh o'qib, Tohir bilan Mohimjon qizni bir pinhon yerga qo'yib keldilar. Mohim qiz xushvaqt bo'lib, bir g'azal o'qidi:

Shukur, Alloh, bugun yetdim muroda,
G'arib ko'nglim bir visolga yetishdi.
Hijron chekib hilol bo'lgan qomatim,
Ra'no bo'lib navniholga yetishdi.

Yuzim oyga tushdi, ko'zlarim kuna,
Ayroliqni boshga solmasin yana,
Mudom cho'lda kezgan, tashna lab so'na,
Bugun murg'zorli[1] ko'lga yetishdi.

[1] **Murg'zor** — qushlari ko'p bo'lgan ko'llar.

Yuragim qon bo‘lib, ko‘zim yosh bo‘lib,
Yashirgan sirlarim elga fosh bo‘lib,
Gul bulbulga, bulbul gulga esh bo‘lib,
Ikkisi murodga — birga yetishdi.

Ikki oshiq bir-biriga jam bo‘lib,
Soz kabi tortilib, zil-u bam[1] bo‘lib,
Shum raqibning sahar vaqti shom bo‘lib,
Ko‘z yoshi rang bo‘lib, ol[2]ga yetishdi.

Tovus jilva aylab quva g‘oz bilan,
Qumrilar dam tortib xushovoz bilan,
Bulbul navo tuzib nag‘ma soz bilan,
To‘ti guftor aylab, bolga yetishdi.

Oshiqlik barchani hayron aylagay,
Baliyyat[3] tog‘iga sayron aylagay,
Belin bukib, qalbin vayron aylagay,
Ishqning yuki Rustam Zolga yetishdi.

Mohim aytar, suhbat tutdim yor bilan,
Bulbul hamroh bo‘ldi lolazor bilan,
Nazarim yo‘q qardosh-xovandor[4] bilan,
Och ko‘zlarim yuzda xolga yetishdi.

Alqissa, Mohim qiz so‘zini tamom etdi. Bu kecha visol istadi. Ammo Mohim ham, Tohir ham bir-birlariga indamadilar. Mohimxon ikkinchi kecha yana o‘ziga jilva berib, tovusday yaltirab, necha imo-ishoratlar bilan Tohirni o‘ziga moyil etmoqchi bo‘ldi. Ammo bo‘lmadi. Mohim qiz ishqi ortib, ko‘tarilib, sabri qo‘lidan ketib:

— Ey Tohirjon! Avval men seni qo‘llab, daryodan chiqardim va ruhingga qaytadan jon bag‘ishladim. Seni deb or-nomusdan

---

[1] **Zil-u bam** — (aslida “Zir-u bam” — dutorning past va baland tovushi).

[2] **Ol** — qizil.

[3] **Baliyyat** — qiyinchilik, mashaqqat, balo-kulfatlar.

[4] **Xovandor** — mehribon, g‘amxo‘r.

kechdim, har tarafdan dushmanlarning tili tegdi, elga masxara bo‘ldim. Shahzodalardan kelgan sovchilarning hech birini qabul qilmadim. Bir seni deb, men shahanshohlik bilan o‘zimni senga munosib ko‘rganimda sen g‘arib-u musofir, bevatanliging bilan nima uchun meni o‘zingga munosib ko‘rmassan? — dedi. Tohir bechora bu so‘zni eshitib:

— Ey Mohimjon! Boshim sanga fido bo‘lsin. Ammo menda bir gavhari shamchiroq bor edi, ul gavhardan ayrilganim uchun dunyoni o‘zimga taloq qildim. Yana ul gavharni ko‘rmas bo‘lsam, dunyoning butun zeb-u ziynatini o‘zimga halol bilmasman, — deb bir so‘z aytdi:

Mohimjon, arzimni bayon aylayin,
Bir gavhari shamchiroqdan ayrildim.
Bog‘imaydon ichra sayron aylayin,
Yor yurtida shahr-u bog‘dan ayrildim.

Bahor bo‘lsa qizil gullar ochilar,
Mushki anbar chor tarafga sochilar,
Mayxonada gulgun sharob ichilar,
May mast bo‘lib kezgan chog‘dan ayrildim.

Chorvalari sahrolarda kezarlar,
Qiz-kelin talashib nag‘ma tuzarlar,
Yigitlari olma-nordan uzarlar,
Uzumli, anjirli bog‘dan ayrildim.

Tog‘lariga cho‘kar abri siyohlar,
Cho‘lida ko‘karar maysa-giyohlar,
Kabutar yaylovi, ul baland rohlar,
Tarlon maskan tutgan tog‘dan ayrildim.

Tohir der, sig‘indim piri ustoza,
Raqiblar dastidan kelibman doda,
Majlisi muhabbat, qo‘linda boda —
Piyoladan, mayqadahdan ayrildim.

Tohir so‘zini tamomlab dedi:

— Ey Mohimjon! Mening dardim boshimdan oshib yotibdi. Ahd-u paymonim bir pariga bog‘liqdir. Agar bundan ham ortiq ozor beradigan bo‘lsang, men o‘zimni o‘zim halok qilaman. Chunki muqaddas kitobda “va’da — qarzdorlikdir” deb aytilgan.

Tohirjon o‘zi bilan Mohim orasiga keskir qilichini qo‘yib yotdi. Mohim o‘z-o‘ziga: “Zararning yarmidan qaytmoq ham foydadir. Bundan ortiq bunga ko‘nglimni bersam, elga badnom bo‘laman. Oshiqlikni endi tark etayin” deb, o‘ziga o‘zi ko‘ngillik berib, yupatib, bir g‘azal o‘qidi:

Ko‘nglim, senga arzi holim so‘ylayin,
Ko‘ngli boshqa bevafodan do‘n, ko‘nglim.
Toleyim ters kelsa, bas, men naylayin,
Eli boshqa bevafodan do‘n, ko‘nglim.

Chin gulni asrasang, ming yilda so‘nmas,
Bevafolar aslo qadringni bilmas,
To‘g‘ri derlar, kishi yori yor bo‘lmas,
Yori boshqa bevafodan do‘n, ko‘nglim.

Yetti yildir ishq o‘ziga qo‘yarsan,
Bevafo yor uchun g‘amlar yeyarsan,
Begona johilni nechun suyarsan,
Yo‘li boshqa bevafodan do‘n, ko‘nglim!

Ancha yillar ko‘p jafolar chekding sen,
Ko‘zlaringdan qonli yoshlar to‘kding sen,
Ag‘yorni yor bilib, joning yoqding sen,
Jafo chekma, bevafodan do‘n, ko‘nglim!

Qo‘ch yigitlar bir so‘ziga zor aylar,
Bevafoga ko‘ngil bersang, xor aylar,
Oshiq-ma’shuq ikkov ko‘nglin bir aylar,
Ko‘ngli boshqa bevafodan do‘n, ko‘nglim!

Bevafoning so‘zi joningdan o‘tar,
Har biri — bir paykon, suyakka yetar,
Bevafo deganing yoqangdan tutar,
Ko‘ngli boshqa bevafodan do‘n, ko‘nglim!

Oshiqman deb, dardim aytsam har joyda,
Mingda bir dardi bor, mendan ziyoda,
Nomahram deb, qilich qo‘ydi orada,
Ahdi yolg‘on bevafodan do‘n, ko‘nglim!

Mohim aytar, yor deb yondim necha vaqt,
Yor emas, jonima kelgan bir ofat,
Sabring pesha qilg‘in, ayla qanoat,
Yori boshqa bevafodan do‘n, ko‘nglim!

Mohim so‘zini tamom etdi. Tohir aytdi:

— Gaplaring to‘g‘ri, Mohimjon! Mening ko‘nglimda yuz ming g‘am bor, ularning eng kichigi tog‘ kabidir. Nasibam boshlab, bu joylarga kelgan bo‘lsam ham, yana ketarman, chunki men ham sen kabi bir parizodga oshiqman. Bu yerga kelish avvaldan menga qismat ekan, — deb bir muxammas aytar bo‘ldi:

Naylayin, vo hasrato, dildordan ayrilmisham,
Ikki nargis ko‘zlari xunxordan ayrilmisham,
G‘aznayi husningda ikki mordan ayrilmisham,
Qolmisham g‘am ostida, g‘amxordan ayrilmisham,
Qaddi shamshod, yuzi gulruxsordan ayrilmisham.

Husni gul, la’li firdavsning sharobi kavsari,
Yuzi o‘n to‘rt oy kabi, kiprigi anjum[1] lashkari,
Naylayin, ojiz boshim g‘avg‘oga qo‘ydi bir pari,
Fikr etib, ko‘nglim yiqib, ishq o‘tin soldi sarsari,
Qaddi shamshod, yuzi gulruxsordan ayrilmisham.

[1] **Anjum** — yulduzlar (anjum lashkari — yulduzlar kabi sonsiz qo‘shin demakdir).

Otashin ishq ichra kuygan men kabi ovvora yo‘q,
So‘zlasam dardimni men, bir oshiqi bechora yo‘q,
Mahvashimdek foniy olam ichra bir mohpora yo‘q,
Ishq aro olamda kuygan bir dili sadpora yo‘q,
Qaddi shamshod, yuzi gulruxsordan ayrilmisham.

Hech kishi bundoq balolarga giriftor bo‘lmasin,
Ayrilib dildoridan, har dilbarga yor bo‘lmasin,
Oshiqi bechoralar mahrumi diydor bo‘lmasin,
Almudom yig‘lab-kezib, yorim deya zor bo‘lmasin,
Qaddi shamshod, yuzi gulruxsordan ayrilmisham.

Tohir-ey, jonim berib ko‘rsam o‘shal jononimi,
Yor yonida raqiblar to‘ksin yera bu qonimi,
Yetti yildir orzu aylab men aziz mehmonimi,
Umr bergancha kezib, sarf aylaram bu jonimi,
Qaddi shamshod, yuzi gulruxsordan ayrilmisham.

Tohir so‘zini tamom etdi. Biroz mahal so‘zlashmay yotdilar. Mohimda so‘z bo‘lmadi, Tohirda ham. Bir-biridan xabar olmadilar.

Shunday holda vaqt o‘taverdi. Mohim qizda sabr-toqat qolmay, dardi kundan kunga ortib, yuzlari za’faronday sarg‘aydi. So‘z aytmas, Tohirga dardini aytmoqqa nomus etib, ishi faqat yig‘lamoq edi.

Tohirbek kunduzlari qarorsiz, kechalari uyqusiz, Zuhraning xayoli yodiga tushib, ishqi kundan kunga yuqori ko‘tarilib, hech yerda orom-u qaror topolmay, mudom Tatar yo‘llarini kezar edi.

Bir kuni sahar vaqtida kunbotardan kunchiqarga qarab shamol esdi. Tohirbek yangidan tahorat olib, ikki rakaat namoz o‘qib, shamoldan Zuhrajonga salom yo‘llab, bir so‘z aytdi:

Ey sabo, zorim mening arz ila jononimga ayt,
Qayda ko‘rsang, yolvorib jismim yoqqan jonimga ayt,
Shomi ovqatim sifatin mohitobonimga ayt,
Qomatimning xamligin sarvi xiromonimga ayt,
Lablarim tashnaligin obi hayvonimga ayt.

Zuhrajonimga xabar ber qomatim nun bo‘lg‘onin,
Ayroliq aqlim olib, devona-majnun bo‘lg‘onin,
Chashmi giryon, bag‘ri biryon, ko‘ngli g‘amgin bo‘lg‘onin,
Nomi talx-u boda zahr-u oshiq rangin bo‘lg‘onin
La’li rangin, labzi shirin, sho‘xi mastonimga ayt.

Holinga yor yig‘labon, ag‘yor bo‘lganlar kuldi, de,
So‘rsa ahvolim sabo, “yor nechun ayrildi?” de,
“Ofati joning kelib, rohat nechun kam qildi?” de,
“Shomi hijron ro‘zg‘oring nechun qora bo‘ldi?” de,
So‘rma mendan, ko‘ngli o‘tlug‘ zori hijronimga ayt.

Termilib, har yon kezib, orzuyi yor o‘lmasin,
Zuhrajonimg‘a salom, ag‘yorga dildor bo‘lmasin,
Yiqdirib sabr uyini, binoyi bedor solmasin,
Almudom yorim deya yig‘lab kezib zor qilmasin,
Ishq o‘tini yondiran ul chashmi giryonimg‘a ayt.

Qosid-o, bergin xabar ko‘z yoshi giryondir, deya,
Sen parining hajrida holi parishondir deya,
Dardliman, so‘rg‘il davomat nima darmondir deya,
Tohirning may o‘rniga ichganlari qondir deya,
Zuhra otli mohi paykar, ahdi yolg‘onimga ayt.

Alqissa, Tohir so‘zini tamom etdi. Shamol ham bir soatda Bag‘doddan Tatarga borib, yog‘ochlarga tegdi. Zuhrajon parvarishlab yurgan bir sarv yog‘ochi bor edi. U o‘zga daraxtlardan baland edi. Shamol shu sarv daraxtiga borib yetdi. Daraxtda bir g‘alati ingroq paydo bo‘ldi. Zuhra qiz ko‘shkida uxlab yotgan yerida cho‘chib uyg‘ondi va: “Ey Xudo-yo! Bu ovozdan Tohirjonning isi kelmoqda, yo Tohirning o‘zi keldimi yoki undan bir xabar yetdimi?” deb turgan vaqtda, sarv daraxtidan shu bir ovoz eshitilib, g‘azal paydo bo‘ldi:

Tohiring sayr etmish foniy jahonni,
Sendek go‘zal hech ko‘rmadi ellarda.

Ko‘ngillar oromi, manzil-makoni,
Bulbullar sayramas o‘zga gullarda.

El husningga doxil, ko‘rmoqqa zordir,
Ishqingda bechora, ko‘yingda xordir,
To o‘lguncha yo‘lda zor-intizordir,
Ravshan kabi ko‘zlar qoldi yo‘llarda.

Xanjaring — jonlarda, o‘qlaring — tanda,
G‘amzang o‘q otadi qasd etib kunda,
Surating ko‘rganda xayollar senda,
Husning — yuraklarda, so‘zing — tillarda.

Ne malaksan, bashar derlar so‘yingga[1],
Ko‘zlar toqat qilmas boqsa ro‘yingga,
Qodir Alloh ziynat bermish bo‘yingga,
Hech topilmas sendek sog‘-u so‘llarda.

Mis o‘zin zam[2] etmish siym-u zar bilan,
Mush[3] barobar bo‘lmish murg‘i par[4] bilan,
Zuhra hamroh bo‘lmish bir dilbar bilan,
Anvor — dur ichinda, gavhar — gullarda.

Sahar sayla chiqib, gar tegsa ellar,
Ta’rifing topolmay lol bo‘lib tillar,
Zarafshon g‘ulpoqlar, siyoh kokillar,
Cho‘zsang — yerga tushar, o‘rsang — bellarda!

Oq jayronday bo‘lib har yon boqarsan,
Anbarafshon zulfing yuzga to‘karsan,
Sayrga yursang, sakrab tog‘ga chiqarsan,
Sening kabi jayron yo‘qdir cho‘llarda.

---

[1] **So‘y** — so‘z.

[2] **Zam** — orttirma, ziyod.

[3] **Mush** — sichqon.

[4] **Murg‘i par** — qush pati yoki parli qush.

Bir savol keltirmish saboning bodi,
Keltirmish ma'shuqqa — Zuhradir oti.
Ko'zlarida yoshi, bag'rida o'ti,
Yo'rig'i sabodan, so'zi ellarda.

Orzu aylab yetolmayman joyingga,
Jonim fido bo'lsin xoki poyingga,
Yiroqdan quvonar husni ro'yingga,
Tohir savol bermish zabun hollarda.

Daraxtdan bu so'zlarni eshitib, hayron-sarosima bo'lgan Zuhra nima qilarini bilmadi. Kanizagini chaqirib, ko'rgan-eshitganlarini bayon etib, bir g'azal aytdi:

Qizlar, quloq soling ushbu so'zima,
Bir ovoz eshitdim sahar chog'inda.
Yo Tohirim kelmish, ilmas[1] ko'zima,
Yo sabo so'zlamish sarvi bog'inda.

Umid qilib kezdim qodir Allohdan,
Istagim topmadim shohdan, gadodan,
Xabarin yubormish bodi sabodan,
O'zi sayron etmish hijron tog'inda.

Yorim bunda kelmas, qaytmagay davron,
Yor mendan ayrilib, ko'r, qayda mehmon,
Yor — unda, men — bunda, qoldik sargardon,
Ko'zim — yoshda, labim — zahr ayog'inda.

Alif qaddim do'ndi bir navnihola,
Ne javob aytayin kelgan shamola?
Meva, olma-norim kelmish kamola,
Yorim kelib qo'nsa gul butog'inda.

Zuhra aytar, oqdi ko'zimdan yoshim,
Ota-onam — darddir, g'amdir — yo'ldoshim,

[1] **Ilmas** — ilinmas, ko'rinmas.

Bir zamon so‘zlashsam, kelsa sirdoshim,
Armonim yo‘q, o‘lsam yor quchog‘inda.

Alqissa, Zuhra so‘zini tamom qildi. Shunda daraxtlar orasidan yana o‘sha sas eshitildi:

Qosidam[1] Bag‘dod shahridan
Men bu Tatarga kelmisham.
Ikki go‘zalning dardidan,
Oh bila zora kelmisham.

Tohir deya zor yig‘lagan,
Jigar-bag‘rini dog‘lagan,
Tov berib[2] zulfin yog‘lagan,
Zulflari tora kelmisham.

Qora ko‘zdan oqar yoshi,
Eritar tog‘ bilan toshi,
Ul Zuhra qizning sirdoshi,
Oshiqi zora kelmisham.

Sabo har dillarda so‘zlar,
Chin oshiqning yo‘lin izlar,
Tohir Zuhrajonni ko‘zlar,
Men bir bechora kelmisham.

Alqissa, kanizaklar bu so‘zlarini tinglab, biroz sukut saqladilar.

Gulqamar:

— Ey Zuhrajon, bu ovozning nimaligini anglayolmadik, aqlimiz yetmadi. Quyosh chiqqanidan so‘ng yana kelib, tinglab ko‘rarmiz, — dedi. Ammo Zuhrajon o‘tirib-turib kutishga toqati bo‘lmadi. Biroz vaqt o‘tgandan keyin tong xo‘rozi qichqirdi.

Gulqamar:

---

[1] **Qosid** — xabarchi, jarchi.

[2] **Tov bermoq** — jingalatmoq.

— Ey Zuhrajon, yur, endi borib ko‘raylik, balki boyagi ovozdan bir nishon toparmiz, — dedi va Zuhraning qo‘lidan tutib, bir abyot aytdi:

Sahar vaqti subhi sabo dam bo‘ldi,
Kel, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik!
Qayg‘uli ko‘nglimga yuz alam bo‘ldi,
Kel, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik!

Bog‘ ichida ne sadodir, ne sozdir,
Bilolmasman, sanga ne qish, ne yozdir,
Ne majhul payg‘omdir, nechuk bayozdir,
Kel, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik!

Shamolda soz bermish sarvi butog‘i,
Qizlarning jonida qo‘ydi bu dog‘ni,
Borib axtaraylik bog‘ni-chorbog‘ni,
Kel, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik!

Sayr etaylik Tohir kezgan joyini,
Naqqoshi manzarlar, gul saroyini,
Qaytarmagin Gulqamarning ra’yini,
Kel, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik!

Gulqamar so‘zini tamom etdi. Turib bog‘ sayliga ketdilar. Ular bog‘ni ertadan kechgacha aylansalar ham, hech narsa ko‘rmadilar. Shunda Zuhrajon ko‘zi yoshli, g‘amgin bo‘lib, bir so‘z aytdi:

Havasim yo‘q sevar yorim bo‘lmasa,
Nechuk toqat qilay ulug‘ ellarda.
Bog‘ egasi — bulbul zorim bo‘lmasa,
Ko‘nglim toqat bermas toza gullarda.

Almudom gul yuzin ko‘rmoqqa zorman,
Yaxshidan ayrilib, yomonga yorman,
Ketmoqqa ojizman, ko‘p beqarorman,
Ko‘nglim orzularida, ko‘zim yo‘llarda.

Qaysi bir otashda yuragin dog‘lab,
Qaysi pari bilan ko‘nglini chog‘lab,
Yoridan ayrilib, ko‘r, qayda yig‘lab
Qaysi sahrolarda, qaysi cho‘llarda.

Xanjari jonimda, o‘qlari tanda,
Hajri o‘ldirmoq-chun qasd etar kunda,
Surati ko‘zimda, xayoli manda,
Yuzi — yuragimda, so‘zi — tillarda.

Zuhrajon der, yorim ko‘chdi yurtindan,
Ko‘zlarimga sursam poyi gardindan,
Sitami ko‘p Boboxonning dardindan,
Tohirim kelmadi oyda, yillarda.

Alqissa, Zuhrajon bu so‘zini tamom etib behush bo‘lib yiqildi. Kanizaklar uning qo‘ltig‘idan tutib, ko‘tarib ko‘shkka chiqardilar. Zuhra bir kecha-kunduzda o‘ziga kelib, shunday yig‘ladiki, uning sasidan ins va jinlar larzonga keldi. Kanizlar: “Bunchalar beqaror bo‘lma, sen beqaror bo‘lsang biz ham beqaror bo‘lamiz. Dunyoni sabr qilmoq birla olarsan”, — deb maslahat berdilar. Ammo so-g‘inchdan Zuhrajonning ko‘zi giryon, jigari biryon bo‘lib, kuyib-yonib, kechalari uyqudan, kunduzlar rohatdan qolib, ota-onani unutib, jahonning zavqidan kechib, yorug‘ dunyoga chiqmay, bir hujrada o‘likdek yotaverdi. Uning yuzi za’farondek sarg‘ayib, o‘lim qaroriga yetdi.

Zuhraning onasi qizini behad yaxshi ko‘rar edi. Zuhraning betoqat bo‘lganini eshitib, uni ko‘rmoqqa keldi. Ko‘rsa, Zuhra qizi xuddi o‘likdek bo‘lib yotibdi. Ahvolni ko‘rib, sochini yoyib, Xudoy taologa munojot qildi: “Ey pok-o Parvordigor-o! Mening shu bolamga o‘zing rahm qil! Tohirni keltirsang, Zuhrajon xushvaqt bo‘lsa, men ham xushvaqt bo‘lsam”, deb yig‘ladi. Shu payt Gulzoda kaniz kelib ko‘rsa, onasi Zuhraning boshini tizzasining ustiga olib o‘tiribdi. Gulzoda:

— Ey ona! Zuhraning o‘lar vaqti yetibdir. Endi ne chorang bo‘lsa, ko‘raver! — dedi.

Ona bechora nima qilishni bilmay, shoh yonida qizining ahvolini bayon etdi:

— Ey shoh! Qizingni Tohirdan ayirding, Zuhra o'lar holatga yaqin keldi. Ishq unga sitam (og'irlik) qilibdir. Endi nima tadbiring bo'lsa, tayyorgarligingni ko'r! — dedi.

Shoh bu xabarni eshitib, qarori qochib:

— Zuhrajonni keltiringlar, men ham uni bir ko'rayin! — dedi.

Shunda onasi Zuhrajonning yoniga kelib:

— Ey bolam, otang seni ko'rmoq istaydi, boraylik! — dedi.

Shunda Zuhra:

— Ey ona, men otamning yoniga bormasman, yuzini ham ko'rmasman, mening ota-onam ham, qarindosh-urug'im ham yo'q-dir. Ular mendan kechibdir, men ham ulardan bezorman. Mening Tohirdan o'zga hamdamim yo'qdir. Agar Alloh taolo bir payt menga Tohirni muyassar etsa, bu g'ariblik, parishonlik holim o'tar. Bo'lmasa, g'ariblikda o'lsam, men ham Alloh taoloning g'azab qilgan bandasiman... Men Tohir bilan do'zax ichida o'tirsam ham, bu — ko'shk-u ayvon ichida o'tirganimdan yaxshidir. Tohir-ning yonida o'lsam, armonim yo'q. Boring, shohga ayting, meni o'ldirsin! Meni ishq o'tining ichida qo'yganidan ko'ra, o'ldirgani yaxshi. Agar o'ldirsa, shoh uchun ko'p xayr-savob yozilar. Meni bu azoblarga tashlab qo'yganiga rozi emasman. Men otamning yoniga bormasman! — deb, zor-zor yig'lab, bir abyot o'qidi:

Men hargiz bormasman otam yoniga,
Borsang otamga ayt, o'ldirsin meni!
O'tlar soldi oshiqlarning joniga
Borsang, otamga ayt, o'ldirsin meni!

Na otam bor, na onam bor jahonda,
Yaqin-qardosh, na xovandor bor manda,
Borolmayman, otam qayda, men qayda,
Borsang otamga ayt, o'ldirsin, meni!

Tutsam yoqasidan mahshar kuni men,
Ayirdi Tohirdan, ko'p norozi men,

Bu darddan qutilsam, o‘lsam rozi men,
Borsang, otama ayt, o‘ldirsin meni!

Avval boshda nechun keldim jahona,
Bu ishqning dardinda bo‘ldim devona,
Kechdim hammasidan, bo‘ldim begona,
Borsang otamga ayt, o‘ldirsin, meni!

Yor deya barchaga ag‘yor bo‘libman,
Otamning qahriga duchor bo‘libman,
Tohirdan boshqadan bezor bo‘libman,
Borsang otamga ayt, o‘ldirsin, meni!

Chiqmam malomatdan, nomus-orim yo‘q,
Yig‘lamoqdan boshqa kasb-u korim yo‘q,
Ishq yukin tortmoqqa ixtiyorim yo‘q,
Borsang otamga ayt, o‘ldirsin, meni!

Zuhra der, Tohirsiz umr surmasman,
O‘tarman dunyodan, bir dam turmasman,
O‘lguncha otamning yuzin ko‘rmasman,
Borsang, otamga ayt, o‘ldirsin, meni!

Zuhra so‘zini tamom qildi. Onasi borib qizining xabarini shohga aytdi. Shunda podsho: “Qizim kamolga kelibdir”, deb unga munosib bir odam ko‘zlab, fikr daryosiga g‘arq bo‘ldi.

Podshohning bir qarindoshi bor edi, uni shahzoda Ermanus der edilar. Ermanusning Qorabotir degan bir o‘g‘li bor edi. U urush-savashni sevadigan yigit bo‘lib, shoh qo‘shinining butun ixtiyori shuning qo‘lida edi.

Podshoh qizini shu Qorabotirga mayl etib, vazir-u vuzaro, arkoni davlatini chaqirib, Qorabotirni ham chorlab:

— Menda bir gul kamolga kelibdir. Uni tug‘ishganim Qorabotirga bermoq istayman, — dedi. Shunda vazir-u vuzarolar Qorabotirga “muborak bo‘lsin!” dedilar. So‘ngra Qorabotirga xazinadan kuyov saruposini keltirib kiyintirdilar. Qozini chaqirib

guvohlar hozirlab, Zuhrajonni Qorabotirga nikohladilar. Qorabotir shoh qizini olgan odam bo'lib, murtini tovlab, o'zida bor xazinani chiqarib, shaharni charog'on etib, arkoni davlatlarga sarupolar qo'yib, faqir-u fuqarolarga qizil (oltin) bag'ishladi. O'n besh kecha-kunduz to'y-tomosha berdi. So'ng Qorabotir kechasi Zuhra qizning ko'shkiga borib, qo'l qovushtirib, unga salom berdi va otasi Zuhra qizni unga bag'ishlaganini ayon qildi. Bu so'zdan Zuhra qiz bag'ri yonib, Qorabotirga qahr bilan dedi:

— Ey Qorabotir! Gavharni itning bo'yniga taqsang, gavhar ham yig'laydi, it ham. Sen kim-u men kim? Ikkimizning o'rtamizda sulh berib, nikoh bog'lagan ahmoq kim o'zi? Go'yo za'faronni eshakning oldiga to'kkanday bo'libdi, bor, yo'q bo'l! Ko'zimga ko'rinma! — deb bir abyot aytdi:

Ketgin bundan Qoracho'moq!
Men sening yoring emasman.
Senga "berdim" degan — ahmoq,
Men sening yoring emasman.

Bir qarg'asan xor ichida,
Oshiq bo'lgan zor ichinda,
Sayr etib gulzor ichinda,
Sevar gulzorim demasman.

Bir oshiq bechora bo'lsang,
Meni deb ovora bo'lsang,
Agar gavharpora bo'lsang,
Men xaridoring emasman.

Bugun otamga ag'yorman,
Har zulming ichinda borman,
Tohir deb xasta-bemorman,
Sening bemoring emasman.

Otam zulm etdi boshima,
Rahm etmadi ko'z yoshima,

Dilbarim kelar qoshima,
Sening dildoring emasman.

Mening oshiqligim haqdir,
Doxil aylagan ahmoqdir,
Menda bir maqsading yo‘qdir,
Hech qilar koring emasman.

Fido bo‘lmay fidolikka,
Havasim ko‘p judolikka,
Zuhra aytar, gadolikka
Men sababkoring emasman.

Alqissa, Zuhrajon so‘zini tamom etdi. Qorabotir unga so‘z qotib bilmadi, masxara bo‘lib, uyiga qaytdi. Undan so‘ng Zuhrajon yoqasini yirtib, “ey bor Xudoyo! Yo bu omonatingni ol, yoki Tohirdan darak ber! Tohirni keltirmoqqa yoki Qorabotir cho‘moqni o‘ldirmoqqa sening qudrating yetmaydimi?” — deb, zor-zor yig‘lab, behush bo‘lib yiqildi. Bir zamondan so‘ng hushiga kelib, Gulzodaga:

— Dunyoning ziynati, davlati menga kerak emas! Sen bularni ko‘chaga olib chiqib, faqir-u fuqarolarga sarf qil! — deb xazina kalitini berdi.

Zuhraning yig‘lamoqdan boshqa ishi yo‘q edi. U Tohirni yodlab, Majnuni devona bo‘lib oh-u faryod qilib yurar edi. “Ey Tohirjon! Sen g‘ayri bilan mubtalo bo‘lding! Yoki bir baloga duch bo‘lding. Meni yod etmading, ko‘nglimni obod etmading. Men asir-u hayroning bo‘lib qoldim, ishqingda devonaman. Ko‘r, sen qaysi parilar bilan davron surarsan, qaysi bog‘larda sayr etarsan? Men esa sensiz qolib, sarg‘ayib-so‘ldim, o‘lmoqqa yaqinlashdim. Sen bilan surgan davronlarim yot bo‘ldi, saltanatim barbod bo‘ldi. Do‘stlar — talx, shakarlar — zahar, yorlar — ag‘yor bo‘ldi, ko‘zlarim yo‘lingda intizor bo‘ldi. Yordan ayrilgan bir benavo, gulistonidan ayrilgan bir bodi saboman. Sensiz bu ko‘shklar, bu bog‘lar, saroylar ko‘zimga do‘zaxdan ham yomon ko‘rinadi. Sening visolingga yetmoq bormi?” — deb, Zuhra qiz zor-zor yig‘lab, bir g‘azal o‘qidi:

Sendan ayru men asir-u dardi hijron qolmisham,
O‘lmayin qoldim bu dam, holimga hayron qolmisham.

Barchalar ishrat to‘nida kezdilar sayron etib,
Naylayin, zulmat aro men zor-u giryon qolmisham.

Yorim ag‘yor bilan bazm aylarki davron bog‘ida,
Men bu kun xor-u mo‘g‘ilon ichra sayron qolmisham.

Telba ko‘nglim ko‘p havas aylar o‘shal dildorini,
Dali sargardon bo‘lib, sargashta inson qolmisham,

Podshohi husn edim, taxtim uzra mehmon edim,
Toj-u taxtim sel ko‘tardi, bunda mehmon qolmisham.

Bulbulim uchdi bu kun, azm etdi hijron bog‘ina,
Men xazonli gulshan ichra bag‘ri biryon qolmisham.

Yor ag‘yor birla yor bo‘ldiki, yorin tark etib,
Menki tark aylay desam, naylayin, bejon qolmisham.

Zuhra der, yor-bulbulim uchdi xazonga, bog‘idan,
Otashi hijron qo‘linda aylab afg‘on qolmisham.

Alqissa, Zuhra so‘zini tamom etdi. Kanizlar buning yig‘laganiga toqat qilolmay, yig‘lashib: “Biz soz-suhbat qilaylik, balki Zuhra qizning ko‘ngli ochilg‘ay” deb, maslahatlashib, Zuhraning yoniga kelib:

— Sen nolishingni qo‘ysang va bizlarga ruxsat bersang, bizlar soz suhbat boshlasak, — deb yolvordilar. Zuhra qiz ruxsat berdi. Kanizlar soz-suhbat, ulug‘ majlis qildilar. Zuhraning shahdi ochilib, ko‘zi uyquga ketdi. Shul vaqt qizlar o‘tirib maslahat qildilar. “Zuhra shunday sog‘-obod mahali chopon-u sarpolarini kiyib, taomini yeb yursak-u, endi boshiga ish tushganda chorasini topmasak, non dushmani bo‘lmaymizmi?” — dedilar. Shunda Gavhar:

— Agar Tohirni keltirmasak, Zuhraning boshqa chorasi yo‘q-dir, — dedi.

Boshqa qizlar aytdilar:

— Sen hammamizning sarkardamizsan. Bu ishning chorasini sen topasan, — dedilar.

Gavhar aytdi:

— Men bu ishning chorasini toparman. Ertaga turib, Zuhraning xazinasidan zar olib, qalandarlar eshigiga borib, ko'rgan-bilganlarini so'rab, shaharma-shahar kezib, Tohirni ko'zlab, topib keltirarman. Agar topmasam, o'zim ham qaytib kelmasman. Inshoolloh, topqayman, — deb ahd qildi.

Gavhar o'n to'rt yoshli, toza kamolga kelgan, uzun bo'yli, go'zal qiz edi. U qo'liga ko'zgu olib, husnini tomosha qilganda, o'ziga o'zi: "Men o'n to'rt kechalik oy bilan barobarman", deb fikr qilar edi.

Kanizaklar:

— Ey Gavhar, sen bu maslahatni ma'qul ko'rgan bo'lsang, Zuhrani uyg'otaylik, — deyishdi. Gavhar:

— Men boshimni Zuhrajon uchun sadaqa qilaman, — degandan so'ng, Zuhrani uyg'otdilar.

Zuhra turib yana yig'ladi. Kanizaklar qilgan maslahatini unga bayon etdilar.

Zuhra quvonganidan ham o'tirib, ham turib, Gavharning bo'ynidan quchoqlab:

— Senga safarlar qutlug' bo'lsin! Tohirjonni ko'rsang, mening ahvolimni birin-ketin ayt. Agar tirik bo'lsa — jonidan, agar o'lik bo'lsa — tanidan bir nishona bersin. Unga aytginki: "Oshiq bo'lgan odam — zulm ko'radi. Bog' ichida olma-anorim kamolga kelibdir. Qoracho'moq har kuni kelib, olma-anorimni yulmoq bo'lib, yuz ming qayg'u-fikrda meni qo'yadir. Men bog'imning darvozasiga qoravul qo'yib, mador (harakat, tirikchilik) etarman. Shoh zulmi og'ir kelib, Qoracho'moq menga zulm panjasini urmoqchi bo'lib, zo'ravonlik qilaversa, men o'zimni o'ldirishga majbur bo'laman. Tohir bundoq xiyonatga qolmasin!" Mana shu gaplarimni Tohirga yetkaz! — deb yig'ladi.

Gavhar qiz:

— Agar Tohirni topib keltirmasam, nomard bo'lganimdir, — deb yana ahd qildi.

Shundan so‘ng Zuhra qiz Gavharni safarga yubormoq uchun yo‘l asbobini tayyorlab, qalandar kiyimini kiydirib, bir xurjun tilla berib, yelmoyaga (tez yurar tuyaga) mindirib, bir abyot aytdi:

Gavharjon, sen ketsang yor so‘rog‘iga,
Borsang, yoring omon bordir, degaysan.
Sen deb, o‘tlar tushib yor yuragiga,
Bag‘rin bo‘ldi, ko‘ksin yordi, degaysan.

Yor deya yig‘ladi necha ayyomlar,
Tilida yor deya o‘qib kalomlar,
Qosiddan yubordi senga salomlar,
O‘zini tog‘-toshga urdi, degaysan.

Gohi telba kabi termilib turib,
Gohi yetimlarday bo‘ynini burib,
Gohi xastalarday rangi sarg‘ayib,
Uzatib yonimda bordi, degaysan.

Raqiblar o‘t soldi shirin joniga,
Dushman xushvaqt bo‘lib sig‘mas to‘niga.
Visol istab Zuhrajonning yoniga
Qorabotir kulib keldi, degaysan.

Oshiq bo‘lgan shirin jondan kechmasmi?
Jonon sevgan yor labidan ichmasmi?
O‘limdan qo‘rqarmi, yorin quchmasmi?
Zorlanib, yosh to‘kib qoldi, degaysan.

Barini ayt, bovar qilsin so‘zima,
Qora bo‘lsin Boboxonni[illegible] yuzina,
Shoh g‘azab aylabon sh[illegible]ir qizina,
Ul Qoracho‘moqqa berd[illegible]gaysan!

Borsang, Tohirga ayt, tezdan tez kelsin!
Vaqtning tangligini so‘zimdan bilsin,

Toleyi ters kelsa, Zuhra naylasin?
Falak uning bag‘rin yordi, degaysin.

Alqissa, Zuhra qiz so‘zini tamom qildi. Gavharjonni yelmoyaga mindirib, jilovini qo‘liga olib, bog‘dan tashqariga chiqardilar. Yana bir tuyani yo‘lga tayyorlab, unga zar-zarboflar, la’l-u javohirlardan yuklab qo‘ygan edilar. “Qayerga borsang, faqir-u fuqaro, yetim-yesirlarga Tohirjonning boshi-joni uchun sarf etarsan. Balki, shu sadaqa sabab bo‘lib, Tohirjon topilar...” deb Zuhrajon yig‘lay-yig‘lay Gavharga topshirdi. Keyin:

— Qaysi shaharga borsang, hukmdorlar bilan tanish, ular har yerdan xabarli bo‘lurlar va boshingga ish tushganda oson kechar. Agar Tohirning o‘zini ko‘rsang yoki xabar eshitsang ayt: “Tezdan tez kelsin!” — deb Gavharni shahardan yarim manzil kuzatib qoldi.

Shul ayyomda Vohid qalandar degan bir odam bor edi. U Shahrijon degan qizga oshiq bo‘lib, uning hasratida kuyib, mast bo‘lib, shaharma-shahar, cho‘lma-cho‘l hasratini aytib kezib yurar edi. Shu qalandar yo‘lda ularga duch keldi. Qalandar aytdi:

— Ey Zuhrajon, sayl muborak bo‘lsin! Sen bu yerlarga nima sababdan kelding?

Zuhra qiz javob ham bermay ketaverdi. Shunda Vohid qalandar yana Zuhraning oldiga tushib, bosh egib salom berdi va:

— Ey oshiqlarning podshosi! Siringni mana menga ayt! — deb yig‘lab yubordi.

Zuhra qiz to‘xtab:

— Ey devona, bu yil yetti yildir, menga rahmi kelib, holimni so‘ragan odam yo‘q edi. Sen nima sababdan menga bunchalik rahm-shafqat qilib, mendan xabar olmoqdasan? — dedi. Shunda Vohid qalandar:

— “Zar qadrini zargar bilar”, deydilar. Agar sen menga dardingni, xabaringni aytmasang, men o‘zimni halok etaman! — deb ketaverdi. Shunda Zuhrajon ko‘zini yoshga to‘ldirib, “Ey qalandar, mening uchun sen mehnat chekma, har nima bo‘lsa — o‘zimga bo‘lsin, ammo bilging kelsa, men senga xabarini aytayin”, — deb zor-zor yig‘lab, shu g‘azalni o‘qidi:

Vohid, mendan xabar so‘rsang,
Bir yor uchun sargardonman.
Koshki yordan xabar bersang,
Dildor uchun sargardonman.

Sarg‘ayib so‘ldi gul yuzim,
Zahar bo‘ldi shirin so‘zim.
Tohir ketdi, qoldim o‘zim,
Ozor uchun sargardonman.

Ko‘rsam yorning qaddi-bo‘yin,
Haq muyassar qilsa ro‘yin,
G‘am bosibdir qalbim uyin,
G‘amxor uchun sargardonman.

Vayron bo‘lsin toj-u taxtim,
Yor deb yuragimni yoqdim.
Uyqudan uyg‘onmas baxtim,
Bemor uchun sargardonman.

Bog‘larda savsan-sunbulman,
Tar g‘unchadek toza gulman,
Guldan ayrilgan bulbulman,
Gulzor uchun sargardonman.

Yetti yil daryoda oqqan,
Shum toledan g‘amlar chekkan,
Zuhra deya alam tortgan,
Ul nor uchun sargardonman.

Keldi ayroli lashkari,
Men nayl h siym-u zari,
Yorga jo‘ dim Gavhari,
Ul yor uch sargardonman.

Sizlar ayb etmang Zuhrani,
Ko‘zlayurman Tohirjonni,

Naylaram yorug‘ jahonni,
Diydor uchun sargardonman.

Zuhra so‘zini tamom qildi. Vohid aytdi:

— Ey Zuhrajon! Biroz sabr et, senga bir arzim bor, istasang aytayin! Gavhar degan bir qimmatbaho toshdir, unga hamma odam xaridordir. Gavharning sirtini har qancha bezasang-bezantirsang ham, uning gavharligi bir kuni oshkor bo‘lib qoladi. Agar siz Gavhar qizni ham har qancha qalandar suratiga solib, uzoq yo‘llarga yuborsangiz, yo‘lda qaroqchilar buni tutib olsa, siri fosh bo‘lib, boshlagan ishini bitkaza olmay qolib ketar. Ya’niki, Gavhar qiz kimning qo‘liga tushsa, ul odam bo‘yniga tumor qilib taqingisi kelar, sening xizmating aslo joyiga tushmas. Agar qabul etsang, Gavharning xizmatini men bajarayin. Men o‘zim afg‘onman, Kobul shahridanman. Men Tohirga o‘xshash bir qalandarman. Men Bag‘dodda Shahrijon degan qizga oshiqman. Albatta, qalandar holini qalandar bilar. Men bir erkak odamman, menga hech kim qo‘lini va tilini tekkiza olmas. Sening bu ishingni men bitirarman, mendan boshqa odam bitira olmas. Gavharjon bog‘larda sayr qilib yurishni bilsin...

Shunda Zuhra aytdi:

— Men bir toleyi past qiz ekanman. Sen ham va’da bersang-u, yana bir shaharda bir qizga oshiq bo‘lib, mening ishimni yoddan chiqarsang, nima bo‘ladi?

Vohid:

— Ey Zuhrajon! Ikkimiz o‘rtamizda Xudoy taoloning ulug‘ nomidan ahd bo‘lsinki, men Tohirni topib, sening oldingga keltirmaguncha, orom olmasman, — dedi.

Qalandarning so‘zi Zuhraga va Gavharga ma’qul ko‘rindi. Ular maslahatlashib, Gavharning o‘rniga Vohidni yubormoqchi bo‘ldilar.

Zuhra Vohidni yelmoyaga mindirib, oltin-u kumushlarni uning ixtiyoriga berib, shunday dedi:

— Ey Vohid, shariatda sharm yo‘q, mening olma-anorim kamolga kelib, bunga Qoracho‘moq xaridor bo‘lib, har kuni termoq umidida keladi. Ammo bir talbis (sabab) birla to‘xtatarman. Meva

pishib yetishsa, ani tulki-shog'ol zoye aylar, Tohirni topsang, shu gaplarni yetkazginki, tezdan tez kelsin, — deb Vohidga oq fotiha berib, yig'lab bir abyot o'qidi:

Vohid, ketar bo'lsang bundan,
Jonim sevgan jonni keltir.
O'tim ziyoda kun-kundan,
Shirin jonim chiqar tandan,
Pinhon sirim yo'qdir sendan,
Sen ham qo'ling uzma mendan,
Menga do'st bo'lmas har kimdan,
Kechiksang kelar vaqtingdan,
Voz kechayin bu vatandan,
O'ldim ayroliq dardindan,
Dardimga darmonni keltir!
Mening uchun yonib-kuygan,
G'ulpog'in har yonga yoygan,
"Chin haqiqat do'stman" degan,
Ishqning sarishtasin yegan,
Har kimga bir sirin degan,
Yuragimga dog'lar qo'ygan,
Yonimda zar-zarbof kiygan,
Raqib diydoriga to'ygan,
Yonar o'timga [illegible]v quygan,
Yolg'onchida [illegible]nglim suygan,
Uyg'on, qora [illegible]xtim uyg'on!
Tuganmas davronni keltir!

Ko'nglim talvas[1] etar yorni,
Mavj etar ishqning bozori,
Kamol topdi olma-nori,
Bulbulim yo'q, qilsa zori,
Ko'rinsa yorning diydori,
Diydorining men xardori,
Sadaqa dunyoning bori,

[1] **Talvas** — bu yerda kuchli orzu ma'nasida.

Injadir g‘ulpoqning tori,
Oshiqning yo‘q nomus-ori,
Bu kun, yetti yildan beri,
Korim — yorning oh-u zori,
Ul chashmi giryonni keltir.

G‘am daryosiga g‘arq bo‘lgan,
Shoh joniga g‘azab qilgan,
Sevar yorindan ayrilgan,
Majnundek devona bo‘lgan,
Layli kabi bag‘rin tilgan,
Ishq tig‘ini jonga chalgan,
Gul mengzi sarg‘ayib-so‘lgan,
Daragin bilmas hech kelgan,
Ishrati yo‘q bizlar bilan,
Bilmam tirikmu yo o‘lgan,
Bizlar bilan va’da qilgan,
Ul ahdi yolg‘onni keltir.

Yorim — unda, aqlim hayron,
Ko‘zlarim yo‘linda giryon,
Falakdan choki giribon,
Yuragim qon, bag‘rim biryon,
Bog‘larim qoldi besayron.
Yorim qayda chekar armon?
Oshiqlardan o‘tdi davron,
Topmayin dardima darmon,
Qarorim yo‘q bir dam, bir on.
Yoqdi meni ro‘zi hijron,
Zuhra aytar: men sargardon,
Beaql, nodonni keltir!

Zuhra so‘zini tamom qildi. Vohid aytdi:

— Ey Zuhrajon! Tohirni men qaysi belgisidan tanib olaman?

Shunda Zuhra dedi:

— Har shahar yoki qishloqqa borsang, dod etib: “Ishq dardida men kabi kuyganlar bormi?” — deb qiyqirarsan, shunda Tohir

sening nolangni eshitsa, bir soniya ham tinch o'tirib bilmas. U o'zi — o'rta bo'yli, qalam qoshli, zarafshon kokilli, ishq o'tida kuygan bir yigitdir, — deb belgi-nishonlarini aytdi. Vohid qalandar otini qo'yib, yelmoyaga mindi-da, karvonga qo'shilib, "qaydasan daryoning oyog'i" deb, yo'lga ravona bo'ldi.

Vohid bir necha manzil yo'l yurib, tog' o'tib, cho'l kesib, oxiri bir katta shaharga yetishdi. Bu — Bag'dod shahri edi. Vohid bir shaharning ichiga kirib, ko'chalarini, masjid-madrasalarini aylanib, so'roq soldi:

— Bu shaharda mendek ishq o'tida kuygan dali-devona bormu? — deb qiyqirib yurdi. Ammo hech kimdan sado chiqmadi.

Vohid bu shahardan o'ziga yo'ldosh, siriga sirdosh topmay, yana sahroga chiqib ketdi. Yo'lda katta bir bog'ning chetida o'tirib, "ey xaloyiq", deb qichqirib o'tirdi. Bu chorbog'da bir necha sohib yigitlar, shoh o'g'li shahzodalar, bek o'g'li bekzodalar sayr etib yurgan edilar. Shuning ichida bir zebo yigitga ko'zi tushgan Vohid qalandar: "Shu yigit Tohir emasmikan?" deb yana qiyqirdi:

— Do'st! Ishq dastidan mendek bag'ri kuygan bir odam bormi ichingizda?!

Bu so'zlar yigitning qulog'iga xush keldi.

Shunda haligi zebo yigit jo'ralariga aytdi:

— Ey yigitlar! Siz biroz vaqt sabr qilib turing, men bu bag'ri biryon devonaning xabarini olayin, — deb Vohidning oldiga keldi.

Alqissa, bu zebo yigit Tohir edi, u qalandarga qarab bir muxammas aytdi:

Dilrabo, yoding bilan siynamda g'am ko'p bo'ldi, kel!
Hasratidan buzilib, holim parishon bo'ldi, kel!
Jam bo'lib g'am lashkari, dil ichra mehmon bo'ldi, kel!
Sen sababli zor ko'nglim shahri vayron bo'ldi, kel!
Laxta-laxta tig'i hijrondan jigarim qon bo'ldi, kel!

Har gula sayr aylamam ruxsori bog'ing bo'lmasa,
Kim erur hamdam manga hijroni tog'ing bo'lmasa,
Shab erur kunduzlarim, husni chirog'ing bo'lmasa,

Istamam qand-u asal shirin dudog‘ing bo‘lmasa,
Nazdi ko‘nglim zahri bog‘i bog‘i ehson bo‘ldi, kel!

Sarvi qad, ruxsori xush, siymin badan, gul yuzli yor,
Istabon bazmi visoling, darda qoldim beshumor,
Osmonning anvorisen Yer yuzinda lolazor,
Almudom vasling tilab, tan ichra ko‘nglim beqaror,
Yor deya, ag‘yordan mahrumi davron bo‘ldi, kel!

Qoshlaring yoy, kipriging o‘q, muztarib jonimga o‘t,
Gar meni qatl aylasin, dod demasman, hayhot!
Labingning sharbatin totgan topar obi hayot,
Oshig‘in ma’shuq agar o‘ldirsa, bo‘lg‘ay ruhi shod,
Rahm qil, yetkur menga, surati bejon bo‘ldi, kel!

Nozanin sayla chiqmish, vasfini aylay bayon,
Podshohi husn erur, beshakki muslimdir ayon,
Kokili sarv uzra jonimga baloyi nogohon,
To‘bi bo‘ylig‘ mahvashim bo‘lg‘och nazarimdan nihon,
Har taraf bo‘y chekmadi sarvi xiromon bo‘ldi, kel!

Tohir-o, yod aylaram shom-u sahar ul mahvashi,
Ayro soldi Zuhrajondan bu falakning gardishi,
Istaram dildordan mujda keltirsa bir kishi,
Hajridan Qaqnus kabi siynamga solib otashi,
Ushbu holimni ko‘rib, kofir musulmon bo‘ldi, kel!

Tohir so‘zini tamom etdi. Vohid bu oshiq yigitning Tohir ekanini bilib, mast-u mastona bo‘lib, Tohirni topgandan quvonib, unga shu g‘azalni aytdi:

Do‘stlar-o, ro‘zi azal ko‘nglim ichra jo qildi ishq,
Kunda yuz hasrat bilan boshimda g‘avg‘o qildi ishq.

Telba, itday kezarman chor tarafga termilib,
Naqdi umrim hosilin bir damda yag‘mo qildi ishq.

Qonli bag‘rimni kabob etdi, solib siynamga dog‘,
Labimni tashna, ko‘z yoshimni daryo qildi ishq.

Yig‘labon ikki ko‘zim daryo bo‘libdir, naylayin!
Ko‘zlarimni ko‘r etib, ko‘nglimni daryo qildi ishq.

Kunda yuz qatla o‘larman, kim, yana yuz tirilib,
Mahrami mavt o‘lmisham, mahrumi dunyo qildi ishq.

Hajri vodiysida sargardon kezarman, kechalar
Boshima tosh yog‘dirib, olamda rasvo qildi ishq.

Yordan uzdim oyoq bir dam farog‘at olg‘ali,
Ko‘nglim ichra jo bo‘lib, yorin tamonno qildi ishq.

Bir pariga bek bo‘lib, keldimki Tatar shahridan,
Yor ko‘yida bas meni Majnuni shaydo qildi ishq.

Vohid aytar, ey ko‘ngil, ishq yo‘lida mardona bo‘l,
Aysh uyini band etib, mehnat darin vo[1] qildi ishq.

Vohid so‘zini tamom qildi. Shunda Tohir savol so‘rab, Vohid javob aytib, shu so‘zlarni bayon qilib turgan edi:

Tohir:
Xabar bergil, Vohid, qaydan kelarsan?
Ne sababdan tushding bizning bu joya?
Har dam olganingda yuz oh urarsan,
Ohing o‘qqa mengzar, qomating yoya.

Vohid:
Gasht aylabon chiqdim Tatar yurtindan,
O‘zim kabi sargardonni ko‘zlarman.
Ey shahzoda, so‘rsang mening dardimdan,
Dardim cho‘xdir, bir darmonni ko‘zlarman.

[1] **Vo** — mehnat eshigini keng ochdi, ma’nosida.

Tohir:
Tatar deding, jonim o‘rtandi dam-dam,
Sendan ziyodaroq sargardon men ham,
Almudom bir qizning ishqinda yonam,
Sochi tunga mengzar, yuzlari — oya.

Vohid:
Charx urib kezarman sog‘-u so‘llarda,
Zuhra yubormishdir, ko‘zi yo‘llarda.
Topmasam — turmasman ulug‘ ellarda,
Jismin olib ketgan jonni ko‘zlaman.

Tohir:
Vohid, nechun ko‘p oh chekib so‘zlarsan?
Bir pinhon siring bor, mendan gizlarsan,
Qaysi bog‘ning bog‘bonini izlarsan?
Rostini ayt banda bo‘lsang Xudoya!

Vohid:
Bir pari yubordi, o‘zi — ul joyda,
Hijron zahrin yutar, qo‘linda boda,
Shohning g‘azabindan dali daryoda
Oqib ketgan benishonni ko‘zlarman.

Tohir:
Bulbullar sayraydi yorning bog‘inda,
Qizlar sayron qilib kezgan chog‘inda,
Nechuk qalandarsan yor so‘rog‘inda?
O‘tlar solding qalbim ichra saroya!

Vohid:
Keltir deya, meni tezdan yubordi,
Necha so‘zlar aytib, necha yolvordi.
Unga sen yor desang, vaqti xush erdi,
Ishqda kuygan notavonni ko‘zlarman.

Tohir:
Tohir aytar, kelmagaydim jahona,
Zuhraning ko‘yinda bo‘ldim devona,
Bugun bo‘lur menga oxirzamona,
Gar yetmasam aning kabi xo‘bro‘ya.

Vohid:
Vohid aytar, boshim soldim maydona,
Karbalo itiday kezdim har yona,
Shahri qizga oshiq bo‘lib g‘aybona,
Ochilmagan tar g‘unchani ko‘zlarman.

Alqissa, Tohir: “Bu ham men kabi bag‘rini ishq o‘tida yoqqon qalandar ekan. Ammo qalandar xalqi yolg‘onchi bo‘ladilar. Yolg‘on so‘zlab meni avvalgidan ham battar devona aylamasin. U Zuhrani ko‘rganmi, ko‘rmaganmi — shuni bilayin”, deb, tuyaning no‘xtasidan ikki qo‘llab tutib:

— Ey, oshiqlarning jahon shohi, avval Xudoning, so‘ngra hazrati payg‘ambar haqi uchun rostini ayt, mening ishq hijronida kuygan bag‘rimni yana yoqma! — deb yig‘lab, bir abyot aytdi, qalandar javob berib turdi:

Tohir:
Vohid, tezdan xabar ber savolimning javobin,
Xabar ber, nozli yorim sen nechuk holda ko‘rding?
O‘zimga yo‘ldosh etdim yorning solgan azobin,
Itlarga sham qilaman kuygan bag‘rim kabobin,
Xabar ber, nozli yorim sen nechuk holda ko‘rding?

Vohid:
Senga javob aylayin yorning qilgan savolin,
Mudom yor deb yig‘lagay, men shundoq holda ko‘rdim.
Nargiz kabi ko‘zidan oqizib ashki olin,
Hijron shabinda istar yorning sha’mi jamolin,
Kecha-kunduz yig‘lagay, men shundoq holda ko‘rdim.

Tohir:
Mahvashim so‘rog‘inda tog‘-u toshni kezarman,
Oy-kun kabi sargardon, ko‘yida darbadarman,
Qaqnus kabi o‘t chaynab, otashda sayr etarman,
Bugun bu holda, erta, ko‘r, ne holga yetarman,
Xabar ber, nozli yorim sen nechuk holda ko‘rding?

Vohid:
Ko‘shki uzra u bedor chekkani oh-u zordir,
Sabr uyini sindirib, almudom beqarordir,
Ko‘z yoshining rangidan gul yuzi lolazordir,
Taxti o‘ziga zindon, jahon ko‘ziga tordir,
Sening nozli yoringni men shundoq holda ko‘rdim.

Tohir:
Gul yuzini ko‘rmasam har haftada, har oyda,
Bu ko‘nglim toqat qilmas motamxona saroyda,
Bu yo‘ldan qaytib bo‘lmas, chiqsin jonim shu ko‘yda
Ko‘rmasam Zuhrajonim turolmasman bir joyda
Xabar bor, nozli yorim sen nechuk holda ko‘rding?

Vohid:
Shohning qizi shahzoda, ko‘yida bir g‘aribdir,
Hajrida za’farondek gul yuzi sarg‘aribdir,
Ojiz jona og‘ir yuk — ishq ichra kim ko‘ribdir,
“Maqsadga yetmadim...” deb, to‘rt yona termilibdir,
Sening nozli yoringni men shundoq holda ko‘rdim.

Tohir:
Jononim deb jon chekib, shirin jonim berarman,
Yoninda bo‘lsam agar o‘zim o‘tga urarman,
Yolg‘iz boshim yo‘linda, xizmat aylab turarman,
Chin oshiqi diydorman, yor jamolin ko‘rarman,
Sen mening nozli yorim, ayt,
nechuk holda ko‘rding?

Vohid:
Kecha-kunduz uyqu yo‘q, ko‘shki ustida bedor,
Sitam o‘qini otar yonida jami ag‘yor,
Yor jamolin yetirdim, qoshida qildim izhor,
Lol bo‘libdir tillari yonida to‘ti guftor,
G‘am kechada g‘arq o‘lmish, men shundoq holda ko‘rdim.

Tohir:
Bilmadim, yor labidan qaysi tashna qonibdir,
Bulbul uchib yurtidan, zog‘lar kelib-qo‘nibdir,
Ohim chiqar osmona, bag‘rimda o‘t yonibdir,
Yetti oshiq o‘tibdir — kim mendek o‘rtanibdir,
Tohir der, Zuhrajonni, ayt, nechuk holda ko‘rding?

Vohid:
Qizlar ichinda sarxush ajab sarvi xiromon,
Hasratidan qon yig‘lab gul yuzli mohitobon,
Ustixonin kul etmish ayroliq ro‘zi hijron,
Ko‘nglida yuz ming armon, ko‘zining xuni giryon,
Vohid der, Zuhrajoning men shundoq holda ko‘rdim.

Vohid bilan Tohir so‘zini tamom etdilar. Vohid aytdi:

— Ey yigit, sen Tohir bo‘lsang, men Tatar viloyatidan senga kelgan sovchiman. Tatar qizlarining shahanshohi Zuhrajonning yuragi qon, jigari biryon, diydasi giryon, aqli hayron, bog‘lari besayron, oshufta davron, o‘rni o‘ziga zindon, chekkani fig‘on, dushmanlari shodumon. Ko‘ngli alamda, ko‘zlari namda, xotiri g‘amda, joni sitamda. Dunyodan kechib, kecha-kunduz sening yo‘lingga qarab, seni orzu qilib turadir. Qorabotir uni olaman deb Zuhra qizning ustiga kunda besh vaqt kelib-ketadi. Ammo Zuhra qiz yolvorib, makr-hiylalar qilib, mador to‘playdi. Ul Tatar viloyatida bir musofirdek bo‘lib o‘tiradir. Agar borar bo‘lsang, tezda tadorik ko‘r. Agar bormaydigan bo‘lsang, menga ruxsat ber, men sening xabaringni tez yetkazayin, — dedi.

Tohir bu Zuhra tarafdan yuborilgan odam ekanligini ko‘rib, o‘rnidan turib quchoqlashdi va:

— Zuhrani o‘z ko‘zing bilan ko‘rdingmi? So‘zini qulog‘ing bilan eshitdingmi? — deb so‘radi.

Vohid aytdi:

— Balli, o‘zini ham ko‘rdim, so‘zini ham eshitdim. Sen uchun bor dardini ma’lum qildi. Mana bu xatni senga berib yubordi, — deb, bir xat chiqarib berdi. Tohir xatni ko‘ziga surib, so‘ngra ochib o‘qidi.

Xatning mazmuni shundoq edi:

“Avval bismillohir-rahmonir-rahim va so‘ngra Muhammad Mustafo alayhissalomga sano va durudlar. Menkim ishq o‘tida kuygan Zuhra g‘arib tomonidan oliy janob Tohirjonima, pok-domlonima, hasratli sarvi xiromonima, muhabbatli mohitobonima! Arzim shudir: Xudoyim siz janobi oliyni hamma balodan omon saqlab, bir-birimizga mudomlik qovushmoqni nasib etsin. Siz, men ojizani hasrat dog‘inda va ayroliq zulmining ichinda tashlab ketdingiz. Siz ketganingizdan buyon har kunim yilga do‘nib, oh-u zorimdan Boboxon omonga keldi va “qizim kamolga kelibdi” degan fikrga tushib, meni qo‘shinboshi Qorabotirga nikohlab bermoqchi bo‘ldi. Men ham bu so‘zni eshitib, o‘zimni uch marta xanjar tortib o‘ldirmoqchi bo‘ldim. Ammo kanizlarim poylab yurib, meni saqlab qoldilar. Bir kuni Qorabotir mening bog‘imga xilvatga kirmoqchi bo‘ldi. Men Qorabotirni qarg‘ab haydab yubordim. Qorabotir yana mening ko‘nglimni topmoq istab, yonimga kelib turibdi, ammo men har gal goh hiyla, goh qahr bilan haydab yuborayotirman. Ammo bir kuni shohning g‘azabi bilan Qorabotirning fikri bir bo‘lib, mening ishim xarob bo‘lar-ov, deb qo‘rqaman. Shunga ko‘ra, bu xat borib yotgan zamon yo mendan bezor ekaningizni bildirib xat yozing, yoki bu bog‘ga kelib egalik qiling. Kishi oshiqlikda jabr-u sitamlar chekadi. Bir marta shohning g‘azabini ko‘rdim deb, muncha kamola kelgan bog‘ni egasiz qo‘ymagay! So‘z tugadi, Xudo salomat saqlasin!”

Tohir xatni o‘qib, behush bo‘lib yiqildi. Hushiga kelganida “Zuhrani ko‘rgan ko‘zingdan aylanayin!” deb, qalandarning oyog‘iga yiqildi. Tohirning yuragiga o‘t tushib, na o‘tirishni, na bir joyda qaror topib turishni bilmay, go‘yo oynadan tushgan shu’laday har tomonga yugurar edi. So‘ng Tohir maslahatlashib,

Vohidni musofirlar tushgan karvonsaroyga eltdi. Vohidni shu yerga joylashtirib, unga qulday xizmat qilib, ovqatlantirib:

— Ey shohi qalandar! Sen shu yerda kutib o'tir. Men ham bu shaharda mehmonman. Borib uy egasidan ruxsat olib kelayin, — dedi.

Tohir Odilshohning yoniga borib, bosh egib salom berdi. Podshoh salomiga alik olib, o'tirmoqqa yer ko'rsatdi.

Tohir:

— Ey karamli shohim, qiblagohim, Sulaymon saltanatli, Iskandar shavkatli sultonim! Janobi oliyga ikki kalima arzim bor, — deb, bir abyot aytdi:

Zuhrajonim menga salom yubormish,
Shohim, menga ruxsat berar kuningdir,
Ko'shkinda yig'labon beqaror ermish,
Shohim, menga ruxsat berar kuningdir.

Musofirman bu Bag'dodning shahrinda,
Baliqday suzarman ishqning bahrinda,
Ko'zim — qonda, labim — hijron zahrinda,
Bugun menga ruxsat berar kuningdir.

Yorim anda yig'lar meni kelsin deb,
Kelib, dol gardanga qo'lin solsin deb,
Yo-ha Zuhrajondan judo bo'lsin deb,
Bugun menga ruxsat berar kuningdir.

Meni ko'p chorlamish nozanin dilbar,
Uning ixlosi deb kuyarman yaksar,
Diydorin tilayman men ro'zi mahshar,
Menga bugun ruxsat berar kuningdir.

Bir qosid keltirmish yor payg'omini,
Ko'z yosh bilan yozmish ul salomini,
Yod etib saboqdosh xush kalomini,
Tohir aytar, ruxsat berar kuningdir.

Tohir so‘zini tamom qildi, shohning oyog‘iga yiqilib yig‘ladi. Yonida o‘tirgan odamlar ham yig‘ladilar, o‘tirgan yeri go‘yo motamxona edi. Shunda shohning ham ko‘ngli buzilib:

— Avvaldan sen bilan oshno bo‘lmasak yaxshi bo‘lar edi. “Oshno bo‘lmoq oson, ayrilishmoq mushkul”, degan gap bor. Shu naql chin ekan, — dedi. So‘ng yana biroz o‘ylanib dedi:

— Ey Tohirjon, bunday xayollarni quv! Istasang podsholigimni, qizimni ham berayin, — dedi.

Tohir dedi:

— Agar ruxsat bermasangiz, o‘zimni o‘zim halok etarman!

Shunda podshoh:

— Tohir, boshingni ko‘tar, qayoqqa ketaman desang, bobong ruxsat berar, — deb, bir abyot aytdi:

Shoh ruxsat bermas deb, hazar aylama,
Ketar bo‘lsang, uzoq yo‘llar seningdir.
Ammo o‘zga joydan guzar aylama,
Shohning mulki, ulus-ellar seningdir.

Shamol esar fasli bahor chog‘inda,
Giyoh o‘sib, tuman olar tog‘in-da,
Sayron etsang shahri Bag‘dod bog‘inda,
Tar ochilgan toza gullar seningdir.

Beklar bilan majlis qursang, may ichsang,
Bag‘dodga dil bog‘lab, o‘zgadan kechsang,
Sog‘-so‘lga tarqatib, har yona sochsang,
Shohning xazinasi, pullar seningdir.

Qadring bilgan joyda kezsang va kechsang,
Davlat beravermas har yona ko‘chsang,
Dol bedovlar minib, hur qizlar quchsang,
Uzun bo‘yli, inja bellar seningdir.

Odilshoh der, mening qadrim bilmassan,
Kunda yuz yolvorsam, pandim olmassan,

O‘larsan, yitarsan, qaytib kelmassan,
Ko‘zlaringda qonli sellar seningdir.

Podshoh so‘zini tamomlab:

— Ey Tohirjon, mendan senga ruxsatdir! Ammo yetti yildan beri onang kabi seni boqqan, parvarishlagan xonimdan ruxsat ol, ko‘p vaqt senga hamroh bo‘lgan Mohim qizning o‘zindan ruxsat olgin! Endi bizga seni ko‘rmoq yo bor, yo yo‘q, bizdan rozi bo‘l! — dedi.

Tohir faqir xushvaqt bo‘lib, xonim bilan Mohim qizning yoniga borib, qo‘l qovushtirib, ruxsat tilab, bir abyot aytdi:

Jonim enam, ruxsat bergil o‘g‘lingga,
Gasht aylasin shahri Tatar yurtina!
Muhabbat sharbatin olib qo‘lingga,
Davo ayla, men g‘aribning dardina!

Sevgilim g‘amgindir Tatar elinda,
Orzuyim — dilinda, otim — tilinda.
Bir telba nodonman ishqning yo‘linda,
Sig‘inmisham g‘ariblarning mardina!

Zuhrajon sollansa, men nazar solsam,
Armonim ko‘p qolar ko‘rmayin o‘lsam.
Zuhraning oldida sadpora bo‘lsam,
Men tutaman tanim tig‘i gardina!

Qul bo‘lsin, sovrulsin suratim, jonim,
Bilmasin bir kimsa nom-u nishonim,
Dilbarim qoshida to‘kilsin qonim,
Etlarim sham bo‘lsin yorning gurdina[1]!

Tohir aytar, rahm aylagin bu hola,
Tashna qulni yubor bahri visola,
Dilim kunda tortar yuzda ming nola,
Quloq sol ko‘nglimning ohi sardina!

[1] **Gurd** — bo‘ri.

Alqissa Tohirbek so‘zini tamom etdi. Mohimning onasi xonim Tohirning bu gapiga qahri kelib, bir necha so‘z aytdi. Mohimjon bilan Tohirbekning unga javob berib turgan yeri:

Xonim:
Ketarman deb, bizdan ruxsat tilarsan,
Bel bog‘labon Zuhra qizning yo‘lina.
Baxti qora notavonni naylarsan,
Rahm etsang-chi Mohimjonning holina!

Mohim:
Tohirjonga bunday so‘zlar demagin
Borsin, kelsin u maqsadli joyina.
Kuygan men bo‘layin, ul hech kuymasin,
Men bugun botmisham baxtning loyina!

Tohir:
Zuhra — jononimdir, Mohim qiz — jonim,
Yig‘lama, Mohimjon, ketsam kelarman,
Nechuk tark etarman sen mehribonim,
Yig‘lama, Mohimjon, ketsam kelarman.

Xonim:
Jonin qurbon qildi Mohim qiz senga,
Hech parvo qilmading sen esa unga,
Og‘zidan o‘t chiqar, quloq tut munga,
Nazar ayla ko‘zdan oqqan selina!

Mohim:
Kechmisham dunyoda siym ila zardan,
Yoshim oqizarman bu chashmi tardan,
Zuhra deb, Tohirjon, ketsang bu yerdan,
Boqmasman dunyoning kun-u oyina.

Tohir:
Boshimga tushibdir ayroliq tuni,
Senga fido bo‘lsin oshiqning tani.

Rozi bo'l, Boboxon o'ldirsa meni,
Yig'lama, Mohimjon, ketsam kelarman.

Xonim:
Mohim senga bo'ldi daryoda rahbar,
Sandiqdan chiqardi keldi deb dilbar,
Bag'rinda dog' qo'yding to ro'zi mahshar,
Fahm etmadi sen makkorning olina[1]!

Mohim:
Sandiqdan chiqardim, menga yor dedi,
Yana so'rdim, boshqa yorim bor dedi,
Tatar qizlariga ko'nglim zor dedi,
Shu kun talon tushdi ko'nglim uyina.

Tohir:
Biri — tovus, biri — ko'lning so'nasi,
Yoqdi meni ikki qizning nolasi,
Ruxsat bersin Mohim qizning onasi,
Yig'lama, sevgilim, ketsam, kelarman.

Xonim:
Mohim bilan besh kun o'ynab-kulmading,
Iltifot ko'z bilan nazar solmading,
Senga ko'ngil berdi, ko'nglin olmading,
Nega kelding shahri Bag'dod elina?!

Mohim:
Gul yuzing ko'rmoqqa ko'nglim havasdir,
Bevafo deb jon chekmaklik abasdir,
Zuhra davron sursa bizlarga basdir,
Bir besh kun quvondik qaddi-bo'yingga!

Tohir:
Voy, g'amzang o'ldirdi, bundoq so'z qurma,
Tig' bilan o'ldirib, so'z bilan urma,

[1] **Ol** — hiyla, o'yin.

Noz bilan yondirma, qoshingni burma,
Nozlim, g‘amgin bo‘lma, ketsam, kelarman!

Xonim:
Xonim aytar, ruxsat berayin, bolam,
Ohimdan o‘rtanur bu kulli olam.
Mohim bilan tinar edi-ku nolam,
Bulbul bo‘lib qo‘nsang Bag‘dod gulina.

Mohim:
Mohim aytar, alif qaddim bukildi,
Raqib sozi shodiyona qoqildi,
Yo‘ling qarab, ko‘zim nuri to‘kildi,
Avval nechun tushding ishqning yo‘lina?

Tohir:
Tohir aytar, sevdim ikki parini,
Tatarda — Zuhrajon, Bag‘dodda — seni,
O‘zing ko‘p yig‘lading, yig‘latma meni,
Ruxsat ber, Mohimjon, ketsam, kelarman!

Alqissa, bu so‘zlar tamom bo‘ldi. Xonim aytdi:

— Ey Tohirjon! Qayda bo‘lsang, omon bo‘l! Mendan senga ruxsatdir. Ammo sen meni ulug‘ dardga qo‘yding. Qizim sendan jafo ko‘rdi, vafo ko‘rmadi!

Shunda Mohimjon aytdi:

— Ey ona! Tohirjonga bunday so‘zlarni aytma. Tohir g‘arib musofirdir. G‘aribning ko‘ngli nozik bo‘lar. Men buning jafosini ham vafo o‘rninda ko‘rarman. Men umrimni Tohir deb kechirdim. Endi bo‘lsa men uchun o‘sha diydorning hijroni boshlanayotir, zero rohat azobdan so‘ngradir, — dedi. Shunda Tohir darhol o‘rnidan turib, Mohim qizga mehribon suratda qulluq qildi. Mohim xazinaga kirib, Tohirga shohona liboslar keltirib kiydirdi va boshiga murassa’ toj, ustiga davlat chodirini soya qildi, egniga shoh qilichini osib, ko‘p bezaklar berdi. Shu holda Mohim qizning nazari Tohirga tushib, behush bo‘lib yiqildi. Kanizaklar gulob sepdilar.

Mohim bir soatdan so‘ng hushiga kelib:

— Ey nuri diydam! Seni bu libosda, bu zeb-u ziynat bilan yana ko‘rish nasib qilarmi? — deb yig‘ladi.

Xazinada qadim ayyomlardan qolgan bir go‘shak[1] bor edi. Bu go‘shakni Sulaymon alayhissalomning ayoli Bilqis jinlar podshohiga hukm etib, to‘qitgan edi. Bu go‘shak sehrli bo‘lib, yuz yil sayohat etsang ham hech eskirmas edi. Odilshoh o‘zining o‘g‘li bo‘lmaganligi uchun go‘shakni kenja qizi Mohimjonga siylov qilgan edi. Mohimjon go‘shakni Tohirjonning beliga bog‘ladi va bo‘yniga qo‘lini solib, ko‘p yig‘ladi.

Tohirning qo‘lida Zuhraning ismi yozilgan bir uzuk bor edi. Bu uzukni Tohir daryoga tashlanishida Zuhra unga yodgorlik uchun bergan edi.

Mohimjon:

— Ey Tohir, shu uzuk sendan va Zuhradan menga yodgorlik bo‘lib qolsin. Har vaqt ko‘nglim seni havas qilganda, shu uzukni ko‘rsam seni ko‘rganday bo‘laman, ko‘nglim tasalli topadi, — dedi. Tohir qabul qildi. Shundan so‘ng Mohim qiz Tohirga xazinadan bir xurjun tilla keltirib, Tohirni bir yelmoyaga mindirib, bir jilovi o‘zining, bir jilovi onasining qo‘lida, yonida qirq kanizaklar bilan yurib:

— Ey Tohirjon! Aziz umrimni sen uchun barbod etdim. Shohning qizi — shahzodani ko‘rib, uning bilan aysh-u ishrat sursang, bunda qolgan men bechorani ham unutmagin, — deb yig‘ladi. Onasi ham, xalq ham yig‘ladi.

Tohirga ruxsat berdilar. Mohim ayriliq o‘tiga kuyib, zor-zor yig‘lab, bir g‘azal aytdi:

Ey azizim, ketsang Tatar yurtina,
Bor, Tohirim, sog‘ bor, omon kelgaysan!
Davo ayla men g‘aribning dardina,
Bor, Tohirim, sog‘ bo‘l, omon kelgaysan,

Bundan ketsang uzoq yo‘llarga tushib,
Ancha-ancha baland tog‘lardan oshib,

[1] **Go‘shak** — bu yerda belga bog‘lanadigan belbog‘, ma’nosida.

Zuhrajonga sog‘-salomat qovushib,
Bor, Tohirim, sog‘ bor, omon kelgaysan!

Firqatdan so‘ldirma guli ruxsoring,
Pirlar madad bersin, Haq bo‘lsin yoring.
Yana tezdan nasib etsin diydoring,
Bor, Tohirjon, sog‘ bor, omon kelgaysan!

O‘tdi visol, keldi ayriliq kuni,
Ko‘nglimning xushligi, ko‘zim ravshani,
Yorug‘ dunyom hisob etardim seni,
Bor, Tohirim, sog‘ bor, omon kelgaysan!

Quloq solib eshit mening bu so‘zim,
O‘zgani ko‘zlasam, ko‘r bo‘lsin ko‘zim,
Mudom sening sari bo‘lar gul yuzim,
Bor, Tohirim, sog‘ bor, omon kelgaysan!

Men nechuk chekarman bu yovuz dardi,
Bugun harom menga Bag‘dodning yurti,
Mohimjon qoshingda ruxsating berdi,
Bor, Tohirim, sog‘ bor, omon kelgaysan!

Mohim so‘zini tamom etdi. Yelmoyani jilovlab, yig‘lab boraverdi. Tohir Mohimning yonida bo‘lsa, Zuhraning ayrolig‘i, Zuhraning yoniga borsa, Mohimning ayrolig‘i — bu ikkisi ham yovuz dard bo‘ldi. U nima qilishini bilmay, ikkovining o‘rtalig‘ida aljirab, hayron-sarosima bo‘lib, Zuhra tomonni bir ko‘zlab, Mohim tomonni yana bir ko‘zlab, yuragiga o‘t tushib, ayroliq jabridan bag‘ri kuyib, aql-hushini yo‘qotdi. Mohimjon ham ko‘zinda yosh, bag‘rida tosh, yuraginda armon: “Yuzlarcha dardimga darmon sen eding, sendan endi nechuk kecharman”, — deb yig‘lar edi.

Shunda Tohir Mohimga tasalli berib, bir so‘z aytdi:

Tatarda Zuhrajon, Bag‘dodda Mohim,
Ko‘zlarimning oh-u qorasi qizlar.

Tog‘larni yondirar bu chekkan ohim,
Bitmas siynalarim yarasi qizlar.

Zuhra deb yig‘lasam men bag‘ri biryon,
Mohimjonim yig‘lar yuragi giryon,
Ikki qizning orasida sargardon,
Yoqdi meni ishqning havasi qizlar.

Biri tarlon kabi boqar har yona,
Biri zulfin tarar, qo‘linda shona,
Ikkisi yon-yondan o‘t soldi jona,
Yoqdi meni ishqning savdosi qizlar.

Biri ko‘z kuldirar, biri qosh qoqar,
Biri kokilini gardanga to‘kar,
Birisi suv separ, birisi yoqar,
Jonimning ofati, balosi qizlar.

Mohim to‘lgan oyday shu’lasin solar,
Zuhrajon oshiqning ko‘nglini olar,
Biriga yuzlansam, birisi qolar,
Jismimda jonimning qal’asi qizlar.

Biri — oy, biri — kun, yeta bilmasman,
Ikkovin bir qo‘lda tuta bilmasman,
Shakarday labindan yuta bilmasman,
Misoli ko‘llarning so‘nasi qizlar.

Hech kimsa kuymasin kuygan o‘tima,
Arzimni aytarman parizodima,
Ro‘z-u shab davomat tushar yodima,
Tohirning tilining sanosi qizlar.

Alqissa, Tohir so‘zini tamom etdi. Ulug‘-kichik jam bo‘lib, shahardan tashqariga chiqdilar. Borayotib, Tohirning ishqi mast qilib, ham ayriliq dardidan ojizlanib, behush bo‘lib yiqildi. Shu

payt Odilshohga: "Tohir ketib borayotir, Mohim qiz yelmoyaning jilovini tutib, yig'lab borayotir!" degan xabar keldi. Podshoh bu xabarni eshitib, vazirlari va arkoni davlati bilan kelib, Tohirning boshini tizzasining ustiga olib:

— Ey Tohirbek! Bugun bizdan ayrilib, Tatarga ketmoq istarsan. Ammo sen bizning yuragimizdan joy olibdirsan. Mol-mulk, shon-shavkat, ot-asbob, gul-sunbul, to'ti qushlar kerak bo'lsa, injabel, bodom qovoq, pista dahan, mo'rcha miyon qizlar kerak bo'lsa, hammasi bizda topiladi. Mohimjonni muncha xor-zorlik bilan, otashi hijronga yiqma! — deb, ko'p tavallo etdi.

Shunda Tohir:

— Podshohim! Davlatingiz kam bo'lmasin! Mening sizdan hech bir tamam yo'qdir, — deb, bir muxammas aytdi:

Siym-u zar darkor emasdir, siym-u ruxsorim kerak,
To'ti qushni naylayin, to'ti guftorim kerak,
Gul kerakmasdir manga, gulchehra gulzorim kerak,
Sunbulni ursin xazon, sunbul kabi torim kerak,
Ishq aro Majnun bo'libman, Laylidek yorim kerak.

Mohimim — Bog'i Eramdir, men Eramning bulbuli,
Zuhrajon — shohi jahondir, menki shohning bir quli,
Ikki dilbarning balosin qismat etmish avvali,
Biri — nayning shakaridir, biri — jannatning guli,
Oy ruxsori bila xurshidi diydorim kerak.

Oldi aqlim bir parivash ul mohi shirin zabon,
Yaxshilardan yaxshi — sensan,
men — yomonlardan yomon,
Qolmisham hayron-u hayron, furqat ichra kuydi jon,
Bunda sevsam Mohimi, ul yerda yig'lar Zuhrajon,
Ishq savdosini solgan qiziqli bozorim kerak.

Sog'inib g'ilmon kabi har boqishi jonim olan,
Gulshan ichra bellidir, sayr aylasa qizlar bilan,
Zulfining ziynati mushk birla anbardan bo'lan,

Ko‘zlayur ibo bilan, siynamga yuz o‘tlar solan,
Ikki nargiz ko‘zlari noz birla bemorim kerak.

Tohir aytar, orzu aylarman o‘shal dildorimi,
Zuhra otlig‘ mohi paykar, ko‘zlari xunxorimi,
Bu yolg‘on dunyo kerakmas ko‘rmasam ul yorimi,
Men nechuk tark aylayin Mohim — guli ruxsorimi,
Bunda — Mohim, unda — Zuhra zulfi shohmorim kerak.

Tohir so‘zini tamom etdi. Podshoh Tohirga ruxsat berdi. Shaharning jami odamlari Tohirni yo‘lga solib qaytdilar. Tohirni do‘st-yorlari kuzatib borar edi. Bular ancha yo‘l yurib, qosh qoraygan vaqtda “Ayroliq” degan ko‘shkka yetdilar. Bu kecha shu yerda qo‘ndilar.

Tong otdi.

Mohimjon:

— Tohirbekni keltiring. Bir diydoriga to‘yayin, — deb kanizlarning birini yubordi. Kaniz bu xabarni Tohirga yetkazdi.

Tohir shohona kiyimlarini kiyib, zarafshon kokilini orqasiga tashlab, zarrin g‘ulpog‘ini chekkasidan qo‘yvorib, Mohimjonning yoniga bordi. Mohimning ko‘zi Tohirga tushib, bir so‘z dedi:

Kel, Tohirim, bir dam ko‘ray jamoling,
Sening diydoringga mushtoq bo‘libman.
Yetdi ayrilig‘ing, o‘tdi visoling,
Sening diydoringga mushtoq bo‘libman.

Yiqilsin, evrilsin bu falak noshod,
O‘t olsin, tutashsin yetti samovot,
Quloq qo‘y, qoshingda qilayin faryod,
Sening diydoringga mushtoq bo‘libman.

Tillarim shaydodir, ko‘nglim havasdir,
Ustixonim — paydir, ohim nafasdir,
Senga Zuhra mendek mushtoq emasdir,
Sening diydoringga mushtoq bo‘libman.

Ey Tohirjon, bu kun ketsang qoshimdan,
Bilmam ne savdolar o'tar boshimdan,
Qora toshlar la'lga do'nar yoshimdan,
Sening diydoringga mushtoq bo'libman.

Mohim qiz der, menga bu jon kerakmas,
Bu saltanat, taxti ravon kerakmas,
Menga sen keraksan, jahon kerakmas,
Sening diydoringga mushtoq bo'libman.

Alqissa, Mohimjon so'zini tamom etdi. So'nga "Ayroliq" ko'shkidan kunchiqar tomonga qarab yurdilar. Bir necha yo'l yurib, Kanor shahriga borib tushdilar.

Tong otdi. Tohir:

— Ey Mohimjon! "Kuzatgandan yo'ldosh bo'lmas", deydilar. Senga viloyat, menga yo'l muborak bo'lsin! — deb ruxsat tilab, bir abyot aytdi:

Ruxsat bersang, Mohimjonim,
Yetishsam shahri Tatara,
Yurakda qolmas armonim,
Qo'shilsam Zuhra dildora.

Qomatim yoydek egildim,
Magar ishq ostida qoldim,
Majnundek sarg'ayib-so'ldim,
Yeta bilmay Zuhra yora.

Yuragim kuydi ishqinda,
Ko'nglim raqiblar rashkinda,
Zuhrajon yig'lar ko'shkinda,
Bu dardga topmayin chora.

Ayrildim qalam qoshimdan,
Shu'la sochgan quyoshimdan,
Bir qatra qonli yoshimdan
La'lga do'nar sang-u xoro[1].

[1] **Sang-u xoro** — tosh-u tikanlar.

Zuhraning diydorin ko‘rsam,
Borib bog‘lariga kirsam,
Turli mevasidan tersam,
Qo‘lim yetsa olma-nora.

Mohimjon, sevmisham seni,
So‘lmasin husning gulshani,
Xaridorsan, olg‘in meni
O‘zimni soldim bozora.

Zulflaring mengzar sunbula,
Xush keldingiz qizlar bila.
Sen qayt uyga kula-kula,
Tohir qolsin dard-u zora.

Tohir so‘zini tamom etdi. Dutorini bo‘yniga osib, zor-zor yig‘lab oyog‘ini uzangiga bosib yelmoyaga mindi. So‘ngra Mohimning yuziga qarab:

— Ey Mohimjon! Menga ruxsat ber, oq fotiha qil, — deb qo‘lini ko‘tardi. Ammo Mohim yig‘lab:

— Ey Tohirim, sen meni o‘ldirib ketgin! — dedi.

Shu vaqt Mohimning onasi aytdi:

— Ey Mohimjon! Sendan boshqa yetti oshiq o‘tgandir, hammasiyam murodiga yetmadi. Sen ham haqiqiy oshiqsan, deb umid etarman. Tohirga oq fotiha ber, balki u maqsadiga yetsa, Alloh taolo senga ham diydor muyassar etar. Tohirjon seni norozi qilib yig‘latib keta olmaydi, axir, — dedi. Mohim oh urib, behush bo‘ldi. Birozdan so‘ng hushiga kelib:

— Ey ko‘zimning ravshani! Yuzimga bir rahm bilan razm sol, balki yuragimning o‘ti tasalli topar va mendan ruxsat bo‘lar, — dedi.

Tohirbek ko‘zini yoshga to‘ldirib, yelmoyadan o‘zini tashladi. Mohimjon bilan quchoqlashib, o‘zidan ketib yiqildilar. Kanizaklar ularning ustiga chodir tikdilar, ruhlari chiqdimikan deyishib, motam tutib o‘tirdilar.

Bir kecha-kunduzdan so‘ng hushlariga keldilar.

Mohim qiz Tohirning bo‘ynini quchoqlab bir so‘z aytdi:

Beling bog‘lab tushsang uzoq yo‘llara,
Yo‘l boshida qolgan yoring unutma!
Sayron etsang savsan-sunbul gullara,
Ishqda kuygan navbahoring unutma!

Bo‘yi bad qo‘shmagin mushki anbara,
Mug‘ilon sepmagin bo‘stonlig‘ yera,
Ko‘zing tushsa mendan boshqa dilbara,
Dol qomatli bu dildoring unutma!

Sen ketsang, qolaman men bunda yig‘lab,
Ayoliq o‘tina bag‘rimni dog‘lab,
G‘ayri bir dilbarga ko‘nglingni bog‘lab,
Ko‘nglim senga bog‘liq yoring unutma!

Xokistarman, oshiq bo‘ldim gavhara,
Ishqning tig‘i soldi siynamga yara,
Yusuf kabi o‘zing solding bozora,
Zuhrajondek xaridoring unutma!

Majnun kabi bo‘lding dali-devona,
Men Layliman, boshim soldim maydona,
Zuhra bilan mashg‘ul bo‘lsang davrona,
Mohim otli intizoring unutma!

Mohim so‘zini tamom qildi va Tohirga ruxsat berdi. Tohir yo‘liga ravona bo‘ldi. Uning yuzining shu’lasi nari ketgani sayin Mohimning vujudiga titroq kira boshladi. Mohimjon ko‘zguning aksidek beqaror bo‘lib, o‘tirib-turar, ko‘p betoqat bo‘lar edi, yuzini yirtib, zulfini parishon etib, sochini yoyib, rangi za’farondek bo‘lib, yoqasini chok etib, ayriliq sababli bag‘ri kuyib, holi zabun bo‘lib, o‘zidan ketib yiqildi. Shu payt Tohir iziga qaradi. Ko‘rsa, Mohimjon betoqat bo‘lib, tuproqda ag‘anab yotibdir. U orqaga qaytib, Mohimjonning boshini tizzasining ustiga olib, unga ko‘ngillik borib, bir muxammas o‘qidi:

Ko‘yingda quyundekman, g‘am dashtida sargardon,
Kim ko‘rsa jamolingni, albatta, bo‘lar hayron,
Gul ishqida bulbulning ishiki erur afg‘on,
Vasl ichra kuyar joni yodiga tushsa hijron,
Bulbul parini qirgan gulg‘uncha dahonsan sen.

Husningki ziyod ermish bog‘ ichra qizil guldan,
Ovozi xush, alfozing afzal manga bulbuldan,
Zulfingni ko‘rib ko‘nglim rom ayladi sunbuldan,
Orzuyi visol aylab, vasfing yozaram tildan,
Aqlimni ado qilgan bir ofati jonsan sen.

Nechun bo‘larsan g‘amgin, bir turfa jononsan sen,
Bog‘larda ochilgan gul ham sarvi ravonsan sen,
Kun ko‘zgusidan ravshan, bir gavhari konsan sen,
Dil murg‘ini sayd etgan sayyodi zamonsan sen,
Xushgohisan ko‘ngilning ham shavqi zabonsan sen.

Matlubi ko‘ngil sensan, g‘ayriga nazarim yo‘q,
Ishqingda qadam qo‘ydim, ko‘yingda guzarim yo‘q,
Har mahvashning vasfini dostonda yozarim yo‘q,
Kel, o‘ldir-u, kel tirguz, jon sendan ozori yo‘q,
Cho‘x murdani tirguzgan ruhbaxshi nishonsan sen.

Qalbimda makoningdir, ko‘nglimda digar bo‘lmas,
Jonimni talab qilsang, jismimdan xabar bo‘lmas,
Budir falakning ishi, gul bo‘lsa, samar bo‘lmas,
Bu foniy jahon ichra sendakki magar bo‘lmas,
G‘ilmoni behisht bo‘lsa, ko‘nglimda gumonsan sen.

Ketsam gar kelarman tez,
Mohim manga zordir deb,
O‘psamki yonoqingdan, tar olma-anordir deb,
Holingga nazar qildim, xo‘b naqshi nigordir deb,
Har kishisi bahs etsa senday go‘zal bordir deb,
Ul misli sadaf ermish, bir durri marjonsan sen.

Shom-u sahar uyg'onsam ko'nglimda sening yoding,
O'zgaga tushib ishqing, qoldi manga faryoding,
Siynamda ado bo'lmas har kuni yoqqan o'ting,
Naylayki visol ilmin dars qilmadi ustoding,
Tohirbekni o'ldirgan oq qo'llari qonsan sen.

Tohir so'zini tamom etdi. Mohimjon aytdi:

— Ey Tohirjon! Menga sen kerak, sening sog'lig'ing kerak. To seni ko'rgunimcha endi bu dunyo men uchun zindondir, — deb ko'p yig'ladi. Oxiri:

— Senga yo'l qutlug' bo'lsin, menga — yurt! — deb, Tohirga ruxsat berib bir g'azal aytdi:

Tohirim, ketsang yiroqqa,
Qutlug' bo'lsin yo'llar senga!
Qaydan olaman so'roqqa,
Fido aylab jonlar senga.

Ishim shum ayriliq bo'ldi,
Do'stlar yig'lab, dushman kuldi,
Bag'dod eli bunda qoldi,
Havas aylar ellar senga.

Mudom seni deb kezarman,
Surating dilda yozarman,
Piyolada qand ezarman,
Shahd-u shakar, bollar sanga.

Oshiq bo'yniga qo'l solsin deb,
Murodin hosil qilsan deb,
Bog'ga sayrona kelsin deb,
Havas aylar gullar senga.

Dushman ko'pdir sog'-so'lingda,
Kor etmasin bu holingga,
Mudom ko'zlarim yo'lingda,
Tilak aylar tillar senga.

Unda yig‘latib Zuhrani,
Bunda qo‘yib Mohimjonni,
Majnunning kezgan maydoni —
Rahm aylasin cho‘llar senga!

Mohimjon so‘zini tamom etdi. Tohir hamma bilan olloyorlashib-xayrlashib:

— Bugun ayroliq kundir, yana ko‘rishmoq nasib bo‘larmikan? — deb bir g‘azal aytdi:

Ketarman Tatar elina,
Beklar, xonlar, xush qol endi!
Bosh qo‘ymisham yor yo‘lina,
Do‘st-yoronlar, xush qol endi!

Yetti yil boqding, bajarding,
Sut o‘rnida shakar berding,
Chin mehribonim sen erding,
Jonim enam, xush qol endi!

Ishq yo‘linda ko‘pdir ohim,
Ko‘zlarim — ikki guvohim.
Qadrin bilgan go‘zal shohim,
Odil bobom, xush qol endi!

Men ketarman Zuhra yora,
Naylayin, bo‘ldim bechora,
Ko‘zi yosh, bag‘ri yuz pora,
Mohim gulim, xush qol endi!

Sizlar bu bog‘larning guli,
Uchdi ichindan bulbuli,
Bugun esdi hijron eli,
Qirq kanizlar, xush qol endi!

Mohimjonim, bir arzim bor,
Sen boshqaga bo‘lma, dildor,

So‘zim unutmagin zinhor,
Sevar yorim, xush qol endi!

Tohir der, roziman sendan,
Sen ham qo‘ling uzma mendan,
Xabarim kelar qirq kundan,
Xaloyiqlar, xush qol endi!

Alqissa Tohir so‘zini tamom etdi. So‘ngra yo‘lga ravona bo‘ldi. Hammasi bu yerda qoldi, ammo Mohimjon Tohirni kuzatib, u bilan birga bir necha chaqirim yo‘llar yurdi.

Tohir Mohim qizga qarab, “qol, jonim!” deb bir g‘azal aytdi:

Ketar bo‘ldim Zuhra qizning qoshiga,
Kular yuzli Mohimjonim, qol endi!
Boshimni qo‘ymisham mehnat toshiga,
Shirin so‘zli zulfi torim, qol endi!

Qora ko‘zli, qalam qoshli nigorim,
Bahorim, bo‘stonim, gulim, gulzorim,
Sensiz hech qayerda yo‘qdir qarorim,
Jallod ko‘zli navbahorim, qol endi!

Shams-u qamar yuzli, qoshi hilolim,
Men senga oshiqman, o‘zingga ma’lum,
Majnunman ishqingda, Layli misolim,
Qizil gulim, olma-norim, qol endi!

Bo‘yning burib, ma’lul bo‘lma, Mohimjon,
Shirin jonim senga aylayin qurbon,
Tez kelaman, senga qaytajak davron,
To‘ti suxan, xush guftorim, qol endi!

Oshiqman men, ishqim elga oshkora,
Ishq tig‘idan yuragimdir yuz pora,
Ayroliq dardina topmadim chora,
Eshit mening dard-u zorim, qol endi!

Tohir aytar, mudom yig‘lab o‘tarman,
Zuhraning hajrinda qonlar yutarman,
Ruxsat bersang, endi Tatar ketarman,
Husni ganjim, zulfi torim, qol endi!

Alqissa, Tohir so‘zini tamom qildi. Mohim qiz yig‘lab, Tohirga qattiq yopishib, “Men ham sen bilan ketaman”, — deb, bir so‘z aytdi:

Sensan ko‘nglimning xushgohi,
Qolmasman, sendan qolmasman.
Shaydo ko‘nglim saylgohi,
Qolmasman, sendan qolmasman.

Bag‘rim yoqdi ishqning dardi
Sevganim — mardlarning mardi,
Xarob bo‘lsin Bag‘dod yurti,
Qolmasman, sendan qolmasman.

Men ham borsam Zuhrajona,
Istaram, bo‘lsam hamxona,
Qo‘ymagin meni armona,
Qolmasman, sendan qolmasman.

Menga zindondir bu jahon,
Sensiz menga bo‘lmas davron,
Yoqar har dam ro‘zi hijron,
Qolmasman, sendan qolmasman.

Mohim aytar, yondim bugun,
Siynamdadir dog‘-u tugun,
O‘tar hajring bo‘g‘un-bo‘g‘un,
Qolmasman, sendan qolmasman.

Mohimjon so‘zini tamom qildi. Shu payt bularning izinda bir to‘zon paydo bo‘ldi. Mohimjon buni “shohning otliqlari bo‘lsa kerak, bizlarni olib ketadilar” deb, gumon qildi va Tohirga:

— Yana nima gaping bo‘lsa, aytib qol! — dedi.

Tohir yo‘lga tushmoqchi bo‘laverdi. Shunda Mohimjon bir g‘azal aytdi:

Tohirjon qayda borarsan?
Rahm etmay men bechoraya,
Zuhraning yuzin ko‘rarsan,
Tez yetishgin bu diyora.

Har kim senga ko‘ngil bog‘lar,
Ayriliq jigarin dog‘lar,
Tatarda Zuhrajon yig‘lar,
Bag‘dodda — Mohim bechora.

Joying bor ko‘z qorasinda,
Ko‘ling gavhar porasinda,
Ikki qizning orasinda
Sen ham bo‘lmagin ovora.

Ishq o‘tina yona-yona,
Rahming kelmasmi bu jona?
Dushman bo‘lib Boboxona,
Nogoh osilmagin dora!

Mohim der, kezsam bog‘inda,
Gasht aylasam ishq tog‘inda,
Kelmasang kelar chog‘inda,
O‘zim qilarman yuz pora.

Shundan so‘ng, Mohimjon yig‘lay-yig‘lay Tohirjonga ruxsat berdi va u bilan xushlashdi. Tohir Tatarga qarab yo‘l oldi, Mohimjon Bag‘dodga.

Tohir yelmoyada goh uchib, goh qo‘nib borar edi, yo‘l qayerda, iz qayerda — bilmas edi. Banogoh o‘ng tomonida oppoq soqolli bir kishi paydo bo‘ldi va Tohirga salom berdi. Tohir alik oldi. Sog‘lik-omonlik so‘rashgandan so‘ng ul bobo so‘radi:

— Ey bo‘tam, qaydan kelursan, qayga borursan?

Tohir:

— Bag‘doddan chiqdim, Tatarga borurman. Zuhrajonning oshig‘iman, — dedi.

Shunda ul bobo aytdi:

— Ey bolam, adashibsan-ku, bu borayotgan yo‘ling teskariga olib boradi, bunga “ruhi buroq” yo‘l derlar. U Adam shahriga olib borar. Bu yo‘lga kirgan odam qiyomatgacha visolga-diydorga yetmas. Bu yoqqa yur, men seni to‘g‘ri yo‘lga solib yuboray, — deb, qosh qorayib, quyosh botguncha yo‘ldosh bo‘lib yurdi. Kech bo‘ldi, yulduzlar chiqdi. Oq soqolli bobo aytdi:

— O‘g‘lim! “Kuzatgandan yo‘ldosh bo‘lmas, yo‘lda qo‘shilgan yo‘lda qolar”, degan naql bor. Mana shu tepadagi yulduzni tanib-belgilab ol, buni Temirqoziq yulduzi derlar. Ketayotgan tomoning kunchiqar bo‘lsa, bu yulduzni chap tomoningga olib ketaver. Huv anavi tog‘ga Vosil tog‘i derlar, unisi esa Hijron tog‘idir. Sen Vosil tog‘iga qarab yur. Borayotib bir chashmaga yetarsan. Uning nomi Sag‘ir chashmasi. Tuyangni suvga qondir, o‘zing ham ich, mast bo‘larsan, avval to‘qqiz oyda borgan manzilingga endi to‘qqiz kunda yetib boradigan bo‘lasan. Ishqing ziyoda bo‘lsin! — deb, oq fotiha berib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Tohirbekning yodiga Zuhra qiz tushib, ko‘zinda yosh, bag‘rinda tosh paydo bo‘lib, o‘zi esa mast-u hayron bo‘lib: “Eh, menga Zuhrajon muyassar bo‘larmikan, yoki yetti yildan beri meni unutib, boshqa birovga ko‘ngil berdimikan?” — deb, sozini qo‘liga olib, bir so‘z aytgan yeri:

Firqat ayyominda, ishqning bahrinda,
Visolga ko‘z tutdim, davron yetishmas,
Ishqdan ming alam bor ko‘nglim shahrinda,
Dilbardan biriga darmon yetishmas.

So‘zim ado bo‘lmas so‘zlamak bilan,
Ishqim pinhon bo‘lmas gizlamak bilan,
Ko‘zim qonga to‘ldi ko‘zlamak bilan,
Endi ko‘zlamakka farmon yetishmas.

To o'lguncha men bilandir xayoling,
Durdona tishlaring, shakar ziloling,
Jonimda joy tutdi surating, xoling,
Jon betoqat bo'ldi, jonon yetishmas.

Labingga lab qo'yib, so'rsam tilingdan,
Yechib tugmalaring tersam gulingdan,
Bo'yningga qo'l solib, nozik belingdan,
Quchganning joniga armon yetishmas.

Tohirni kuydirdi ko'rkona yuzlar,
Senga qurbon bo'lsin kelinlar, qizlar,
Muborak jamoling ko'rmoqqa ko'zlar,
Vasfing so'zlamoqqa zabon yetishmas.

Tohir so'zini tamom etdi. U shu borishi bilan Chashmayi Sag'irga yetdi. U chashmadan tuyasini suvga to'ydirdi, o'zi ham ichib, mast bo'ldi. Yelmoyasining sirtiga bir tayoq urib, yo'liga ravona bo'ldi.

Shu atrofda qirq sonli qaroqchi bor edi. Ular yo'lto'sarlik ila mashg'ul qaroqchilar edi. Shu qaroqchilar odam suratli bir narsaning yo'lda kelayotganini ko'rib, yaqin keldilar. Ammo uning sog' odam yoki devona ekanligini bilmadilar. Ularning har biri har tomondan ot solib, Tohirni o'rtaga oldilar. Qaroqchilar Tohirdan:

— Ey yigit, qaydan kelayapsan, qayga borayapsan? Qaysi xalqdan bo'lasan? — deb so'radilar.

Tohir:

— Men Tatardanman, Boboxon otli podshohning Zuhrajon degan qiziga oshiqman. Boboxon menga dushmanlik qilib meni sandiqqa solib, Furot daryosiga tashladi. Sandiq uch oy deganda Bag'dod shahridan chiqdi. Bag'dod podshohining qizi Mohim menga yetti yillab ko'z tutib yashadi. Mana endi, yetti yildan beri shohning saroyida qochqin bo'lib yurgan edim, yorimning qaytsin degan xabarini eshitib, Bag'doddan Tatar yurtiga qaytib borayapman, — dedi.

Tohirning bu gapiga qaroqchilarning hammasi ishondilar, ammo bir shakkok bor edi, shu ishonmadi.

U aytdi:

— Qani, oshiq bo'lsang, ishq olovidan bir nishona ko'rsat!

Shunda Tohir:

— Ishqdan nishona ko'rmoq istasang, beri kel! — dedi.

Shakkok yetib bordi. Tohir Zuhrajonni yodiga olib, ko'kragini to'ldirib bir oh tortdi. Tohirning og'zidan o't chiqib, qaroqchining yuziga yopishdi. Qaroqchining yuzi, soqoli batamom kuydi.

Qaroqchilar hayron-sarosima bo'lib:

— Ey Tohir! Sen haqiqiy oshiq ekansan. Bu botirlarning sha'niga bir so'z ayt, seni ozod qilaylik, — dedilar. Shunda Tohir qo'liga sozini olib, o'z sargardonligidan bir afsona o'qidi:

Bahodirlar, mening yo'llang yo'limga,
Orzuyim shu: sevar yora yetishay!
Men bir oshiq, rahm aylanglar holimga,
Musofirman, bir diyora yetishay!

Yor diydorin istab, qolmisham darda,
Mardona oshiqman, duch keldim marda,
Yetti yil bo'libdir, va'dali yerda
Zuhram bilan bir iqrora yetishay!

Bir g'aribman ayriliqning dog'inda,
Sargardon kezarman yor so'rog'inda,
Bulbul edim bir dilbarning bog'inda,
Havasim bor, ul gulzora yetishay!

Qirq bo'risiz, oti olama to'lgan,
Necha dushmanlarni darbadar qilgan,
Zuhrajon deb savash etsam shoh birlan,
Hozir bo'ling, o'shal kora yetishay.

Tohirbekning fido bo'lsin bu joni,
Boshim bo'lsin Zuhrajonning qurboni,
Dunyoga kelganning ko'pdir armoni,
Armonim yo'q — o'sha yora yetishay!

Tohir so‘zini tamom etdi.

Qaroqchilarning boshlig‘ining nomini Mo‘ysafid sardor der edilar. U botirlikda ming odamga, shijoat bobinda Rustami dostonning o‘ziga barobar edi. Shu Mo‘ysafid sardor aytdi:

— Tohirjon! Men sening haq oshiq ekanligingni bildim. Sen, avvallo, Xudoyni, ikkinchidan, Zuhrani sevar ekansan. Biz ham, avvallo, Xudoni, ikkinchidan, Xudoni sevgan bandani sevamiz. Biz senga ziyon yetkazmaymiz. Alloh yoring bo‘lsin! Har qayerda boshingga ish tushsa, inshoolloh, hozir bo‘lib, yordam berarmiz, — deb ketishiga ruxsat berdi. Tohirbek bosh egib, bulardan ketadigan yo‘lini so‘rab, ravona bo‘ldi.

Tohir qaroqchilardan qutulganiga xushvaqt bo‘lib, sog‘-u so‘liga qarab boraverdi. Bir payt oldida yana bir narsa paydo bo‘ldi. Yaqin kelib qarasa, bular ham xudobezori qaroqchilar ekan. Bular ot qo‘ydilar. Tohir qochmadi. Ular kelib, Tohirni talon-toroj qildilar. Tohirning ustidagi to‘nini, zar suv berib tikilgan kiyimlarini tortib oldilar. Ular shunday zebo bir yigitning indamay turishiga, uning shohona kiyimiga qarab, hayron bo‘lib so‘radilar:

— Ey yigit! Qaydan kelib, qayga borursan? Qaysi jamoatdan bo‘lursan? Qaysi bog‘ning guli, qaysi bulbulning chamanidirsan?

Shunda Tohir:

— Men bir oshiqi zordirman. Bizning xalqimizda soz bilan xabar aytmoq odati bordir, — deb bir g‘azal aytdi:

Yoqdi meni ishq otashi,
Ko‘nglim parishondir mening,
Dardim so‘ramas hech kishi,
Anduhi g‘amdir yo‘ldoshi,
Voy, Zuhrajonim ko‘z yoshi,
G‘avg‘oga soldi bu boshi,
Ko‘rsam yana ul mahvashi,
Ko‘z ravshani, ko‘ngil xushi,
Tatar uchar ko‘nglim qushi,
Istab masohib[1] yo‘ldoshi,

[1] **Masohib** — suhbatdosh.

Daryo bo‘lib ko‘zning yoshi,
Bag‘rim to‘la qondir mening.

Sarv qad-u, siymin badan,
Uldir meni Majnun etgan,
So‘rsangki ahvolimni san,
Bir dilbarning ko‘yinda man,
Har boqishi yuz ming tuman,
Qo‘ynida bo‘ston-u chaman,
Qat’i tariqi, rohi zan,
Bo‘ynimga bog‘lab sen kamand,
Iqbolim kaj, baxtim yomon,
O‘rnimki zindondir mening.

Har oshiq istar yorini,
Bulbul sevar gulzorini,
Orzu qilib diydorini,
Ko‘rsa o‘shal dildorini,
Bergay jahonning borini,
Eslab sochining torini,
Doim chekarman zorini,
Rohat bilib ozorini,
Qo‘yninda tersam norini,
Dardimga darmondir mening.

Yig‘lab zabun holimga, voy,
Dedim yorning vasfini oy,
Qadi alifdir, qoshi yoy,
Anvor yuzi o‘n to‘rtlik oy,
Vayrona bo‘lsin bu saroy,
Yo Rab, nechuk joydir bu joy!
Naylay, meni qodir Xudoy,
Qildi sevar yordan judo,
Chun qilganim jonim fido
Bir mohi tobondir mening.

Aytay so‘zim men mubtalo,
Yor yo‘linda bo‘ldim gado,
Dardim mening bo‘lmas ado,
Hijron meni qildi judo,
Men aylaram jonim fido,
Dilbarga bo‘lsam katxudo,
Tatar tomon qilsam nido,
Yetgaymi, beklar, bu sado?!
Rahm etmasa qodir Xudo
Ishimki afg‘ondir mening.

Keldimki Bag‘dod shahrindan,
Bohir — otam, Tohir — o‘zim,
Oshiqni qo‘ymang yo‘lindan,
Zuhrani ko‘rsin bu ko‘zim,
Bo‘lsam bu zindon ichra man,
Tatar saridir bu yuzim,
Keling, beklar, ozod eting,
Arzim sizga budir so‘zim,
Molim, boshim, jonim, tanim,
Zuhraga qurbondir mening.

Tohir so‘zini tamom etdi. Otliqlarning sardori — Mo‘ysafid qaroqchining jiyani Qamarulzamon edi. Bir so‘z ustida Mo‘ysafid sardordan o‘pkalab, o‘zboshimchalik qilib, shu yerdagi otliqlarga boshliq bo‘lib yurgan edi. Qamarulzamonning Tohirga rahmi kelib, olgan narsalarini qaytarib berdi va:

— Ey Tohirjon! Meni o‘zingga qiyomatlik aka bilgin. Qayerda boshingga ish tushar bo‘lsa, xabar yuborsang, inshoolloh, yetisharman. Agar Tatar shohi senga qizini bermasa, shahrini boshiga zindon qilib, qizini olib beraman! — deb bir abyot aytdi:

Ishqning savdosiga solibsan boshing,
Bor, qardoshim, seni ozod ayladim!
Qayda bo‘lsang, Xudo bo‘lsin yo‘ldoshing,
Bor, qardoshim, senga ozod ayladim!

Yuzing sarg‘aymasin, ranging so‘lmasin,
Do‘stlaring shod bo‘lsin, dushman kulmasin,
Bizdan foyda bo‘lsin, zarar bo‘lmasin,
Bor, qardoshim, seni ozod ayladim!

Haq ishqiga tushgan erlar erisan,
Sahroning bo‘risi, tog‘ning sherisan,
Sen ham ov istagan qirqning birisan,
Bor, qardoshim, seni ozod ayladim!

Qirq yigitdir bir-biridan ziyoda,
Jumlani qo‘llagan bek-u bekzoda,
Haq bersin muroding ikki dunyoda,
Bor, qardoshim, seni ozod ayladim!

Qamar aytar, seni ozod aylarman,
Qirqning o‘rtog‘isan, bir jon-u bir tan,
Meni qiyomatlik do‘stim degaysan,
Bor, qardoshim, seni ozod ayladim!

Alqissa, Qamarulzamon so‘zini tamom etdi. So‘ng katta-kichik barchasi olloyorlashib Tohirni kuzatib qoldilar. Tohirbek yo‘lga ravona bo‘ldi. Ko‘rar bo‘lsang ishqning otashi g‘olib kelib, Zuhraning shavqida o‘rtanib, goh behush bo‘lib, goh hushiga kelib, goh uchib, goh yurib, Xudoydan Zuhraning visolini so‘rab: “Ey bor Xudoyo! Meni bu kecha Zuhrajonning vasliga yetkazgin!” deb, bir muxammas aytib borayapti:

Yo‘qdan bor etgan Alloh, solding meni bu hola,
Bir dilbarning ko‘yida chekdim fig‘on-u nola,
Madad istab o‘zingdan, kirmisham men bu yo‘la,
Jafo chekib, jon berib, yetsam ul navnihola,
Osiy, ojiz qulingman, yetkaz meni visola!

Ishq mulkining shohiman, qoshimda mahramim yo‘q,
Sirimni so‘zlashgani dildor-u dilbarim yo‘q,

Yor jamolin bir ko‘rib o‘lsam zarra g‘amim yo‘q,
Sensan pushti panohim, bir g‘ayri hamdamim yo‘q,
Yor yo‘lini qarayman, boqmasman o‘zga yo‘la.

Alif kabi qomatim hijron shabinda yoydir,
Yorsiz har kecham — bir yil, har bir kunim — bir oydir,
Foniy dunyo tashimda motamxona saroydir,
Raqib yorning yoninda, manzilgohim bu joydir,
Qaysi ag‘yora sunar qo‘lga olib piyola?

Hijron tog‘idan oshib, sevar yorga yetishsam,
Samandarday sarg‘ayib, o‘z-o‘zimdan tutashsam,
Xalil[1] kabi oldida o‘rtansam, o‘tga tushsam,
O‘tlar menga gulzordir, Zuhrajonga qovushsam,
Bulbul kabi ko‘shkida qilay fig‘on-u nola.

Qizil gulni do‘st bilib, bulbul ishi fig‘ondir,
Bol va parin qirdirib, mudom bag‘rida qondir,
Ishq yo‘liga tushmagan bu zulmatdan omondir,
Tohir bir yor ishqinda chin rasvoyi jahondir,
Hech bir kimsa tushmasin mening kabi xayola.

Tohir yelmoyasini shiddat bilan haydab, surib boraverdi. U Zuhraning ishqi bilan shu kecha to‘qqiz manzil yo‘l yurdi. Banogoh yo‘lida bir qora paydo bo‘ldi. Tohir hayron bo‘lib, aylanib o‘tish uchun yo‘l qidirdi, ammo topmadi. Nochor bo‘lib, ne qilishini bilmay yig‘ladi. So‘ngra “mana shu tog‘da, shu qora dog‘lar orasida o‘lmoq — men uchun avvaldan qismat ekan-da... “G‘arib o‘lsa, g‘amxo‘r yo‘q” degani rost ekan” deb, tog‘ga yuzlanib:

— Ey sangixoro qora tog‘, men senga nima qildim? Men bir bechora oshiqman, holi parishon, diydasi giryon g‘aribman. Mening shu holimga rahm etib, menga yo‘l ber! — deb yalindi. Ammo tog‘dan sado bo‘lmadi. Shunda Tohir g‘amgin bo‘lib, bir g‘azal aytdi:

[1] **Xalil** — payg‘ambar Ibrohim Xalilulloh (alayhissalom)ning o‘tda yonish voqeasi ko‘zda tutilyapti.

Qilgin mening yo‘lim ravon,
Chor fasli bahorli tog‘lar,
Sendan qaror topar jahon,
Mudom bir qarorli tog‘lar.

Haqdir seni baland qilgan,
Hamdam bo‘lg‘in pastlar bilan,
Bahor faslinda mast bo‘lgan,
Yomg‘irli va qorli tog‘lar.

Men — gadolarning gadosi,
Jonim Zuhraning fidosi,
Oshiqlarning iqtidosi,
Shunday baland qorli tog‘lar.

Qoyalari qizil gulli,
Gullari shaydo bulbulli,
Daralari dali selli,
Tumanli, g‘uborli tog‘lar.

Qoplonlar bor qoyasinda,
Jayron kezar poyasinda,
Barcha hayvon soyasinda,
Maskanli, madorli tog‘lar.

Bo‘z lochin uchar sarinda[1],
Ko‘zi — burgutning parinda,
Jilg‘asinda, kamarinda
Ajdarli, shohmorli tog‘lar.

Osmondan oshibdir boshing,
Yer ko‘tarmas og‘ir toshing,
Uzum, anjir tegra-tashing,
Olmali, anorli tog‘lar.

[1] **Sarinda** — boshinda.

Sendan kechdi necha mardon,
Ko‘rganlarning aqli jayron,
Senga chiqib qilsa sayron,
Nash’ali, xumorli tog‘lar.

Ayroqlar[1] kezar boshinda,
Umgalari[2] — gunashinda[3],
Chashmalari ko‘z yoshinday,
Archali, chinorli tog‘lar.

Fahm aylang, qudrat lashkari
Yaratdi osmon-u yeri,
Yetti gaz yerning lashkari,
Dunyoga darkorli tog‘lar.

Yuzlari yashil xinali,
Sarbaland, ola siynali,
Tohirdan ko‘ngli ginali,
Oshiqlardan orli tog‘lar.

Tohir so‘zini tamom etdi, ammo tog‘dan yana sas chiqmadi. Tohirbek: “Men bu tog‘ni ta’riflab, maqtadim, ammo ovoz bo‘lmadi. Bu bir bezabon maxluqdir. Bunga yalinib-yolvorib ham ko‘rayin”, — deb yangidan tahorat olib, ikki rakaat namoz o‘qib, qiblaga qarab bir so‘z aytdi:

Menga yo‘l bergin saringdan,
Yo hajari[4] sangi xoro!
Senga aytayin sirimdan,
Sen dardimga ayla chora.

Avval Allohning haqidan,
Payg‘ambarning hurmatidan,

---

[1] **Ayroq** — arxar.

[2] **Umga** — tog‘ echkisi.

[3] **Gunash** — quyosh.

[4] **Hajar** — tosh.

Umid etsang rahmatidan
Qo‘yma meni buncha zora.

Senga aytay ushbu kunda,
Yo‘lim bog‘lab, qilma bandi,
Yor anda yig‘lar, men — bunda,
Meni yetkaz nozli yora.

Eshit mening oh-u zorim,
Ko‘nglimdan ketsin g‘uborim,
Senga berdim ixtiyorim,
Qo‘yma meni intizora.

Xabarim yo‘q yo‘ldoshimdan,
G‘arq bo‘libman ko‘z yoshimdan,
Ishqing daryosi boshimdan,
Oshib ketdi bora-bora.

Ishq daryosi jo‘shar sarda,
Chora topmadim bu darda,
Bor gavharim g‘arib yerda,
Yeta bilmam xaridora.

Yo‘l bersa tog‘lar boshindan,
Tohirbekning ko‘z yoshindan,
Zuhra qizning nolishindan
Bo‘lsa tog‘lar pora-pora.

Tohir so‘zini tamom qildi. Ko‘rar bo‘lsang Allohning qudratidan, Rasulullohning shafoatindan, Tohirbekning oh-u hasratindan, Zuhraning nolishindan, ikki oshiqning ishq-u muhabbatindan, bir ovoz chiqdi, go‘yo qiyomat kunidek bo‘ldi — tog‘ pora-pora bo‘lib, har bir toshi har tomonga uchib, yo‘l ochildi. Tohirbekning andomi larzon urib, behush bo‘lib yiqildi. So‘ng hushiga kelib, tog‘ning yorilganidan xushvaqt bo‘lib, yo‘l qayg‘usidan ozod bo‘lib, tog‘-dan sog‘-salomat o‘tdi. Tog‘ orqada qoldi. Tohirbek Xudo taoloni

yor etib, yelmoyaning ustida borar ekan: "Sen meni qattiq qistab haydayapti deb gina qilma, sirimni o'zing bilasan" deb, tez-tez surib boraverdi. Shu ketishda Zuhrajon yodiga tushib, zor-zor yig'lab, "Ey bor Xudo-yo, bu kecha yerning tanobini tortadigan kuningdir!" deb borayotib edi — tong otdi, jahon yorug'lashdi. U Tatar yurtiga ko'z tikib, qarasa — Zuhrajonning viloyati, o'zi tug'ilib o'sgan yurt ekan! Tohir shodumon bo'lib, qo'liga sozini olib, yelmoyaning ustida borayotib bir g'azal aytdi:

Shukur endi, yor makoni ko'rindi,
Ko'zim tushdi yorim yurgan yerlarga.
Yorning bog'i, gulistoni ko'rindi,
Ko'zim tushdi so'nam uchgan yerlarga.

Boboxon jabrindan nolalar chekib,
Qora ko'zdan yoshin dur kabi to'kib,
Yorindan ayrilib, har yona boqib,
Ko'zim tushdi so'nam kezgan yerlarga.

Bulbul fig'on aylar gullar boshinda,
Siyoh qarqarasi yurar boshinda,
Yashilbosh so'nali ko'llar boshinda,
Ko'zim tushdi so'nam kezgan yerlarga.

Ko'shkinda yor deya zor-zor yig'lagan,
Ishq o'tida jigar-bag'rin dog'lagan,
Shu sababli falak baxtin bog'lagan,
Ko'zim tushdi so'nam turgan yerlarga,

Dushmanlar tashinda charx urib har yon,
Raqiblar qoshinda diydasi giryon,
Yuraginda yuz dog', ko'nglinda armon,
Ko'zim tugdi so'nam uchgan yerlarga.

Bag'rim sadporadir tiyg'i tez bilan,
Nazarim yo'q g'ayri kelin, qiz bilan,

Bog‘inda gasht aylar qirq kaniz bilan,
Ko‘zim tushdi yorim turgan yerlarga.

Yor unda musofir, men yorga bandi,
Ko‘zlarim ko‘r bo‘lar hijron shabinda,
Tohirni uzatib daryo labinda,
Ko‘zim tushdi so‘nam kezgan yerlarga.

Tohir so‘zini tamom etdi. Yelmoyani haydab, goh behush, goh hushiga kelib, Farhod degan shaharga yetishdi. Bu shahar — parilar chorvog‘i edi. Yo‘l shu shaharning o‘rtasidan o‘tar edi. Tohir o‘tib borar ekan, ko‘ziga bir surat (tasvir) ko‘rindi. Suratning yuzi niqobli, ammo niqobin ostidan olamga shu’la oqib turar edi. Tohirbek buning nima ekanligini bilmay, hayron-sarosima bo‘lib, bir oh urdi va suratning yoniga kelib, “Xudo taolo haqqi-hurmati, yuzingni oz-kam ko‘rsatgin!” dedi.

Surat niqobining bir tomonini sal ko‘tardi. Tohirbek buni ko‘rib, behush bo‘lib yiqildi.

Bir zamondan so‘ng hushiga kelib:

— Ey pari paykar! Ul ruhi Muhammad mustafo uchun, menga o‘zingni oshkora qil, — deya, bir abyot aytdi:

Nechuk zotsan, aql-u hushim olibsan?
Gavharmisan, yo durmisan — namasan?
Shu’la solib, olam uzra to‘libsan,
Quyoshmisan, qamarmisan — namasan?

Bog‘ ichinda bulbulmisan, gulmisan?
Yo bulbulga o‘xshash shirin tilmisan?
Asalmisan yo qandmisan, bolmisan?
Shirinmisan, shakarmisan — namasan?

Mujgoning xanjari bag‘rim tilibdir,
Ul niqobdan yuzing shu’la solibdir,
Telba ko‘nglim shunga moyil bo‘libdir,
Dildormisan, dilbarmisan — namasan?

Oshiqlar aytarlar, qoshing hiloldir,
Vasfing kuylamoqqa tillarim loldir,
Hozir-ku ko'rinmas, nechuk jamoldir?
Parimisan, paykarmisan — namasan?

Oq yuziga nuqta xollar kelishar,
Jon, dil, qalbim seni ko'rmoq tilashar,
Yuzingga ko'z solsam, ko'zim qamashar,
Xurshidmisan, anvarmisan — namasan?

Seni istab, sarim soldim savdoya,
Ne bo'lgay sochlaring aylasang soya,
Qo'yning — bo'yi behisht, kirsam ul joya,
Yo mushkmisan, anbarmisan — namasan?

Sayr aylab kezarman gulda, chamanda.
Mening jonim zardob bo'ldi bu tanda,
Tohirbek Zuhraga ham senga banda,
Barchalardan behtarmisan — namasan?

Tohir so'zini tamom etdi.

— Ey jon, parimisan, farishtamisan yo odamzodmisan? Diydoringni bir ko'rayin, chunki "yaxshini ko'rmoq — farzdir" degan gap bor, — dedi Tohir.

Shunda surat:

— Ey oshiqlarning podshosi! Mening diydorimni ko'ra olmassan, ko'rsang, Zuhrani yodingdan chiqararsan. Inshoolloh, bir-birimizni jannatda ko'rarmiz. Biz g'ilmonlar toifasidandirmiz. Men — hurlarning shohiman, ismim — Hurliqo. Ertaga kun payzaga kelganda Zuhra qizga yetisharsan, — deb fotiha berdi.

Tohir yo'liga ravona bo'ldi. Yo'lda eski bir xarobalikka duch keldi. Ul xarobalikning chap tarafidan yuzida do'zax o'ti ko'rinib turganday turqi sovuq bir oq soqolli odam chiqib, Tohirga salom berdi. Tohir alik oldi. Oq soqolli odam so'radi:

— Ey bolam, qaydan kelib, qayga borursan?

Tohir javob berdi:

— Bag‘doddan kelib, Tatarga borurman. O‘zim ham Tatar yurtining odamiman. Tatarda bir qizning ishqiga giriftor bo‘lganman. U qizning ismi Zuhradir. Uning husn-jamoliga mushtoqdirman. Yetti yildan buyon Bag‘dodda kezar edim. Endi umid bilan Zuhraning xizmatiga borurman, — dedi.

Oq soqolli odam bu so‘zni eshitib yig‘lab yubordi. Tohir hayron bo‘lib:

— Yo Rab, bu nechuk sir bo‘ldi? Ey bobo, ne uchun yig‘laysiz? Tez xabar bering, yuragim yorildi, — dedi.

Oqsoqol yig‘lab:

— Sen ham oshiq ekansan. Ammo sening barcha chekkan zahmatlaring kuyib ketdi. Meni Mullamal’un — Shayxi Alayhilla’na ham derlar. O‘tgan kuni Zuhrani Qorabotirga nikohlash uchun meni olib borgan edilar. Men ular ikkisini nikohlab qaytdim. Agar sen borsang, endi Zuhra senga yo‘l bermas, o‘zingni o‘zing nohaq o‘limga olib borarsan. Balki, hozir Qorabotir bilan Zuhra xilvatda mashg‘uldirlar. Bolam, hali ham bo‘lsa vaqt bor, kelgan izingga qaytib ketaver, — dedi.

Shunda Tohir:

— Sening oting Mullamal’un bo‘lsa, sening bu so‘zing bilan men ortga qaytmasman! Borib ko‘rarman, agar Zuhradan bunday ish chiqsa, yuzimni bo‘sag‘asiga surtib qaytarman, — dedi.

Shunda Mullamal’un:

— Unday bo‘lsa, sen menga bir g‘azal ayt. Men ham sening so‘zingni eshitib qolayin, — dedi.

Tohir:

— Endi menda g‘azal ham qolmadi, go‘zal ham qolmadi... — deb, yo‘lga tushaverdi.

Mullamal’un:

— Ey bolam, sal shoshilma, oq fotiha berayin, — dedi.

Tohirbek:

— Sening xabaring yomon, shum xabar ekan, endi beradigan fotihang nima karomat ko‘rsatar? Men sendan bezor bo‘ldim! — deb, yo‘lida davom etdi. So‘ng:

— Vo, hasrato! Buncha chekkan azoblarim, ko‘rgan xo‘rliklarim evaziga ham sira vafo ko‘rmadim, — deb holi parishon, jigari

biryon, ko‘zlari giryon, aqli hayron, qalbi otashi so‘zon bo‘lib, bir so‘z aytdi:

Mudom orzu aylab guli ruxsoring,
Muborak jamoling ko‘ra bilmadim,
Bog‘ingda ochilgan olma-anoring,
Gasht etib, gullaring tera bilmadim.

Oshiq to‘ymas o‘z yorining yuzindan,
Koshki borib xabar olsam o‘zingdan,
Raqiblar dastindan, elning so‘zindan,
Bir dam xushvaqt bo‘lib yura bilmadim.

Sen kezarsan go‘zallarga shoh bo‘lib,
Men kezarman alif qaddim yoy bo‘lib,
Zuhraning vaslindan xomta’ma bo‘lib,
Mohimjonga ko‘ngil bera bilmadim.

Gul yuzing ko‘rmasam, aziz jon kuyar,
Sening hasratingda bo‘ldim darbadar,
Endi borsam, dushman ko‘rar, el bilar,
Zavqi-safolaring sura bilmadim.

Tohir aytar, oshnolarim yot bo‘ldi,
Do‘stlar g‘amgin bo‘lib, dushman shod bo‘ldi.
Kimsa bilmas, jigar-bag‘rim o‘t bo‘ldi.
Xizmatingda yana tura bilmadim.

Tohir bechora Zuhradan bu ishni ta’ma qilmay, ko‘p yig‘ladi. So‘ngra yelmoyani haydab, yo‘lga tushaverdi. Yelmoya och bo‘lib, o‘tlashga yuz tutsa, Tohir: “Ey jonivor, men sening o‘tlab bo‘lishingni kutsam, unda ishimdan qolaman. Sen biroz muddat qanoat qil. Zuhraning yoniga salomat yetishsam, seni o‘zim yaxshilab boqaman, senga yo‘ng‘ichqa ham beraman, bog‘ning gullaridan ham beraman, mevalaridan ham beraman” deb, unga arzi holini so‘zlab shaharga bordi va darvozadan kirdi. Ko‘rsa, o‘zi bilan

maktabda saboqdosh bo‘lib o‘qigan bir yigit turibdi. Tohirbek u bilan salomlashib, undan Zuhrani so‘rab, bir so‘z dedi, ul yigit ham javob berib turdi:

Tohir:
Bek o‘g‘li, xabar ber bizga:
Zuhra qiz qaydadir, qayda?
Majnun bo‘lib chiqdim tuzga,
Zuhra qiz qaydadir, qayda?

Yigit:
Xabar olsang, vazir o‘g‘li,
Zuhrajon bog‘dadir, bog‘da.
Pari sifat, hur siynali
Zuhra qiz bog‘dadir, bog‘da.

Tohir:
Firqatindan jafo chekib,
Ko‘zimdan qonli yosh to‘kib,
Ko‘rolmasman har yon boqib,
Zuhra qiz qaydadir, qayda?

Yigit:
Sayr etmoqqa bog‘ga kirdi,
Qirq kanizlar bilan yurdi,
Yurakda dardi — sen erdi,
Zuhra qiz bog‘dadir, bog‘da.

Tohir:
Mullamal’un avval kuni,
Xo‘b xabardor etdi meni.
Qorabotir olmish uni,
Zuhra qiz qaydadir, qayda?

Yigit:
Bog‘chasi kunda talondir,
Bulbul fig‘onda qolandir,

Yig‘lama, ul so‘z yolg‘ondir,
Zuhra qiz bog‘dadir, bog‘da.

Tohir:
Ko‘zimni giryon aylagan,
Aqlimni hayron aylagan,
Qora bag‘rim qon aylagan,
Zuhra qiz qaydadir, qayda?

Yigit:
Tohir deya kuyar joni,
Shaharning aziz mehmoni,
Qirq kanizlarning sultoni —
Zuhra qiz bog‘dadir, bog‘da.

Tohir:
Tark etdim dunyoning barin,
Dunyoga bermam bir torin,
Kuydim, ko‘rmayin diydorin,
Zuhrajon qaydadir, qayda?

Yigit:
Yor deya aqlin shoshirib,
Dardini eldan yashirib,
Yig‘lar, yurakka tosh urib,
Zuhra qiz bog‘dadir, bog‘da.

Tohir:
Boshqa bir o‘tda yonmasman,
O‘lsam yo‘lindan tonmasman,
Rostini ayt, ishonmasman!
Zuhra qiz qaydadir, qayda?

Yigit:
Sayr etib sahar chog‘inda,
Qizil gullar quchog‘inda,

Yig‘lar ayroliq dog‘inda,
Zuhra qiz bog‘dadir, bog‘da.

Tohir:
To‘qqiz oylik yo‘ldan keldim,
Xizr bilan hamroh bo‘ldim,
Tohir aytar, ko‘rmay qoldim,
Zuhra qiz qaydadir, qayda?

Yigit:
Bek o‘g‘li so‘zlar hamisha —
Rostni qo‘shdim men bu isha,
Qilmag‘in qayg‘u-andisha,
Zuhrajon bog‘dadir, bog‘da.

Bu so‘zni tamom etdilar. Bek o‘g‘li:

— Zuhrani ushbu paytda ko‘shkidan topasan. Sahar paytida kanizlari bilan birga bog‘ sayliga ketib erdi, endi kelib, dam olib yotgandir, — deb yo‘lni ko‘rsatib yubordi.

Tohir shodlanib, ko‘shkining yoniga borib, yelmoyadan tushdi, tuyasini cho‘nkarib, yuzini sipadi va o‘pdi. So‘ng yelmoyani shu yerda qoldirib, o‘zi ko‘shkning binosindan chiqib, haram saroyiga kirdi.

Ko‘rsa, Zuhrajon taxtning ustida uxlab yotibdir, inja bel, bodom qovoq, pista dahan, nozik badan qiz bo‘libdi. Tohirbek Zuhraning uxlab yotgandagi suratiga hayron qolib, uyg‘ota bilmay, tashida uch martaba parvonaday aylandi, ammo Zuhra uyg‘onmadi.

Shunda Tohir: “Zuhrajon behush bo‘lib yotganmikan? Yoki noz qilib yotganmikan? Yoki boshqa birovlar bilan bazm etib, bemor bo‘lib yotganmikan? Yo mendan o‘pkalab, yoki men ekanligimni bilmasdan yotganmikan? Yoki dev-pari urdimi, yo al-arvoh, jin qoqdimi?” — deb, qo‘rqib, nima qilishini bilmay, hayron va sarosima bo‘lib, Zuhraning uyog‘iga-buyog‘iga o‘tib: “Ne uchun uyg‘onmadi?” — deb bir muxammas aytdi:

G‘arq bo‘lib g‘aflatda yotma, nozli dildorim, uyon!
Og‘zi g‘uncha, tishlari dur, zulfi zunnorim, uyon!

Bulbuli zoring kelibdir, husni ruxsorim, uyon!
Ol yonoqda kokili sharshara — shohmorim, uyon!
Biz kelganda almudom uyquda bemorim, uyon!

Do‘st so‘ziga tut quloq, ag‘yorning pandin tutmag‘il,
Shum raqiblar fitnasi uxlasa — uyg‘otmag‘il,
O‘zgalarga til bo‘lib, holim parishon etmag‘il,
Ming tumanlik xotiramni bir diramga sotmag‘il,
Yuz alamlik jonimg‘a jabr-u sitamkorim, uyon!

Siynada hijron o‘ti, kelmisham men bu mahal,
Sevgilim, turg‘ul yeringdan, qilmag‘il hargiz xayol,
Podshoh — sen, men — gado, oshiqligim ro‘zi azal,
Gasht etib olam-jahonni ko‘rmadim sendek go‘zal.
Ola ko‘zli, sho‘x so‘zli, to‘ti guftorim, uyon!

Sochlaring “val-layli” ermish, yuzlaringdir “vaz-zuho”,
Tillaring — “Yosin”[1], “Toho”[2] — ikki olamda bebaho,
Nuqtayi xoling yuzingda misli zaynul-as-samo[3],
Dilrabo, qo‘yning sening ahlan va sahlan[4], marhabo!
Qomati zebo toviling[5], ansul-anvorim, uyon!

Zuhrajon, sensiz bu foniy dunyo zindondir manga,
Bir muborak yuzingni ko‘rsam, ne armondir manga,
Bu parishon holimni kim ko‘rsa hayrondir manga,
Men sening ko‘yingda kuysam kunda davrondir menga,
Tohiring holin ko‘rib, endi eshit zorim, uyon!

Tohirbek so‘zini tamom etdi. Ammo Zuhra yana uyg‘onmadi. Tohir: “Bu faqir behush bo‘ldimikan? Yoki Qorabotir bilan kayfini ko‘klab, mendan umidini uzdimikan?” — deb, qo‘liga dutorini olib: “Yana bir marta uyg‘otmoqchi bo‘lib ko‘rayin, agar bu safar

---

[1,2] — Qur’oni Karim suralarining nomlari.

[3] **Zaynul-as-samo** — osmon bezagi.

[4] **Ahlan va sahlan** — xush keldingiz.

[5] **Toviling** — uzunlik.

ham uyg‘onmasa, mendan kechib yuborgani shudir”, — deb bir abyot aytdi:

Yetti yil chekdim firqating,
Zuhrajonim, uyg‘onmading!
Ichdim ayroliq sharbatin,
Visol mayidan qonmading.

Baland-baland tog‘lar oshib,
Yovuz kunlarga tutashib,
Bu kun keldim yo‘lim tushib,
Sog‘dan so‘la do‘lonmading.

Damba-damdan kelar mosil[1],
Qilg‘ali murodim hosil,
Ikki oshiq bo‘ldi vosil,
Rahmat mayidan qonmading.

Sen deb Bag‘doddan kelarman,
Goh sarg‘ayib, goh so‘larman,
Kelgan kun erta o‘larman,
Bu umrimga quvonmading.

Uzoqdan keldim yotmoqqa,
Shirin labingdan totmoqqa,
Ko‘zim qiymas uyg‘otmoqqa,
O‘zing bilib uyg‘onmading.

Kuygan ko‘p ishqning o‘tiga,
Kim yetibdir murodiga?
Tohirning yongan o‘tiga,
Zuhrajon, sen ham yonmading.

Tohir so‘zini tamom etdi. Zuhra Tohirni Qorabotirmikan deb, gumonlanib, ko‘rpasini ustiga yopib, narigi tomonga ag‘darilib

[1] **Mosil** — soliq to‘plovchi, asli “muhassil” (hosil egasi) degan so‘zdan.

yotaverdi. Tohirning ko'ngliga vahima tushib: "Zuhrajon menga bevafo bo'ldi, mendan o'zga yori bor ekan..." — deb bir so'z aytdi:

Kel, Tohir sen ham yuz o'gir,
Zuhra yuzin o'girmishdir.
Yuz o'girib men telbadan,
Qoraga ko'ngil bermishdir.

Yiroq tushdi visol yo'li,
Raqib oldi sog'-u so'li,
Mudom esib hijron yeli,
Kulim ko'kka sovurmishdir.

Jayhun bilan Bag'dod borib,
Yana kelmisham axtarib,
Zuhra o'zgaga dil berib,
Mendan o'zin ayirmishdir.

Mening holim xarob aylab,
O'zini Qoraga yor aylab,
Quruq jismim kabob aylab,
Qora bag'rim qovurmishdir.

Xabar berdi Mullamal'un,
Nechun qaytmadim men Majnun?
Yuragim — qon, jigarim — xun,
Shirin jondan yuz burmishdir.

Tangriga qul, rasul ummati,
Chekmasin menday firqatni,
Azal kunda shum qismatni
Mavlom bizga buyurmishdir.

Tohir der, keldim qoshingga,
Kalom yo'qdir haq ishina,
Falak oshiqlar boshina
Mundoq balo qayirmishdir.

Tohir so‘zini tamom etdi. U Zuhradan o‘pkaladi. Kelganiga pushaymon etib: “Ey Tohir! Sen Zuhra deb Mohimdek ixlosli yordan ayrilding. Balki, seni uning ixlosi urgandir?” — deb dutorining torini bo‘shatib: “Qaydasan, Bag‘dod?!” deya qaytib ketmoqchi bo‘ldi.

Zuhra qiz uyqusining orasida g‘ala-g‘ovur eshitib, ko‘zini ochdi. Qarasa, boshida Tohir turibdi. Zuhra bilmadi — bu Tohirmi yoki Tohir suratidagi arvohmi, jinmi? Yoki bu tushmi, yoki xayolmi? Ammo yaxshi nazar solib qarasa, Tohirning o‘zi! Zuhra o‘rnidan turib, bir oh urdi va behush bo‘lib yiqildi.

So‘ng hushiga kelib:

— Voy, mening Tohirjonimmisan, yuragimning armonimisan, dardimning darmonimisan yo ruhimning ravonimisan? Ketar bo‘lsang, meni o‘ldirib ket! — deb, ham kulib, ham kuyib, Tohirning bo‘yniga yopishdi. Tohirning ko‘zi Zuhraning gul yuziga tushib, behush bo‘ldi. Bir zamondan so‘ng hushiga kelib, bir-birin bo‘yiniga qo‘l solishib, labini yonoqda qo‘yib, ancha vaqtgacha yig‘lagan bo‘lib, gina keltirib, shikoyat etib, bir g‘azal aytdi, Zuhra ham javob berib turdi.

Tohir:
To‘qqiz oylik yo‘ldan sen deb kelmisham,
Uyg‘onmading bu afg‘ona, Zuhrajon!
Kunda yuz tirilib, yuz ming o‘lmisham,
Kelmasaydim bu jahona, Zuhrajon!

Zuhra:
Necha kunlar kezdim yorim kelar deb,
Yo‘lin qarab, aqlim hayron ayladim,
Bog‘larimga bulbulzorim qo‘nar deb,
Bugun gullarimni sayron ayladim.

Tohir:
Uyg‘onmading shuncha baland soz bilan,
Choylar[1] uyg‘onmasmi quba g‘oz bilan,

[1] **Choy** — qush turi.

Yo g‘aflatda qolding, yoki noz bilan,
O‘tlar solding shirin jona, Zuhrajon!

Zuhra:
Sen menga aytmagin bundoq so‘zingni,
Tuhmat qilib boshqa tutma o‘zingni,
Aytganim rost bo‘lsa, ko‘rmam yuzingni,
Ayt-chi, kimga ahdi paymon ayladim?!

Tohir:
Xarobadan chiqdi oqsoqol o‘zi,
Qoradir asbobi, siyohdir yuzi,
Shayxi La’na xabar qildi bu so‘zi,
Ketdi ko‘nglim bad gumona, Zuhrajon!

Zuhra:
Shayxi La’na derlar, shaytondir oti,
Haqqa mal’un bo‘lgan ahli avlodi,
Yolg‘on so‘zlab, dilga soladir o‘ti,
Haq aylabdir, o‘rnim zindon ayladim.

Tohir:
Sevgilim, rahm ayla bag‘ri poraga,
Malham ayla raqib solgan yaraga,
Seni deya qilich qo‘ydim oraga,
Ko‘z solmadim Mohimjona, Zuhrajon!

Zuhra:
Yetti yil bo‘libdir ketgandan buyon,
Bu ko‘shk ichra yolg‘iz chekdim men armon,
Jonimga rohatsan, tanga jonajon,
Surating qalbimda mehmon ayladim.

Tohir:
Men aylanay yorning Zuhra otindan,
Men g‘aribni chiqarmabdi yodindan,

Ayroliq dardindan, ishqning o‘tindan
Kul bo‘lmisham yona-yona, Zuhrajon!

Zuhra:
Shum raqib ta’nindan kula bilmadim,
Otam g‘azabindan o‘la bilmadim,
Zuhra der, Tohirim bila bilmadim,
Qoracho‘moq deya gumon ayladim.

Tohir:
Tohir aytar, uzoq yo‘ldan kelmisham,
O‘zim ishqning bozoriga solmisham,
Bu aytgan so‘zimga tavba qilmisham,
Qaytaylik o‘shal davronga, Zuhrajon!

Alqissa, bular so‘zlarini tamom qildilar. Zuhra aytdi:

— Ey Tohirjon! Bu yil ketganingga yetti yil bo‘ldi. Sening hajringda samandarday kuyib, ko‘zimdan seldek yoshimni oqizib, qachon mening nolishim Xudoning dargohida qabul bo‘lar ekan, deb kezar edim. Sen ketganingdan buyon otamning g‘azabindan, elning malomatindan, sening ayrolig‘ingdan menda xobi rohat[1] qolmadi, zavqi dunyoni tark etdim. Xususan, bir kuni yuragim qisib, bog‘ sayrina chiqdim. Unda ham ko‘nglim ochilmay, oqshom kelib, tahorat olib, ikki rakaat namoz o‘qib, qiblaga qarab, “Tohirjonning diydorini ko‘rmoq bormi?” deb yotib, ko‘zim uyquga ketibdir. Tushimda seni ko‘rib, hol-ahvol so‘rashib o‘tirgan vaqtimda sening ovozingdan uyg‘ondim va muborak jamolingga muyassar bo‘ldim. Shukur, alhamdulloh, mukaddar[2] ko‘nglim munavvar bo‘ldi! — deb quchog‘ina qisib, yonog‘idan o‘pdi. — Bugun murodimga yetdim, endi o‘lsam armonim yo‘q! Visolimiz uzoq ketar yanglig‘, ishimizni xufya aylamak kerak, — deb Zuhrajon bir g‘azal aytdi:

Xush kelding, Tohirim, bizning ellara,
Davlatli, davronli joydir bu joylar.

---

[1] **Xobi rohat** — rohat uyqusi.

[2] **Mukaddar** — g‘amgin, so‘nik, qayg‘uli.

Kel, ikkimiz gasht etaylik gullara,
Gulshanli, sayronli joydir bu joylar.

G‘ofil bo‘lsang, shum raqiblar sezarlar,
Borib, shoh bobomga siring yoyarlar,
Seni o‘ldirarlar, meni qo‘yarlar,
Do‘stdan ko‘p dushmanli joydir bu joylar.

So‘zing qabul bo‘lmas shohning qoshinda,
Ko‘zim — yoshda, boshim — mehnat toshinda,
Kunda yuz zulm bordir mazlum boshinda,
Barcha uchun qonli joydir bu joylar.

Otam sezsa, jallodlarga buyurar,
Ikki oshiq uchun qayg‘u qo‘yilar,
Seni — mendan, meni — sendan ayirar,
Nolishli, afg‘onli joydir bu joylar.

Zuhra deydi, senga sirim aytarman,
Yuzim yirtib, siyoh sochim yoyarman,
Qaysi bir dardima yonib-kuyarman,
Bir zolim sultonli joydir bu joylar.

Alqissa, Zuhrajon so‘zini tamom qildi. Tohir:

— Ey Zuhrajon! Viloyatingda nima xabarlar bor? — deb so‘radi.

— Ey Tohirjon, shu o‘zing ko‘rgan o‘tolgur Tatardir bu, eski zolim podshohdir. Agar birdan bu ishlarimiz zolim otamning qulog‘iga yetsa, seni o‘ldirib, meni Cho‘loqqa nikohlab berarlar, ehtiyot bo‘lmoq kerak, — deb bir so‘z aytdi:

Tohirim, maslahat so‘rasang,
Shu gap, o‘tgan zamon yo‘qdir.
Oshkor bo‘lib, munda tursang,
O‘ldirarlar, gumon yo‘qdir.

Shum raqiblar sezsa bizi,
Otama derlar bu so‘zi,

Ko‘r bo‘lsin dushmanning ko‘zi,
Oshiqlarga davron yo‘qdir.

Tarahhum[1] yo‘qdir bu shoda,
Zulm etar yaqin-u yota,
Qochaylik shahri Bag‘doda,
Bizga bunda makon yo‘qdir.

Falak soldi yovuz darda,
Duch keldim otam — nomarda,
O‘lsak, o‘larmiz bir yerda,
Endi bizga omon yo‘qdir.

Agar sezsalar bu ishi,
Damba-damdan kelar kishi,
Sensan yaxshidan yaxshi,
Otam kabi yomon yo‘qdir.

Kel, gasht etayli bu bog‘a,
Yel tegmasin shamchirog‘a,
Tavakkal qilsang Xudoga,
O‘ldirsa ham ziyon yo‘qdir.

Zuhra der, kim kelsa doda,
Tenglik topmas bu dunyoda,
Sipohiylar — haromzoda,
Adolatli sulton yo‘qdir.

Zuhra so‘zini tamom etdi. Tohir aytdi:

— Ey Zuhrajon! Men Bag‘doddan sen uchun keldim. Meni otang chaqirib keltirmadi. Otang endi rahm-shafqatli, toza imonli, mehrli odam bo‘lib qolmaganligiga aqlim yetadir. Endigi maslahatni o‘zing bilasan. Ket desang ketaveraman, shu yerda qol desang — qolaveraman. Muborak chehrangni bir ko‘rdim — endi armonim yo‘q. Ammo otang meni o‘ldiradi deb, o‘limdan

[1] **Tarahhum** — rahm-shafqat.

qo‘rqadigan odam — men emasman. Sening yoningda turib jon bersam — aslo armonim yo‘qdir.

Ular shunday gaplashib o‘tirib, kunni kech qildilar. Shu payt Zuhrajon Tohirga kengash berib, bir g‘azal aytdi:

Kel, suraylik bu dunyoni,
Bu kecha o‘tmasdan burun.
Yorimning kelgan bayoni
Dushmanga yetmasdan burun.

Raqib bilsa — otam bilar,
Yana g‘azab to‘nin kiyar,
Seni o‘ldirar, meni qo‘yar,
Bir o‘rin tutmasdan burun.

Taqdirga to‘g‘ri turali,
Ishq yo‘linda jon berali,
Tohirim, davron surali
Nogoh tong otmasdan burun.

Ko‘ngildan chiqar bu g‘amni,
Ko‘p chekma dard-u alamni,
G‘animat bilgin bu damni,
To chiqib ketmasdan burun.

Zuhra aytar, ey dildorim!
Xush kelibsan, sevar yorim,
Tar ochilgan guluzorim,
Xazona botmasdan burun!

Zuhra so‘zini tamom etdi. Ikkisi bir-biriga qo‘shilib, qizil gulday chirmashib, quchoqlashib, o‘pishib, davrona mashg‘ul bo‘ldilar...

Birdan tong otdi, odamlar uyg‘ondilar, oshiqlar nima qilishini bilmadilar. Ammo Zuhra hali hech kim sezmay turib, Tohirni uy ichidagi bir sandiqqa solib, hujra ichinda gizladi va yolg‘ondan yorining oh-u zorini chekib, hamishagidek fig‘on tortib o‘tiraverdi.

Ammo endi bu chekkan ohlari avvalgilari kabi zarbli emas edi. Ko'ziga suv sepib, mijjasini nam qilar, ko'zini qizartirar edi. Shu ravishda kechasi Tohirni sandiqdan chiqarib, majlis qurib, kunduzlari oh tortib, anchagina vaqt o'tkazdilar.

Tohirning kelganining shodligi Zuhraning yuragiga sig'may ketib, bir kuni betob bo'lib yiqildi.

Zuhraning bir enagasi bor edi. U Zuhraga ko'p mehribon edi, o'zi Hindiston podshohining qizi edi, yaxshi tabib edi. Zuhra "enagamga o'zimni ko'rsatayin" deb, uning yoniga keldi. Enaga ko'rsa, Zuhra oy yanglig' bo'libdir. Enaga Zuhraning nafas tomirini bosib o'tirib, bir maydon (bir pas) yuziga boqib o'tirib:

— Ey qizim! Men senda hech kasal ko'rmadim. Ammo senda bir gizlinch (yashirin) sir bor, bu balki shodlik siridir, magar katta bir shodlikka duch kelgan ko'rinasan! Tohiring keldimi? — deb so'radi.

Zuhra yig'lab:

— Ey, ena, sening fahm-u idrokinga qoyilman! — dedi.

Enaga qizlarning har birini bir ishga yuborib, uyni bo'shatib (xoli qilib) Zuhraga dedi:

— Ey qo'zim! Rostingni ayt, men ilojini etarman, — dedi.

Unda Zuhra aytdi:

— Ey ena, mendan eshitadiganingni el-yurtga bildirmaslikka qasam ich!

Enaga qasam ichdi. Shunda Zuhra faqir enasiga yuzlanib, zor-zor yig'lab, bir so'z dedi:

Yetti yildir sevar yordan ayrildim,
Necha yillab orzu-diydor ayladim.
Bir kun yorim dedi:
"Men senga keldim!" —
Raqiblardan qo'rqib, ozor ayladim.

Qiblam enam! Sensan pushti panohim!
Keldim xizmatingga, o'tgin gunohim,
Tohirni keltirdi qodir Allohim,
Mahram enam, senga izhor ayladim.

Ena, senga to‘g‘ri so‘zim so‘zlarman,
Yolg‘ondan “yor!” deya,
o‘g‘rin ko‘zlarman,
Kunduz uni bir xilvatda gizlarman,
Kechalari jonim nisor ayladim.

Raqib sezsa, bizni aylar oshkora,
Otam bilsa, bizni etar sadpora,
Egam rahm aylasin oshiqi zora,
Yor bilan bir yerda qaror ayladim.

Zuhra aytar, g‘amgin ko‘nglim ochildi,
Turli rahmat chor tarafga sochildi,
Yor qo‘lindan gulgun sharob ichildi,
Xazon ko‘nglim fasli bahor ayladim.

Alqissa, Zuhra so‘zini tamom qildi:

— Ey, enajon! Ikki oshiq sening xizmatkoringdir, endi bizlarga bir maslahat bersang, — dedi.

Enaga:

— Bolam, Tohiring xush kelibdir, ko‘zing ravshan bo‘libdir, qorong‘ilikdan yorug‘likka chiqibsan. Sen endi uni menga topshir. Men Tohirni hech kim ko‘rmas yerga gizlayin, — deb bir abyot aytdi. Zuhra ham javob berdi:

Enaga:
Menga topshir, bolam, sevar yoringni,
Ulus ko‘rmas yerda pinhon aylayin,
Haq eshitsin nolishingni, zoringni,
Chaman ichra yoring mehmon aylayin.

Zuhra:
Yorsiz bunda mening bir kunim o‘tmas,
Enajon, yorimni senga topshirdim,
Kunduzlar kun o‘tmas, tunlar tong otmas,
Tohirimni, ena, senga topshirdim.

Enaga:
Kunduz bo‘lsa — gul butog‘ga yashirib,
Bulbullarning makoniga topshirib,
Oqshom yoring yana senga qovshirib[1],
Yo‘lin sen tomonga ravon aylayin!

Zuhra:
Mening bu sirimni dushman bilmasin,
Yana yordan bizni ayri solmasin,
Ul sababdan guldek rangim so‘lmasin,
Enajon, Tohirim senga topshirdim.

Enaga:
Ayroliq o‘tina bag‘ring dog‘lama,
Vahm aylabon bo‘lmas ishni chog‘lama,
Zuhrajonim, mehribonim, yig‘lama,
Sening bu dardingga darmon aylayin!

Zuhra:
Hazir bo‘l, bu sirni dushman tuymasin,
Otam bilib, yana ayro qo‘ymasin,
Quruq jismim zulm o‘tina kuymasin,
Enajon, yorimni senga topshirdim!

Enaga:
Agar otang bilsa qilgan ishimni,
Sening uchun qurbon qilay boshimni,
To‘g‘ram-to‘g‘ram qilib aziz loshimni,
Sening bu dardingga darmon aylayin.

Zuhra:
Qadrim bilgan qardrdonim sen mening,
Mahram enam, tirik jonim sen mening,
Zuhra aytar, mehribonim sen mening,
Enajon, Tohirim senga topshirdim.

[1] **Qovshirmoq** — qovushtirmoq, birini ikkinchisiga duch etmoq.

Enaga:
G‘arib enang senga rostin so‘ylasin,
Oshiqlar haqiga qulluq aylasin,
Sening maqsadingni Haqdan tilasin,
Sening bu mushkuling oson aylayin.

Alqissa, bular so‘zini tamom etdilar. Zuhra Tohirni enagaga topshirdi. Enaga Tohirni kunduzi gizlab, kechalari chiqarib, Zuhraga qovshirar edi. Bu ravishda ko‘p vaqtlar o‘tdi.

Enaganing uyinda bir qari kampir bor edi, xizmatkor edi. Sirli ishni harchand undan yashirmasinlar, bu badbaxt barcha ishlardan xabardor edi.

Sandiqning qayerda saqlanishi ham bu kampirga oshkor edi. Kampirning ko‘nglida gina bor edi.

Bir kuni enaga, Zuhra va kampir bog‘ga sayrga chiqdilar. Kampir Tohir yotgan yerga kelib:

— Ey Tohirbek! Sen meni o‘zingga dushman bilasan. Ammo men sening har bir qilayotgan ishingdan xabardorman. Sen mening sha’nimga bir oshiqona g‘azal ayt, yo‘qsa, sening bu ishingni men sultonga xabar berib, teringni shildirib, suyaklaringni birma-bir kuydirurman! — dedi.

Tohir:

— Ey qari badbaxt! Oltmish yoshdan oshganingdan so‘ng senga g‘azal nimaga kerak? G‘iybat gaplarni, bad ishlarni qilib, Yaratganning rahmatidan noumid bo‘lib qolma! — deb bir abyot aytdi:

Momo, sen qaytg‘il fe’lingdan,
Menga rahm qilg‘il, momo!
Adashgan bo‘lsam yo‘limdan,
To‘g‘ri yo‘lga solg‘il, momo!

Raqibga sirim demagil,
Oshiqlarga dog‘ qo‘ymagil,
“Kuydirarman!” deb, kuymagil,
Xudodan uyalg‘il, momo.

Ko‘rsat oshiqlar yo‘lini,
So‘rg‘il g‘ariblar holini,
Dildagi shayton fe’lini
Jahannamga solg‘il, momo!

Boshingdan yoshlik o‘tibdir,
Og‘zingdan tishing ketibdir,
Oshiq senga ne etibdir?
Menga mehrli bo‘lg‘il, momo!

Kezgil, momo, o‘z holingga,
Istaging tushar qo‘lingga,
Rahm ayla Tohir o‘g‘lingga,
Mening pandim olg‘il, momo!

Alqissa, Tohir so‘zini tamom qildi. Kampir ketdi. Tohirbek yig‘lab shunday dedi:

“Ey bor Xudoyo! Meni barchadan ojiz yaratding, bor-u yo‘qqa muhtoj etding. Qariga ham, yigitga ham, har biriga bir so‘z aytib, hiyla birla mador-murosa qilib, kun kechiraman. Azal kundan boshimga ishqning savdosini solding. Zuhraning havasi bilan tanimda jonim qolmadi. Ota-onam, qavm-u qarindoshim ham yo‘q, kecha-yu kunduz qayg‘u-g‘amdaman. Balo-yu kulfatlarga giriftorman. Agar sening qasding jonimda bo‘lsa, bu jonni ol, jon senikidir. Yo esa ishq dardin darmonini ber! Men maqsadimga yetishish yo‘lida ancha vaqtlar sargardon bo‘lib kezdim, agar murodimga yetmay o‘lsam, mening ko‘p armonim qolar...” deb, Xudoga murojaat qilib, bir g‘azal aytdi:

Yo Yaratgan! Sensan pushti panohim!
Sun’ing[1] bila bu jahona kelmisham.
Bir qisim tuproqdan meni yaratding,
Yo‘qdan bor aylading — jona kelmisham.

Bir osiy qulingman, ko‘pdir gunohim,
Qachon yora yetar bu chekkan ohim?

[1] **Sun’ing** — san’ating, qudrating.

Tatarda — Zuhrajon, Bag‘dodda — Mohim,
Ishqning sharobiga qona kelmisham.

So‘na — ko‘lda suzar, bulbul — gulinda,
Samandar — otashda, qaqnus — kulinda,
Dunyoga kelibman ishqning yo‘linda,
Yerda unib, bu osmona kelmisham.

Yakkaman, yolg‘izman, g‘aribman, g‘arib,
So‘lar bo‘ldim yor hajrinda sarg‘ayib,
To‘qqiz oylab, havasinda yo‘l yurib,
Bugun taxti Sulaymona kelmisham.

Tohir der, kuydirdi yorning otashi,
Kecha-kunduz oqar ko‘zining yoshi,
Qora tog‘lar oshib, chekib koyishi,
Umid bilan Zuhrajona kelmisham.

Tohir so‘zini tamom qildi. Shu payt Zuhra qiz uning yoniga keldi.

Tohir:

— Bir qari badbaxt bizning sirimizni bilibdir, ehtiyot bo‘lmoq shart! — dedi.

Zuhra yig‘lab enaganing yoniga bordi. Enaga hamma kanizlarini chaqirdi. Hammasi jam bo‘lib kengash etdilar.

Gulzoda dedi:

— Bibim, keling, bu kampirni o‘ldiraylik. Agar buni o‘ldirmasak, bizni podshohga borib aytadi. Shoh esa Tohirni o‘ldirib, bizlarni ham gunohkor qiladi...

Enaga dedi:

— Ey kanizlar! Bu kampirni hech kimga bildirmay o‘ldiringlar!

Kanizlar darrov kampirni aldab-suldab chaqirib keltirdilar va har biri bir musht-bir mushtdan urib, o‘rtaga olib, tepkilab o‘ldirdilar. Mayitini bo‘lsa, sudrab olib borib ko‘mdilar, kampirdan qutuldilar. So‘ngra hammalari bir soat jamlanib o‘tirdilar.

Gulzoda o‘zini o‘rtaga tashlab:

— Ey bibilarim! Bizning bu ishimiz ko‘p qabohat ish bo‘ldi. Bunday ish bo‘ldimi, endi el-yurt sezmasdan qolmagay, oxirida oshkor bo‘lib, barchamiz o‘limga ketamiz. Keling, o‘lim kelmasdan avval bir majlis qilib, el-u yurtni chaqirib, to‘y-tomosha etib, Zuhrani Tohirjonga nikohlab beraylik, bularni murodiga yetkazaylik, bir bazmi-ishrat qilaylik! — deb kengash berib, bir g‘azal aytdi:

Boshimizga o‘lim kelmasdan burun,
Keling, qizlar, bazmi davron etaylik!
Do‘stlar yig‘lab, dushman kulmasdan burun,
Gulshan ichra azmi sayron etaylik!

Ancha kezdik Tohirjonni yashirib,
Mard bo‘laylik ishq ko‘yiga bosh urib,
Shu kun hamma sozandani chaqirib,
Barcha xaloyiqni hayron etaylik!

Zeb-u ziynat berib, ko‘z bilan qosha,
Azm aylab chiqaylik oy-u quyosha,
Husnimiz olamga solsin tomosha,
Raqiblar ko‘zini giryon etaylik!

To‘y qilaylik hammaga ko‘z-ko‘z etib,
Arg‘umoqlar chopsin changni porlatib,
Taxt atrofin kelin uyday tuzatib,
Qayg‘u-g‘amning uyin vayron etaylik!

Ko‘rmasin, ko‘r bo‘lsin raqiblar ko‘zi,
Boboxonga yetkazarlar bu so‘zni,
Bir zamon qo‘ymasin, o‘ldirsin bizni,
Bu yo‘lda boshimiz qurbon etaylik!

Shamdek shu’la sochib, gasht etsak bog‘da,
Parvonalar kuysin bu shamchiroqda,
Oramizga raqib kelsa shu choqda,
O‘ldiraylik, hibsi zindon etaylik!

Gulzoda der, savash kuni mard bo‘lib,
Oshiqlarning dardi bizga dard bo‘lib,
Dushman g‘olib kelsa, quvsa yurt bo‘lib,
Orzularda o‘zga maydon etaylik!

Bu so‘z tamom bo‘ldi. So‘ngra bu maslahatni qabul etib, el-elatlarga chopar, otli yuborib, har yerda sozandalar bo‘lsa oldirib, baxshilarni jam qilib, ko‘shk ustida shodiyona qoqdirib, to‘y-tomosha berdilar. Zuhra qizga ko‘p-ko‘p qimmatbaho toshlar taqib, zeb-u ziynatlar urib, ul qadar oroyish berdilarki, go‘yo behishtdan bir hur chiqqan kabi, ko‘shkning ichinda quyosh paydo bo‘lgan kabi, Zuhra majlis ichiga kelib o‘tirdi. Kanizlar soz-suhbat bilan goh Tohirga, goh Zuhraga may tutib, bu tariqa majlis qurdilarki, oxiri Zuhra o‘tira olmay, turdi-da: “Tohirjonga o‘z qo‘lim birlan bir may berayin!” deb, bir luqma o‘zi no‘sh aylab, bir luqmani bo‘lsa o‘z qo‘li bilan Tohirga tutdi. So‘ng Mullanafas oxunni keltirib, Zuhra qizni Tohirga nikohlab berdilar.

Bu zavq-u tomoshalarni podsho eshitib, “Qizim Tohirni unutibdi, Qorabotirga ko‘ngil berdi”, deb gumon etdi va shukrlar aytib, uning to‘yi uchun olti yuz ming tuman bilan kuyovga bir dast shohona libos yubordi. Ularni keltirib, Zuhraning oldiga qo‘ydilar.

Podshoh ham: “Mening qizimning orzuli kunidir, shaharni charog‘on qiling!” — deb buyruq berdi. Shaharni charog‘on etib, faqir-fuqarolarga xazinadan ko‘p-ko‘p xayrlar berdilar. Ular bir-biridan bexabar bo‘lib, to‘qqiz kecha-kunduz xaloyiqqa to‘y berdilar.

Alqissa, bu kecha tong otguncha soz-suhbat qilib, har kas o‘z manziliga ketdi. Mullanafas oxun bilan bog‘bon ham uyiga qaytdilar. Ammo bog‘bonning badbaxtligi, ichi qoraligi avj olib, borib podshoning vaziri Muhammadyoqubxonga bu ishni ma’lum etdi. Muhammadyoqubxon ham podshohga xabar berdi. Podshoh darg‘azab bo‘lib: “Mullanafas oxun bilan bog‘bonni olib keling!” — deb buyruq berdi. Shohning yasovullari darhol ularni tutib keltirdilar. Podshoh g‘azab taxtiga minib, qo‘liga oyboltasini olib, mullaga ko‘zi tushgandan:

— Ey mulla! Oqshom qilgan ishing nima ishdir? Tez xabar ber! — dedi.

Mulla faqirning tili tutilib, javob berolmadi. Shunda ko‘p shumliklarni boshdan kechirgan bog‘bon darrov oldinga chiqib:

— Ey shohi jahonpanoh! Adolatingiz soyasi raiyat boshidan ketmasin! Bir qoshiq qonimizdan kechib, nomayi a’molimizga ato[1] qalamini sursalar (ya’ni gunohimizni kechsalar), bu ishdan men xabar berarman. Mulla oqshom bordi, ertasi qaytdi, ammo men to‘qqiz kecha-kunduz shu to‘y orasida edim, eshitgandan ko‘rgan yaxshiroq biladi, xabarlarni mendan so‘rang, — deb bog‘bon bir so‘z aytdi:

Podshohim, men senga arzim so‘zlayin,
Zuhra qizing hayron bo‘ldi ko‘shkinda.
Tohir kelmish, bugun kimdan gizlayin,
Xaridorin ko‘zin ko‘rdi ko‘shkinda.

Yori bilan suhbat tutib Zuhrajon,
Raqiblar makrinda istayub omon,
Surnay chalib, na’ra qoqib shodiyon,
To‘qqiz kunlab davron surdi ko‘shkinda.

Ul kun ozod etdi ko‘p bandilarni,
O‘ynatdi o‘rtada sharmandalarni,
Yig‘nab baxshi bilan sozandalarni,
Ajab tomoshalar qurdi ko‘shkinda.

Qirmizi kiyinib qaddi bo‘yiga,
Zeb-zevarlar taqib husni ro‘yiga,
Bu kun talon soldi g‘amning uyiga,
Ko‘rgan hayron bo‘lib turdi ko‘shkinda.

Bog‘inda ja’m bo‘lib bir bo‘lak pari,
Sevganiga ro‘mol otar har biri,
Tohir — Zuhrajonni, Zuhra — Tohirini
Olma bilan otib urdi ko‘shkinda.

[1] **Ato** — bag‘ishlov, kechirim.

Pinhon sirin elga ayon ayladi,
Ajab tomoshali zamon ayladi,
Kimni raqib deya gumon ayladi, —
Qarisin, yigitin qirdi ko‘shkinda.

Bog‘bon deyar, Zuhrajonni qursin deb,
Ikki oshiq-ma’shuq safo sursin deb,
Xaloyiqqa to‘y-tomosha bersin deb,
Sizdan xabar so‘rab turdi ko‘shkinda.

Alqissa, bog‘bon so‘zini tamom qildi. Shunda mulla o‘rnidan turib:

— Ey taqsir podshohim! Nikoh qilib, ikki oshiqni bir-biriga topshiramiz deb, siz tomondan bir kishi bordi, shu so‘z bilan nikoh qiydik, sizning so‘zingizni, Allohning farzini, payg‘ambarning sunnatini bajo keltirdik, — dedi.

Podshoh:

— Ey Mullanafas! Siz ham, men ham aldoqqa uchibmiz. Sizning gunohingizni kechdim. Ammo oshiqlarning gunohini kechirib bo‘lmas. O‘ldirarman! — deb qasam ichdi va “Jallod!” deb qiyqirdi. Jallodlar hozir bo‘ldilar.

Podshoh:

— Zuhraning ko‘shkinda Tohir bor emish. Tutib keltiring, uni o‘ldirish kerak! — dedi.

Podshohning yetti vaziri bor edi. Ular, bek va bekzodalar, sipohilar jam bo‘lib, maslahat qildilar, podshohning oldiga o‘zlarini o‘rtaga tashlab:

— Ey shohi olam! Avvalo, bunday ishning bo‘lmagani yaxshi, banogoh bir ish bo‘ladigan bo‘lsa, uni o‘zgartirish — Xudoning taqdirini tabdil etmoq bo‘lar, bu oshiqlarning gunohini kecking! — deb, podshohga tavallo aytib, bir so‘z dedilar:

Ey podshohim, himmatingiz beshumor,
Zuhrani Tohirdan ayirmang zinhor.
Haq ishiga badal etmoq ne darkor?
Tohirni Zuhradan ayirmang zinhor!

Har biri bir Bog‘i Eram gulidir,
Oshiqlar Allohning sevar qulidir,
Sizning bu ishingiz shayton fe’lidir,
Tohirni Zuhradan ayrimang zinhor!

Yoshligidan haq ishiga uchragan,
Maqsadiga yetmoq yo‘liga tushgan,
Ikki guldir bir-biriga chirmashgan,
Buni bir-biridan ayirmang zinhor!

Olti oylab oqib kezdi daryoda,
Yana zulm etarsiz undan ziyoda,
Haqning o‘zi yetkazganda muroda,
Tohirni Zuhradan ayirmang zinhor!

Gumroh bo‘lib qilgan ahding buzarsan,
Xayr bo‘lgan ishni sharga yozarsan,
Qizning nolishiga nechuk chidarsan?
Zuhrani Tohirdan ayirmang zinhor!

Birisin o‘ldirib, birin qo‘yarsan,
Bu ishingdan ko‘p pushaymon yeyarsan,
Qiz o‘zin o‘ldirar, shunda bilarsan,
Zuhrani Tohirdan ayirmang zinhor!

Zuhrajon — ochilgan bir toza guldir,
Tohir — nola qilgan shaydo bulbuldir,
O‘lim loyiq emas bunga, gap shuldir,
Oshiq-ma’shuqlarni ayirmang zinhor!

Alqissa, beklar, sipohiylar so‘zini tamom qildilar. Bu gapga podshohning qahri kelib:

— Men sizlardan bu ishning tadbirini so‘ramasman! Bu so‘zlarni aytganingiz uchun sizlarni ham o‘ldiraman! — deb qahr bilan qichqirgan edi, beklar jon qo‘rquviga tushib, uch marotaba ta’zim qilib:

— Biz tavba qildik! — deyishib podshohning oyog‘iga yiqildilar. Podshoh bularning gunohidan o‘tdi. Beklar o‘z boshlarini qutqarib: “Azal shu qismatga bitilgan bo‘lsa, taqdirdan qutilmoq chorasi yo‘q...” — dedilar.

Podshoh shu g‘azab bilan jallodga: “Tohirni tezdan tez tutib keltiring!” — dedi.

Yasovullar borib, Tohirning qo‘lini orqasiga bog‘lab keltirdilar. Dushmanlar shod bo‘lib, do‘stlar g‘amgin bo‘ldilar.

Shoh g‘azab qilib:

— Ey g‘ulombachcha! Sen mening haramxonamga oyog‘ingni qo‘yib, o‘limdan, zulmdan va mening haybatimdan qo‘rqmadingmi? Alloh taolo senga bundoq navjuvonlik ato qilibdir, bul navjuvonlik bekor ketishidan xavf qilmadingmi? Men sening mayyitingni o‘tda kuydirsam kerak! — deb oyboltasini tovlab, g‘azabga mindi.

Tohir shunda:

— Ey ahmoq, masxara podshoh! Bugun — podshohsan, ertaga — gadosan! Men Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman! — deb, bir o‘z aytdi:

Yo‘qdan bor aylagan qodir Allohdir,
Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman.
Har ne hukm aylasang, hukming ravodir,
Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman!

Xudoning mulkidir suratim, jonim,
Zuhraga qurbondir jon-u jahonim,
Bugun maydon uzra to‘kilsa qonim,
Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman!

Bugun qo‘shildim men Zuhra dildora,
Armonim yo‘q endi chekilsam dora,
Zuhraning yonida qilsang sadpora,
Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman.

Banda qulsan, “Shohman!” deya kezarsan,
Otam bilan qilgan ahding buzarsan,

Xayr deb qilgan ishni sharga yozarsan,
Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman.

Dunyoga keldim-u, shu kun o‘lmisham,
Ishqning savdosiga sarim solmisham,
Qo‘ch[1] qo‘ziman, qurbon uchun kelmisham,
Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman!

“O‘ldirarman!” deb g‘azab-la, so‘zlarsan,
O‘limdan o‘zingni yiroq aylarsan,
Maqsading — o‘limdir, boshqa naylarsan,
Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman!

Tohir aytar, sig‘inmisham Xudoga,
Ishqning shunqoriman, tushdim tuzoqqa,
Qoshiq qonim Zuhrajona sadag‘a,
Allohdan qo‘rqarman, sendan qo‘rqmasman!

Tohirning bu gapini eshitib, shohning g‘azabi avvalgidan ham battar bo‘lib:

— Jallodlar! Bu falokatni o‘ldiringlar! — deb qiyqirdi. Jallodlar xanjarini qo‘llariga olib, shu zahoti Tohirni o‘lim maydoniga olib chiqdilar. Oshiqlarning nolasidan oy-kun tutildi, olam-jahon qorong‘i bo‘ldi.

Tohir aytdi:

— Ey jallodlar! Xudo haqiga bir zamon ta’ammil[2] qilinglar. Zuhrajonning diydorini ko‘rayin, unga bir-ikki og‘iz so‘zim bor!

Shul vaqt Zuhrajon boshiga qora o‘ranib, motam kiyimida bo‘zlab keldi va ma’rakaning ichini yorib kirib:

— Ey yuragimning quvvati, ko‘zning ravshani, tirikligimning sarmoyasi Tohirjon! Mardona bo‘l, bu yo‘ldan qaytmagin, ikkimizning maqsadimiz o‘limga eltar! Shukur, Alloh taolo ikkimizni murodga yetkazdi. Tohirjon, Alloh ikkimizni yoshlikdan oshiq-

[1] **Qo‘ch** — qo‘chqor.

[2] **Ta’ammil qilmoq** — sabr qilmoq, kutmoq.

ma'shuq qilib yaratdi, ko'nglimizga mehr-u muhabbat soldi. Bugun shu ikki oshiqning o'ladigan kunidir. Bugun sen o'lsang, ertaga men o'larman!

Qiyomat kuni Xudo taolo qozi bo'lib, Rasul alayhissalomning shafoati namoyon bo'ladigan dargohda Boboxon bilan hisob-kitob qilamiz! — deb bir abyot aytdi:

Xudoyim yetkazsa maqsad-muroda,
Bugun murodingga yetar kuningdir.
O'zingni topshirib oshiq Farhoda,
Oshiqning yo'lini tutar kuningdir.

O'lsang bugun Boboxonning qo'linda,
Ruhing sayron etar jannat gulinda,
Yorning visolinda, ishqning yo'linda,
Dunyoni bir pulga sotar kuningdir!

Yor, mening yo'limda gar chiqsa joning,
Men sensiz rohatin surmam jahonning,
To'kilsa maydonda qirmizi qoning,
Qon o'rniga sharbat yutar kuningdir.

Biz ketaylik, bunda qolsin Boboxon,
Boboxonga muboh[1] bo'lsin bu jahon,
Mahshar maydoninda qurilsa mezon,
Yoqasini mahkam tutar kuningdir.

Karamayn kotibin[2] yozibdir bizi,
O'yilsin, ko'r bo'lsin otamning ko'zi,
Ro'zi qiyomatda qoradir yuzi,
La'nat toshin unga otar kuningdir.

Otamning jabridan dardim sad hazor,
Qora yuz Cho'moqqa qilsa sazovor,

[1] **Muboh** — joiz, ravo.

[2] **Karamayn kotibin** — ikki yelkadagi farishtalar.

Mozoring yonida yasarman mozor,
Avval navbat — sening o‘tar kuningdir.

Zuhra der, jallodlar kesarlar boshing,
Yo‘qdir mehriboning, qavm-u qardoshing,
Azalda qismatdir, uymagin qoshing,
Rahmat daryosiga botar kuningdir.

Zuhra so‘zini tamom qildi. Zuhrajonning bu muruvvatini eshitib Tohir:

— Ey nozaninim! Sening oldingda o‘lsam, armonim yo‘q, — deb, bir g‘azal aytdi:

Xush qol endi, Zuhrajonim,
Ayro tushding dildor endi.
Behishtim, hurim, rizvonim,
Xora do‘nmish gulzor endi.

Otang g‘azab to‘nin kiyib,
Bizni qilar ko‘zdan g‘oyib.
Yuzing yirtib, soching yoyib,
Sen chekmagil ozor endi.

Tohiring dora chekilar,
Yuraginda o‘t yoqilar,
Maydonda qonim to‘kilar,
Ochilar lolazor endi.

Menga g‘azab qilgan shohdir,
Qismati qodir Allohdir,
Qora yer bir ajdarhodir,
Oxir yutar bu mor endi.

Niqobing chekmagin yuza,
Yosh keltirma qora ko‘za,
Qiyomat kun ikkimiza
Nasib qilsin diydor endi.

Zuhrajon, eshit nolishim,
Ikki dunyoda yo‘ldoshim,
Barjoy bergil ob-u oshim,
Sen bo‘lg‘aysan g‘amxo‘r endi.

Bu maydonda Tohir o‘lsa,
Qorabotir hozir bo‘lsa,
Zuhra bilan o‘ynab-kulsa,
Qachon topay qaror endi?

Tohir aytdi:

— Ey Zuhrajon! Men dunyoda murodimga yetdim. Men o‘limimga qiynalmasman, ammo ayroliqqa kuyaman, men o‘lib, sen Qorabotirning soyasida qolsang, men qabrimda nechuk qaror toparman? Ey mehribonim, o‘lgunimcha menga dildorlik qilding. O‘lganimdan so‘ng ham g‘amxo‘rlik qilasan.

O‘lsam, mayyitimni bajarib, so‘ngra obi-oshimni joba-jo berarsan. Qabrimning boshida oyat, xatmi Qur’on etib, takbir tushirib, oqshomda chiroq yoqarsan. Agar sen g‘amxo‘rlik etmasang, o‘zgalar tamom dushmandir. Yana bir so‘zim bor: Qorabotirga o‘zingni yaqin olma, boshqa gapni endi o‘zing bilasan... — dedi.

Zuhra:

— Tohirjon! Dunyoda menga hazrati Jirjis payg‘ambarning ko‘rgan azobini bersalar-da, bir soat Qorabotir bilan hamsuhbat bo‘lmasman! — deb bir abyot aytdi:

Sen ketarsan, Zuhra bunda qolar deb,
Uning uchun g‘amgin bo‘lma, Tohirjon!
Men ketarman, g‘ayri bunda kelar deb,
Uning uchun g‘amgin bo‘lma, Tohirjon!

Izda qolib, boshqaga dil berar deb,
Kezgan bog‘larimda sayron qilar deb,
Qorabotir bilan o‘ynab-kular deb,
Uning uchun g‘amgin bo‘lsa, Tohirjon!

Tohirim deb, yonib-kuyib o‘tarman,
Firqatingda mudom qonlar yutarman,
Sensiz, yorim, bu jahonni netarman,
Uning uchun g‘amgin bo‘lma, Tohirjon!

Men yetmasam sening kabi yorima,
Xazon tegsin bu bog‘chayi norima,
Shartim shudir, tig‘ sanchilsin bag‘rima,
Uning uchun g‘amgin bo‘lma, Tohirjon!

Zuhra aytar, bir iqrorda turarman,
Sendan qolib, qayda davron surarman,
Bugun ketsang, ertaga men borarman,
Uning uchun g‘amgin bo‘lsa, Tohirjon!

Zuhra so‘zini tamom qildi. Tohirbek Zuhraning ko‘nglini bilib, ko‘p rozi bo‘lib:

— Ey Zuhrajonim, qiyomatga qadar sendan roziman, Alloh yoring bo‘lsin! — deb bir abyot o‘qidi:

Men qadam qo‘yarman oxirat sari,
Nozaninim, Zuhrajonim, qol endi!
Raqiblar ayirdi chin oshiqlari,
Shirin so‘zim Zuhrajonim, qol endi.

Jallodlar kelibdir jonim olmoqqa,
Raqiblar kelibdir o‘ynab-kulmoqqa,
Men kelmisham bu maydonda o‘lmoqqa,
Sen salomat, Zuhrajonim, qol endi.

Qo‘linda xanjari, jallodlar keldi,
Qotili xunxorlar tegramni oldi,
Aziz tanim qirmiz qonga bo‘yaldi,
Yig‘lamagin, Zuhrajonim, qol endi.

Vasiyatim, arzim senga, Zuhrajon,
Qora ko‘zdan yoshing to‘kmagil har on,

Armonim yo‘q bo‘lsam boshingda qurbon,
G‘am yemagin, Zuhrajonim, qol endi.

Nozanin yigitlar, teng-u to‘shlarim,
Yigitlar hamrohi, parivashlarim,
Qadrdon do‘stlarim, qavm-u xeshlarim,
Yig‘lamagin, Zuhrajonim, qol endi.

Yig‘lama, seviklim, davron kunidir,
Maydonda oshig‘ing, mardon kunidir,
Bugun bizga iydi qurbon kunidir,
G‘amgin bo‘lma, Zuhrajonim, qol endi.

Yuzing yirtib, sen sochingni yoymagin,
Tohirning bag‘rinda dog‘lar qo‘ymagin,
“Yorim o‘ldi...” deb, sen g‘amlar yemagin,
Alloh — yoring, nozaninim, qol endi!

Alqissa, jallodlar Tohirning etagidan kesib, ko‘zini bog‘lab, bo‘yraning ustida o‘tirg‘izib, shohdan ruxsat kutib turdilar. Shu vaqt Zuhra qiyqirib:

— Ey xaloyiq, oshiqlarga uch kun fursat berilsin! — dedi. Xaloyiq hammasi: “Oshiqlarga uch kun fursat berilsin!” deb arz qildilar. Shohdan uch kunga ruxsat degan xabar keldi. Zuhra kanizlari bilan Tohirni ko‘shkiga olib ketdi. Ikki oshiq bir yerda qaror topib, dardi hol aytishdilar.

To‘rtinchi kuni Zuhra Tohirga shohona liboslar kiydirib, boshiga toji murassa’[1] qo‘yib, beliga zarrin kamar bog‘lab, g‘ulpoqlariga tilla shona urib, yuziga gulob sepib, bezab, maydonga olib chiqdi. Ko‘rar bo‘lsang — ikki oshiqning yuzi oy kabi shu’la sochib, qorong‘i kechani munavvar qilar edi. Ko‘rgan odam hayron bo‘lib, barmoqlarini tishlab turar edilar. Xalqning katta-kichik barchasi: “Iloho, Tohirga najot ber!” deyishib, oh-u zorlar chekib turar edilar. Zuhra faqirning: “Balki, shunday ko‘rki uchun shoh Tohirni o‘ldirmas”, — degan fikr ko‘ngliga kelib, maydonda

[1] **Toji murassa’** — bezatilgan toj.

Tohirning qo‘lidan tutib turar edi. Shu payt shoh jallodlari bilan kelib:

— O‘ldiring!! — deb ishorat etdi. Jallodlar kelib, Tohirni Zuhradan olib (ajratib), qatl maydoniga keltirdilar. Zuhrajon o‘tga tushgan parvonaday bo‘lib, otasining oyog‘iga o‘zini tashlab, yolvorib:

— Meni o‘ldir, yorimni ozod qil! — deb bir g‘azal aytdi:

Shoh bobom, arzimni bayon qilayin,
Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin!
Tohirning boshiga qurbon bo‘layin,
Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin!

Avvalboshdan Alloh yaratdi bizni,
Bohir bilan iqror etding shu so‘zni,
So‘ng ajratmoq bo‘lding ikki yulduzni,
Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin!

Iltimos qil otamdan mehribon onam,
Kecha-kunduz ishq o‘tida o‘rtandim,
Tohirda ne gunoh, gunohli men ham,
Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin!

Men bunda qolmasman, o‘zim bilaman,
Xanjar bilan qora bag‘rim tilaman!
Tohirni o‘ldirsang, men ham o‘laman,
Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin!

Bugun bosh qo‘ymisham ishqning yo‘liga,
Nazar etmay bu dunyoning moliga,
Yordan avval tushsam ajal qo‘liga,
Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin!

Bog‘bon qo‘lin olma-nordan ayirma,
Bulbul yuzin guluzordan ayirma,
G‘azab bilan meni yordan ayirma,
Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin!

Mening yorim Bohir vazir o‘g‘lidir,
Shoh zulmidan siynalari dog‘lidir,
Zuhra bilan bir iqrorga bog‘lidir,
Meni o‘ldir, yorim ozod aylagin!

Alqissa, Zuhrajon so‘zini tamom etdi. Tohir:

— Ey, Zuhrajon, nomardga bo‘yningni burma. Taqdirga chora bo‘lmas, — dedi. Shu payt shoh jallodlarga ko‘zi bilan imladi. Jallodlar Tohirni qatl etdilar.

Tohirning har qatra qonidan “Zuhra!” degan ovoz chiqar edi, so‘ng har qatra qoni qizil gul bo‘lib ochildi, xaloyiq hayron bo‘lib qoldi.

Zuhra faqir qarasa, ish bitibdir. O‘zini mayyit ustiga tashlab, behush bo‘ldi. Kanizlar ikkisining ham ustiga parda tutib, el-ko‘zdan yashirdilar. So‘ngra yurt o‘g‘li bo‘lib, tobutni ko‘tardilar.

Shunda Zuhra o‘ziga kelib:

— Xaloyiq! Nari turing, nomahramsiz! — dedi va qirq kanizga yuzlanib:

— Tohirni ko‘taring! — deb farmon berdi. Barcha qizlar yig‘lashib, faryod qilib, Tohirni ko‘tarib ko‘shkka keltirdilar. Unga oltin-zarbofdan kafan bichdilar, ustiga ming besh yuz tumanlik kirmoni sholdan o‘rtuk[1] qildilar. Olti ming tuman xarj etib, shahar tashqarisida bir gumbaz (maqbara) bunyod qildirdilar. Zuhra qiz xazinaning og‘zini ochib, qirq botmon oltin-kumush olib: “To gumbazga borguncha, bularni Tohirning ustidan sochinglar”, — deb Gavharga berdi.

So‘ng shaharning barcha xalqi to‘planib, yigirma olti ming odam bo‘lib, Tohirga janoza o‘qidilar. Undan so‘ng Tohirning ustidan siym-u zar sepdilar. Bir necha qorilar oyat o‘qib, devonalar “yohu, Haq do‘st!” deb, darvishlar zikr-u sano aytib, shayxlar nolish qilib, maddohlar g‘azal o‘qib, necha teng-to‘sh yigitlar, necha kelinqizlar qabr boshiga borib, Tohirning ustiga yuz tumanlik mushkanbar sepib, uni qabrga joyladilar. Shu ma’rakada Mullanafas ham bor edi.

---

[1] **O‘rtuk** — ko‘rpa, choyshab.

U aytdi:

— Ey xaloyiq, bo‘sh ketmanglar, har kim shahidning kiyimidan yo uning ustiga yopilgan narsadan bir ip olsa, unga do‘zax o‘ti haromdir, — dedi. Tohirning ustiga yopilgan narsalarni el-yurtga tarqatib, Zuhra xalqqa javob berdi, o‘zi qirq kanizi, uch yuz qori bilan ul yerda qoldi. Bu kecha tong otguncha, o‘sha yerda bo‘ldilar. Undan so‘ng Zuhra uch kun ichida Tohirning hamma ma’rakasini o‘tkazib, osh-suvini berib, ko‘shkiga keldi. Bog‘ini va ko‘shk-asbobini kanizlariga ulashdi. Undan qora chodirini boshiga burkanib, qora kiyinib, Tohirning qabrini ziyorat qilishga ketdi. Buning ko‘zining yoshidan yurgan yo‘llari ho‘l bo‘lib borar edi. Shu payt enasi yugurib izidan yetib:

— Ey bolam, o‘lgan odamning izidan o‘lmoq bo‘lmas. O‘lgandan foyda yo‘q. Tiriklarga xizmat qil, o‘lik arslondan tirik sichqon yaxshidir! Qorabotir o‘zingning qarindoshing, unga ko‘ngil ber, — deb nasihat qildi.

Zuhra:

— Ey ona, oyog‘ingni go‘rga tiqib o‘tiribsan, bunday so‘zlarni aytishga nechuk og‘zing bordi? — deb bir abyot o‘qidi:

Onajon, aytmagin bunday so‘zingni,
Men va’damga vafo qilmasam bo‘lmas,
Aytganing rost bo‘lsa, ko‘rmay yuzingni,
Tohirning izinda o‘lmasam bo‘lmas.

Xudoyim aylasa lutf-u inoyat,
Tohirning ruhiga xatm etib oyat,
Yorimning qabrini aylab ziyorat
Ul yerda losh bo‘lib qolmasam bo‘lmas.

Endi mening rahmim kelmas bu jona,
Bu ishlar bizlarga bo‘ldi bahona,
Jonimni topshirib qodir subhona,
Jasadim tuproqqa solmasam bo‘lmas.

Toleyim ters keldi, iqbolim sindi,
Ajal soqiy bo‘ldi, sharobin sundi,

Yorning xumorindan oyildim[1] endi,
Xazon urgan guldek so‘lmasam bo‘lmas.

Zuhra aytar, shirin jonim demasman,
O‘lsam ham Tohirdan umid uzmasman,
Yor unda, men bunda yig‘lab kezmasman,
Borib yor qabrinda qolmasam bo‘lmas.

Alqissa, Zuhra so‘zini tamom qildi. Onasi har qancha tavallo qilmasin, tavallosini olmadi. Shunda onasi dedi:

— Ey qizim, agar yuz kun yolvorsam ham mening aytganlarimni qilmas ekansan, sening ishingga chora topolmadim. Ey qo‘zim, rostini aytsam, seniki to‘g‘ridir, sening yo‘ling haqdir. Tohir sening yo‘lingda o‘ldi. Sen ham uning yo‘lida o‘lsang kerak. Endi qolganini o‘zing bilasan, — deb yig‘lab, uyiga qaytdi. Zuhrajon ham qabrga ziyoratga jo‘nadi.

Endi xabarni Qorabotirdan so‘rang. U bog‘ning kanorida bukilib, Zuhraning o‘tar yo‘lini poylab turar edi. Birdan Zuhraning kelayotganini ko‘rib oldinga chiqdi. Ammo Zuhra buning nima xayolda kelayotganini bilmadi. Shu payt Qorabotir Zuhraning oldiga kelib, ta’zim-tavoze bilan arzihol so‘rab, Zuhraga qarab besh kalima so‘z aytdi:

Zuhrajon, arzim bor, nedir gunohim,
Holimdan bir xabar olsang ne bo‘ldi?
Menga rahm ayladi karamli shohim,
Bu holimdan xabar olsang ne bo‘ldi?

Men sening ishqingda qaynabon toshib,
Sen yuribsan raqiblarga bosh qo‘shib,
Ag‘yordan ayrilib, xilvatga tushib,
Oq qo‘ling bo‘ynimga solsang ne bo‘ldi?

Men oshiqman sening kabi jonona,
Kunda yuz o‘rtarsan qasd etib jona,

[1] **Oyildim** — hushimga keldim.

Qoshingdan quvlarsan topib bahona,
Otang bergan pandin olsang ne bo‘ldi?

Lochindek termilib, har yona boqib,
Kokiling shonalab, qaddinga to‘kib,
Qizlarga bosh bo‘lib, sayrona chiqib,
Qoshimda o‘ynabon-kulsang, ne bo‘ldi?

Tohirim ketdi deb tilga keltirma,
Xush kuningni hasrat bilan o‘tirma,
Qora kiyib, g‘amgin bo‘lib o‘tirma,
Qorabotir ko‘nglin olsang ne bo‘ldi?

Alqissa, Qorabotir so‘zini tamom qilib:

— Ey Zuhrajon, men faqirga ham rahm et! Men ham sendan umidvor bo‘lib, kecha-kunduzimni oh-u zorda o‘tkazaman, — dedi. Zuhra buning turishidan qo‘rquvga tushib, “bu badbaxt birdan menga qo‘lini tekkizib, beobro‘y qilmasin!” deb, xavflanib, Qorabotirni qaytarish fikri bilan bo‘lib:

— Ey botir, endi men seniki bo‘ldim. Ammo Tohir ham mening yo‘limda ko‘p zahmatlar chekkan o‘g‘londir. Sen ko‘p shoshilma, uning osh-suvini berib, o‘zimni motamdan chiqarayin, so‘ngra davronni sen bilan surayin, sen, axir, mening asl qarindoshimsan-ku, sen to‘y anjomlarini tutaver, endi davron sening qo‘lingga o‘tdi, — dedi.

Bu gapga Qorabotir ishonib, kayfi ko‘k bo‘lib, borib Zuhraning otasiga:

— Podshohi olam, qizingizning avvaldan bizga ko‘ngli bor ekan, — dedi. Podshoh ham xushvaqt bo‘ldi.

Zuhrajon Qorabotirni hiyla bilan yuborib, kanizlariga qarab bir so‘z aytdi:

Gulzoda, Gavharim, eshit so‘zimni,
Nolalar chekarman yorning yo‘linda.
Tohir uchun barbod qilib o‘zimni,
Jigarim yoqarman yorning yo‘linda.

Oshiqlikda ochilmadi chiroyim,
Ketdi yorim, endi kimdan so‘rayin,
Bugun jon uyini — jismim saroyin,
Qasd etib yiqarman yorning yo‘linda.

Magar shundan avval olsa jonimni,
Kul etarman yoqib ustuxonimni,
Yor qabriga borib, qirmiz qonimni
Suv kabi to‘karman yorning yo‘linda.

Otam g‘amga soldi ojiz boshimni,
Sel kabi oqizdi qonli yoshimni,
Jonim barbod qilib, aziz loshimni
Itlarga berarman yorning yo‘linda.

Zuhra aytar, qora baxtim qorardi,
Qorabotir menga xaridor erdi,
Tohirjonim mening uchun jon berdi,
Dunyodan chiqarman yorning yo‘linda.

Zuhra so‘zini tamom etib:

— Ey qizlar, yig‘i bilan bir ish bitmas, yuringlar, Tohirbekning qabrini ziyorat qilaylik, — deb kanizlari bilan qo‘shilib, maqbaraga ketdi. Ular ziyorat etib, qabrning boshinda ancha vaqt yig‘lashib qaytdilar.

Zuhra qiz ro‘molini qabr boshida yashirib qoldirdi. Zuhrajonning ishi yig‘lamoq edi, yo‘lda ham yig‘lab boshladi. Ammo ro‘molini olib, ko‘zining yoshini artaman desa, ro‘moli yo‘q... “Mening ro‘molim qani?” degandan so‘ng, qizlarning har biri har tomonga ro‘molni izlab ketdi. Zuhra ham yana maqbaraga qarab yurdi.

Uning belida bir xanjari bor edi, shuni sug‘urib oldi-da, kalimayi shahodatni o‘qib, xanjar dastasini pastga qaratib, tig‘ini yuqoriga qaratib, “Ey Tohirjon, menga yolg‘on dunyo kerak emas, sening diydoring kerak!” deb xanjarning ustiga o‘zini tashladi — xanjar yuragidan kirib, orqasidan chiqdi. Gul tani qonga bo‘yaldi — joni jannatda Tohirbek bilan qovushdi...

Kanizlar u yoq-buyoqni qarab ro‘molni topmay, yana Zuhraning yoniga qaytdilar. Qarasalar, Zuhra qonga bulg‘onib yotibdi. Qizlar yig‘lab, unga motam tutdilar. Bir kanizni shohga jo‘natdilar. Kaniz borib:

— Qizingiz jannatga vosil bo‘ldi... — deb shohga xabar berdi. Podshoh bu xabarni eshitib, behush bo‘lib yiqildi.

Podshoh hushiga kelib, o‘rindan turmoqchi bo‘ldi. Vazirlarning har biri uning qo‘ltig‘iga kirib, uni ko‘tardilar. “Oshiqlar shunday ish qilibdilar” deb, hayron qoldilar, ba’zilar xafa bo‘lmay, “barakalla!” deb yubordilar. Zuhraning jasadini Tohirbekning yoniga qo‘ydilar. Shu payt Boboxon keldi. Ko‘rsa — qizi qonga bo‘yalib yotgan ekan, shoh yonboshiga uch marta urib, “Vo hasrato! Vo nadomato! Bundoq ish bo‘lishini bilmadim!” deb, otidan otilib tushib, Zuhrani quchoqlab, behush bo‘lib yiqildi. Uni hushiga keltirdilar.

Shoh shu holda zor-zor yig‘lab, bir abyot aytdi:

Vo hasrato, ayro tushdim,
Toparmanmi, bolam, seni!
Naylayin, yondim, tutashdim,
Toparmanmi, bolam, seni!

Inondim raqib so‘ziga,
Zor bo‘ldim qadam to‘ziga,
Yuzim qo‘ysam gul yuzingga,
Toparmanmi, bolam, seni!

Havas etdi yaqin-yotim,
Qurisin Boboxon otim.
Yig‘latdim ikki zuryodim,
Toparmanmi, bolam, seni!

O‘pib otim oyog‘idan,
So‘zladi dardi dog‘indan,
Zuhrajon uchdi bog‘indan,
Toparmanmi, bolam, seni!

Qoralar cheking yuzima,
Zulm ayladim o‘z-o‘zima,
Jabr etdim yakka qizima,
Toparmanmi, bolam, seni!

Haq oshiq ekan, bilmadim,
Rahmat nazarin solmadim,
Va’daga vafo qilmadim,
Toparmanmi, bolam, seni!

Zuhrajon, qaydasan, qayda?
Otang bo‘lsin senga banda.
Yig‘larman umrim o‘tganda,
Toparmanmi, bolam, seni!

Tavallo etdi termilib,
Rahm etmadim bag‘rim erib,
Endi qolmisham sarg‘arib,
Toparmanmi, bolam, seni!

Boboxon, yonib so‘zlasam,
Ketgan yo‘limni ko‘zlasam,
Yorug‘ jahonni izlasam,
Toparmanmi, bolam, seni.

Boboxon so‘zini tamom etdi. Shu payt yetib kelgan Zuhraning onasi sochini yoyib, bag‘rini poralab, ko‘zidan yosh oqizib:

— Vo hasrato! Zuhrajondan ayrildim! — deb Zuhraning ustiga o‘zini tashlab, qizini quchoqlab, behush bo‘lib yiqildi. Bir zamondan so‘ng hushiga kelib, ko‘ksini ko‘ksiga qo‘yib: “Ey farzandim, jig‘arbandim!” — deb zor-zor yig‘lab, bir abyot o‘qidi:

Notavon farzandim, aziz chirog‘im,
Armon bilan g‘arib o‘lgan Zuhrajon!
Raqiblar makridan sindi butog‘im!
Ishq yo‘lida shahid o‘lgan Zuhrajon!

Xanjar bilan qora bag‘rin chok etib,
Tamom a’zolarin dardnok etib,
Ishq yo‘linda aziz jismin xok etib,
Yorim deya g‘arib o‘lgan Zuhrajon!

Do‘stlarin yig‘latib, yovni kuldirib,
Dushman hiylasiga aqlin oldirib,
Otasi sababli o‘zin o‘ldirib,
Yorim deya g‘arib o‘lgan Zuhrajon!

Men otangga aytgan edim bu dardi,
Anglamadi, boshqa yoqqa yuz burdi,
Sendan bezdi, raqiblarga dil berdi,
Bir g‘amxo‘rsiz g‘arib o‘lgan Zuhrajon!

Yor deya dunyoning zavqindan kechib,
Har kimga termilib, ko‘z yoshin sochib,
Tohirjon deb, oxir qora yer quchib,
Ishq yo‘lida g‘arib o‘lgan Zuhrajon!

Podshoh bo‘lar g‘ariblarning panasi,
Qizina qasd etdi, nedir gunosi?
Menman Zuhra qizning g‘arib onasi,
“Enam!” deya g‘arib o‘lgan Zuhrajon!

Alqissa, onasi “Zuhraning o‘rniga men o‘lsam bo‘lmasmidi?” — deb ko‘p yig‘ladi.

So‘ng podshoh arkoni davlati bilan maslahatlashib, Tohirning gumbazi yonida yana bir gumbaz qurdirib, ichiga qandillar ostirib, qorilarni qabr boshida o‘tirg‘izib, Qur’on o‘qittirdi. Zuhrani shunga dafn qildilar.

Endi so‘zni Qorabotir lashkarboshidan so‘rang. Qorabotir o‘zida bor pulni xarjlab, do‘stlaridan ham olti ming tuman pul qarz olib, to‘y tadorigini boshlagan edi. Ammo bu voqealarning chindan ro‘y berganini eshitib, yuragiga tosh urib yig‘ladi. Borib ko‘rsa, Zuhra bilan Tohirning har biri bir mozori sharif bo‘lib yotibdir.

Har mozordan bir qizil gul o'sib chiqib, ikkovlon osmonga chirmashib ketibdir. Qorabotir buni ko'rib, o'ziga xijolat berib (o'zini uyaltirib): "Ey Qora! Sen Zuhra bilan Tohirning bir yerda kezganini ko'rib qizg'anar eding, mana endi ikkisini yana bir yerda ko'ryapsan. Bu ko'rganingdan o'lganing yaxshi emasmi?" — deb Zuhraning mozoriga xanjarini o'rnatib, o'zini uch marotaba xanjarning ustiga toshlamoqchi bo'ldi, ammo yuragi qiymadi. Shu yerda bir yoshulli odam bor edi. U odam dedi:

— Ey Qorabotir! Sen ham o'zingni oshiqman deb hisoblab, bu yotgan oshiqlarga bir soat ham rohat kun ko'rsatmading! Bular bir-biri uchun jonini fido qildilar. Barakalla! Joning bunchalar shirin ekan! — dedi.

Qorabotir bu xijolatli so'zni eshitib, ko'zini yumib, o'zini xanjarning ustiga tashlab, jon berdi. Qorabotir o'lmasidan avval: "Mening jasadimni Tohir bilan Zuhraning orasiga joylanglar", — deb vasiyat qilgan edi. Qorabotirni vasiyatiga ko'ra ikki oshiqi pokning qabri orasiga joyladilar.

Allohning qudrati bilan Qorabotir mozori ustidan bir itgizgan[1] daraxti o'sib chiqdi va ul daraxt Zuhra bilan Tohirning mozoridan o'sib chiqqan gullarga yetib, ozor berar, gullarning yaproqlarini pora-pora etardi.

Qorabotirning qabrlar orasiga qo'yilgani uchun Zuhraning ruhi norozi bo'ldi va Boboxon uxlab yotganida tushiga kirib, unga yuzlanib, shu g'azalni aytdi:

Bizga zolim, elga mehribon shohim,
Dunyoda zulmingga duchor aylading,
Men senga ne qildim, nedir gunohim?
Qizingni o'zingga ag'yor aylading.

Bu dunyodan oxiratga otildim,
Falak bilan nard o'ynadim — yutildim,
Hursandman jabringdan qochdim, qutuldim,
Yana bizga bunda ozor aylading.

[1] **Itgizgan** — daraxt nomi.

Malham bo‘lmay raqib qo‘ygan yaraga,
Bermoq bo‘lding meni o‘sha Qoraga,
Ul dunyoda Qora tushdi oraga,
Yana ora yerda mozor aylading.

Qahr etib ayirding yorindan yorin,
Ustimizga qurding o‘lim bozorin,
Ko‘rsatmading bir-birovning diydorin,
Yana bizni orzu diydor aylading.

Rahmat istab, o‘pdim poying gardindan,
Oqtirding, quvlading yorni yurtingdan,
Hech yerda tinmadim sening dardingdan,
O‘zing ishratingda qaror aylading.

Unda qolding oshiqlarning qonina,
Munda o‘tlar solding shirin jonina,
Zuhra aytar, keldim, ota, yoningga,
Armonim ko‘p, so‘zim izhor ayladim.

Podshoh Zuhraning so‘zini eshitib seskanib uyg‘ondi. Xizmatkorlariga:

— Ot tayyorlanglar, — deb buyurdi. Otni hozirladilar. Podshoh otlanib, vazirlari bilan qabr boshiga bordi. Ko‘rsa, Tohir bilan Zuhraning har birining qabrining ustidan bir gul chiqib, osmonda chirmashibdilar, har gulning boshida bir bulbul bor. Ammo Qorabotirning qabri ustidan bir itgizgan daraxti ko‘karib, gullarga yetib, yaproqlariga ozor beradir. Itgizgan ustida bir boyqush faryod urib qiyqiradir.

Podshoh bularni ko‘rib hayron qoldi va: “Qorabotir bilan bularning dushman ekanligiga mana bugun tushunib yetdim!” deb, darhol uning mozorini yiqdirib, jasadini sudratib chiqarib, boshqa bir maydonga ko‘mdirdi. Ikki katta anhorni va Zuhraning bog‘ini oshiqlar yo‘liga deb vaqf yerlar qilib belgiladi. Ularning qabrlarining ustida olti yuz qur’onxon (duogo‘y) qo‘yib, maosh belgilab qo‘ydi.

Endi xabarni Mohim qizdan eshitmoq kerak.

Mohimjon bir kecha yotganida tushida bir ruhi pok ko‘rinib: “Ey Mohimjon! Bizning boshimizga ulug‘ bir ish tushibdir”, — dedi. Mohimjon qichqirib uyg‘ondi. Buning qichqirig‘iga kanizlar yig‘ilishib:

— Ey Mohimjon! Nima ahvol ko‘rding? — deb so‘radilar. Mohimjon yig‘lab, yuragini dog‘lab, bir so‘z aytdi:

Ey mehribonim, yo‘ldoshim,
Toparmanmi, yorim, seni?
Qurbon qilay molim-boshim,
Toparmanmi, yorim, seni?

Ishqingda men bo‘ldim g‘arib,
Ham za’faronday sarg‘arib,
Tun kechalarda axtarib,
Toparmanmi, yorim, seni?

Ey nozanin, siymin badan,
Jon ketdi, bunda qoldi tan,
Ey himmati oliy ko‘han,
Qaydan topay, yorim, seni?

Har lahza men qildim havas,
Bo‘lsam yana bir hamnafas,
Ey qodiri faryodras,
Qaydan topay, yorim, seni?

Bechorayi miskin bo‘lib,
Yo‘llar boshinda termilib,
Har dam yurakda oh urib,
Qaydan topay, yorim, seni?

Bir bulbuli nolayi zor,
Ber hojatim, Parvardigor,
Bo‘ldim yo‘linda intizor,
Qaydan topay, yorim, seni?

Ey shami anvor vaz-zuho!
Ey hodiyi nuri hido,
Ey gulshani bodi sabo,
Qaydan topay, yorim, seni?

Mohim aytar, ey sarvi bo‘y,
Nola qilaman misli nay,
Orzuda man, husning ko‘ray,
Qaydan topay, yorim, seni?

Alqissa, Mohimjon so‘zini tamom qildi. Gulzoda kaniz Mohimjonning nolishiga toqat qilolmay, bir g‘azal aytdi:

Bu kecha ne voqe kechdi boshingdan?
Xabar bering, Mohim gulim, ne bo‘ldi?
Qirq kanizing qurbon bo‘lsin qoshingdan,
Xabar bergin, Mohim gulim, ne bo‘ldi?

Olam kuyar nolishingdan, zoringdan,
Uchirding bulbulni guluzoringdan,
Ne xabar eshitding sevar yoringdan,
Xabar bergil, Mohim gulim, ne bo‘ldi?

Yo ahvol ko‘rdingmi — Tohir o‘ldimi?
Yo sarg‘ayib gulday yuzi so‘ldimi?
Yoki ojiz ko‘ngling mendan qoldimi?
Xabar bergin, Mohim gulim, ne bo‘ldi?

Shum ayroliq yeli har yon esibdir,
Yoki shundan g‘am-qayg‘ular bosibdir,
Oh-u nolang qora bag‘rim kesibdir,
Xabar bergin, Mohim gulim, ne bo‘ldi?

Qayg‘u-g‘amdan o‘zing bezor aylagil,
Kanizlarga kulib, guftor aylagil,
Gulzodaga so‘zing izhor aylagil,
Xabar bergil, Mohim gulim, ne bo‘ldi?

Mohim qiz Gulzodaga javob berib, bir g‘azal aytdi:

Yotganimda yomon bir ahvol ko‘rdim,
Oshiqlar ko‘zimga ayon ko‘rindi,
Yorildi yuragim, seskanib turdim,
Ko‘zimga bir ruhi ravon ko‘rindi.

Tohirni ko‘rmisham saharning chog‘i,
Dor ostida ko‘rdim, bo‘yninda bog‘i,
“Mohimjon!” deb yig‘lar, bag‘rinda dog‘i,
Oshiqlarga oxirzamon ko‘rindi.

Zuhra qiz deydilar bir pari paykar,
Qora kiymish o‘z bo‘yiga barobar,
Bag‘riga xezlanar qo‘linda xanjar,
“Tohir!” deb ko‘zlari giryon ko‘rindi.

“Tohir!” deb yig‘lashar yurt o‘g‘li chandon,
Magar Tohir o‘lmish yo joyi — zindon,
Jallodlar jam bo‘lib, charx urib har yon,
Oshiqlar ustinda tuman ko‘rindi.

Mohim aytar, Zuhrajonni ko‘rmisham,
Parishon holindan xabar so‘rmisham,
Dedi: “O‘z bag‘rima xanjar urmisham”,
Yurakda o‘t, bag‘rinda qon ko‘rindi.

Mohimjon so‘zini tamom qilib:

— Ey Gulzodajon! Meni bir necha vaqtdan beri battar g‘am bosar, tushimda ko‘zimga bir ruhi pok ko‘rinadi. O‘zi zulm ostida, kelib bo‘ynini burib: “Boshimizga ish tushdi, tezroq kel!” deb uxlatmaydi. Men bilmadim, bu Tohirning ruhimi, yo g‘ayri bir ruhi pokmi? Agar oshiqlar o‘lgan bo‘lsalar, xizmatlarinda bo‘lsam, — dedi va xazinada bor pulini sandiqqa solib: “Bir sardor topib, ot-yaroq anjom etib, yo‘l hozirligini ko‘ring!” deb, kanizlariga amr etdi.

Bu xabar Mohimjonning otasi Odilshohga yetdi. Odilshoh vaziri bilan otlanib, Mohimning oldiga kelib:

— Ey qizim! Zaifalarga safarkashlik (yo'lga chiqish) nomuborak bo'lar, — deb bir so'z aytdi, Mohim ham javob berib turdi:

Odilshoh:
O'lganlarning izinda o'lmoq bo'larmi?
Mehribonim, sevar qo'zim, qayt endi!
Tatar ketsang, qaytib kelmoq bo'larmi?
Ko'ngil hushim, ko'rar qo'zim, qayt endi!

Mohim:
Odil bobom, menga ruxsat bergaysiz,
Borib Tohirimni ko'rmasam bo'lmas!
Ka'bam — siz, qiblam — siz, birga yurgaysiz,
Boshim ul do'kona urmasam bo'lmas!

Odilshoh:
Ko'zingga ko'ringan ul ruhi pokdir,
Zuhrajon yoninda tuproqdir, xokdir,
Yo'llar ko'p yiroqdir, ko'rmoqlik yo'qdir,
Mohimjonim, sevar qo'zim, qayt endi!

Mohim:
Oyim tutilgandir, kunim yashringan,
Aqlim choshib ketdi hijron dardindan,
Tohirning boshiga ko'p ishlar mingan,
Borib, xizmatinda turmasam bo'lmas.

Odilshoh:
Zuhra nobud bo'lmish shohning qahrinda,
Ajdarning og'zinda, ilon zahrinda,
Senga hamdam ko'pdir Bag'dod shahrinda,
Mehribonim,
Mohimjonim, qayt endi!

Mohim:
Bunday so‘zlar qurma, bobo, tillarda,
Jonim chiqib, loshim qolsin cho‘llarda,
Suyaklarim nishon bo‘lsin, yo‘llarda,
Tohir deb, bu yo‘lda o‘lmasam bo‘lmas!

Odilshoh:
Yurtning shohi menman, olamga xonman,
Keltiray Tohirni, hukmi ravonman,
Qayt yo‘ldan, sen uchun bir mehribonman,
Ko‘rar ko‘zim, sevar qo‘zim, qayt endi!

Mohim:
Bag‘dodda bir kimsa eshitmas so‘zim,
Yordan ayri za’farondir gul yuzim,
Jasadim kul bo‘lsin, ko‘r bo‘lsin ko‘zim!
Men ham ular kabi bo‘lmasam bo‘lmas!

Odilshoh:
Odilshoh der, tutgil mening so‘zimni,
Sening uchun barbod etay o‘zimni,
Qizim, Tatar tomon tutma yuzingni,
Yurgin Bag‘dod sari, qo‘zim, qayt endi!

Mohim:
Mohim aytar, yor eshitsin nolishim,
Yorim ne kulfatda, g‘ofildir boshim,
Ko‘rar ko‘zim, mehribonim, yo‘ldoshim,
Hollarindan xabar olmasam bo‘lmas!

Bular so‘zlarini tamom qildilar. Shu payt kunchiqar tomonda bir gard (to‘zon) paydo bo‘ldi. Ko‘rsalar — karvon ekan. Mohim qiz: “Mening Tohirim tarafindan kelayotgan karvondir”, — deb borib karvonning oldidan chiqdi, karvonboshiga salom berdi. Karvonboshi alik oldi:

— Ey mohiro‘y, nima xizmat bor? — dedi. Shunda Mohim qiz yig‘lab, karvonboshidan xabar so‘rab, bir abyot aytdi:

Xabar ber, karvonlar, qaydan kelarsiz?
Meni cho‘x yerlardan xabardor aylang.
Tohirjondan xabar so‘rasam, bilarsiz?
Xazon urgan ko‘nglim lolazor aylang.

Cho‘x hayron bo‘lmisham bir yor ishqindan,
Sargardonlik raqiblarning rashkinda,
Ne xabar bor Zuhrajonning ko‘shkinda?
Menga rost so‘zlardan e’tibor aylang.

Yorim ketdi bunda qoldim sargardon,
Ko‘nglim orzu aylab, ko‘zlarim giryon,
Shirin jonim qilay yo‘linda qurbon,
Mening bu so‘zlarim e’tibor aylang.

Rostin so‘zlab, xabar aytsang o‘zindan,
Aylanarman yorni ko‘rgan ko‘zingdan!
Shod-xushnud aylagin shirin so‘zingdan,
Yoki bundan battar beqaror aylang!

Zuhram deya ketdi Bag‘dod yurtindan,
Ko‘zlarimga surtsam poyi gardindan,
Mohim o‘lsa kerak aning dardindan,
Yo o‘ldi degaysiz, yoki bor aylang!

Mohim so‘zini tamom qildi. Karvonboshi ham Mohim qizga qarab, bir so‘z aytdi:

Bizni so‘rsang, shahri Tatar yurtindan,
Karvonlarim azmi-sayron ayladi.
Qirq kun bo‘ldi, ayroliqning dardindan,
Barchalarning aqlin hayron ayladi.

Zuhrajon deyarlar, Boboxon qizi,
Parishon kokilli, parizod o‘zi,
Zar-u zarbof kiygan, to‘ni qirmizi,
Ko‘rganlarning ko‘zin giryon ayladi.

Zuhra otlig‘ nozanin qiz bor edi,
Bohir o‘g‘li Tohir intizor edi,
Bir-birlarining diydoriga zor edi,
Biroz mahal bazmi davron ayladi.

Shoh Tohirni “o‘ldiring!” deb buyurdi,
O‘lmay turib senga salom yubordi,
Ul kun xarob bo‘ldi Tatarning yurti,
Yurt “O‘g‘lim Tohir!” deb afg‘on ayladi.

To‘qqiz kunda Zuhra chiqdi maydona,
Jayron kabi chirlab kezdi har yona,
“Voy Tohir!” deb xanjar urdi u jona,
Yor yo‘linda jonin qurbon ayladi.

Mudom yig‘lab, o‘zin o‘limga chog‘lab,
So‘ng jonga qasd qildi o‘zin pichoqlab,
Shahid bo‘ldi yor qabrini quchoqlab,
Ikkovin bir yerda pinhon ayladi.

Zo‘r karvonboshiman, Mahjudir otim,
Oshiqlar maqsadi — mening murodim,
Tohir tiriklikda: “Mening hayotim —
Mohimni ko‘rsam”, deb armon ayladi.

Karvonboshi so‘zini tamomlab, shunday dedi:

— Ey Mohimjon, Tohirbek otli bir yigit bor edi, otasi vaziri a’zam edi. Bu Tohir Boboxon podshohning qizi Zuhrajonga oshiq bo‘ldi. Zuhrajon husni chiroyda olam-jahonlarga barobar edi. Tohir Bag‘doddan borib, Zuhrajonga qovushib, birga kezib yurgan vaqti,

chug‘ul kimsalarning biri Boboxonga borib yomonlabdi. Boboxon Tohirni o‘ldirishga buyruq berdi. Zuhra ham Tohirning qabrining tepasida yuragiga xanjar urib, “Tohir!” deb jon berdi. Xaloyiq bu xil g‘avg‘oni ko‘rib: “Oshiqlar bo‘lmas ekan, biz ham shaharlarda turmasmiz, shohdan zulm kelsa biz ham, viloyat ham xarob bo‘lamiz!” deyishib, har kim har yonga bosh olib qochdi. Bizlar ham shu taraflarga kelishimiz, — dedi.

Mohim qiz bu xabarni eshitib, dod-faryod qilib, bir so‘z aytdi:

Yurakda bor yuz ming dardim,
Men nechuk darmon aylayin!
Tangri ishiga tan berdim,
Armon — yuz armon aylayin!

Men ham to‘karman qonimni,
Topolmaslar nishonimni,
Yor uchun shirin jonimni,
Mardudi jahon[1] aylayin!

Yetishdi ajal lashkari,
Men naylayin siym-u zari,
Siynamga urib xanjari,
Qora bag‘rim qon aylayin!

Borsam yorim yotgan yera,
Siynamga solurman yara,
Qo‘shilib Zuhra, Tohira,
Men ham cho‘x davron aylayin!

Yor eshitsin fig‘onimni,
Tark etay xonumonimni,
Aziz tan, shirin jonimni
Yorimga ehson aylayin!

[1] **Mardudi jahon** — dunyo tomonidan rad qilingan, quvilgan.

Mohim aytar, ishq qo‘linda,
Sayrayurman yor gulinda,
Men ham oshiqlar yo‘linda
Boshimni qurbon aylayin.

Mohim bu so‘zini tamom qilib, qo‘liga xanjar olib o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Ammo shu vaqt Shahrijon uning qo‘lini tutib, Odilshohga xabar yuborib: “Mohim qiz o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘layotir, tezda chora ko‘ringlar!” deb chopar yubordi. Bu xabar shohga yetdi. Odilshoh kelib:

— Ey qizim! Maqsadingga yetarsan, o‘zingni halok qilma, uch kun sabr qil, lashkar yig‘ib ketamiz! — dedi.

Mohim noiloj bo‘lib, ta’ammul qildi. Shoh:

— Qayerda lashkar bo‘lsa, to‘plansin! — deb farmon berdi. Uch kun ichida shu qadar ko‘p lashkar jam bo‘ldiki, hisobga olinganining soni to‘qson ikki mingga yetdi va baqqol-u bazzozlar bilan birga yuz ming lashkarlik qo‘shin tayyor bo‘ldi. So‘ng sipohsolor Odilahadjon lashkarboshi kelib, shohga bosh egib salom berdi va:

— Shoho! Sarvaro! Ilohi davlat humoyuningiz fuqarolar boshidan ko‘tarilmasin! Tojdorligingiz barqaror bo‘lsin! Bu kamina xizmatkoringizga ne amringiz bor? — dedi.

Shoh:

— Ertaga yurish tabli[1]ni urib, lashkarni kunchiqar tomonga ravona qilarsan, — dedi.

Sipohsolor bosh egib, izzat-ikrom bildirdi va lashkarni yo‘lga soldi. So‘ng podshoh Mohimjonning yoniga kelib, birgalikda lashkarlarning izidan ketdilar. Oz fursatda Jurjon shahriga yetdilar. Shahri Jurjonning voliysini Karamxon der edilar. Uning qirq ming lashkari bor edi. Qo‘shin sardori Mo‘ysafid bilan Qamarulzamon edi. Karamxon ularning birini o‘ng qo‘l vazir, birisini chap qo‘l vazir qilib:

— Odilshoh Shahri Jurjonga kelibdir. Bunchalik lashkar nima uchundir? — deb Mo‘ysafid sardorni xabar olmoqqa yubordi. Mo‘ysafid sardor Odilshohning xabarini Karamxonga yetkazdi. Karamxon dedi:

---

[1] **Tabla, tabl** — dovul, baraban.

— U oshiqlarning qonini so‘rab borayotgan bo‘lsa, sen ham lashkaringni boshlab ket!

Mo‘ysafid sardor Odilshohga:

— Men ham Tohir bilan ota-o‘g‘il tutingan edim. Ruxsat bersangiz, men ham o‘ttiz ming lashkar qo‘shinim bilan sizlarga qo‘shilay, — dedi.

Odilshoh xushvaqt bo‘lib bu xabarni qabul qildi. Mo‘ysafid sardor lashkarini to‘plab, bir abyot o‘qidi:

Tohirim qatl bo‘lmish Tatar elinda,
Yuring, beklar, savashmoqqa ketamiz!
Men ham o‘lsam deyman uning yo‘linda,
Yuring, beklar, savashmoqqa ketamiz!

Yuz ming lashkarim bor, mardlarning mardi,
Sahroning falangi, tog‘larning gurdi[1],
Mening qiyomatlik u o‘g‘lim edi,
Yuring, beklar, savashmoqqa ketamiz!

Og‘zi qon gurdlarga farmon qilarman,
Boboxon boshiga ko‘p ish solarman,
Ota-o‘g‘il, ona-qizni ayrarman,
Turing, beklar, savashmoqqa ketamiz!

Qahr etib, g‘animdan qonlar to‘karman,
Mulkin xarob aylab, shahrin yiqarman,
Boboxonni tutib, dorga chekarman,
Yuring, beklar, savashmoqqa ketamiz!

Oshiqlarga sitam qilmish Boboxon,
“Tohirim!” deb, yig‘lab o‘lmish Zuhrajon!
O‘ldirmasam menda qolar cho‘x armon,
Turing, beklar, savashmoqqa ketamiz!

Boboxon o‘g‘limni tortibdi dora,
Yig‘lab-yig‘lab Zuhra bo‘lmish bechora,

[1]**Gurdi** — bo‘risi.

Shul sababdan bag‘rim bo‘ldi sadpora,
Yuring, beklar, savashmoqqa ketamiz!

Mo‘ysafid der, agar jon bo‘lsa tanda,
Qiyomat nomusin qo‘ymasman unda,
Izlayman, topaman qochsa shu banda,
Yuring, beklar, savashmoqqa ketamiz!

Mo‘ysafid sardor shu so‘zlarini aytib, Odilshoh bilan qo‘shilib yo‘lga ravona bo‘ldi. Bular o‘n to‘qqiz kun deganda Tatar shahriga yetib, Zuhra qiz bog‘ining tashini qurshab oldilar. Mohim qiz kanizlari bilan Zuhraning ko‘shkiga chiqib, jihozlarini tushirib, sozlab, ta’mizlab[1], shunda manzil tutdi. Qoravullar borib:

— Ey Boboxon! O‘lim senga muborak bo‘lsin! Bir lashkar kelibdir, mo‘r-malaxcha[2] son bor, bu lashkarda son yo‘q! — dedilar.

Boboxon: “Kelganlar elmi yo yog‘iymi? Bilib kel!” deb, vazirini yubordi. Vazir kelib, Odilshohning dargohida uch marta tuproq o‘pib:

— Shoho! Janobi oliyga arzim shuki, meni Boboxon yubordi. “Nima xizmat bor va nima farmoni bo‘lsa, menga izhor etsinlar, zahmat chekib, bu shaharga muborak yuzlarini ko‘rsatibdilar”, — deb aytib yubordi, — dedi.

Odilshoh:

— Ey vazir! Bilgin va ogoh bo‘lginki, mening Tohir ismli tutingan o‘g‘lim bor edi, u bundan uch oy avval Tatar yurtiga kelib, ma’shuqasi — Zuhra qizga qovushib edi, ammo Tohirni Boboxon o‘ldiribdir, — dedi.

Shunda Mo‘ysafid sardor ham:

— Yo Tohirning qonini bersin, yo‘qsa bir soat ichida kunpayakun qilaman, — dedi.

Vazir bu xabarni Boboxonga yetkazdi. Boboxon:

— Kishining ustiga bexabar kelmaslar. Menga uch kun muhlat bersin, — dedi va uch kundan keyin lashkari bilan urush maydoniga chiqdi. Ikki tarafdan urush tablalari qoqildi. Mo‘ysafid sardor

---

[1] **Ta’mizlamoq** — yaxshilash, tuzuk ko‘rinishga keltirish.

[2] **Mo‘r-malax** — chumolilar va hasharotlar.

lashkarlariga nizom berib turar edi. Boboxon ham saf chekib turardi. Shu payt Odilshoh: "Urush boshlanglar!" deb buyruq berdi. Sog'-u so'l qo'shinlari harakatga keldi. Ikki lashkar bir-biriga qotishdi. Otlarning to'zonidan osmon yerga, yer osmonga tutildi. Polvonlar och gurd (bo'ri)lar yanglig' bir-birini qiyratardi. Shu ravishda uch kun urush bo'ldi: Mo'ysafid sardor Boboxonning tug'ini nazarlab borib, bir qilich urdi — tug'ni tug'dori bilan ag'darib tashladi.

Boboxonning lashkari tug'ining sarnigun bo'lganini[1] ko'rib, qochmoqqa yuz urdi. Boboxon buyruq berib, askarlarni safga qaytarmoqchi bo'ldi. Shu payt Mo'ysafid sardor yetib kelib, Boboxonning ustiga kamand (to'r) tashlab, uni ot ustidan zo'r bilan yerga ag'dardi va sudrab ravona bo'ldi.

Ul soat hazrati Iso alayhissalom va hazrati Xizr alayhissalom ikkisi Zuhra bilan Tohirning mozoriga qarab:

— Ey ko'shaklarim![2] Bugun sizlarning to'y-tomoshalaringizdir, turinglar!" — deb g'oyib bo'ldilar.

Oshiqlarning jasadiga jon kelganlaridan so'ng ular jangni kuzatib turdilar. Shu payt Mo'ysafid sardor kamandlangan Boboxonni Odilshoh huzuriga olib keldi. Odilshoh:

— Bu falokatni oshiqlarning yoniga olib boringlar. Ular otasining gunohini kechadimi-kechmaydimi, o'zlari biladilar. Bo'lmasa, uni qatl qilamiz! — dedi.

Mo'ysafid sardor Boboxonning kallasiga qamchilab, sudrab, Zuhrajonning yoniga olib bordi. Boboxon Zuhrajonga yolvorib, bir so'z dedi:

Qoyilman Tangri ishiga,
Keldim, Zuhrajonim, senga!
Shum falakning gardishiga,
Keldim, Zuhrajonim senga!

G'aribman, bag'rim poradir,
Siynamda yuz ming yaradir,

---

[1] **Sarnigun bo'lmoq** — boshi past, oyog'i baland bo'lmoq.

[2] **Ko'shak** — tuyaning emadigan bo'tasi. Bu yerda erkalash ma'nosida ishlatilgan.

Arzim ko‘p, yuzim qoradir,
Keldim, Zuhrajonim, senga!

Oshiqlarga sitam qildim,
Humoy baxtim yerga soldim,
Gunohkorman, endi bildim,
Keldim, Zuhrajonim, senga!

Bohir o‘g‘li vazirzoda,
Qahr etdim, oqdi daryoda,
Sen o‘ldir, berma jalloda,
Keldim, Zuhrajonim, senga!

Mo‘ysafid degan bir sardor,
Men bo‘lmisham anga duchor,
Qildi jonim tandan bezor,
Keldim, Zuhrajonim, senga!

Tig‘i qotillar belinda,
Jallodlari sog‘-so‘linda,
Qo‘yma Mo‘ysafid qo‘linda,
Keldim, Zuhrajonim, senga!

Boboxon der, sho‘rlik shohman,
Bugun oldingda gadoman,
Toj-u taxtimdan judoman,
Keldim, Zuhrajonim, senga!

Boboxon so‘zini tamom qildi.

Zuhrajon otasidan ko‘rgan jabr-u jafosini yodiga tushirib, otasiga qarab shu so‘zlarni aytdi:

Shohligingda necha ishlar boshlading,
Ne kun solding oshiqlarning boshiga,
Yorni mendan ayro qilib tashlading,
Rahm etmading ko‘zdan oqqan yoshiga!

Yurtning shohi eding, men — shohning qizi,
Yolg‘iz farzand edim, netding sen bizi?
Yaratgan — qozidir, haqladi o‘zi,
Seni ravo ko‘rdi sangsor[1] toshiga.

Ko‘zda yoshim misli daryo aylading,
Osiy bo‘lding o‘zing, gumro aylading,
Qayda qayg‘u bo‘lsa, hamro aylading,
Shum Qorabotirning ko‘ngil hushiga.

Meni xo‘rlab, raqiblarga yor bo‘lding,
Oshiqlar qoniga sababkor bo‘lding,
Bugun yovuz dardga giriftor bo‘lding,
Qoyil qolgin Egam solgan ishiga.

Bu kun olim bo‘lding, ul kun past erding,
Endi o‘tga tushding, avval xas erding,
Yuzin ko‘rmoq bo‘lmas senday nomardning,
Ko‘zin kovlab, temir qoqing tishiga.

Zuhra aytar, shoh eshitsin bu so‘zim,
Bu sababdan za’farondir gul yuzim,
Tandan boshin oling, ko‘rmasin ko‘zim,
Borib elting Odilshohning qoshiga!

Alqissa, Zuhra so‘zini tamom qildi. Mo‘ysafid sardor Boboxonni yana Odilshohning oldiga eltib:

— Ey shohim! Zuhrajon buni o‘limga buyurdi, — dedi.

Odilshoh jallodga amr etdi. Boboxonni o‘ldirmoqchi bo‘ldilar. Boboxon tuproq o‘pib:

— Ey Odilshohim! Sizga bir arzim bor: Zuhrajon arzimni qabul qilmadi, endi Tohirbekka arz qilib ko‘rayin! — dedi.

Odilshoh ruxsat berdi. Boboxon Tohirbek yoniga borib, arz etib, zor-zor yig‘lab, uning ruhi pokiga bir so‘z deb turgani:

---

[1] **Sangsor** — tosh nomi. Aqlsiz, ahmoq odamga ham “sangsor” deyishadi.

Tohir, qo‘zim, eshit, senga arzim bor,
Bandiman, boshimni ozod aylagin,
Boshing oldim — boshim bermoq qarzim bor,
O‘tgin gunohimni, ozod aylagin.

Mard o‘g‘lisan, marddan bo‘lgan mardona,
Qasos uchun to‘lg‘onmagin har yona,
Teng bo‘lmagin mening kabi nodona,
Bandiman, boshimni ozod aylagin.

Oshiqlarga harchand bo‘lsam gunohkor,
Yomonlik qilganga yaxshilik darkor,
O‘tgin gunohimni, o‘ldirtma zinhor,
Kel, o‘g‘lim, sen meni ozod aylagin.

Bo‘ynimda band bo‘lmish malomat toshi,
Yoqdi meni oshiqlarning ko‘z yoshi,
Shunday bo‘ldi shum falakning gardishi,
O‘tgin gunohimni, ozod aylagin!

Zuhra o‘tgan kunni oldi yodiga,
Meni yoqdi ul sitamning o‘tiga,
Ravo ko‘rma meni ajal bodiga,
Kel, o‘g‘lim, sen meni ozod aylagin!

Zuhrajonim moyil ermish bu qona,
Jallod xanjarini chekib har yona,
Bir lahzada talon solar bu jona,
Sen mening boshimni ozod aylagin!

Oyog‘ingga boshin qo‘yib Boboxon,
Qoshingda arz etar yig‘labon chandon,
Tavba qildim o‘tgan ishga, Tohirjon,
Kel, o‘g‘lim, sen meni ozod aylagin!

Boboxon bu so‘zini tamom qilib, Tohirning oyog‘iga boshini qo‘yib ko‘p yig‘ladi. Buning nolishiga Tohirning rahmi kelib, Boboxonning boshini tuproqdan ko‘tarib, bir abyot aytdi:

Shoh, boshingni ko‘tar yerdan,
Yur, Zuhrajonga ketali!
Zulfi sunbul, to‘ni zardan,
Zar-zarafshona ketali!

Sen sababli zahmat chekkan,
Tohirim deb bag‘rin yoqqan,
Ko‘zindan qonli yosh to‘kkan,
Ul chashmi giryona ketali!

Oq yuziga zulfin to‘kkan,
Jayron kabi o‘ynab boqqan,
Zor yig‘labon ko‘shkka chiqqan,
Ul bag‘ri qona ketali!

Ushbu yolg‘on dunyo foniy,
Hech kimsa ko‘rmas vafoni,
Surmoqqa zavq-u safoni,
Yur, Zuhrajona ketali!

Xazon urib guldek so‘lgan,
Yonib-pishib kabob bo‘lgan,
Ishq xanjarin jona solgan,
Yur, Zuhrajona ketali!

Yora qurbon bu shirin jon,
Sen ko‘p chekma oh-u fig‘on,
Tohir aytar, ey Boboxon,
Yur, Zuhrajon ketali!

Alqissa, Tohirbek bu so‘zini tamom etdi va Boboxonni Zuhra qizning yoniga olib bordi. Tohir:

— Ey Zuhrajon! Kel, otangning gunohidan o‘t! — dedi.

Unda Zuhrajon:

— Sen o‘tsang, men ham o‘tarman, — dedi.

Boboxonning gunohidan o‘tdilar. Undan so‘ng Odilshoh Mohimjonni ham Tohirga nikohladi. Oshiqlar murod-maqsadlariga

yetdilar. Odilshoh Boboxonni yana o‘z yurtiga sulton etib, o‘zi Bag‘dodga qaytar bo‘ldi. Mohim:

— Ey qiblagohim, men bu viloyatda qolar bo‘ldim. Bu Allohning ishidir, — deb bir abyot aytdi:

Ketar bo‘lsang o‘z yurtingga,
Rozi bo‘lib qaytgin, bobo,
Tabdil yo‘q Tangrim dardiga,
Sog‘-salomat qaytgin, bobo.

Men qolaman Tohir bila,
Xushvaqt bo‘ling kula-kula.
Ahli Bag‘dod, ulus-ela,
Bizdan salom ayting, bobo.

Tohirsiz menga yo‘q rohat,
Ayroliqqa qil qanoat,
Omon borgaysiz salomat,
Alloh yoring bo‘lsin, bobo!

Bizni yozmish mavlom Qodir
Bosh panohim erur Tohir,
Biz tarafdan bo‘lmang dilgir,
Xushnud bo‘lib qayting, bobo!

Eshiting oh-u zorimiz,
Siz erursiz g‘amxo‘rimiz,
Bag‘doddagi do‘st-yorimiz,
Rozi bo‘lsin, ayting, bobo.

Qismat bo‘ldi Mohimjona,
Sayr etar Bog‘i maydona,
Mehribon onajonima
Bizdan salom ayting, bobo.

Alqissa, Mohimjon so‘zini tamom qildi. Odilshoh tuyalarga bir dunyo mol yuklab, o‘z viloyatiga ravona bo‘ldi.

Zuhrajon, Mohimjon, Tohirjon murod-maqsadlariga yetdilar.

Lug‘at

Adno — tuban, eng past, pastkash, arzimagan, ozgina.

Axzar — ko‘m-ko‘k, yashil.

Buxil — o‘tmoq, kechmoq.

Vabol — 1. Ayb, gunoh, uvol. 2. Og‘irlik, qiyinchilik.

Vobasta — bog‘liq, bir-biriga bog‘liq; aloqador.

Dahan — og‘iz.

Dodxoh — adolat talab qiluvchi, adolat istovchi; arz-dodga keluvchi.

Dom — 1. Tuzoq. 2. Turli (uy va yovvoyi) hayvonlar.

Dorul-amon — tinchlik uyi, omonlik uyi, tinch va osoyishta joy.

Dorul-fano — foniylik uyi, bu dunyo, o‘tkinchi dunyo.

Dorul-baqo — boqiylik, abadiylik uyi, u dunyo.

Davomat — muntazam, hamisha.

Zanax, zanaxdon — 1. Baqbaqa, saqoq. 2. *maj.* Lof urmoq.

Zabon — til.

Markab — ulov, miniladigan hayvon (ot, xachir, tuya, eshak kabi).

Mojaro — 1. Ikki o‘rtada voqi bo‘lgan ahvol, janjal. 2. Jarayon etgan, oqqan.

Mor — ilon.

Mohi munavvar — to‘lin oy, shu’lali oy.

Mohi tobon — to‘lin oy, osoyishta joy.

Mahvash — oyga o‘xshagan, oyday go‘zal; juda chiroyli.

Madhal — kirish, kirar joy.

Madh — maqtash, maqtov.

Mavzun — 1. O‘lchanadigan, qomatga yarasha bichilgan. 2. Tuzilishi kelishgan, chiroyli.

Musharraf — 1. Sharaflangan, sharaf va izzat topgan. 2. Biror yaxshilikka erishgan.

Novak — 1. Kamonning o‘qi. 2. *maj.* Kiprik.

Otashi so‘zan — yondiruvchi, yoquvchi o‘t.

Rizvon — 1. Rozilik, mamnuniyat. 2. *maj.* Jannat.

Salosil — zanjir.

Sarafroz — 1. Yuksak, yuksalgan, hammadan ustun, ulug‘vor. 2. Xursand, quvnoq.

Tabla — otlar turadigan og‘ilxona, otxona.

Tarroh — 1. Naqsh soluvchi, naqqosh, binolarni bezovchi. 2. Arxitektor.

Toy — 1. Toychoq. 2. (Turkman tilida) teng, barobar ma’nolarida ham qo‘llaniladi.

Ustixon — so‘ngak, suyak.

Fuzun — ortiq, ziyoda, ko‘p.

Xirqa — shayx va darveshlarning maxsus ust kiyimi, janda.

Xirqapo‘sh — 1. Xirqa kiygan. 2. *maj.* Darvesh.

Chashmi xunxor — qonxo‘r ko‘z.

Chobuk — 1. Chaqqon, tez, ildam. 2. O‘ynoqi, sho‘x.

Choh — chuqur; quduq.

Shikor — ov.

Shitob — oshiqish, shoshilish, sur’at.

Yakson — bir xil, baravar, teng.

Qabo — erkaklarning uzun ust kiyimi.

Qahrabo — qimmatbaho tosh.

Qoshi asvat — qora qosh.

MUNDARIJA

Ishq mulkining sultoni *(Olim To'rayev)* 3

She'rlar

Olim To'rayev tarjimalari

Istabki go'zal yorni 6
Jon o'rtanur 8
Ko'zlaring 9
Go'zalim 10
Zori bilan 12
Yoy endi 13
Nozli yor 14
Yor, uyg'onmading 15
Baxmalning cheti 17
Ul ilon 18
Firog'ingdan 19
Ketdim 21
Shohidir 22
Qurboniman 23
Tishlaringga 25
Yor bir yona, biz bir yona 26
Qiz-juvon aytishuvi 27
Hayrona qolar 29
Gulistonima 30
Dilbar-o 31
Dilbarim 33
Mullanafas 35
Bitgan qiz 37
Chiqa bilmadim 38
Xumorli 40
Hech ko'rmadim ellarda 41

Orzu qildim 43
Yodimga tushdi 45
Yorga yetsa 46
Beri kel 47
Ko‘rmadim 49
Bir go‘zal 51
Kichkina 52
Chiqar 54
Mardlarning mardonidir 55
Nor kezgin 57
Bedov 58
Yor, sanga 59
Piyola 60
Orzu aylar 61
Ko‘zing bilan 63
Go‘zal 65
Kunidir 67
Ko‘nglim 68
Qaysidir? 70
Bu jonim mening 71
Boqmagay 73
Sarbasar 74

Zuhra va Tohir *(doston). Muzaffar Ahmad tarjimasi* 76
Lug‘at 251



MULLANAFAS

93-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimonlar:
Olim To'rayev, Muzaffar Ahmad

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 16,0. Nashriyot-hisob tabog'i 11,20.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 159-1/22. Buyurtma raqami № 22-376

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

M 85 Mullanafas [Matn]: nasr va nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Bahodir Karim. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 256 b.
ISBN 978-9943-8721-0-3

UO‘K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MULLANAFAS

